O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT TO’QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

X.X. Kamilova, U.A. Vaxidova

KOMPOZITSIYA ASOSLARI

Darslik

5150900 - Dizayn (kostyum)

5320900 - Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi

5111000 - Kasb ta’limi (5320900 - Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi)

Toshkent 2020

X.X. Kamilova, U.A. Vaxidova. Kompozitsiya asoslari.

Mazkur darslik 5150900 – Dizayn (kostyum), 5320900 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi, 5111000 – Kasb ta'limi (5320900 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi) ta'lim yonalishlari bo'yicha tahsil olayotgan 2 bosqich bakalavrlar uchun mo'ljallanadi. Darslik kompozitsiya kategoriyalari, qonuniyatlari va kompozitsiyani uyg'unlashtirish vositalari bilan tanishtiradi. Kostyum kompozitsiyasi asoslari, zamonaviy uslubiy yechimlar, kompozisiya elementlari va liboslar to'plamiga birlashtirish qonuniyatlari yoritilgan. Barcha yangi tushunchalar va kompozitsion usullar kompozitsiya asoslari nazariyasining sinovdan o'tgan o'qitish metodikasiga asoslangan amaliy topshiriqlar tizimi yordamida o'rgatiladi.

Ushbu darslik kostyumni loyihalash elementlari mavjud bo'lgan barcha kurslar uchun tavsiya etilgan bo'lib, liboslarni yaratish bilan qiziquvchi keng doiradagi o'quvchilarga foydali bo'lish mumkin.

Taqrizchilar:

Borodina M.R. – TAQI "Landshaft dizayni va interyeri" kafedrasi professori, O'zbekiston Badiiy Akademiyasi akademigi

Raxmatullayeva U.S. – TTYeSI "Kostyum dizayni" kafedrasi dotsenti, f.f.n.

MUQADDIMA

Mamlakatimizda ilm-fanni yanada rivojlantirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma’naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish uchun faqat ilm-ma’rifat, jadal islohot va innovatsiyalar yordamida erishish mumkin. [1] Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalash maqsadida ta’limning barcha bo‘g‘inlari isloh qilinyapti. Hozirgi kunda oliy ta’lim standartlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, fan o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish hamda zamonaviy darslik va adabiyotlarni yaratish dolzarb hisoblanadi.

Zamonaviy dizayn bor e’tiborini hozirgi kun kishisining moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondira oladigan madaniy namunalarni shakllantirishga, yangidan yangi buyumlar yaratishga qaratgan. Dizayn loyihalash madaniyat sifatida har qanday moddiy ishlab chiqarish va intellektual faoliyatni qamrab oladi. Zamonaviy kostyum dizayni yaratish jarayonida muhim o‘rinni, albatta, kompozitsiya egallaydi.

Tashqi ko‘rinishda ichki uyg‘unlikni akslantirishga xizmat qiluvchi kompozitsiya tashkiliy tushuncha hisoblanib, u qismlarni birlashtirib, ulardan bir butunlik, yaxlitlik paydo qiladi. Kompozitsiya ustida ishlash – dizaynerning faqat o‘zigagina xos bo‘lgan obrazli tafakkur jarayoni, muayyan badiiy asarda amalga oshirgan g‘oyalari demakdir. Ushbu faoliyat mutaxassisdan mehnatsevarlik, boy vizual tajribaga asoslangan qobiliyat hamda ichki intuitsiya talab etadi. Shu bilan bir qatorda, muayyan qonun-qoidalardan iborat bilim hamda ifodali vositalar va usullar orqali tasvirlashga asoslangan kompozitsiya asoslari yetarli darajada jiddiy fan hisoblanadi. Bundan xulosa qilish mumkinki, kompozitsiya ustida ishlash jarayoni bu intuitiv va mantiqiy asosning bir bo‘lib ketishidir.

San’atda kompozitsiya tushunchasi ortida badiiy asarning tuzilishi (strukturasi), uning asosiy elementlari va qismlarining muayyan bir tizim va

ketma-ketlikda joylashtirish tushuniladi. Ya’ni, kompozitsiya – mazmun bilan ifodalangan badiiy asar shaklining bir va yaxlitligidir. Kompozitsiya bir-biri bilan bog‘liq ikki holatda: badiiy ijodning jonli jarayoni, ya’ni loyiha vazifasini hal qilishda hamda uni amalga oshirishda namoyon bo‘ladi.

Kompozitsiya asoslari kursi dizayn sohasi mutaxassislari tayyorlashda sun’iy tizimlarni badiiy-kompozitsion shakllantirish qonun va tamoyillarini, shu jumladan kostyumni ham professional tarzda chuqur tushunish uchun universal asos bo‘lib xizmat qiladi. Kompozitsion mahorat – har qanday san’at turida rassom va dizaynerning ijodiy professionalligi asosi sanaladi.

"Kompozitsiya asoslari" fani tikuv sanoatining bo‘lajak mutaxassislari faoliyatining barcha asoslarini belgilovchi asosiy maxsus fandir. Ushbu kursning maqsadi talabalarni dizaynda shaklning tarkibiy tuzilmasini tashkil etishning asosiy qonunlari bilan tanishtirish, tekislik va hajmiy-fazoviy shakllar bilan ishlash bo‘yicha kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, ularda loyihalanayotgan mahsulot badiiy ifodasini yaratishda me’yor hissini paydo etish va individual ijodiy imkoniyatlarni rivojlantirishdan iborat.

Kursning asosiy vazifasi – talabalarda dizaynerlik obyektlarini loyihalashda kompozitsiya qonuniyatlaridan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanishni, bundan tashqari kostyumni loyihalashda o‘zlaridagi nazariy bilimlarni professional ijodkorlik yo‘nalishiga aylantirish iqtidorini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Fanni o‘qitish tajribasi shuni ko‘rsatdiki, o‘quv jarayoning boshida talabalar tomonidan o‘zlashtiriladigan mashg‘ulotlar qatorida ("Qalamtasvir", "Rangtasvir", "Loyihalash" kabi) ushbu kurs fundamental hisoblanadi. Darslik bilan tanishish nafaqat kompozitsion mahoratning asosiy tamoyillari va qonunlari haqidagi tasavvurni kengaytirishga, balki, avvalo, talabani muvaffaqiyatli ta’lim va keyingi ijodiy faoliyat uchun yo‘llanma sifatida mustaqil va doimiy bilimga ega bo‘lishga undashi kerak.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tikuv sanoati mahsulotlarining raqobatbardoshligi masalasi tobora keskinlashib bormoqda, buni esa yuqori sifat

hamda xaridorga o‘z vaqtida taklif etish bilangina hal qilsa bo‘ladi. Kiyimning tashqi ko‘rinishi va estetik xususiyatlari ushbu tushunchaning eng muhim tarkibiy qismlaridan bo‘lib, u nafaqat dizaynerning model ustida ishlash jarayonida, balki konstruktor va texnologning ishi davomida ham shakllanadi. Ular ham o‘z navbatida yuqori did, me’yor va mutanosiblilikni his etish qobiliyatiga, shuningdek, kompozitsiya sohasida chuqur professional bilimga ega bo‘lishlari zarur.

Kiyim-kechak dizayni sohasi mutaxassislari oldida nafaqat kostyumni foydalilik va qulaylilik nuqtai nazaridan yaratish, balki kostyumni ijodkor tasavvuri, g‘oyasi va muallifning o‘ziga xosligini mujassamlashtirgan, badiiy ifodalagan shakl sifatida tushunish kabi mashaqqatli vazifalar turibdi. Ushbu darslik doirasida taqdim etilayotgan nazariy materiallar va amaliy mashqlar ushbu vazifani hayotga tatbiq etishga yordam beradi.

O‘zaro uyg‘un asarlarni yaratish uchun ijodiy faoliyat, birinchi navbatda, uyg‘unlik qonuniyatlari va vositalarini bilishni talab qiladi. Ushbu darslik sizni shunga doir qonuniyatlar va kompozitsiyani uyg‘unlashtirish vositalari, ularning turlari va har bir turning xossalari bilan tanishtiradi. Barcha yangi tushunchalar, qonuniyatlar, kompozitsion usullar kompozitsiya asoslari nazariyasining ma’qullangan ta’lim uslubiyatidan kelib chiqib tayyorlangan mashqlar tizimi orqali o‘rgatiladi. Mashqlarning ko‘pchiligida misol sifatida talabalar ishlaridan foydalanilgan bo‘lib, ulardan taqlid ma’nosida emas, balki ijodiy izlanishlarda ilhom va rag‘bat omili sifatida foydalanasiz, deb o‘ylaymiz. Tavsiya etilgan mashqlarni bajarib, bilimingizni chuqurlashtirasiz va mustaqil ijod uchun zarur ko‘nikmalarni shakllantirib borasiz.

I BOB

KOMPOZITSIYA MOHIYATI VA KOMPOZITSIYA TURLARI

1.1. KOMPOZITSIYA MOHIYATI VA TA`RIFI

San'at insondan o'z qonunlariga muvofiq ish ko'rishni talab etadi. Tabiat qonunlari – kompozitsiya qonunlaridir. Musavvir o'sha qonuniyatlarga ongli yoki intuitiv ravishda ergashadi. Ammo na ilm-fansiz iste'dod va yoki na iste'dodsiz ilm-fan barkamol musavvir yaratishga qodir emas.

Vitruviy

Kostyum – dizayner ijodiy faoliyatining o'ziga xos obyekti hisoblanadi. Kiyim yaratilar ekan, nafaqat funksionalligiga, balki uning chiroy, uyg'unlik, butun qismlarining o'zaro mutanosibligi kabi estetik xususiyatlariga ham ahamiyat berish lozim. Go'zal libos o'ziga xos kompozitsiyaga ega, ya'ni uning barcha unsurlari, qismlari va detallari bir-biriga muvofiq uyg'unlashtirilgan bo'ladi.

Kostyumning barcha unsurlari kompozitsiya obyektlaridir. Kostyum – buyumning inson bilan chambarchas bog'liq muhitning ajralmas qismi bo'lib, turmush tarzidagi o'zgarishlarni ifoda etadi.

Kostyum (ital. costume – rasm-rusum, urf-odat) – bu yaxlit g'oya va mazmun bilan biriktirilgan, egasining ijtimoiy kelib chiqishi, millati, yashash joyi (mintaqasi), jinsi, yoshi va kasbini ifoda etadigan elementlarning muayyan tizimidir. Kostyum maishiy an'analar bilan chambarchas bog'liq, ma'lum mintaqaning urf-odatlarini, aniq tarixiy davrni, xalq yoki etnosning ijtimoiy holatini, ma'lum shaxsning qiyofasini, uning o'ziga xosligini ifoda etadi. Kostyumning asosiy funksiyalariga himoya, utilitar va belgi vazifalari kiradi. Kostyum atrofdagi kishilar bilan munosabat shakllantirishga ko'maklashadi, ya'ni u o'z egasi to'g'risida, ya'ni uning ijtimoiy kelib chiqishidan, siyosatga munosabati, estetik didi, qaysi dinga mansubligi, madaniyati va shu kabilardan so'zlaydi.

Libos dizayneri o‘z professional faoliyati davomida kiyimni loyihalashga doir bir qator vazifalarni bajaradi. Shulardan biri – bu uning kostyumni o‘ziga xos ifoda, mazmun, uyg‘unlik, muallifning individualligini tashuvchi badiiy tizim sifatida qabul qilishidir. Ushbu tizimni yaratish qonun-qoidalarini kompozitsiya o‘rganadi.

«Kompozitsiya» lotin tilidagi *«compositio»* so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, tuzish, birlashtirish, bog‘liqlik ma’nosini beradi. Zamonaviy tushuncha sifatida *kompozitsiya* – badiiy shaklni barcha unsurlarni bir butunga, yaxlit tizimga birlashtirish nuqtai nazaridan qurishni anglatadi.

Kostyum kompozitsiyasi – muallifning muayyan g‘oyasini ifodalash yo‘lida kostyumning barcha qismlarini umumiy yaxlitlikka birlashtiruvchi tashkiliy asos hisoblanadi.

Kostyum kompozitsiyasi doim uning funksional vazifalariga taalluqli bo‘ladi. Kostyum kompozitsiyasi ustida ishlarkan, libos dizayneri muayyan badiiy shaklda o‘z g‘oyalarini ifodalash uchun variantlar topadi, jonli yechimlarga ijodiy yondashib, ongli ravishda ulardan eng yaxshisini tanlaydi.

Shu tufayli, kompozitsiyani emotsional, intuitiv, ijodiy va ongli ravishda puxta o‘ylangan tanlov natijasi deb hisoblaydilar.

Ibtidoiy rassomlar kompozitsiya nimaligini bilmaganlar. O‘zlarining qoyaga o‘yilgan rasmlarida ham, xuddi ov sahnalarida bo‘lgani kabi, tasvir motivlarini ov marosimi qonunlari bo‘yicha birin-ketin yoki yuqori va pastdan joylashtirganlar. Vaqt o‘tib, qadimgi dunyo musavvirlari tasvir kompozitsiyasi qurilishining ba’zi bir qonuniyatlarini sezib qoldilar. Ularning tasavvurlari tabiat yaxlitligi kaliti bo‘lmish simmetriya g‘oyasiga borib taqaladi. Kun va tunning almashishi, yil fasllari, o‘simlik va hayvonot dunyosining rivojlanish xususiyatlari umumiy qonuniyatlarni vaqt va makondagi davriylik sifatida ko‘rsatadi. Yunon musavvir va me’morlari ibodatxona va relyef me’morchiligida ritmik ketma-ketlikdan foydalana boshlaydilar. Taniqli san’atshunos M.V. Alpatov o‘zining «Rangtasvir kompozitsiyasi» monografiyasida «Inson organik va noorganik tabiat

tuzilmalarining alohida tamoyillariga taqlid qilib va ularni asta-sekin rivojlantirib borarkan, kompozitsiyani badiiy ijodning asosiga, voqyelikka o‘z munosabatini ifoda etish vositasiga aylantiradi» deya ta’kidlaydi.

O‘rta asrlarga kelib ritmik takrorlar yordamida ornomental yechimga asoslangan murakkab, o‘ta chigal plastik tuzimli kompozitsiya paydo bo‘ldi.

Erta Uyg‘onish davrida Jotto va Mazachcho mahobatli freskalarida kompozitsion vazifalar hal qilinib, vaznlarning ritmik birligi ko‘rsatildi. Buyuk Uyg‘onish davri musavvirlari inson ko‘rish qobiliyati xususiyatlarini hisobga olib, o‘z asarlarida vizual idrok qonunlarini qo‘llashni boshladilar. Leonardo da Vinchi ko‘z narsalar tabiati voqyelikda qanday bo‘lsa, shunday qabul qiladi deb hisoblagan va shu bois uni «qalb oynasi» deb ataydi. Shu paytda tekislik gorizontal ravishda shakllantirilib, unda hajmiy-fazoviy tasvir ufq chizig‘i bo‘ylab joylashtiriladi.

Shunday qilib, surat yuzasi kompozitsiyasi asosiga perspektiva qonunlari kiritiladi. Oqibatda, Uyg‘onish davri rassomlari makonning turli plandagi illyuziyalarni tasvirlashga muvaffaq bo‘ldilar. Shu bilan birga kompozitsiya tarkibiy qismlari strukturaviy bog‘liqlik va yaxlitlik xossasiga ega bo‘ldi, bundan tashqari ular dinamikani kompozitsiyada uzatishga alohida e’tibor qaratdilar.

XVIII – XIX asrlarda kompozitsiyaning nazariy asoslariga yetarlicha e’tibor qaratildi. Misol uchun, E. Delakrua o‘z «Kundaligi» da taniqli musavvirlar asarlarini tahlil qilarkan, rangtasvir ishlanmalarining afzallik va nuqsonlarini ta’kidlab o‘tadi. U ikkinchi darajali qismlarning bosh bo‘lakka bo‘ysunishini muhim tamoyil sifatida ta’kidlaydi.

XX asrga kelib badiiy ijodda kompozitsiyaning barcha nazariy qonuniyatlari qo‘llab bo‘lingandi. Musavvirlar va kompozitsiya nazariyotchilari kompozitsiya asoslari nazariyasi bilan shug‘ullanishar ekan, quyidagi asosiy qonuniyatlarni belgiladilar: kontrastlilik, gorizontal, vertikal va diagonal, simmetriya va asimmetriya, muvozanat, ritm, statika va dinamika, yaxlitlik, «kompozitsion markaz» va tasvirlash uslubi. Mashhur rassom A. Deyneka o‘zining «Chizishni o‘rganing»

kitobida simmetriya, muvozanat, «oltin kesim», tartib, ansambldagi uslubning birligi va boshqa kompozitsiya qoidalari haqida so‘z yuritdi. Ularga yana perspektiva qonunlari ham (illuzorli, to‘g‘riburchakli, ortogonal va havoli) qo‘shilgan.

Shunday qilib, kompozitsiyaning nazariy qonuniyatlari XX asrda turli nuqtai nazardan – rassomlar, me’morlar, san’at nazariyotchilari tomonidan teran o‘rganildi.

Kompozitsiya – badiiy asar shaklining barcha elementlarini, mazkur asarning obrazli g’oyaviy - badiiy mazmunini ifoda etuvchi uzviy bir butunlikka birlashtirish.

Kiyimda kompozitsiya deganda kiyim shaklining barcha elementlarini, uning mazmunini ifoda etadigan birlikni barpo etish vositalari yordamida tuzib chiqish. Amaliy san’at buyumlari, xususan, kiyim-kechak mazmun va shakl birligini ifodalaydi. Shu bilan birga kiyim bichimi uning mazmuniga bog‘liqdir. Kiyim mazmuni uning vazifasini, ya’ni kimga va nima uchun mo‘ljallanganligini belgilaydi.

Kiyim shakli kompozitsiyasi uning mazmunini ochishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Kiyimlarni modellashtirish – kiyim modelini yaratishning umumiy jarayoni bo‘lib, ushbu jarayonning muhim qismi libosning badiiy yechimi, ya’ni kompozitsiyasi hisoblanadi. Kostyumning ifodalilik darajasi uning umumiy kompozitsiyasi muvaffaqiyatli hal qilinishiga bog‘liq. Agar kesim va shakllar bir-biriga mos kelmasa, kostyumning umumiy nisbati topilmasa, kerakli o‘ringa urg‘u qo‘yilmasa, kompozitsion markaz ajratilmasa, unda hech qanday zeb-ziynat va bezaklar kostyumni uyg‘unlashtirishga qodir emas.

Kompozitsiya nazariyasi kuzatilayotgan hodisalar o‘rtasidagi eng muhim aloqa va munosabatlarni aks ettiruvchi kategotiyalarga asoslangan. Kostyum kompozitsiyasida bunday kategoriyalar sifatida tektonika va hajmiy-fazoviy tuzilish aytiladi.

Kompozitsiya quyidagi tushunchalarni o‘z ichiga oladi:

- kompozitsiya kategoriyalari (kostyum tektonikasi va hajmiy-fazoviy tuzilish - shakl);

- kompozitsion shakllantirish (fazoviy shakl xususiyatlari);

- kompozitsiya qonuniyatlari (mutanosiblik, bo’ysunish, kompozitsion markaz), ya’ni strukturaning yaxlitligi;

- kompozitsion vositalar (nisbat va ritm);

- kompozitsiyani uyg‘unlashtirish usullari (kontrast, nyuans, o‘xshashlik, ko‘lam, keng ko’lamlik, simmetriya, asimmetriya, statika va dinamika).

Yuqorida aytilganlaridan ma'lum bo‘ladiki, har qanday mahsulot kompozitsiyasi ustida ishlash musavvirdan o‘ziga xos ijodiy fikrlashni, muayyan buyumda aks etishi mumkin bo‘lgan g‘oya va tasavvurlarni talab etadi. Bunday faoliyat mutaxassisning iste’dodli va ichki intuitsiyasi rivojlangan bo‘lishini nazarda tutadi.

Boshqa tomondan olib qaraganda, kompozitsiya juda jiddiy fan hisoblanadi. U belgilangan qonun-qoidalardan xabardorlik va modelyerga ijodiy muammolarni hal qilishda zarur hisoblangan ifoda vositalari va uslublaridan foydalanishga tayanadi.

Shunday qilib, ijodning kompozitsiya ustida ishlash jarayoni intuitiv va mantiqiy asoslarning uzviy birligini ifoda etadi. Aynan mana shu narsa XX asrda yashagan fransuz dizayneri va me'mori Le Korbyuzyega kompozitsiyani intuitiv ijod va ongli tanlov mahsuli sifatida belgilashga asos yaratdi

1.2 Kompozitsiya turlari

Shakl tuzilishining xususiyatlariga qarab kompozitsiyani uchta asosiy turga bo‘lish mumkin: frontal, hajmiy va fazoviy kompozitsiya. Ushbu taqsimot qaysidir ma’noda shartlidir, chunki amaliyotda turli kompozitsiyalar kombinatsiyasi bilan ishlashimizga to‘g‘ri keladi. Masalan, frontal va hajmiy kompozitsiyalar fazoviy

kompozitsiyalar tarkibiga kiritilgan; hajmiy kompozitsiya ko‘p holatlarda yopiq frontal yuzalardan hosil qilinadi, shu bilan birga, ayni paytda fazoviy muhitning ajralmas qismi ham hisoblanadi.

Frontal kompozitsiyada tasvir tuzilishi bir yuzada ikki koordinata (kenglik va balandlik) bo‘yicha amalga oshiriladi. Tomoshabinga nisbatan ikki yo‘nalishda: vertikal va gorizontal bo‘yicha shakl unsurlarining bir tekis taqsimlanishi frontal kompozitsiyagagina xos bo‘lgan xususiyatdir. Masalan, bunga grafika, rangtasvir, binolar fasadi, ko‘rgazmali tashviqot stendlari, matolar, gilamlar va shu kabilar kiradi.

Agar badiiy asar bitta tekislikda yaratilgan bo‘lsa, gap *frontal* kompozitsiya haqida ketayotgan bo‘ladi. Ushbu turga rangtasvir polotnolari, vitrajlar, gobelenlar, grafik tasvirlar, kompyuter grafikasi, fotosuratlar, plakatlar, veb-sahifalar, reklama tarqatma varaqalari kiradi.

1-rasm. Kombinatorika usulida tuzilgan frontal kompozitsiya

Tekislikdagi kompozitsiyaga mato, gilam, gulqog‘oz, turfa xil donabay buyumlar, dasturxonlar, ro‘mol va shu kabi boshqa mahsulotlarni badiiy dizaynini yaratish kiradi. To‘qimachilik sanoati mahsulotlari assortimentida ayollar, erkaklar va bolalar kostyumlari ansambliga kiruvchi turli maqsadlarda ishlatiladigan donabay buyumlarning katta guruhi jam bo‘lgan. Ular orasida dastro‘mol, bosh va bo‘yinga tashlaydigan ro‘mollar, sholro‘mollar, sharflar, bo‘yinbog‘ va

to‘qimachilik nishonlari mavjud. Ushbu guruh mahsulotlarining naqshlari (rasmlari) monokompozitsiya tamoyiliga asoslanadi, ya’ni naqsh motivi ma'lum bir o‘lcham va shakldagi yopiq yuzada shakllantiriladi hamda umumiy qonuniyatlarga bo‘ysunadi. (2-rasm)

2-rasm. O‘zbek ipak ro‘mollari. 1940-50-yillar.

Eng frontal kompozitsiyada kenglik chuqurligi perspektivali qisqartmalar, nur va soya yechimlari, rangdor dog‘lar bilan ifodalanishi mumkin, ammo asar bir nuqtadan, old tomondan ko‘zdan kechirilaveradi.

Yuza kompozitsiyasi unsurlarining majmui tekis sirtni hosil qilishi yoki *relyef* yaratishi mumkin (yon tomondan ko‘rinishni talab qilmaydigan yuzaki bo‘rtma tasvir). Relyef nur va soya tufayli asarning shakli va kompozitsion tuzilishini aniqlash imkonini beradi.

Frontal kompozitsiyalar mualliflar tomonidan mustaqil ish sifatida yaratiladi. Shu yo‘l bilan atrof-muhit ta’siri va uning ayrim vositalari inkor qilinadi. Asarlarning mustaqilligi uni bo‘shliqdan ajratib tashlash muammosini hal etuvchi ramka, hoshiya, chiziq va shu kabi boshqa kompozitsion usullar orqali bor bo‘yi bilan namoyon etiladi, kompozitsiya tutashtiriladi. Yuza va hajm o‘rtasidagi o‘tish holati bo‘rtma-frontal kompozitsiyaga ishora qiladi (3-rasm).

Yaqqol unsurlar va relyef chuqurligining oshishi kompozitsiyani bo‘rtmaga yaqinlashtiradi.

3-rasm B.Girshovich. Berezin bosmaxonasining fasad qismi.
1905-1906 yillar.

Hajmli kompozitsiya - turli kuzatuv nuqtalaridan idrok qilish hisobga olingan uch o‘lchamli yopiq shakl. Agar kompozitsiyani shakllantirishda, yuzada ikki yo‘nalish bilan birga uchinchi yo‘nalish – chuqurlik ham mavjud bo‘lsa, *hajmli shakl* yaratiladi. Uch o‘lchov (uzunlik, kenglik va balandlik), ya’ni, hajmni umumiy tavsiflovchi va badiiy muammolarni hal qiluvchi xususiyatlarga ega bo‘lgan asarlarni bo‘rtma kompozitsiyaga kiritish mumkin. Kompozitsiya qurishning ushbu tamoyili haykaltaroshlikda, kichik me’moriy shakllar, dekorativ va amaliy san’at obyektlarida, kostyum (libos, bosh kiyim, poyabzal), maishiy yoki sanoat buyumlari dizaynini ishlash jarayonida, avtomobillar, upakovkalar, uch o‘lchamli reklama obyektlari va boshqalarni ishlab chiqarishda qo‘llaniladi. (4-rasm) Kostyum elementlarining (kiyim, oyoq kiyim, bosh kiyim va b.) badiiy yechimi aynan hajmli kompozitsiya yordamida hal etiladi. (5-rasm)

4-rasm. Fazoviy elementlar qo‘shilgan hajmli kompozitsiya

5-rasm. Kostyumning hajmli kompozitsiyasi

Hajmli kompozitsiya o‘zida nisbatan yopiq yuzaga ega bo‘lgan va har tomondan idrok qilinadigan shaklni ifoda etadi. Hajmli kompozitsiyalarning ifodaliligi hamda tushunarliligi elementlarining o‘zaro aloqasi va joylashuviga, kuzatuv nuqtasidan yuza shaklini hosil qiluvchi lavhalarga bog‘liq. Hajmli shaklning ifodaliligi yana gorizontning balandligiga ham bog‘liq. Past gorizont hajmli shaklni idrok etish jarayonida uning mahobatliligi hissini paydo etadi. Kuzatuvchi predmetga yaqinlashishi bilan uning qirralarini perspektiv qisqarishi ortadi. Namuna o‘rnida dastgohlar, mashinalar, maishiy anjom va boshqalarni keltirish mumkin. Hajmli kompozitsiya doim atrof-muhit bilan o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. Atrof-muhitning o‘zgarishi bitta kompozitsiyaning ifodaliligini oshirishi yoki kamaytirishi mumkin.

Hajmli kompozitsiya uch o‘lchamli hisoblanadi. Uni har tomondan tomosha qilish mumkin. Atrofi qanchalik ochiq bo‘lsa, uning umumiy ko‘rinishi, plastik konfiguratsiyasi shunchalik aniq-ravshan namoyon bo‘ladi. Kompozitsiyaning umumiy shakli ichki maydon bilan o‘zaro bog‘liq. Agar shakl yaxlit yoki elementlari orasidagi ichki bo‘shliq minimal bo‘lsa, u mahobatli, tig‘iz ko‘rinadi. Shaklni tashkil etuvchi unsurlar orasidagi bo‘shliqlar yoki masofalar oshganda, u yanada ochiqroq, dinamikroq bo‘ladi.

Fazoviy kompozitsiya – bo‘shliq chuqurligiga ko‘chib o‘tishda idrok qilish uchun mo‘ljallangan shakllar va unsurlarning o‘zaro nisbati. Fazoviy kompozitsiyada obyektlar joylashtirilgan maydonning o‘lchamlari ustunlik qiladi. Shunga qaramay, bunday kompozitsiyaning har bir unsuri, hatto eng maydasi ham juda muhim hisoblanadi. Fazoviy kompozitsiyada ishlash – bu landshaftlar, interyer, teatr sahnasi, ko‘rgazma pavilyonlari va stendlarni loyihalash demakdir.

Fazo ikki yo‘l bilan tashkil etilishi mumkin:

- obyektlar ichida (yopiq maydon). Bunday fazoviy kompozitsiyaga misol sifatida uylar bilan o‘rab olingan shahar maydonlari arxitekturasini, muzey zallari, interyerlar dizaynini keltirish mumkin;

- obyektlar atrofida (ochiq maydon). Misol uchun, o‘z atrofida cheksiz bo‘shliqni «tutib turgan» Misr piramidalari keltirish mumkin.

Makonni shakllantiruvchi hajmlar va hajmlarni yuzaga keltiruvchi materiallar – fazoviy kompozitsiyani yaratuvchi asosiy tarkibiy qismlardir. **Fazoviy kompozitsiya** moddiy elementlardan, hajmlardan, sirtlardan va bo‘shliqdan, shuningdek ular orasidagi intervallardan iborat. Kompozitsiyaga bo‘shliqlarni ketma-ket rejalar qatoriga ajratadigan unsurlar kiritilganda chuqurlik hissi kuchayadi. Masalan, ko‘chalar, maydonlar, mikrorayonlar va boshqalarni yaratishda chuqur-fazoviy kompozitsiya ishlatiladi. Chuqur-fazoviy kompozitsiya musavvir ijodiy imkoniyatlarining eng yuqori nuqtasi hisoblanadi. Bu kuzatuvchiga nafaqat tekisliklar, hajmlar birligi bilan, balki ular orasidagi pauzalar, ya’ni bo‘shliq bilan ham ta’sir ko‘rsatadi.

Kostyum yaratish – o‘z kompozitsiyasiga ega plastik san’at turi hisoblanadi. San’at asari sifatida kostyum turfa xil kompozitsiyalarni birlashtiradi. Mato naqshlari – tekislik kompozitsiyasi, ushbu matodan tayyorlangan kostyum elementlari esa katta hajmli kompozitsiyadir. Kostyumning alohida qismlari (poyabzal, bosh kiyim, sumka, qo‘lqop) o‘rtasidagi munosabatlar chuqur-fazoviy kompozitsiyaning namunasidir.

Agar kostyumni dizayner ijodining yakuniy natijasi deb hisoblasak, o‘sha badiiy tuzilishning usuli va qonuni uning kompozitsiyasidir. Kompozitsiyasiz kostyum tugallangan san’at asari sifatida qabul qilinmaydi. Kompozitsiyani kostyum shaklini tuzish vositasi sifatida anglamay turib, uni san’at asari sifatida baholash, ayniqsa libos loyihasi bilan shug‘ullanish mumkin emas.

Italiyalik dizayner E.Sotsass dizayner ijodiy qobiliyatining yaxlitlashtirish xususiyatini o‘z ta’rifida quyidagicha izohlaydi: “Dizayner – bu zo‘r musavvir, faylasuf, hunarmanddir”. Dizayner faylasuf bo‘lishi kerak, chunki u inson didi va tashqi ko‘rinishini, sezgisi, turmush uslubini loyihalaydi. Dizayner bevosita buyumni loyihalaydi, vosita esa – shaxsni va jamoani. Demak, dizaynning haqiqiy

maqsadi – shaxsni, uning qiyofasini, turmush tarzini loyihalashdir. Shuning uchun loyihaning asosi shaxs siymosi va jamoaning konsepsiyasi bo‘lishi lozim.

Kostyumning kompozitsion qurilishidan maqsad – kostyum elementlarini taqsimlash orqali uning vazifasini imkon qadar yaxshiroq ifodalash, shu bilan birga mazmunli va uyg‘un badiiy shakl yaratish. Kostyum shaklini uyg‘unlashtirib borarkan, dizayner uning mazmuni va qiymatini oshiradi. Kompozitsiya bir paytning o‘zida ham mazmun kategoriyasi (mazmunni ifodalagani uchun), ham shakl kategoriyasi (shaklni uyg‘unlashtirgani uchun) hisoblanadi. Shakl va mazmun dizayner faoliyatining yakuniy natijasi sifatida kostyumda uzviy ravishda birlashadilar.

II BOB

KOMPOZITSIYA KATEGORIYALARI

2.1. Kostyum tektonikasi

Kompozitsiya nazariyasi umumiy va muhim aloqalar hamda ko‘rib chiqilayotgan hodisalar o‘rtasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi kategoriyalarga asoslanadi. Kostyum kompozitsiyasidagi bunday kategoriyalarga tektonika va hajmiy-fazoviy tuzilish (shakl) kiradi.

Kompozitsiyani idrok etishda har qanday obyektning badiiy jihatdan aniqlangan konstruktiv qurilishi, ya’ni **arxitektonika** yoki **tektonika**[3] alohida o‘rinni egallaydi. Ushbu so‘zning kelib chiqishi yunon tiliga borib taqaladi va so‘zma-so‘z «binokorlik san’ati» degan ma’noni anglatadi. Biroq, hozirgi kunga kelib keng ma’noda qo‘llanilib, texnika, arxitektura va san’atning barcha predmetlariga, shuningdek, tabiiy obyektlarga ham tatbiq etilmoqda.

Tektonika kompozitsiyaning eng muhim kategoriyasi, asosiy omilidir. Tektonikaning badiiy loyihalashdagi qiymati uning obyekt shakli barcha qismlari bilan muvofiq kelishi va ularni biriktirish usullari, ushbu buyum ishlangan materiallar xususiyatlari hamda uning tuzulishi bilan muvofiqligini aniqlaydi.

Tektonika – bu buyum shaklida material va konstruksiyani ishlashini aks ettirilishi. (6-rasm) Shakl estetik ifodasining bir vositasi hisoblangan tektonika obyektning moddiy-konstruktiv asosi va uni ishlab chiqarish texnologiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu munosabatlar turli darajalarda namoyon bo‘lishi mumkin. Ba’zan nazariy asos hukmron va belgilovchi kompozitsion yechimga aylanadi. Bir so‘z bilan aytganda, tektonika – bu konstruksiya va material ishining badiiy majoziy-plastik ifodasidir.

---

[3]“Tektonika” atamasi 1844 yilda Karl Bettixer tomonidan kiritilgan. U атамani quyidagicha ta’riflайди: “Tektonika tushunchasi ortida tor ma’noda ma’naviy va jismoniy hayot ehtiyojidan paydo bo’lgan me’morchilik va hunarmandchilik sohasidagi faoliyat tushuniladi… u ushbu jarayonni, ya’ni shakllantirishnini badiiy asar sifatigacha olib chiqadi.

Ko‘rib chiqilayotgan istalgan obyekt tektonikligining asosiy mezoni – bu yuqorida sanab o‘tilgan xususiyatlarning o‘zaro bog‘liqligi nechog‘lik buyumning funksional vazifasiga mos kelishi va ulardan foydalanish qulayligini ta’minlashiga borib taqaladi.



6-rasm. Kostyum tektonikasi tuzilishi

Kostyum tektonikasi barcha tarkibiy elementlarning, ya’ni asosiy va ikkinchi darjali elementlarning ritmik tuzilishida, nisbatlarda, munosabatlarda, ranglar yechimida va, albatta, kostyum tayyorlangan materiallarning tabiiy xususiyatlariga chambarchas bog‘liq bo‘lgan shakl plastikasida namoyon bo‘ladi.

Tektonik shakl – bu buyum shaklida material, konstruksiya ishi va mahsulotni ishlab chiqarish texnologiyasining ifoda nuqtai nazaridan badiiy jihatdan ongli namoyon bo‘lishidir. Material yoki materiallar to’plami, bundan tashqari mahsulot konstruksiyasi va ishlab chiqarish texnologiyasi uni ko‘rsatib berishda asos sifatida xizmat qiladi. Rassom ataylab material xususiyatlarini, konstruksiyaning xarakterini va mahsulotni ishlab chiqarish texnologiyasi xossalarini saralaydi, alohida ta’kidlab ko‘rsatadi. Bularning barchasini umumiy g‘oyaga, ya’ni badiiy va kompozitsion mazmunga bo‘ysunadi.

Kostyum tektonikasi, avvalam bor, inson qomati tektonikasi bilan bog‘liq. Kostyumning turfa xil shakllari bo‘lishiga qaramay, u qobiqdir – u yoki bu darajada qomatga moslashishiga, uning tuzilish mantig‘iga mos kelishiga to‘g‘ri

keladi. Shunday qilib, libos «kostyum-tana» tizimi yaxlit hajmiy-fazoviy tuzilish sifatida ishlaganidagina mazmunga ega bo‘ladi.

Inson qaddi-qomati o‘z holicha tektonik hisoblanadi, ya’ni u o‘zining konstruktiv asosi bo‘lmish va o‘ziga xos funksiyalar, operatsiyalar bajarishni ta’minlaydigan tayanch-harakat tizimiga ega. Proporsional tuzilishdagi inson tanasini go‘zallik va uyg‘unlik namunasi sifatida qabul qilamiz.

7-rasm. Inson qaddi-qomatining tektonikligi.

Bunday qaddi qomat harakatsiz holatda ham va turli amallarni bajarish chog‘ida ham chiroyli ko‘rinadi. Tana arxitektonikasini nazarda tutib yaratilgan liboslar ham go‘zal bo‘lishi shubhasiz.

Tektoniklik asosan kostyumni yaratishda foydalaniladigan materiallar tektonikasiga bog‘liq. Mato tektonikasi deb uning plastik xususiyatlari, tabiiy xossalari tushuniladi. Dizayner uni inson qaddi-qomati va o‘zining badiiy g‘oyasiga asosan to‘g‘ri qo‘llagan bo‘lsa, kostyumning shakli yaqqol tektonik, konstruksiyasi aniq va ratsional, kompozitsiyasi uyg‘un bo‘ladi.

Matolar, trikotaj polotnolar, noto‘qima, plyonkali va kostyum tayyorlanadigan boshqa xil materiallar shakl tabiatini aniqlash (mayinlik, oquvchanlik, haykalga oidlik, qattiqlik, dag‘allik, quruqlik va boshqalar), ularning plastik va shakllantirish xususiyatlarga ega. Loyihalovchi mutaxassis shakl yaratish uchun material (mato) tanlarkan, birinchi navbatda materialning zichligi, massasi, elastikligi, kengligi, rangini hisobga oladi.

Kostyum uchun ishlatiladigan barcha materiallarni plastik va shakllantiruvchi xususiyatlariga qarab, 4 turga bo‘linishi mumkin:

1. Yengil harir materiallar (shifon, organza, setka) – ular yengil, mayin, to‘kiluvchan bo‘ladi. Yupqa shaffof matolardan tayyorlangan mahsulotlarning choklari kam bo‘lishi kerak, mayin, keng matolar murakkab, shakli turfa xil kiyim namunalari yaratish imkonini beradi.

8-rasm. Yengil harir materiallardan shakl hosil qilsh

2. Yaltiroq polotnolar (trikotin, masla, atlas) oquvchan, harakatchan, plastikligi hamda drapirovkalarni yaratish qobiliyati bilan ajralib turadi. Bunday matolardan tayyorlangan kiyimlar yumshoq plastik shaklda, moslashuvchan, dinamik yechimli, shaklning egri chiziqli xususiyatiga ega. To‘kilib turadigan (krep-satin, krep-atlas va boshqalar) matolar yaxshi drapirovkalanish xususiyatiga ega bo‘lib, yetarlicha hajmdor me’yorli mahsulot yaratishga yordam beradi, ayniqsa, shu’lalalanish hisobiga qomat bo‘ylab plastik sirpanishga e’tiborni qaratadi.

3. Quruq materiallar (kostyumbop gazlamalar, paltolik matolar, drap, jun, zig‘ir, jinsi matosi) – ushbu qattiq materiallar o‘zining chidamliligi, dag‘alligi va qalinligi bilan boshqa matolardan ajralib turadi. Bu matolar yumshoq, qayishqoq burmalar va drapirovkalardan mahrum aniq «me’moriy» shakllar uchun tavsiya etiladi hamda aniq, sipo shakllarga mo‘ljallanadi.

4. Trikotaj polotnolari cho‘ziluvchanligi hisobiga harakatni cheklamaydigan yumshoq shakllarga kira oladi, ammo trikotajni texnologik xususiyatlari buyumda kam chokli bo’lishiga majbur qiladi.

Aniq bir geometrik ko‘rinishni yaratishda turli xil materiallar ichida o‘zining plastik xususiyatlari bilan ushbu shaklning barqarorligini ta’minlaydigani tanlanadi.

9-rasm. Tektonikaning materiallar va konstruksiyaga bog‘liqligi

Kostyumning tektonik yechimida mahsulot konstruksiyasi ahamiyati yuqori hisoblanadi. Axir, tikuv ustalarining toza va sifatli ishlaridan tashqari, aniq konstruksiya ishi ham bo‘lishi kerak, chunki u shakl yaratishning eng muhim estetik tamoyillaridan birini o‘z ichiga oladi.

Estetik ifoda nuqtai nazaridan shaklning o‘zgarmas afzalliklaridan biri – mahsulotlarning tektonik aniqligi, ya’ni ishlatilgan materiallar va konstruksiyalarga xos bo‘lgan eng muhim va xarakterli xususiyatlarini namoyon etishdir. Materialning barcha imkoniyatlari, uning texnologik xususiyatlari bilan bog‘liq tashqi sifatlarini mukammal bilishi rassomning kompozitsion ishlarda butun imkoniyatlari palitrasidan, mahsulotning tashqi xarakteristikasida namoyon bo‘lgan barcha xossalari: massasi, fakturasi, plastikasi, rangi va konstruktiv yechim xususiyatlaridan keng va erkin foydalanishida yordam beradi.

Kompozitsion yechim bilan bog‘liq qilish uchun atay tanlangan materialning xususiyatlari, shuningdek, kerakli texnologiya bir xil ishlatiladigan materiallarga qaramay ishlab chiqarishda (kiyim detallariga qisman qotirma qo’yilishi: yoqa, cho’ntak qopqoqlari va boshqalar) turli xil, ba`zan kontrastli yechimlarni yaratish imkonini beradi. Ikki turli texnologiya natijasida bitta materialning turfa xil ifodalangan imkoniyatlari yaratiladi.

Boshqa badiiy ifoda vositalari bilan taqqoslaganda tektonikaning o‘ziga xosligi, unga ilmiy-texnik va innovatsion texnologiyalar rivoji hamda yutuqlari katta ta’sir ko‘rsatadi. Uning ilm-fan, texnika, iqtisodiyot bilan yaqin aloqasi, yangi materiallarni qo‘llash, texnologiyalarni takomillashtirish va yangilarini yaratish, amaliy, ijodiy inson faoliyati tajribasini to‘plash, loyihalashda ilmiy usullarni qo‘llash – bularning barchasi ilgari o‘rnatilgan tektonik tizimlar haqidagi g‘oyalarni o‘zgartiradi va yangilaydi.

Yangi matoga mos yangi shakl, yangi konstruksiya topish kerak. Har qanday soxtalik, notabiiylik materialning tektonik mohiyatini buzadi. Rassomning materialga nisbatan estetik mezonlari, uning xossalarini ifodalash usuli haqqoniy bo‘lishi kerak. Agar materialga o‘ziga xos bo‘lmagan sifat tiqishtirilsa, unda bu muvaffaqiyat emas, estetik zo‘ravonlik sifatida qabul qilinadi. Bu borada yaponlarning shunday gapi bor: «Musavvirning vazifasi – materialga o‘z g‘oyasini kuch bilan singdirish emas, balki materialni tilga kiritib, o‘sha jonlangan mato yordamida o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etishdir».

Tabiat ijodkorligi bizga shakllarning yuzaga kelishida tektonik mantiqdan ko‘rgazmali sabog‘lar beradi, kishini hayratlantiradigan, maftun qilib undan ko‘chirishga, o‘rganishga ilhomlantiradigan tabiiy shakllarning bu qadar ma’qulligi, ifodali ekanining siri ham aynan shunda. Asrlar mobaynida jilolangan tabiat materiallardan oqilona, iqtisod qilib foydalanishning turli xil yo‘llarini ko‘rsatadi va shu asosda bitmas-tuganmas miqdorda shakl va konstruksiyaning variatsiyalarini keltiradi. Ushbu shakllar va ularning tektonik ifodalarini o‘rganish texnik «o‘zlashtirma» hamda kostyum dizaynida qo‘llash uchun boy manba beradi.

Muayyan materialda ifodalangan mahsulot va shakl konstruksiyasining o‘zaro bog‘liqligi muhim bo‘lib, u kompozitsion usuldan tortib, kompozitsiya vositalaridan foydalanib shakl tabiatini aniqlashga qadar har qanday mahsulotning tarkibini va uning ustida ishlashni belgilaydi. Shuningdek, har bir mahsulotning shakli oddiy, murakkab usulda, barcha unsurlarning o‘zaro va fazoda hajmiy-fazoviy struktura sifatida aniq o‘zaro ta’siri nuqtai nazaridan ham ko‘rib chiqiladi. Buyumlar hajmi va ichki bo‘shliqlarini joylashtirish, o‘zaro bog‘lashning ko‘plab variantlari mutanosib qurilishi asosini tashkil etadi va hajmiy-fazoviy tuzilmalarning xilma-xilligini belgilaydi. Tektoniklik bilan bir qatorda hajmiy-fazoviy strukturaning barcha unsurlarining bog‘lanish tizimi chinakam uyg‘unlikni anglash uchun juda muhimdir. Kompozitsiyaning har ikkala toifasi ham bir-biri bilan chambarchas bog‘liq.

Tektonikaning buzilishi – konstruktiv asos ishining xato aks ettirish bo‘lib, hajmiy-fazoviy struktura elementlarining organik bog‘lanishiga albatta ta’sir qiladi, shuningdek, noto‘g‘ri hajmiy-fazoviy yechim tektonik xarakterdagi xatolarga olib keladi. Kostyum ishining murakkablik darajasidan qat’iy nazar, uning barcha tarkibiy elementlari bog‘lanish tizimi va ularning vazifasi xarakteri, ya’ni tektonika zamonaviy kiyimlarni yaratishda asosiy maqsad bo‘lgan chinakam uyg‘unlikka erishish uchun juda muhimdir.

2.2. Kompozitsion shakllantirish

Moddiy olamning barcha obyektlari, shu jumladan, kostyum ham shaklga ega. Shaklni nafaqat obyektning «tashqi ko‘rinishi», balki uning konfiguratsiyasi, chegaralari sifatida qabul qilamiz, shuningdek, u buyum tabiatini, atrofidagi maydon bilan aloqasini aks ettiradi.

Shakl (*lotin. forma* – tashqi ko‘rinish) – materialning mazmunan qayta yaratilishi natijasida kelib chiqadigan buyumning morfologik va hajmiy-fazoviy strukturaviy tuzilishi, ya’ni har qanday moddiy obyektning hajmiy-fazoviy xususiyatlaridir.

Kostyum fazodagi chegaralari uning shakli bilan belgilanadigan hajmiy-fazoviy tuzilishdir. Kostyum shakli – bu uning ichki mazmuni hamda kostyum vazifasini tashqi ko‘rinishi orqali ifodalash vositasidir.

Shakllantirish – badiiy faoliyat, dizayn va texnik ijod turi hisoblanib, umumiy o‘rnatilgan qadriyatlarga muvofiq shakl yaratish jarayonini ifodalaydi. Mahsulotni shakllantirish jarayonida uning funksional, konstruktiv, fazoviy-plastik, texnologik tuzilmalari yaratiladi. Boshqa so‘z bilan aytganda, shakllantirish – ayrim predmetlarini tuzish (ajratish va qurish) ni anglatadi.

Kompozitsion shakllantirish – buyum elementlarini fazoviy tuzish jarayoni bo‘lib, uning vosita va usullari, insonni buyum bilan bog‘laydi.

Dizayn-shakl – predmetning maxsus tuzilishi bo‘lib, dizaynerning buyumning barcha tarkibiy qismlari (konstruksiyasi, tashqi ko‘rinishi, rangi, fakturasi) birligiga erishish faoliyati natijasida yuzaga keladi. Dizayn-shakl iste’mol talablari va shartlariga, ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda zamonning estetik talablariga javob beradi.

Shakl va shakllantirish masalasi dizaynerning professional faoliyatini belgilab beradi. Libosning estetik qiyofasi sifatida namoyon bo‘luvchi kostyum shakli xarakteri yaxlit va qismlar holida muhim xususiyat hisoblanib, u bilan loyihalash ishlari boshlanadi. Agar shakl san’atda faqat ifoda vositasi sifatidagina harakat qilsa, kostyum shakli bifunksional yukni ko‘taradi. Shunday qilib, kostyum shakli estetik va utilitar vazifalarni bajaradi. Shakl qachonki insonning go‘zallik va uyg‘unlik istagiga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirsa, dizaynerning g‘oyaviy ishini ochib bera olsa, o‘shanda estetik jihatdan qimmatli sanaladi; estetik fazilatlar bilan bir qatorda kostyum shakli maqbullik talablariga ham javob berishi, ya’ni qulay va texnik jihatdan mukammal (ishlab chiqarishbop) bo‘lishi kerak.

Fazoviy shaklning xususiyatlari. Shakl kuzatuvchida u yoki bu hislarni qo‘zg‘atuvchi ob’yektiv fizik xususiyatlar majmuiga ega. Kostyum shaklining turli elementlari va ularning birikmasi, ko‘rish qobiliyatimiz va muayyan assotsiatsiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari tufayli turlicha qabul qilinadi.

Ko‘proq kostyum o‘zining emotsional tomoni bilan ta’sir o‘tkazadi. Avvalam bor kiyimning umumiy shakli qabul qilinadi, keyin rang va shaklning tarkibiy elementlari, nihoyat so‘nggida – qism va bo’laklar idrok etiladi. Ushbu holatda yuzaga keluvchi tuyg‘ularni buyum va libos shakllari, ularning rangi, tashqi ko’rinishi va boshqa sifatlari harakat va harakatsizlik, ko‘tarilish va tushish kabilar, ya’ni ularning fazodagi holatini tavsiflovchi jismlarning mexanik xususiyatlari haqidagi tasavvurlar bilan izohlanadi.

Turli chiziqlar hamda geometrik shakllarning odamga hissiy ta’sirini taqqoslasangiz, buni sezishingiz mumkin. 10-rasmda bir nechta geometrik chiziqlar ko‘rsatilgan. Agar ushbu chiziqlar tug‘dirgan hissiyotlar solishtirilsa, darhol ularning farqini his qilish mumkin: gorizontal chiziq – osoyishtalik, ufq; vertikal – yuqoriga intilish; egri chiziq – beqarorlik, tushish; siniq chiziq – o‘zgaruvchan harakat; to‘lqinli chiziq – bir xil harakat, burilish; spiral chiziq – aylanish.

10-rasm. Turli chiziqlar hissiyoti

11-rasmda taqqoslangan ikki uchburchakdan ko‘rinib turibdiki, o’tmas burchak shaklli birinchi uchburchakning asosi juda kattaligidan yuqoriga tikka yo‘nalgan ikkinchi uchburchak shakliga qaraganda butkul boshqacha taassurot uyg‘otadi.

12-rasmdagi uchta uchburchakni ko‘rib chiqamiz. Uchburchakning har bir shakli o‘zining turg‘unligi, muvozanati va dinamikasi bilan mutlaqo bir biriga o‘xshamasligi e’tiborni tortadi.

11- rasm. Ikki uchburchak hissiyoti

Biz qaysi shaklga nazar solmaylik, bir-biriga o‘xshamagan tashqi ko‘rinish turlicha qabul qilinishiga amin bo‘ladi. 12-rasmdagi shakllarga e’tibor qilinsa, har xil shakl turlicha emotsional hislar tug‘dirishiga amin bo’lishimiz mumkin.

12-rasm. Turli shaklar hissiyoti

Shunday qilib, to‘g‘riburchakli shakllar doimo turg‘unlik, ratsionallik va samaradorlikni anglatadi. Oval va doira yopiqlikni, osoyishta harakatni, mayinlik va yengillikni ifodalaydi. Kostyumning uchburchak shakllarida esa harakat, dinamika, yuzakilik, romantika his etiladi.

«So‘lg‘in chiziq», «tarang chiziq», «dinamik chiziq», «og‘ir shakl», «yengil shakl» kabi xalq orasida singib ketgan metaforalarga murojaat qilarkansiz, bunda

ham epitetlarning hissiy ta’sirga ega ekanligini ko‘rish mumkin. Bu insonning real dunyo oshkor xususiyatlari tuslariga, ohanglariga munosabati borligini ko‘rsatadi. Kostyum dizayni sohasida insonning hissiy-ifodaviy ijodi idrokka tayanadi. Kostyumda turli his-tuyg‘ularni, ifodani berish kompozitsiya yordamida ifodalanadi. Dizaynerning kostyum kompozitsiyasi ustida ishlashi, ijod qilishi jarayonidagi asosiy vazifalaridan biri – u tomonidan yaratilgan kiyim modellarining badiiy sifatlarini ifodalashga yordam beradigan kostyum shakli va o‘zaro nisbatlari hamda xususiyatlarini topib etkazishdir.

Fazoviy shakl xossalari – uning barcha ko‘rib idrok etiladigan alomatlarining majmuidir:

* shaklning geometrik ko‘rinishi (konfiguratsiyasi);

* shakl o‘lchami;

* shakl vazni;

* materiallarning rangi, naqshi va fakturasi.

Kostyum shaklining xossalari inson qomatiga qaysidir ma’noda konstruktiv tayanch sifatida tobe. Masalaning mushkul tomoni shundaki, inson qomati dinamik hajmiy-fazoviy tuzilishga ega, ya’ni u doimiy harakatda. Shu bois kostyumning yangi shakli yaratilarkan, yaxlit yoki ayrim bo‘laklari bilan harakatlanish imkoniyatini tasavvur etib ko‘rish kerak. Sababi insonning jismoniy harakatlanishi kostyum vizual transformatsiyasi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Geometrik ko‘rinish – bu fazoning uchta koordinatalari bo’ylab shakl o‘lchovlari qiymatining nisbati, shuningdek, shakl yuzasi hamda butun va alohida qismlarinig chegaralari xarakteri (konfiguratsiyasi) bo‘yicha aniqlanuvchi shakl xususiyatidir. (13-rasm)

Kiyim (kostyum) ga dastlab qaraganimizda, uning hajmdorlik darajasi, silueti xarakteri, konturlaridan ilk vizual taassurot uyg‘onadi.



13-rasm. Shaklning geometrik ko’rinishi

Shaklning hajmdorlik darajasi uning o‘lchamlari fazoviy uchta koordinatalar nisbati sifatida tavsiflanadi. Hajmdorlik darajasiga qarab, uch xil shakl ajratiladi:

- **chiziqli shakl** nisbatan kichik hajmdagi bir o‘lchov (uzunlik) ning boshqa ikkisi ustidan ustunligi bilan xarakterlanadi. Chiziqli xarakterdagi kostyum shakllari bir o‘lchovda juda cho‘zilgan bo‘ladi, cho‘ziq chiziqqa, tekis yoki egri chiziqqa o‘xshashib ketadi hamda eng kichik hajmbilan ifodalanadi;
- **tekislik xarakterida** shakllar ko‘pincha ikki o‘lchovda (uzunlik va kenglik) ifodalanadi. O‘lchov koordinatalaridan birida o‘lchamlarning keskin (yoki to‘liq) kichrayishi bilan belgilanadigan shakllar to‘rtburchak tekisligiga o‘xshaydi hamda hajm jihatidan chiziqli va hajmli shakllar orasida bo‘ladi;

• **hajmli shakl** uch o‘lchovning (uzunlik, kenglik va chuqurlik) nisbiy tengligi bilan tavsiflanadi. Kub, to‘p shakliga o‘xshagan shakllar eng katta hajmni ifodalaydi (14-rasm).



14-rasm. Shaklning hajmdorlik darajasi

Hajmli shakl – bu libos silueti namoyon bo‘ladigan chegara bo‘lib, u hajmdor shaklning tekislikdagi proektsiyasidir.

Siluet[4] (fr. *Sillouette*) – kiyimning uch o‘lchamli hajmli shakllarini tekislikdagi yassi ko‘rinishi. Ya`ni, siluet kiyim shaklining shartli sxematik tasvir shaklidagi tekislik ifodasidir. Bu konkret shakl haqida batafsil ma’lumot bermaydi, lekin uning eng muhim xususiyatlarini namoyon etadi. Siluet predmet shakli to‘g‘risida keng ma’lumot beruvchi xususiyatidir. Kostyumning shaklini tavsiflash uchun odatda frontal (old yoki orqa ko‘rinish) va profil (yon tomondan ko‘rinish) siluetlar hisobga olinadi.

[4] “Siluet” so’zi XVIII asrda Fransiya qiroli Lyudovik XV ning hukmronligi davrida moliya vaziri Etyen de Siluette (1709–1767 yy.) familiyasidan olingan. U o’ta qurumsoqligi bilan tanilgan. Uning yon tomonidan soya ko’rinishidagi karikaturasi chizilganidan so’ng bu so’z tarqalib ketgan. (15-rasm)

Siluetning ikki asosiy turi mavjud:

1. Haykalsimon siluet – inson tanasi shakllarini namoyon etadi va takrorlaydi, qomatning afzalliklarini ham, kamchiliklarini ham birdek ko‘rsatadi.

2. Dekorativ siluet – shaklning tabiiy qiyofasidan chekinib, uning tabiiy chiziqlarini niqoblaydi va yashiradi, tana proporsiyalari va shaklini visual o’zgartiradi va buzadi. Dekorativ siluet inson tanasiga xos bo‘lgan shakllardan e’tiborni chalg‘itishga urinadi. qochadi.



15-rasm. Etyen de Siluette karikaturasi

Moda taraqqiy etib borarkan, siluet ham muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki urf uchun muayyan vaqt kesimiga ma’lum shakllar, binobarin, kiyim siluetlari tegishli o‘rin tutadi. Mana shunda modani ifodalash vositasi sifatida siluetning qiymati namoyon bo‘ladi. Kiyim taraqqiyotining barcha davrida siluetlarning ko‘plab variantlari yaratildi, ammo shunga qaramay ularni bir necha asosiy turlarga (1-jadval) bo‘lish mumkin. Keling, ularni batafsil ko‘rib chiqaylik.

1-jadval



[illegible] nin[illegible] sos[illegible] ususi[illegible]i [illegible]ag[illegible]r:

- shaklning geometrik [illegible]n
- yopishganlik darajasi;
- bel chizig‘ining xolati.

Siluetni aniqroq ifodalash uchun geometrik shakllar bilan taqqoslanadi. Geometrik turga ko‘ra siluetlar quyidagicha farqlanadi:

- to‘g‘ri siluet – ya’ni, asosiy chiziqlari parallel bo‘lgan siluet. Geometrik turiga ko‘ra vertikal va gorizontal o‘lchamlarning nisbatiga qarab, to‘rtburchak yoki kvadratga yaqin. To‘g‘ri siluet liboslari barcha turdagi qomatga mos keladi, chunki ularning nuqsonlarini muvaffaqiyatli niqoblaydi. Bunday kiyimlarda bel chizig‘iga urg‘u berilmaydi hamda gorizontal o‘lchamlar qomatning barcha darajalarida taxminan bir xil bo‘ladi. To‘g‘ri siluet kiyimlari qat’iy, aniq belgilangan konturga, bundan tashqari ishlab chiqarilgan materialning plastik xususiyatlaridan kelib chiqib mayin, yumaloqsimon shaklga ega bo‘lishi mumkin;

16-rasm. To‘g‘ri siluet asosida kiyim shaklini o‘zgartirish

- trapetsiyasimon siluet – asosiy chiziqlari pastki qismdan ajralib turadigan siluet. Geometrik shaklga ko‘ra ushbu siluet trapetsiyaga mos keladi, unda yuqori asos – elka chizig‘idir, mahsulotning etak qismi esa pastki asos vazifasini bajaradi. Ushbu asoslarning kattaligi o‘rtasidagi farq qanchalik yuqori bo‘lsa, unda

klyoshlik darajasi shunchalik baland bo‘ladi. Ushbu siluet shaklida ham bel chizig‘iga urg‘u berilmaydi. Trapetsiyasimon siluet kiyimlarining etak qismi biroz kengaytirilganda qomatni xushbichim ko‘rsatadi, shuning uchun bu shakl to‘lachadan kelgan va qisqa bo‘yli odamlarga tavsiya etiladi. Trapetsiyasimon siluetning bu ko’rinishii «A-siluet» deb ataladi;



17-rasm. Trapesiyamon siluet asosida kiyim shaklini o‘zgartirish

- «X (ikssimon) siluet » – bel qismidan chiziqlari yuqoriga va pastga qarab tarqalib ketadigan siluet, uchlari umumiy nuqtaga ega bo‘lgan ikkita uchburchakni eslatadi. Bunda bel chizig‘i aniq ifodalangan va o‘z o‘rnida joylashgan bo‘ladi. Bunday libos yelka va etak qismining kengayuvchi chiziqlari va nozik bel qismi bilan sezilarli farq hosil qiladi. «X siluet» kiyimlari uzun bo‘yli nozik ayollarga juda mos keladi;

- «oval» silueti – oval shaklini eslatadigan tekis egri chiziqlar bilan hosil bo‘ladi. Bunday kiyim shakli elka qismining yumaloqligi va etakning tor chizig‘i bilan ajralib turadi. Shunday qilib, oval siluet kiyimlarining bel va son qismi keng hisoblanadi. «Oval» siluet kiyimlari qisqa bo‘yli ayollarga tavsiya etilmaydi, chunki u qomatni past ko‘rsatadi.



18-rasm. Ovalsimon siluet asosida kiyim shaklini o‘zgartirish

Kiyimning bel chizig‘iga yopishganlik darajasiga ko‘ra quyidagi siluetlarga ajratiladi:

- yopishgan (bel sohasi yaqqol ko‘ringan) siluet belga yopishib turishi va lif va etak qismining kengaytirilgani yoki turfa ko‘lamliligi bilan tavsiflanadi. Ushbu siluet «X siluet» va «qumsoat» deya nomlangan ikki xil shaklni nazarda tutadi. Ushbu ko‘rinishlarning har ikkalasi ham umumiy xususiyatlarga ega: mahsulot konstruksiyasi yoki belbog‘ bilan urg‘u berilib, e’tiborni nozik belga qaratuvchi, qomatga mahkam yopishadigan lif. Biroq, ikkisining geometrik ko‘rinishida sezilarli farqlar bor. «X siluet» bel sohasida kichik asoslar bilan birlashtirilgan ikkita trapetsiyani (lif va yubka) esga soladi. “Qumsoat” siluetidagi mahsulotlar yopishib turadigan kichik lif va klyoshlanmagan tor etakka ega. Bu yerda lifning kichikligi etakning kichik hajmiga mos kelib, bel chizig‘i bilan ajralib turadi. Yopishgan siluet nozik odamlarga juda yarashib, ular qomatining afzalliklarini oshirib ko‘rsatadi;

- yarim yopishgan siluetni yopishgan siluet bilan taqqoslaydigan bo‘lsak, u bel sohasida erkinroq turishi, ko‘krak va son qismining kichik hajmi bilan tavsiflanadi. Uning chizmasi inson qomatiga yaqin bo‘lib, yanada silliq va tekis shaklga ega. Yarim yopishgan kiyimlar tana shaklini takrorlaydi, ammo yetarlicha hajmdorlikka ega bo‘lib, yopishib turmaydi. Ushbu siluet shaklida o‘lchov xususiyatlarining kontrasti yo‘q – kompozitsiya kostyum va uning unsurlari shakli va massasining nozik farqlari tartibiga asoslanadi. Yarim yopishgan siluet barcha turdagi qomatlarga mos kelib, odatda, ustki liboslarda qo‘llaniladi;

- erkin siluetda libos bel sohasida yopishib turmaydi va son sohasida yoki ko‘krak sohasida ancha erkin kengayishi bilan tavsiflanadi. Ko‘rib chiqilgan zamonaviy libos siluet shakllari quyidagi rasmda keltirilgan.

19-Rasm. Kiyimning yetakchi siluetlari sxemasi: a) to‘g‘ri; b) nim yopishgan; v) yopishgan "X"; g) trapetsiyasimon; d) ovalsimon.

Bel chizig‘ining xolatiga qarab, siluetlar belidan yuqori, tabiiy joyda, belidan pastda yoki aniqlanmagan bo‘lishi mumkin. (20-rasm)



20-rasm. Bel chizig‘ining holati bo’yicha:

a -tabiiy joyda

b-ko‘tarilgan

b-tushirilgan

Kiyim siluetlarini yanada aniqroq tasavvur qilish uchun odatda ularni ba’zi buyumlarga (bochka, qumsoat, qaychi), o‘simliklarga (lola, gulsapsar, banan) yoki harflarga (X, U, A, T) o‘xshatishadi. Masalan, siluetning yelka sohasi sun’iy ravishda kengaytirilgan, pastki qismi esa tekis vertikal chiziqlardan tashkil topgan davrlarda siluetni yopiq qaychiga qiyoslashardi. Keyinchalik siluetning pastki qismi kengaytirilgach, bu ochiq qaychi bilan o‘xshashlikni keltirib chiqardi. Pasti ko‘p toraygan yubka silueti bochka deb, bel sohasi hurpaygan, etagi biroz toraygan yubka silueti esa lola deb nomlandi.

Siluet haqida qo‘shimcha tavsif keltirish uchun quyidagi konstruktiv kamarlar holati ham ahamiyatlidir:

- yelka chizig’i – tabiiy qiya holat, ko‘tarilgan, tushirilgan elkalar (21-rasm);
- ko‘krak chizig’i;
- bo’ksa chizig’i;
- etak chizig’i – mini, midi, maksi.

Siluet har qanday shaklning o‘z chegaralarini belgilab beradi va ushbu doirada libos, kostyum yechimi hal etiladigan ramkani ifodalaydi. Shu bilan birga siluet dizaynerga libosning dekorativ bezatilishida turli yechimlar taqdim etuvchi fon sifatida xizmat qilishi mumkin.



21-rasm. Elka sathi: Elka kengligi:

a – elkalari tabiiy a-tabiiy

b, v – ko‘tarilgan b,v- kengayrilgan

g – tushirilgan g-qisqartirilgan

Yuzaning tuzilishiga ko‘ra shakl quyidagicha bo‘lishi mumkin: tekis, to‘g‘ri chiziqli, egri chiziqli, qavariq, botiq, siniq va boshqalar. Ushbu yuzalar silliq bo‘lishi mumkin, ammo siniq bo‘lishi ham tabiiy. Shaklning singan yuzasiga namuna sifatida kiyimda ko‘p uchraydigan turli xil drapirovka, burmalar, plisse, gofrirovka, burma xoshiyalarni keltirish mumkin.

Kostyum ham boshqa har qanday buyum kabi xilma-xil chiziqlarga ega bo‘lib, ularning majmui bizga libosni yaxlit qilib ko‘rsatuvchi shakl va qismlar haqida to‘liq ma’lumot beradi. Kiyim shaklining kompozitsiyasi loyihalanyotgan mahsulotda plastik harakatlarni belgilaydigan va o‘zida kostyumning hissiy-ma’noviy ifodasini beradigan turli xil chiziqlarga asoslanadi. Chiziqni kompozitsiyaning asosiy unsurlaridan biri sifatida ko‘rish mumkin. U shaklni cheklash, tasvirni bir butun holga keltirish, bor shaklning tabiati va harakatini, uning nisbatlarini aniqlash kabi bir necha funksiyalarni bajarishi mumkin.

Kiyimning, uning alohida qismlarining chegaralari, detallariga chiziq sifatida qarash mumkin. Kostyumda bajaradigan funksiyasiga qarab, chiziqlar to‘rt guruhga bo‘linadi:

- **siluet chiziqlari –** buyum konturini, abrisini tavsiflaydi; ular shaklning ichki xususiyatlarini konkretlashtirmasdan umumlashtirilgan tasavvur beradi. Kostyumning siluet chiziqlari uning tashqi ko‘rinishini, ya’ni siluetini belgilaydi. Bunga: yelka chiziqlari, pastki, yon choklar va turli fazoviy holatlarda (fas, profil) kiyim shaklini aniqlashga yordam beruvchi boshqa chiziqlar kiradi;

- **konstruktiv chiziqlar** – buyum konstruksiyasining alohida qismlarini (biriktirish choklari, vitachka) bog‘langan chiziqlar. Kiyimdagi konstruktiv chiziqlar siluet ichida joylashgan bo‘lib, shaklning alohida elementlari va qismlari qanday qilib yaxlitlanganligini ko‘rsatadi; barcha choklar, yeng va lifning, lif va yubkaning biriktirish chizig‘i, shuningdek, vitachka, burma va boshqalar kostyumning o‘shanday chiziqlari sirasiga kiradi. Shakl yechimida qatnashgan konstruktiv chiziqlar (choklar) tayyor buyumda deyarli sezilmaydi;

- **konstruktiv-dekorativ chiziqlar** o‘zida konstruktiv va dekorativ funksiyalarni mujassamlashtiradi (relyeflar, kesiklar, aksentlashtirilgan choklar, koketka (ko‘krakburma), burmalar, qismalar, yoqa, cho‘ntak, cho’ntak qopqoqlari chegaralari). Ushbu chiziqlar qisman mos keladigan vitochkalar o’rnini almashtirib, ayni paytda shaklni boyitadi, ichki konstruktiv qurilishini to‘ldiradi, fasoni yechimida ishtirok etadi;

- dekorativ chiziqlar – kiyimda faqat estetik vazifa bajaradigan, kostyum umumiy shakliga umuman ta’sir qilmaydigan chiziqlardir. Ular sirasiga turli xil bezak elementlarini hosil qiluvchi chiziqlar: bezak choklari (biriktiruvchi bo‘lmagan), relyef chiziqlari, kamar, belboq, cho’ntak qopqoqlari choklari, kashta, to‘r, hoshiyalar, hamda matoning naqshinkor chiziqlari kiradi.

Yo‘nalishiga qarab gorizontal, vertikal, qiya yoki diagonal chiziqlar bo‘ladi (22-rasm). Ularning barchasi kostyum kompozitsiyalarining turli hissiy-majoziy mazmunini beradi.

22-rasm. Kompozitsiyada chiziq turlari

Gorizontal chiziqlar ufq bilan bog‘liq va kostyum kompozitsiyasini muayyan statik, barqarorlik bilan ta’minlaydi. Ular shakl ko‘rinishini kengroq ko‘rsatadilar, shuning uchun bu chiziqlar to‘ladan kelgan past bo‘yli odamlar kiyimida tavsiya etilmaydi. Bunday holatlarda gorizontal bezak chiziqlari istisno qilinishi kerak. Agar modelda konstruktiv gorizontal bo‘linishlarni yo‘qotishning iloji bo‘lmasa, ularga urg‘u bermaslik kerak.

Vertikal chiziqlar esa, aksincha, shaklda xushbichimlik ifodalaydi va yuqoriga cho‘zilganlik hissini beradi. Ulardan semiz odamlar kostyumida foydalanilsa, qomatni ko‘rkamroq ko‘rsatadi. Biroq, baland va ozg‘in odamlar kiyimlarini loyihalashda ularni haddan ortiq ishlatish maqsadga muvofiq emas.

Qiya yoki diagonal chiziqlar eng faol va kuchlangan hisoblanadi. Ular harakat hissini hosil qilib, kompozitsiyani yanada ifodali qiladi. Dekorativ va konstruktiv qiya chiziqlar kuzatuvchi e’tiborini kiyimning o‘ziga jalb qiladi va bu qomatning idrok etilishini ikkinchi darajaga suradi. Bu holatdan odam tanasining jismoniy nuqsonlarini yashirishda foydalanish mumkin.

Kompozitsion yechimda modelni turli tipdagi chiziqlar bilan to‘ldirib tashlab bo‘lmaydi, bu disgarmoniya keltirib chiqaradi. Ayni paytda modelning bir turdagi chiziqlar (nyuans) bilan haddan tashqari to‘yinganligi o‘zining monotonligi bilan charchatadi. Bir mahsulotda turli yo‘nalishli chiziqlarni qo‘shish orqali

ajoyib natijaga erishish mumkin. Bu bitta siluet shaklida cheksiz model variantlarini yaratish mumkinligini ko‘rsatadi. Texnik modellashtirish usuli shu prinsipga asoslanadi.

Chiziqlarning libosdagi ahamiyati katta, chunki nigohimizni hajmdor shaklning strukturaviy yuzasiga qaratish, harakat va dinamikani yaratish kabi muhim xususiyatlarga ega. Chiziqlar yordamida hajmdor shakldagi sirt bo‘ylab tushib borayotgan nigohni tutib qolish yoki yo‘nalishini o‘zgartirishingiz mumkin. Kostyumni loyihalashda chiziqlarning ifoda sifatini e’tiborga olish darkor.

Shakl o‘lchami. Hajmli shakl sifatida kiyimning ushbu xususiyatiga kiyim shakli o‘lchamining inson qiyofasi bilan nisbati yoki ikki yoki undan ortiq shakllarni taqqoslash nisbati sifatida qarash kerak.

Bir qator shakllar katta-kichikligini taqqoslashda ularning tengligi yoki birining o‘lchami boshqalaridan ustunligi kuzatiladi. Faqat bir xil turdagi kiyim va uning tarkibiy qismlarini taqqoslash, solishtirish mumkin. Shaklning katta-kichikligiga qarab shaklning hajmdorlik darajasi, yengil yoki og‘irligi aniqlanadi.

23-rasm. Shaklning katta-kichikligi

Katta va kichik bir-biri bilan solishtirilganda shaklning katta-kichikligi xayolan ortadi yoki kamayadi. Katta shakldagi kichik detallar taqqoslash mahali

shaklning o‘lchamiga diqqatni tortadi. Katta detallar yaxlit shakl bilan solishtirilganda shaklning o‘lchamini kichraytirib ko‘rsatadi. Shakl o‘lchami kiyimlarni modellashtirishda konstruktiv tayanch bo‘lmish inson qomati uchun joiz bo‘lgan me’yor darajasida ishlatilishi mumkin.

Shakl vazni. Vazn – bu yaxlit kiyim yoki alohida qismlari: yelkaning tutash joyi, ko‘krak, bel, son, yeng va hokazolar katta-kichikligining vizual vazn miqdori.

Ko‘p kompozitsion muammolarni hal qilishda inson-kostyum tizimidagi ommaviy idrokni hisobga olish katta rol o‘ynaydi. Kostyumni tashkil etuvchi (bosh kiyim, pidjak, palto, sumka, poyabzal) u yoki bu buyumning o‘lchami va shakli katta ahamiyatga ega. Massani vizual idrok etish – geometrik shakldagi bo‘shliqni to‘ldiradigan materiallar miqdorini vizual baholash bilan belgilanadigan shaklning xususiyati hisoblanadi.

Kiyimdagi shaklning ushbu xususiyati quyidagi yo‘nalishlarda o‘zgarishi mumkin:

1. Agar shakl ko’rinishining boshqa barcha xususiyatlari va shartlari taxminan bir xil bo‘lsa, katta shaklning vazni ham katta bo‘ladi.



24-rasm. Shaklning katta-kichikligiga qarab vaznni o’zgarishi

2. Vaznni idrok qilish shaklning geometrik ko‘rinishiga qarab o‘zgaradi. Kub, kvadrat va uchta koordinatasi bir-biriga teng yoki yaqin bo‘lgan barcha o‘lchovlarga mos keladigan shakllar maksimal massaga ega bo‘ladi. Chiziqli shaklga o‘xshash shakllar minimal massa ega.

3. Kiyim vazni, shuningdek, shakl chegaralari doirasida konstruktiv, dekorativ chiziqlar, detallar yoki bezaklar (qirqimlar, choklar, kamar, cho‘ntak, tugma, koketka va boshqalar) bilan to‘ldirish darajasiga qarab o‘zgaradi. Libos shakli kam to‘ldirilsa vazn kichik, ko‘p to‘ldirilganda esa vazn ham katta bo‘ladi.



25-rasm. Shaklning to’ldirilishiga qarab vaznni o’zgarishi

4. Vaznning o‘zgarishi taqqoslanayotgan buyum yoki qismlarning katta-kichikligiga bog‘liq. Vaznning ortishi unga solishtirilgan qismlarning kamayishi bilan bo‘ladi va aksincha, solishtirilgan qismlarning ortishi bilan vazn kamayadi. Misol uchun, detallar: yoqa, cho‘ntaklarning hajmini oshirish palto va ko’ylakning vaznini vizual kamaytiradi.

5. Shaklning vazni ortishi yoki kamayishi rangga, u ishlangan materialning naqshiga ham bog‘liq. Bir oz oldinga o‘tib, rangning turli og‘irlik, yengillikka egaligini, naqsh esa kiyim shakli materialining yuzasini to‘ldirishning turli darajalarini berishini ayta olamiz.

Shakl vaznining ushbu o‘zgarishlari, albatta, haqiqiy emas, xayoliy hisoblanadi hamda vaznning bunday idrok etilishi tez-tez kostyumni loyihalashda ishlatiladi.

Muayyan materialda ifodalangan kostyum konstruksiyasi va shaklining bir birini taqazo qilishi uning kompozitsiyasini belgilovchi eng muhim omil hisoblanadi. Shakllarni idrok etishda tashqi ko‘rinishi bilan aniqlanadigan materiallar: yuzasining fakturasi, rangi va naqshlari xususiyatlari katta ahamiyatga ega.

Faktura – shaklning yuza strukturasi tuzilishiga xarakterli bo‘lib, u butunlay silliqdan bo‘rtmagacha o‘zgarishi mumkin. Faktura shakl massasini idrok etishga kuchli ta’sir ko‘rsatadi – yirik sirt buyumning vizual massasini orttiradi. Bundan tashqari, shaklning nur va soya o‘yinlari ham fakturaga bog‘liq – sirt mikroshakllari qanchalik yirik bo‘lsa, nur va soya o‘yinlari shuncha yorqinlashadi. Qoramtir sirtlar hajmi kichikroq, oqimtiri esa kattaroq ko‘rinadi.

Rang shaklning eng hissiy-ifodaviy xususiyatidir. Inson kostyumning rangini uch jihatdan: jismoniy, hissiy-psixologik va ramziy tomonlama idrok qiladi. Rangning fizik xususiyatlari uning tuslari, yorqinligi va to‘yinganligi bilan belgilanadi. Rangning hissiy-psixologik xususiyatlari odamlarda turli hislarni keltirib chiqaradi. Rang insonning hissiyot a’zolariga tinchlantiruvchi, hayajonli yoki azoblantiruvchi ta’sir ko‘rsatadi. Rangning ramziy sifatlari turli ijtimoiy, rasm-udum, diniy tasavvurlar va kishilik jamiyatining turli guruhlari madaniyati bilan bog‘liq.

Kompozitsiya yaratishda ifoda vositalari bo‘lmish faktura va rang haqida batafsil ma’lumot keyingi bo‘limlarda beriladi.

III BOB

KOMPOZITSIYA QONUNIYATLARI VA QOIDALARI

3.1 Kompozitsiyaning yaxlitligi

Kostyum kompozitsiyasi dizayner ijodining tarkibiy qismi sifatida o‘z mantiqiy talablariga va badiiy ifodaviy shakl yaratish qoidalariga bo‘ysunadi.

Kompozitsiyaning asosiy qonuni – badiiy shaklning barcha tarkibiy qismlari, istisnosiz, ifoda, funksional va konstruktiv xususiyatlar uyg‘unligida bo‘lishi kerak. Kompozitsiya asosiy qonunining bosh tamoyillari:

1. Mazmun va shaklning birligi.
2. Strukturaning yaxlitligi.

Kompozitsiya asosiy qonuniyatining birinchi talabi shundaki, har bir asar to‘liq yakunlangan bo‘lishi va tarkibida funksional, konstruktiv yoki badiiy mohiyatiga zid bo‘lgan qismlar va unsurlar bo‘lmasligi kerak. Kompozitsiyaning barcha qism va unsurlari umumiy mazmunni ifodalashi kerak. Kompozitsiyada, hattoki chiroyli va ajoyib bo`lsa ham, tasodifiy qismlar, detallar bo‘lmasligi kerak. Agar modelning biron bir qismi kostyumning asosiy g‘oyasiga zid bo‘lsa, funksional maqsadning ifodalanishiga to‘sqinlik qilsa, uning yaxlitligini buzsa, dizayner undan voz kechishi yoki kompozitsiyaning umumiy g‘oyasi uchun ishlashga “majbur qilishi” kerak. Bu mahsulotni ortiqcha yaltiratish yo‘lida kompozitsiya yaxlitligini buzadigan, dizayn vazifalariga zid xatolarning oldini oladi.

Quyidagi shartlar kompozitsiyaning qanchalik muvaffaqiyatli ekanini belgilab beradi:

- hech bir qism yaxlitga shikast etkazmay olinishi yoki almashtirilishi mumkin emas;
- qismlarning o‘rni yaxlitga shikast etkazmay o‘zgartirilish, almashtirilishi mumkin emas;
- hech bir element yaxlitga shikast etkazmay qo‘shilishi mumkin emas.

Ikkinchi tamoyil kompozitsiyada asosiy va ikkinchi darajali qismlarni ajratish zarurligini ko‘rsatadi. Ushbu qismlarning uyg‘un birligiga ularning o‘zaro muvofiqligi, tengligi orqali erishiladi. Kompozitsiyaning asosiy, bosh qismi ikkinchi darajali qismlarga zid bo‘lmagan holda ajratilib, urg‘u beriladi. Shaklning birligi uning barcha qism va unsurlari o‘zaro tenglik sharti asosida yaratiladi. Uyg‘unlikka kostyum plastikasi, rangin dog‘lar, shakl fakturasi, hajmi va massasining o‘zaro nisbat mutanosibligi bilan erishiladi.

Bo‘linmaslik, konstruktiv birlashtiruvchi g‘oyaning mavjudligi, barcha unsurlarning o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro mustahkamligi – bularning barchasi kompozitsiya yaxlitligini: unsurlar mutanosibligi va bo‘ysunishi, kompozitsion markazning mavjudligini barpo etadi.

Kompozitsiya unsurlarining o‘zaro va inson qaddi-qomati bilan *mutanosibligi* doim rassomlar, me’mor va dizaynerlar e’tiborida bo‘lgan. Qadimgi Misrda qurilish nisbatlari 18 yoki 22 qismga bo‘lingan inson tanasi qismlari bilan aniqlangan. Misrliklar odam tovonining uzunligi 3 yoki 3,5, boldirning uzunligi 5 qismdan iborat ekanligini bilishardi. Ular biror nimaning shaklini tuzishda yagona o‘zgarmas o‘lchovdan foydalanganlar. Bu kvadratlardan tashkil topgan to‘rdan iborat bo‘lib, ichiga tana rasmi tushirilar edi.

Qadimgi Yunoniston me’morchiligida inson ibodatxona ustunlari timsoli bo‘lgan, boshi – kapitel, tanasi ustunning o‘rtasi edi. Inson tanasi nisbatlarining o‘zaro mutanosibligi Parfenonning o‘zaro mutanosib nisbatlar go‘zalligi kaliti hisoblanadi. Bu erkak figurasining go‘zalligiga asoslangan. Erexteyton ibodatxonasi nisbatlari esa ayol tanasi nisbatlariga asoslanadi. Yunon shifokori Galen shunday deb yozgan edi: «go‘zallik barmoqlarning barmoqlar bilan, barcha barmoqlarning panja va kaft orqasi bilan, bularning tirsak bilan, tirsakning qo‘l bilan, umuman olganda, hamma qismlarning bir-biri bilan o‘zaro mos kelishidadir».

Libos qismlari va unsurlarining mutanosibligi hajm (miqdoriy va sifatiy), rang, shakllar, ritm va plastikani yetkazish, harakat yoki nisbiy tinch holat,

simmetriya yoki assimetriya nisbati hisobga olingan proportsiyalarning uyg‘un kombinatsiyasi sifatida hal qilinishi kerak. Qismlar va butunning uzviy aloqasi – san’atning o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Kompozitsiyadagi mutanosiblikka quyidagi omillar va kiyim unsurlarining miqdoriy nisbati bilan erishiladi:

kiyim hajmlari (lif, yeng, yubka);

materialning rang va fakturasi (bluzka bilan yubka, ko‘ylak bilan yoqa va kamar, palto bilan mo‘ynali manjet va yoqa);

kiyim-kechak detallari (yoqa, cho‘ntak, cho‘ntak qopqog‘i, belband va boshqalar);

bezaklar (chok, kashta, aksessuarlar va boshqalar).

Teng bo‘ysundirish – kompozitsiyaning ikkinchi darajali unsurlarining asosiy unsur yoki kompozitsion markazga bo‘ysinishi.

Kiyimning, kostyumning kompozitsion-tashkiliy hajmdor shakli deb asosiy va tobe qismlari bir-birini o‘zaro teng bo‘ysindirib, bir butunni tashkil etadigan o‘zaro munosabatlarning o‘ziga xos qismlar tizimi tushuniladi.

Kompozitsion markaz – asosiy g‘oyani aniq ifodalaydigan va atrofdagi yoki o‘ziga tutash qismlarning umumiy fonida ajralib turadigan kompozitsiyaning bir qismidir. Kompozitsion markaz barcha ma’noviy yukni o‘ziga oladi. Kompozitsiyada asosiy narsani ajratib ko‘rsatish insonning vizual idrokiga bog‘liq bo‘lib, bunda u eng avval kuchli qo‘zg‘atuvchi narsaga o‘z diqqatini qaratishi bilan belgilanadi. (26-rasm).

26-rasm. Kompozitsion markaz

Bunday qo‘zg‘atuvchi sifatida harakat, yorug‘lik effektlari, o‘lcham, shakl, rang kontrastlarini ko‘rsatish mumkin. Shu orqali vizual idrokning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi lozim bo‘lgan musavvirning hissiy-obrazli tafakkur tabiati aniqlanadi. Nigohning o‘ziga xos xususiyati – uni ko‘rib chiqish obyektiga qaratishdir. Odam ko‘zi muayyan radiusdagina («yaqqol ko‘rish maydoni» deb ataladi) aniq ko‘radi, ayni paytda fokusdan tashqari hududda bo‘lgan narsalarni ham g‘ira-shira anglaydi. Kompozitsiyada ko‘rish qobiliyatimiz xususiyatlari hisobga olinishi zarur. Rassom, yaxlitlikka amal qilgan holda, kompozitsion markazni kompozitsiyaning qolgan (ikkinchi darajali) unsurlari bilan aloqasini mantiqiy ravishda asoslashi kerak.

Tasvirning barcha tarkibiy qismlari asosiysiga – kompozitsion markazga bo‘ysunishi juda muhimdir. Bu dominant urg‘usi bo‘lib, o‘ziga massa, dizayn yoki rang bilan alohida e’tibor tortadi. Bir mazmun va umumiy uslub bilan bog‘langan bir nechta kompozitsion markazlar mavjud bo‘lishi mumkin, lekin modelni haddan tashqari og‘irlashtirmaslik, unga qaraganda diqqatning sochilishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Kompozitsion markaz o‘lcham jihatidan eng kattasi bo‘lishi shart emas. U faqat kuzatuvchi e’tiborini jalb qilishi, chalg‘ituvchi kontrastlar va ikkilamchi tafsilotlarni yumshatishi kerak – hamma narsa asosiy narsaga bo‘ysunmog‘i shart.

Kompozitsion markaz kompozitsiyaning asosiy g‘oyaviy jihati bo‘lib, uning shakli, hajmi, detallarining boyligi va shu kabilar bilan boshqa unsurlardan farq qilishi mumkin.

27-rasm. Yoruqlik va rang bilan ajratish

28-rasm. Shakl va o’lcham bilan ajratish

Moda sanoati mahsulotlarida inson qomati nuqsonlaridan chalg‘itishni hisobga olib joylashtirilgan har qanday unsur, shakl qismi kompozitsiya markazi bo‘lishi mumkin. Odatda bir nechta asosiy qismdan tashkil topgan kiyimlarda, masalan, lif, yubka, yengdan iborat ko‘ylakda kompozitsion markaz istalgan joyda bo‘lishi mumkin, ya’ni u har bir muayyan holatda dizayner tomonidan hal qilingan vazifalardan kelib chiqib, ko‘ylakning urg‘u berilgan, alohida ta’kidlab ko‘rsatilgan qismida bo‘ladi.

29-rasm. Kompozitsiya markazi - yelkada, yengida, belda.

Kostyumda kompozitsion markaz deyarli doim mavjud. Agar kostyum butunlay qora bo‘lsa ham, kompozitsiya markazi soch turmagi yoki makiyaj bo‘lishi mumkin. Agar kostyumning kompozitsion markazi biror bir detal bo‘lsa (shlyapa, qo‘lqop, bant, yeng va kabilar), unda bu qism o‘zining rangi, shakli, fakturasi yoki massasi bilan farq qilishi, ajoyib dizayni bilan e’tiborni jalb etishi kerak. Bunday holda boshqa barcha detal va aksessuarlar fon sifatida xizmat qiladi hamda diqqatni chalg‘itmasligi, balki markazni ta’kidlashi, unga urg’u berishi kerak. Agar kompozitsiya markazi shaklning o‘rtasida joylashgan bo‘lsa, demak u diqqatni tanaga – ko‘krak, bel, yonboshga qaratadi. Pastki qismga, oyoqlarga ko‘chirilgan urg‘u obrazga barqarorlik, puxtalik beradi. Agar kompozitsion markaz bo‘lmasa, obraz anglanmaydi, ifodalanmaydi va esda qolmaydi yoki sochilib ketadi, ya’ni yaxlitligi bilan ajralib turmaydi.

30-rasm. Kompozitsion markazning aksentli detallari

Kompozitsiyada bir darajada e’tiborni tortadigan bir qancha detallar bo‘lmasligi kerak, chunki unsurlarning baravar qimmatliligi kompozitsiyaga noaniqlik singdiradi, shaklning yaxlitligini yo‘q qiladi. Shuning uchun kompozitsiyada asosiy va ikkinchi darajali qismlarni aniqlash juda muhim.

Kompozitsiya doim alohida qismlardan iborat. Ularning o‘zaro bo‘ysunganligi va muvofiqligi uyg‘un birikma yaratish uchun zarur. Muvaffaqiyatli kompozitsion yechim asosiy qismni ta’kidlab, uni kompozitsiyaning asosiy unsuri sifatida ajratishga yordam beradi. Asosiy qism yoki kompozitsion markazni ajratib ko‘rsatish kompozitsion markaz hukmronligini ta’kidlaydigan, tengsizlik beradigan, shakl unsurlari xususiyatlari kabi qonuniyatlar asosida amalga oshiriladi. Ushbu qonuniyatlarni sanab o‘tamiz.

1. **Miqdor qonuni.** Boshqa teng sharoitlarda miqdorning ko‘pligi hukmronlik qiladi. Teng sharoitda butunning bir qismi, o‘lcham, hajm, massa yoki bir turdagi bezak miqdori jihatidan kattaligi bilan ajralib turadi va boshqa qismlar ustidan ustunlik qiladi.

Misol uchun, ko‘ylak qismlarining: lif, yubka, yeng, yoqa – odatdagi keng ko‘lamli nisbatida miqdor kattaligi qo‘llaniladi, yubkaga nisbatan hajmdorlik miqdori ishlatiladi, yubka boshqa qismlar ustidan ustunlik qiladi

2. **Markazda joylashish qonuni.** Ajratilgan qismning nisbatan markaziy joyda joylashuvi, boshqa teng sharoitlarda ushbu qismni asosiy kompozitsion markaz sifatida ajratib turadi. 31-rasmda asosiy qismni ajratish uchun markazda joylashish qonuni bo‘yicha namuna keltirilgan.

3. **Sifat qonuni.** Butunning u yoki bu sifatga, xususiyatlar guruhiga ega qismi hukmronlik qiladi. SHakliy xarakterga ega turli xil faolliklardan, istalgan bezak yoki faktura sifatidan (mo‘yna, to‘r, drapirovkali bezak, kostyumning gofrirovka unsuri) foydalanish – butunning asosiy qismini ajratish usullaridan biridir.

31-rasm. Markazda joylashish va sifat qonuni

4. **Ma’no omili qonuni.** Yaxlitlikning bir qismi bo‘lmish g‘oyaviy mazmun yuklangan bezak (nishonlar, farq belgilari) shakliy xarakterga ega bo‘lgan qismlarga ustunlik qiladi.

Misol uchun, agar kostyumning biron bir joyida g‘oyaviy mazmunga ega bo‘lgan bezak – nishon, logotip, yozuv yoki ziynat joylashtirilsa, bu qism boshqa qismlarga bosh bo‘ladi va barcha e’tiborni tortadi. G‘oyaviy mazmunga ega bo‘lgan bezakni joylashtirish mahsulotning umumiy shakli,qismlari, kompozitsion tuzilishning shakliy xususiyatlari bilan oqlanishi kerak.

32-rasm. Ma’no omili qonuni

Ko‘rsatilgan qonuniyatlardan foydalanish kompozitsion markazni ajratish alohida (oddiy kompozitsion aloqalarda) va birlashtirilgan (murakkab tuzilishda) bo‘lishi mumkin, bu esa ajratilgan asosiy qismni ta’kidlash lozim bo‘lganda ishlatilishi mumkin.

Libosdagi murakkab kompozitsiyalarda yoki kostyumni tashkil etuvchi unsurlar to‘plamida bir-biriga bo‘ysunadigan bir nechta kompozitsion markazlar bo‘lishi mumkin. Ushbu markazlarning har biri kompozitsiyaning o‘zi joylashgan qismida dominant bo‘lib, boshqalar bilan bog‘lanishi va asosiy kompozitsion markazga bo‘ysunishi kerak. Bir nechta teng bo‘ysindirilgan kompozitsion markazlarni qurish yaxlit kiyim komplektini – ansamblni tashkil etishga imkon beradi.

Kompozitsion markaz (butunning asosiy qismi) va kiyimning boshqa qismlarini birlashtirish umumiylik va aloqa qurish orqali erishiladi. Shunday qilib, yaxlitlikka, kompozitsion umumiylikka erishishning asosiy shartlari quyidagicha:

1. Shaklning asosiy unsurlari mutlaq o‘lchamda va keng miqyosda

kattalashtirilishi, ikkilamchi va tobelari esa – kichikroq, maydaroq (masalan, istalgan kitobning muqovasiga qarang: asosiy, bosh yozuv katta harf bilan, ikkinchi darajalilar – sal kichikroq, uchinchi darajalilari yana ham kichikroq harf bilan yoziladi) bo‘lishi kerak.

2. Eng muhimi kompozitsiyaning markazida bo‘lishi lozim, shaklning boshqa unsurlari unga intilishi, muayyan yo‘nalishga ega bo‘lishi, bir yoki bir nechta naqshlarda joylashishi kerak.

Ushbu xulosaning ishonchli tasdig‘ini tirik tabiat shakllarida topamiz: misol uchun o‘simlikning har qanday qismi o‘z shakli bilan o‘zak qayerdaligini, past qayerda, tepa qayerda, tananing qaysi qismi tomirga, qaysi tojga yaqin joylashgani haqida ma’lumot beradi.

3. Buyumning umumiy hajmiy-fazoviy tuzilishini, uning umumiy shakli va alohida qismlari shakllarini qurilishidagi mantiqiylik.

4. Shaklning barcha unsurlarida stilistik yechimning umumiyligi. Bu yerda gap «bir kalit» talqini bo‘yicha barcha qism va detal shakllarining plastik birligi haqida ketmoqda. Mana shu sababga ko‘ra mahsulotning kompozitsion yaxlitligini buzmaslik uchun, masalan, bitta telefon qurilmasidagi go‘shakni boshqasiga o‘tkazish mumkin emas, garchi ular o‘lchami va konstruksiyasi bo‘yicha bir xil bo‘lsa ham.

Kompozitsiya yaratishda yuqorida keltirilgan barcha qonun va qoidalarga rioya qilingan taqdirda, u yaxlit bo‘lishi mumkin, chunki kompozitsiyaning yaxlitligi ikkinchi darajali qismlarning asosiyga tobeligi, barcha tarkibiy qismlarning o‘zaro bog‘liqligidir.

Xulosa qilib aytganda, har qanday predmet deyarli hech qachon alohida bo‘lmaydi, balki katta bir butunning bir bo‘lagi hisoblanadi – birgalikda nozik, izchil, uyg‘un yaxlitlik (ansambl) hosil qilishi kerak bo‘lgan alohida unsurlarning majmuidir.

IV BOB

KOMPOZITSIYA VOSITALARI

4.1 Proporsiya va nisbatlar

Kompozitsiya – bu barcha unsurlarni yaxlitlikka keltirish vositasidir. Ushbu muammoni hal qilish kompozitsion usullar va vositalar orqali amalga oshiriladi. Ularning eng muhimi nisbatlash (ya’ni proporsiyalash) dir – uning yordami bilan loyihalashtirilgan obyekt uyg‘unlashtirilib, shakllantiriladi.

Miloddan avvalgi I asrda yashagan qadimgi Rim notig‘i Sitseron «proporsiya» so‘zini muomalaga kiritgan bo‘lib, u Platonning so‘zma-so‘z «o‘zaro nisbat» degan ma’noni anglatgan “analogiya” terminini lotin tiliga shu so‘z orqali tarjima qilgandi.

Uyg‘unlashtirishning muhim vositasi bo‘lmish proporsiyalar barcha zamon olimlari, rassomlari, me’morlari e’tiborini tortgan. Qadimgi Misr fir’avnlari, Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rim davriga oid proporsiya qonunlari, Vitruvia, Leonardo da Vinchi, Alberti, Le Korbyuzye va boshqalarning kitoblarida saqlangan proporsiyaga doir tajribalar ma’lum. Bundan kelib chiqadiki, insoniyat qadim zamonlardan beri go‘zallik formulasini izlash bilan band bo‘lgan. Qadimgi yunon faylasuflari, matematiklari va rassomlaridan boshlab keyingi davrlarga qadar eng mukammal uyg‘un nisbatlarni topish bo‘yicha nazariy tadqiqotlar o‘tkazildi.

Uyg‘unlik (yunoncha *harmonia* – aloqa, xushbichimlik, mutanosiblik degan ma’noni anglatadi) – qismlar mutanosibligi, obyektning turli tarkibiy qismlarini bir organik butunga birlashishidir. Qadimgi yunon falsafasida uyg‘unlik koinotning xaosga qarshi tizimliligi sifatida tushunilgan, estetika tarixida esa – go‘zallikning muhim xususiyati sifatida baholandi.

Mashhur qadimgi yunon mutafakkiri va matematik olim Pifagor Samos (miloddan avvalgi VI asr) butun sonlar va nisbatlar xususiyatlarini o‘rgangan. U «algebra yordamida uyg‘unlikni tekshirib ko‘rish» ni xohlagan. Pifagor va uning

izdoshlari sonni mavjud hamma narsaning asosi, son bilan ifodalangan munosabatlarni esa kosmosning uyg‘unligi manbai deb hisoblaganlar. Ular uchburchak turfa xil buyumlar yaralishi va yaratilishining bosh manbai ekanini ta’kidlashgan. O‘sha davrdan bizga o‘zining uchburchagi bilan mashhur Pifagor teoremasi yetib kelgan. Bu burchaklari 30, 60 va 90° li to‘g‘ri burchakli uchburchak va tomonlarining bir-biriga uyg‘un nisbati edi. Bundan tashqari, Pifagor «ilohiy tabiat» obrazini boshqa har qanday figuradan ko‘ra kvadrat o‘ziga ko‘proq singdirgan, deb hisoblagan. Katta mavqe ramzi bo‘lmish ushbu matematik figurani u sevardi, chunki burchaklar to‘g‘riligi butunlik beradi, tomonlar sifati esa kuchga qarshi tura oladi. Aftidan, K. Malevichning «qora kvadrat»ida ham xuddi o‘sha sifatlar nazarda tutilgan bo‘lsa kerak.

Pifagorchilar go‘zallikning matematik asosini, dunyoda mavjud barcha narsaning raqamli ifodasini izladilar. Ular inson tanasi nisbatlarini o‘rganib chiqib go‘zallikning matematik qonununi tasdiqladilar. Unga ko‘ra «inson hamma narsaning o‘lchovidir». Qadimgi odamlar insonni o‘rab turgan buyumlar nafaqat bir-biriga nisbatan uyg‘un, balki insonning jismoniy tuzilishiga bir o‘lchov bilan bog‘liqligiga ham ishonishgan. Uzoq o‘tmish me’morlari inson tanasining ayrim qismlariga, ularning munosabatlariga muvofiq me’moriy tuzilmalarni yaratdilar.

Yunonistonning barcha klassik san’atida Pifagorning proporsiya haqidagi ta’limoti muhri bor. Bu yondashuv ta’siri O‘rta asrlar, Uyg‘onish davri ilm-fani va san’atida ham sezilib, hozirgi kunga qadar tobora yangilanib, o‘ziga xos evrilish pallasini boshdan kechirmoqda.

Matematikada nisbat deb (lotin tilida *proportion* so‘zidan olingan) to‘rtta qiymatning a : b = c : d ikki nisbati o‘rtasidagi tenglik; san’atda – shakl unsurlarining o‘lchovli nisbati anglashiladi.

Proporsiya – unsurlar mutanosibligi, qismlar va butunning uyg‘un tizimi bo‘lib, predmetga monand tugallanganlik beradi. Proporsiyalar abadiy go‘zal bo‘lishi mumkin emas. Go‘zal nisbatlar mahsulot yoki ularning kompleksiga xos funksional va konstruktiv-texnik aloqalarni badiiy tushunish natijasida yuzaga

keladi. Turli proporsional tizimlardan foydalanish hukmron estetik g‘oyalar, shaklning uslubiy xususiyatlari, tipik kompozitsion yo‘llar bilan bog‘liq edi. Nisbatni tatbiq etish obyektiv mazmunga ham ega, chunki u matematik qonuniyatlarga asoslanadi va aniq tahlilni talab qiladi. Bu go‘zallikni «aniqlash» mumkin bo‘lgan yagona kompozitsion vosita sanaladi. Nisbatlar shaklning geometrik tuzilishi to‘g‘riligini ifodalovchi turli matematik munosabatlar shaklida, butun va uning alohida qismlari tuzilishining yagona mutanosib o‘lchoviga qat’iy rioya qilishda namoyon bo‘ladi.

Kompozitsiya yaratishda nisbat butun va uning qismlari o‘rtasida mavjud bo‘lishi kerak bo‘lgan uyg‘unlikni aniqlaydigan asosiy tartibga solish vositasi hisoblanadi. Kiyimlarni modellashtirishda mutanosib munosabatlar intuitiv ravishda aniqlanadi yoki moda tendensiyalari bilan belgilanadi. Har bir moda yo‘nalishi kostyumga, shu bilan birga kostyumdagi odamga ham o‘zining proporsional qurilishini taklif qiladi.



33-rasm. Yeng va yubka shaklining proporsiyalari

Proporsiya ikki guruhga bo‘linadi: oddiy (ratsional raqamlarga asoslangan) va murakkab (irratsional sonlar, geometrik qurilmalarning hosilalari asosida).

Oddiy proporsiyalar – bu ikki o‘lchov miqdorining raqamli bog‘liqligi kasr son bilan ifodalanadi, bu yerda surat va maxraj 1 dan 10 gacha bo‘lgan barcha sonlardir. 1 : 1 nisbatda kvadrat, kub kabi eng oddiy geometrik shakllar quriladi.

1:2; 1:3; 1:5; 1:6 va hokazo munosabatlar to‘rtburchak shakliga kvadratning bir necha marta takrorlanishini beradi. Bu holda kichikroq qiymat modul, ya’ni katta hajmdagi o‘lchov birligidir. Misol uchun, 1:4 nisbat to‘rtburchakda ushbu nisbat bilan to‘rtta kvadrat mos kelishini anglatadi.

2:3; 3:4; 3:5 kabi oddiy nisbatlar nisbatga kiritilgan har bir geometrik miqdorga butun va kichik sonlarni yig‘uvchi modulni o‘z ichiga oladi.



34-rasm. To‘rtburchak shakl nisbatlari



35-rasm. Kiyimdagi oddiy nisbatlar

Shunday qilib, oddiy munosabatlarda chiziqli va hajmdor kattaliklarning yaqqol o‘lchovdoshliklari ko‘rinadi, bu ularning uyg‘un aloqasining asosi hisoblanadi (uyg‘unlik – yaqqol ifodalangan aloqadir).

1:1 munosabat nisbatan yaqqol vizual mutanosiblik ifodalanadi, ammo bunday mutanosiblik inert, ya’ni kam ifodalidir, chunki taqqoslanadigan qiymatlar tengdir. 1:2; 1:3 va boshqa teng bo‘lmagan munosabatlar ifodaliroq hisoblanadi. Shunga qaramay, mutanosiblik nisbatiga mos keladigan raqamlarning ortishidan qochish kerak. Oddiy munosabatlarning chegarasi 8 gacha bo‘lgan raqamlardir. Ular inson tomonidan qabul qilingan qiymatlarning mutanosibligini yaqqol anglash chegarasi sifatida qabul qilish mumkin. Ko‘pincha: 3 / 4 yoki 1 / 4 uzunlikdagi yeng, 7 / 8 uzunlikdagi palto yoki 1 / 2 pidjak (36-rasm) deyishadi. Bu orqali uzun yeng uzunligi bilan yeng uzunligining mutanosibligi, qisqartirilgan palto uzunligining nisbatan uzunrog‘iga nisbati ko‘rsatiladi. Kiyim mutanosibligining oddiy munosabatlari inson tanasiga yoki kiyimning boshqa qismlariga nisbatan qurilishi mumkin. Har ikkala holatda ham umumiy o‘lchovli miqdorlarning uyg‘un aloqalari kelib chiqadi.



36-rasm. Kiyim qismlari proporsiyasi

Oddiy proporsional munosabatlar kasr raqam bilan ifodalanadi, bu yerda surat va maxraj 1 dan 8 gacha bo‘lgan butun sonlardir. Misol uchun, butun holatidan yeng ¾, mini yubka 1/3, palto 7/8, sviter 2/3. Oddiy proporsional munosabatlarga tomonlarining 3 : 4 : 5 nisbati bilan «Misr uchburchagi» kiradi.

Kostyum kompozitsiyasida oddiy nisbatlardan foydalanish namunasi sifatida kontrast proporsiyalarni keltirish mumkin. U 1:4, 1:5 va boshqa nisbatlarda quriladi. Bunday nisbatli liboslar yanayam g‘ayrioddiy va ifodali ko‘rinadi, atrofdagilar diqqatini yanada ko‘proq tortadi. Kontrastli nisbatlardan kecha liboslari va norasmiy tadbir kiyimlarida foydalanish maqsadga muvofiq.

Ushbu nisbatlar oddiy nisbatlardan hisoblani va 1:1 nisbatda quriladi, ya’ni kostyumni tashkil etuvchi tarkibiy qismlarning teng munosabatlarini ifodalaydi. Bunday nisbatlarga asoslangan modellar kuzatuvchiga turg‘unlik, osoyishtalik tuyg‘usini beradi hamda kundalik va uy kiyimlari uchun tavsiya etiladi. Bu turdagi nisbatlar ko‘pincha ish kostyumini yaratishda ishlatiladi, chunki kostyumning turg‘un shakli suhbatdoshlarga egasiga nisbatan ishonch uyg‘otadi.



37-rasm. Kiyimdagi kontrast va o‘xshash proporsiyalar

Oddiy proporsional nisbatning yana bir misoli – tomonlari 3:4:5 nisbatli **«Misr uchburchagi»**.

38-rasm. “Misr uchburchagi” tamoyili bo‘yicha proporsional nisbat.

Irratsional nisbatlar – eng oddiy geometrik qurilish yordamida olingan libos qismlari mutanosibligi va nisbatlarning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi munosabatlardir.

Yetuk uyg‘un nisbatlar izlash baxonasi bilan, antik davrdan boshlab matematik yechimlar va geometrik tuzilmalardan kelib chiqqan irratsional raqamlarga asoslangan murakkab nisbatlar topildi.

Murakkab proporsional munosabatlar geometrik tuzilmalar tomonidan chiqarilgan irratsional raqamlarga asoslangan. Bunday munosabatlarga quyidagilar kiradi:

- kvadrat diagonalining uning tomoniga nisbati;
- teng tomonli uchburchak balandligi uning asosining yarmiga nisbati;
- «Oltin kesim» tamoyili;
- Fibbonachi qatorlari.

Kvadrat diagonalining uning tomoniga nisbati. Agar kvadrat tomonini a bilan, kvadrat diagonalini b bilan belgilasak, unda b:a = 1:√2 proporsiyani olamiz. Bunda katta qiymat sifatida kvadratning diagonali, kichikroq qiymat bo‘lib kvadrat tomoni taqqoslanadi. 39-rasmda ushbu libosni qismlarga ajratish tamoyili namoyish etilgan.



39-rasm. Murakkab proporsional nisbatlar

Shuningdek, teng tomonli uchburchak balandligining asos yarmiga nisbatidan ham foydalanish mumkin, bu yerda uchburchakning balandligi h, asosining yarmi a bilan taqqoslanadi. Olingan nisbat h:a = 1:√3 ko‘rinishga ega.

«Oltin kesim» tamoyili antik san’atda – haykaltaroshlikda va, ayniqsa, arxitekturada muhim ahamiyatga ega edi. Biroq, atamaning o‘zini ilk bor Uyg‘onish davrining buyuk musavviri, me’mor, kashfiyotchi va musiqachi Leonardo da Vinchi taqdim etdi. Ushbu nisbatni u go‘zallik va uyg‘unlik mezoni, san’at qonuniyati – «ilohiy nisbat»[5] deb atadi. «Oltin kesim» tamoyili inson tanasining tuzilishiga asoslanadi. Kostyumni yaratuvchi rassom uni o‘rganishga alohida e’tibor qilishi kerak, chunki libos inson qiyofasisiz o‘z mohiyatini

[5] Italyan Uyg‘onish davrida oltin nisbat tushunchasi asosiy estetik tamoyillar darajasiga kiritilgandi. Ioann Kepler so‘zlari bilan aytganda: «Geometriyaning ikki xazinasi bor: ulardan biri Pifagor teoremasi bo‘lsa, boshqasi esa – kesimni so‘nggi va o‘rta nisbatda bo‘lishdir... Birinchisini oltinga teng deyish mumkin, keyingisi esa ko‘proq qimmatbaho toshni esga soladi». 1580 yili olimlar oltin nisbatning inson tanasi qismlarida, jonivorlar, ellin ibodatxonalarida, botanika, musiqada borligini aniqlaydilar.

yo‘qotadi. Olimlar «oltin kesim» proporsiyasini organik moddalarning rivojlanishi bilan bog‘laydi. Ushbu nisbatlar yovvoyi tabiatda ham – chig‘anoqlar, daraxtlar tushilishida, kungaboqar donining joylashuvida, inson tanasining tuzilishida, shuningdek, koinotning tuzilishi, sayyoralar joylashuvida ham kuzatiladi. «Oltin kesim»ga nisbatida geometrik shakllar – beshburchak, «pentakl» yulduzlari unsurlari ham bor.

Proporsiyaning kichikroq qismi katta qismga tegishli bo‘lsagina «oltin kesim» hisoblanadi, chunki katta qism ham o‘z navbatida butunga tegishli. Kesmani «oltin kesim» ga ko‘ra bo‘lganda, AB tomon VS ga, VS esa AS ga tegishli bo‘ladi. Agar AB kesma «oltin kesim» tamoyiliga ko‘ra ikki qismga bo‘linsa, u holda AV:AS=AS:SV bo‘ladi (40-rasm). Butun kesmani birlik deb qabul qilinsa, ushbu qismlarning nisbati taxminan quyidagi raqamli ifodada ko‘rish mumkin: 0,618:0,382.

40-rasm. "Oltin kesim" bo‘yicha bo‘lish sxemasi

Agar to‘g‘ri kesma birlik orqali ifoda etilsa, so‘ng uni «oltin kesim» tamoyili bo‘yicha ikki qismga bo‘lsa, katta kesma 0,618, kichigi esa 0,382 ga teng bo‘ladi. Ba’zi yondashuvlarda «oltin kesim» nisbati qator raqamli o‘zaro nisbatlar sifatida ifodalanishini ko‘rish mumkin: 2/3, 3/5, 5/8, 8/13 va boshqalar.

Qomat proporsiyalari gorizontal bo‘yicha vizual bo‘laklarga ajratish bilan aniqlanadi va u «oltin kesim»ning yorqin misolidir. Ushbu qonunga ko‘ra, inson boshi tana uzunligining 1 / 8 ni tashkil etadi, bel sohasi esa uni 3 / 5 sifatida bo‘ladi. Inson va hayvon skeleti alohida unsurlarining bo‘g‘im joylari oltin kesim nisbati bo‘yicha butun bo‘linish nuqtalaridir. Bu haqiqat mexanik anglamga ega:

unsurlari oltin kesim nisbatida bo‘lgan oshiq-moshiq (sharnirli juftlik) optimal tarzda ishlaydi.



41-rasm. Inson qomati tuzilishida “oltin kesim” nisbati

Kostyumda «oltin kesim» nisbatlaridan foydalanish kuzatuvchi zehnining yanayam uyg‘unlashuviga sabab bo‘ladi va biznes uslubi sifatida tavsiya etiladi. Ayollar kostyumida nisbat yubka uzunligi asosida aniqlanadi.



42-rasm. "Oltin qesim" nisbati asosida kiyimni kismlarga bo’lish

Yubkaning munosib uzunligi tanlanib, «oltin kesim» qoidasiga ko‘ra pidjakning uzunligi hisoblab chiqiladi. Erkaklar kiyimida esa shimning uzunligi nisbatlarni aniqlashda asos sifatida ishlatiladi.

Fibbonachi qatorlari. «Oltin kesim» nisbati asosida bir qator raqamlar tuzilgan bo‘lib, har bir son o‘zidan avvalgi ikki sonning yig‘indisiga teng ekanligi bilan ajralib turadi: 1, 1, 2, 3, 5, 8, 13, 21 va shu kabi. Ushbu qator o‘n ikkinchi asrda yashagan italyan matematigi Fibonachchi[6] (1175 y.) tomonidan kashf etilgan bo‘lib, **«Fibonachchi qatori»** deb nomlanadi. U mana bunday xususiyatga ega - qo‘shni a’zolar o‘rtasidagi munosabatlar ketma-ket sonlarning oshishi bilan 0,618 ga, ya’ni «oltin kesim» nisbatiga tobora yaqinlashib boradi.



43-rasm. Fibonachchi munosabatlari proporsiyasi

Kostyum nisbati – bu uning shaklining qismlari bilan o‘zaro nisbati bo‘lib, xuddi qomat nisbati kabi ular ham gorizontal bo‘linishni nazarda tutadi. Kostyum yaratishda mutanosiblik qonunidan foydalanilarkan, rantasvirning asosi fazo bo‘lsa, kostyumning asosi inson qomati ekanini unutmaslik kerak. Urfdagi kostyumni loyihalash jarayonida, masalan, texnika yoki arxitekturada bo‘lgani kabi asosiy kostyum massalarini joylashtirish haqida o‘ylashning hojati yo‘q, axir tananing o‘zi vertikal o‘qga nisbatan qismlari muayyan joylashuvga ega tartibli tizimdir.

[6] O‘rta asrlardagi oltin kesim borasidagi tadqiqot bo‘lmish «Liber abacci» kesimi Fibonnachchi nomi bilan tanilgan mashhur italyan matematigi pizalik Leonardo nomini olgan (Fibonacci – filius Bonaccining qisqartmasi, ya’ni Bonachchining o‘g‘li degan ma’noni beradi).

Kiyimning turli qismlari, shuningdek, mahsulot uzunligining kengligiga nisbati butun kostyumning mutanosib qurilishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Lif va yubka, yeng, yoqa, detallar va mahsulotlarning qiyosiy uzunligi – bularning barchasi kostyumdagi qomatni vizual idrok etishga, uning mutanosibligini aqliy baholashga ta’sir qiladi. Insonga zeb berishi uchun kostyum unga mos bo‘lmog‘i kerak. Qadimgi faylasuflar formulasi bo‘lmish «Har narsaning o‘lchovi – inson» ta’biri ushbu o‘rinda predmet dunyosi – inson o‘zi uchun yaratgan hamma narsalar miqyosining mohiyatini ifodalaydi. Poyabzal, kiyim-kechak, sumka va hokazolar inson tanasining o‘lcham va nisbatlariga bevosita bog‘liq bo‘lishi kerak. Ba’zan dizayner tomonidan ishlab chiqilgan kostyum tugallanganlik, yaxlitlik tasavvurini bermaydi, ya’ni kompozitsion xususiyatlarga ega bo‘lmaydi. Bunday holda, yuqorida sanab o‘tilgan barcha qoidalarni esga olish kerak, Shundagina kostyum doim bashang va proporsional ko‘rinadi. Turli unsurlarning mutanosib nisbatlarini to‘g‘ri tanlash kostyumning o‘zi va bu libosni kiygan odamning qomatini qabul qilish uchun muhimdir. Kostyum qismlari va unsurlarining mutanosibligi va muvaffaqiyatli tashkil etilishi inson qomatiga joziba bag‘ishlaydi va tashqi ko‘rinishdagi ayrim kamchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Kiyimlarni modellashtirishda nisbatlar shakl yasalishida eng muhim omil hisoblanadi. Oddiy proporsional munosabatlar intuitiv ravishda aniqlanadi yoki moda tendensiyalari bilan belgilanadi. Har bir moda yo‘nalishi kostyumning o‘ziga xos mutanosib chiqishi va kishilarni o‘ziga jalb qilishi bilan xarakterlanadi. Har bir moda yo‘nalishi kostyumni va bilan birga kostyumdagi odamni ham mutanosib ravishda qismlarga taqsimlashni taklif qiladi.

4.2. Kompozitsiyada ritmik va metrik tuzilishlar.

Ritm badiiy asarning va kostyum unsurlarini tashkil etishning eng muhim vositasidir, chunki ritmga asoslangan kompozitsiyani muvofiqlashtirish zarurati biologik ehtiyoj bilan bog‘liq.

Harakatdagi, rivojlanayotgan, tabiat va inson faoliyatida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan nimaiki bor bo‘lsa, bari ritmga bo‘ysunadi. Yurak urishi, nafas olish, kecha va kunduzning almashinishi, suvning ko‘tarilishi va pasayishi ritmga asoslangan. Tabiatdagi turfa xil ritmlar inson hayotiga, faoliyatining barcha shakllariga, mehnat va damni almashib qo‘llash ehtiyojidan boshlab to san’at asarida badiiy shaklning ritmik tuzilmasigacha ta’sir qiladi.

Turli tuyg‘ularning ritmik almashinishi ijobiy emotsiya chaqiradi. Uzoq muddatli birxillik yoki turdosh taassurotlar esa, aksincha, psixikaga ezadi. Pavlovning quyidagi mulohazasini barcha biladi: «bosh miya nerv hujayralari guruhlarini charchagan hujayralar dam olishini ta’minlash uchun almashtirib turish kerak». Shunday qilib, holatni, taassurotlarni, g‘ayrat va dam kabilarni o‘zgartirish zarurati insonning biologik tabiatida mavjud.

Ritm atamasi yunoncha “rhythmos” so‘zidan olingan bo‘lib, takrorlash, almashtirish ma’nosini anglatadi. Muayyan ketma-ketlik, chastota bilan sodir bo‘ladigan har qanday unsurning (ovoz, nutq, va hokazo) almashinishi ritm deb ataladi. San’atning barcha turlarida har doim ritm bo‘lgan. Qadimgi Sharq mamlakatlari san’ati kompozitsiya tartibga solingani, qat’iyligi va ritm mavjudligi bilan ajralib turgan. Qadimgi ossuriyaliklar kiyimida popuklar, naqsh va tikma metall plastinalar ritmi ishlatilgan. Forslar libosida naqsh solib bezatilgan va yo‘l-yo‘l gazlamalarning turli ritmlari bor edi. Qadimgi Misr san’atida friz tasviriy unsurlarning ritmik almashinib turadigan kompozitsiyaning asosiy shakli edi. Ritmlar ko‘krak bezaklari, marjonlar, kiyimlarda qat-qat burma hosil qilishda aks etar edi.

Qadimgi Yunonistonning ritm va simmetriya hodisalarini yaxshi o‘zlashtirgan san’ati Misr san’ati bilan taqqoslaganda yanada jonli, ifodali edi: ayniqsa, yunon hunarmandlari yaratgan buyumlar, jumladan,vazalarning naqshlarida, binolardagi tasvirlarda, haykaltaroshlik namunalarida bu seziladi. Qadimgi yunon kiyimlari turli burmalar va drapirovkalar ritmlariga asoslangan.

44-rasm. Qadimgi yunon ayollar xitonlari

Ritm Uyg‘onish davrida kompozitsiyaning uchta asosiy vazifalaridan biri hisoblangan: perspektiva, tekislikning ritmik bo‘linishi va nuqtai nazar. Buning misoli monumental freskalar va ibodatxonalar rasmlari edi. Ushbu davr liboslarida chiroyli ritmik plash burmalari, murakkab turfa naqshli matolar, yo‘l-yo‘l shim-paypoq matolari, ko‘plab dekorativ kesmalar mavjud edi. Erkaklar kiyimida ko‘plab kontrastli shakllarni sanash mumkin edi: shakllarning farqlanishi, tananing og‘ir, bezaklar bilan to‘ldirilgan va kalta plash yopilgan tepa qismi, pastki qism esa yopishib turgan paypoq-shim bilan beqaror ko‘ringan. Kiyimlar asosan simmetriyaning vertikal o‘qi bilan bog‘liq edi. Qavilgan harbiy kiyimlar qaviq va kesmalarning ritmik qatorlari bilan namoyon bo‘lgan.

Markaziy Osiyo o‘rta asr san’atida ritm hodisalari saqlanib qoladi (o‘rta asr miniaturasida o‘simlik motivlari nozik ritmik naqshlar hosil qiladi). Murakkab takroriy suratlarga ega boy naqshinkor gazlamalar paydo bo‘ladi. XIX – XX-asr boshlaridagi o‘zbek milliy liboslarida ritm erkaklar va ayollar qaviqli kiyim-kechagida, Buxoro, Surxondaryo-Qashqadaryo va qoraqalpoq ayollari liboslarining naqshlarida uchraydi. (45-rasm)

45-rasm. Buxoro erkaklar zardo’zi choponi. XIX asr

Zamonaviy kiyimlarda bezaklar ritmi, mato va trikotaj naqshlari, drappirovka va burmalar juda keng qo‘llaniladi. Musiqa, raqs, she’riyatda ritm o‘z vaqti bilan «ochilib boradi». Arxitektura, tasviriy va amaliy-dekorativ san’atda u unsurlarning almashinishi yoki ma’lum makonga doir xususiyatlarning muntazam o‘zgarishi bilan his etiladi. Ritm tartibni, dinamikani va go‘zallikni ifodalashga xizmat qiladi, bu shaklning turli xil yoki bir xil unsurlarini uyg‘un tartibga solishning eng muhim vositalaridan hisoblanadi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, tekislik yoki fazodagi shakl unsurlarining va ular orasidagi intervalning takroriyligi ritm alomatidir. Bitta motivning yoki shaklning ritmik takrorlanishi bir me’yorda bo‘lgan yoki bir me’yorda bo‘lmagan (o‘suvchan yoki kamayuvchan) bo‘lishi mumkin.

Ikki turdagi:

- oddiy (statik yoki metrik)
- va murakkab (dinamik) takroriylik ko‘p ishlatiladi.



Kompozitsiyada *metrik takrorlanish* (ba’zan “metr”deb ataladi) – bir xil kompozitsiya unsurlarining teng intervalda

Statik-ritmik qator (yoki metrik ritm) –kompozitsiyada bir xil shakllar orasidagi teng intervallar tarkibida takrorlanuvchi ritmning oddiy ifodasidir.

Dinamik-ritmik qator – murakkab ritm bo‘lib, unsurlarning (motivlarning) o‘lchamlari va ular orasidagi intervallarning muayyan matematik qonun bilan o‘zgaruvchanligi bilan ifodalanadi. Bunda matematik qonuniyat arifmetik yoki geometrik progressiya va boshqalar bo‘lishi mumkin.

Shakl va intervallarning takroriyligi asosida yaratilgan oddiy qonuniyat shakllar va intervallar tengligi, ya’ni bir xil shakllarning teng intervalda takrorlanishidir. Shakl yoki shakl unsurlari joylashuvining bunday tartibi metrik tartib deb ataladi.

Shakl yoki intervallarning ketma-ket qonuniy o‘zgarishi, ko‘payishi yoki kamayishi shakllarning ritmik tartibini tavsiflaydi. Har ikkala holatda ham shakllar va intervallarning takrorlanishiga duch kelamiz.

Metrik tartiblar shakl elementlari va ular orasidagi intervallarni tuzish bo‘yicha uchta sxemada taqdim etilishi mumkin.

Metrik tartiblarning asosiy sxemalari teng oraliqlar orqali teng shakllarning takrorlanishi (46-rasm, a) va teng shakllarning takrorlanishi bo‘lib (46-rasm, b), bu yerda interval shaklni ajratish chegarasi hisoblanadi. Metrik tartibning turlaridan biri bo‘lgan radial ritm sxemasi(46-rasm,v).



46-rasm. Metrik tuzilishlar

Ritmik qator qonuniyati tabiiy sonlar qatori bilan ifodalanishi mumkin: 1, 2, 4, 5, 6, 7. Progressiyaga asoslangan ritmik qator qonuniyati har qanday qo‘shni intervallar orasidagi doimiy farqni saqlashi yoki keyingi har bir elementning yoki intervalning qiymati avvalgi sonning qiymatiga teng bo‘lib, doimiy songa ko‘paytirilishi mumkin, masalan, ikkiga: 1-2 = 2; 2-2 = 4; 4-2 = 8; 8-2= 16.

Ritmik tartiblar to‘rtta asosiy sxema bo‘yicha taqdim etilishi mumkin. Ritmik tartiblarning asosiy sxemalari:

- birinchi sxema o‘zida teng elementlar orasidagi intervallar o‘zgarganida ularning almashuvini ifodalaydi;
- ikkinchi sxema – shakl elementlari ortadi yoki kamayadi, interval esa o‘zgarmaydi;
- uchinchi sxema – shakl elementlari ham, ular orasidagi intervallar ham ortadi yoki kamayadi;
- to‘rtinchi sxema – shakl elementlari va intervallar ularning radial joylashuvi bilan ortadi yoki kamayadi.

Ushbu ikki ritm asosida turli xil tartiblarning cheksiz to‘plami hal qilinishi mumkin.



47-rasm. Ritmik tuzilishlar

Shuni ta’kidlash kerakki, metrik tartibdan foydalanish mo‘tadil tarzda amalga oshirilishi kerak, chunki bir xil elementlarning ko‘p takrorlanishi birxillikni, monotonlikni keltirib chiqaradi.

.



48-rasm. Ritm “tempi”

Ritmik qator qurilishi qonuniyati idrok etiladigan bo‘lishi kerak. Ritmik qatorni idrok etishning asosiy qoidasi – element yoki intervalning kamida 3-5 marotaba majburiy takrorlashdir.

«Uch» raqami (qadimgi afsonalarga ko‘ra – mo‘jizakor son) – har qanday xilma-xillikni ochiq va qat’iy aniqlash imkonini beruvchi minimal raqam. Hatto oddiy geometrik unsurlarning ritmik tuzilmasi badiiy ifodani kuchaytirib, ma’lum

kayfiyatni yaratishga qodir. Ritmik kompozitsiyaning hissiy ta’siri qanchali kuchli bo‘lsa, turli xil ritmik qurilmalarni qo‘llash yanada faollashadi va xilma-xillashadi.

Teng o‘lchamdagi unsurlarning almashinishi bir me’yordagi harakatni ifodalaydi. Ushbu harakatda ayrim unsurlar vizual «urg‘u» bilan ajralib turadi. Urg‘ulantirilgan unsurlar “faol” deb ataladi; urg‘usi bo‘lmagan unsurlar esa nofaol hisoblanadi. Faol va nofaol unsurlarning bir me’yordagi almashinuvi “metr” deb ataladi. Bir faol unsurdan ikkinchisigacha bo‘lgan masofa dinamik qadam deyiladi. Unsurlar harakatining ko‘tarilish tezligi “temp” deb nomlanadi. Temp sekin, mo‘tadil va tez bo‘lishi mumkin. Kompozitsiyani yanada ifodali qilish uchun harakatni tezlashtirish, dinamikasini kuchaytirishning turli usullari qo‘llaniladi.

Ritm katta ahamiyatga ega bo‘lib, shakl dinamikasini, uning tashkil etilishini va tasvirning xarakterini belgilaydi. Shu bilan birga, ritmik tizimlarning ifoda imkoniyati chegaralari bor. Agar musiqada bir nota to‘xtovsiz takrorlansa yoki arxitekturada me’moriy kompozitsiya faqat bitta unsurni takrorlash bilan qurilgan bo‘lsa, unda zerikarli monotonlik yuz berishi muqarrar. Shuning uchun kompozitsiyada ritmik tizimlar qatorida tasodifiy unsurdan foydalanish ham bo‘lishi mumkin. Ritm qonuniyati va unsurlarning tasodifiy to‘planishi o‘rtasidagi kontrastdan foydalanish ifodani kuchaytiradi.

Fazoviy joylashuviga qarab kostyum tarkibida turli ritmlardan foydalaniladi, ular bir biridan tuzilishi bo‘yicha farqlanadi:

- gorizontal – gorizontal chiziqlar, burmalar, volanlar;
- vertikal – vertikal burma, qisqich, chiziq, chok va hokazolar;
- diagonal – diagonallar kostyumning konstruktiv-dekorativ chiziqlarini yoki matoning bosma naqshini hosil qiladi;
- spiral – kostyum atrofida aylanuvchi volan, tasma va spiral bezaklar joylashtirish;
- radial-nurli – drapirovkaning engil burmalari yo‘nalishi, kostyumning konstruktiv-dekorativ chiziqlari bir nuqtadan sochilayotgan nur shaklida.

49-rasm. Kostyumda ritmni qo’llanilishi

Ular turiga qarab, shaklga turli xil harakat belgilarini berishi mumkin. Shunday qilib, spiral, diagonal va shu’lasimon-nurli ritmlar shakl unsurlariga jadal harakat beradi.

Kostyumda metrni ishlatish juda keng tarqalgan: burma, tugma, naqsh kabilar shular jumlasidandir. Kostyum unsurlarining metrik muvofiqligi tasvirni o‘lchamli yoki statik qiladi. Kostyum unsurlarining metrik muvofiqligi – qatorlangan (burmalar) va o‘q bo‘ylab (tugmalar, cho‘ntaklar) bo‘lishi mumkin.

Kostyumdagi ritm asosida juda ko‘p narsa quriladi:

- burmalar, faldalar, volanlar, yig‘malar (50-rasm);

- yo‘l-yo‘l, katak, naqshli matolar, rapportli gazlama;

- jiyak, qisqichli, bufli, burmali, qaviq chokli, kashtali, popukli, shisha munchoqli bezaklar (50-rasm);

- mato qatlarining ritmik takrori;

- ilgakli tugmalar, knopkalar, turli xil furnitular, molniya, bog‘ichlar, bantlar;

- relyeflar, naqshlar, rezinka va boshqalar (51-rasm).

Ko‘pincha kostyum kompozitsiyasida bir nechta ritm turlari ishlatiladi, chunki ritmlashtirish shaklning barcha xususiyat va unsurlarini o‘z ichiga oladi:

shakl qismlari hajmi, konstruktiv va dekorativ chiziqlar, turli fakturalar o‘rni, yorug‘lik va rang munosabatlari, detallar o‘lchami va joylashuvi va boshqalar.



50-rasm. Kostyum qismlarining ritmik bezatilishi



51-rasm. Kiyim shakli va detallari ritmik tuzilishi

Tez-tez kompozitsiyada ritm va metrning bir vaqtning o‘zida bo‘lishini ko‘rish mumkin. Har qanday holatda ham, muvaffaqiyatli tanlangan ritmik tuzilma kostyumga alohida musiqiylik baxsh etadi, obrazliligini, g‘oyaviy jarangdorligini kuchaytiradi. Kiyimdagi ritmni yangilab, uni idrok etish xarakterini ham to‘liq o‘zgartirish mumkin.

V BOB

KOMPOZITSIYANI UYG‘UNLASHTIRISH USULLARI

5.1. Kontrast, nyuans va o‘xshashlik

Kompozitsiya kiyim dizaynida shakl tuzilishining umumiy qonuniyatlarini belgilaydi. Funksional, konstruktiv va estetik qiymatga ega bo‘lgan, amaliy o‘rinli buyum shakli olish kompozitsiyaning maqsadi hisoblanadi. Kompozitsion izlanishlar loyiha muammolarini hal qilish uchun muayyan uslublardan foydalanishga asoslangan:

- kontrast, nyuans, o‘xshashlik;
- masshtab, kompozitsiya keng ko‘lamligi;
- simmetriya, assimetriya;
- statika, dinamika.

Kostyum yaxlitligini ta’minlovchi muhim prinsip – barcha unsurlarining muvofiqligi va bir-biri bilan aloqadorligidir. Kompozitsiyaning xarakterli xususiyati shundaki, uning har bir unsuri alohida emas, balki boshqa unsur va shakllar doirasida va o‘zaro bog‘liq. Kompozitsiyaning alohida tarkibiy qismlarini taqqoslash uchta variantga asoslangan bo‘lishi mumkin: kontrast, nyuans va identifikatsiya.

Kompozitsiyaning eng ifodali vositalaridan biri – kontrastdir.

Kontrast – bu ikki o‘xshash xususiyat: shakl, o‘lcham, plastika, rang, uslublar o‘rtasidagi keskin ifodalangan farq. Misol uchun, unsurlarning kontrasti taqqoslanganda katta va kichik, qoramtir va och, silliq va dag‘al va hokazolar aytiladi. Badiiy ijodda kontrastning ahamiyatini ta’kidlarkan, E.Kibrik shunday degan edi: «Kompozitsiya ifodasi uning asosini tashkil etuvchi kontrastlarga bog‘liq. Kompozitsiya nafaqat turli, balki hajm va tekislik, yorug‘lik va soya, katta va kichik, yaqin va uzoq, sovuq va issiq rang kabi qarama-qarshi unsurlarni ham birlashtiradi…»

Modellashtirishda kontrastning ahamiyati juda katta, chunki u yaxlitroq ifoda shaklini yaratadi, xususiyatlar farqiga diqqatni tortadi va kostyumning umumiy shakliga dinamiklik beradi (52-rasm).

Kontrastlar kompozitsiyaning ta’sir etuvchi kuchi bo‘lib, uning ifodasini belgilaydi. Zid birikmalarni idrok etish sifatida kontrastlarlarning ahamiyati juda yuqori. Kontrastli taqqoslashlar butunni idrok etish keskinligining kuchayishiga yordam beradi. Kontrast kuchayadi, shakllar xususiyatlarining farqini ta’kidlaydi, ularning birligini yanada kuchliroq, ta’sirchan qiladi. Inson atrofidagi buyumlarni, avvalambor, ularning silueti kontrastiga qarab atrof-muhitdan farqlaydi. Tanish shakllar, buyumlarni uzoq masofadan ularning siluetiga qarab ajratamiz. Siluet san’atda katta ahamiyatga ega. Odam buyum shaklini nur va soya kontrasti tufayli qabul qiladi. Oqish va qoramtir bo‘yoqlarning to‘liq yo‘qligi tekislik tasavvurini yaratadi.

52-rasm. Kostyum shakli kontrasti

Kontrastlilik darajasini tanlash dizaynerning badiiy didi va amaliy tajribasi asosida aniqlanadi hamda katta darajada loyihalanayotgan buyumning vazifasiga bog‘liq bo‘ladi. Kontrastning yetishmasligi kompozitsiyaga etarli ifoda berolmasligi mumkin, uning haddan ortiqligi esa kompozitsion birlikni yo‘q qiladi. Shu bois kontrastlilik o‘lchovi kompozitsiyaning yaxlitligini saqlab qolish talablari bilan cheklangan bo‘lishi kerak.

Nyuans – kontrastning aksi, ya’ni buyumning bir turdagi sifatlari orasidagi yengil farq. «Nyuans» so‘zi «og‘ish», «arang seziladigan o‘tish» degan ma’noni anglatadi. Masalan, qora va oq ranglarni taqqoslaganda faqat shu ikki ton va ikkisi

orasidagi keskin chegara seziladi. Nyuans nisbatida har doim oqdan qora rangga kulrang gradatsiyalar orqali ketma-ketlik bilan o‘tish mavjud.

Nyuans – o‘xshashlik unsurlari xarakterlarining uncha katta bo‘lmagan farqlari. Nyuans munosabatlari kiyim-kechakni modellashtirishda: konstruktiv chiziqlar, detallar, ranglar, fakturalar va nihoyat, shakllarning o‘zaro nisbati kabilarda juda keng qo‘llaniladi. O‘xshashlik unsurlari konstruktiv chiziqlarda, shaklning bitta detali takomillashib, kichrayish yoki kattalashishning turli variantlarida takrorlangan joylarda uchraydi. Pastel ranglar nisbati ishlatilganda modelning umumiy koloristik gammasidagi rangin nyuans munosabatlar yaxshi qabul qilinadi. Fakturali nyuans munosabatlar matolar (yoki polotno) ning bitta modelida, fakturalarning silliq va murakkab rivojlanishidan kelib chiqadigan sheriklaridan foydalanishga asoslangan. Nyuansdan foydalanilganda xarakterli unsurlarning yengil farqlari aniq ko‘rinishi, ko‘z bilan his qilinishi kerak.

Nyuans ham xuddi kontrast kabi badiiy dizayn ifoda uslubi hisoblanadi. U o‘zida buyumning bir turdagi sifatlari munosabatlarining gradatsiyasini: o‘lchovlar, nisbatlar, ranglar, uslublar va boshqalarni ifodalaydi. Nyuans mahsulot kompozitsion tuzilishidagi monotonlikni va shakl qat’iyligini yumshatadi. Nyuans – izchil o‘tish. Masalan, og‘irdan yengilga, qoramtirdan och rangga, kattadan kichikka, oddiydan murakkabga va shunday davom etaveradi. Agar u kuchaytirilsa, u kontrastga o‘tadi. Agar qattiq zaiflashtirilsa, vizual qabul qilinmaydigan, ya’ni o‘xshashlikka aylanib qoladi. SHunday ekan, nyuanslashtirish – kompozitsiya vositalarining eng nozigi, uni ishlatish esa murakkab vazifa hamda dizaynerdan yuqori malakani talab qiladi. Agar kontrast ko‘pincha mahsulotning funksiyasi yoki dizayni bilan bog‘liq bo‘lsa, unda nyuans ham, boshqasi ham aniqlanmaydi. Kontrast ko‘pincha mahsulotning funksiyasi yoki dizayni bilan ta’minlansa, u holda nyuans unisi bilan ham, bunisi bilan ham belgilanmaydi. U shakl, material, rangning badiiy anglanishi va asosan, dizaynerning o‘ziga xosligiga bog‘liq. Rang gammalari nyuans, ranglardagi nozik farq va nimoch ranglar birikmasi asosida qurilgan kostyum bir xil rangda hal

qilingan boshqa kostyumdan ko‘ra to‘kisroq, murakkab va hashamdorroq ko‘rinadi. Ushbu tamoyil dizaynerning shaxsiy ijodi uchun keng imkoniyat yaratadi.

Agar kompozitsiyada unsurlarning o‘lchami, shakli, uslubi, rangi va boshqa xususiyatlari bilan to‘liq o‘xshashligi bo‘lsa, unda gap o‘xshashlik borasida ketmoqda.

O‘xshashlik – shakllar, o‘lchamlar, plastika, ranglar, faktura xususiyatlarining tengligidir. O‘xshashlik – bir xil unsurlarning ketma-ket takrorlanishi sodir bo‘lgan hollarda qo‘llaniladi, shuning uchun u takrorlashga asoslangan kompozitsion vositalar bilan bog‘liq.

Kostyumdagi o‘xshashlik (bir xillik, analogiya) – turli variantlarda uchratiluvchi unsurning kostyumda takrorlanishidir. Aytaylik, dekorativ detal bo‘lmish zanjir –ham sumkaning bandi, ham soat tasmasi bo‘lishi, yana jaket cho‘ntaklari bezagi yoki bo‘yin ro‘molida naqsh bo‘lib takrorlanishi mumkin. Bugungi kunda bunday usul fantaziya va individuallikdan mahrumdek, o‘ta boshqariluvchandek ko‘rinadi.

Kompozitsiyaning ifoda vositasi sifatida kontrast, nyuans yoki o‘xshashlikni tanlarkan, rassom ko‘plab omillar: buyum funksiyasi, uning konstruksiyasi, obraz yechimi kabilarga tayanadi.

Bitta kompozitsiyada kontrast, nyuans va o‘xshashlik baravar mavjud bo‘lishi mumkin. Misol uchun, agar kompozitsion markazni tanlash va boshqa unsurlarni bo‘ysundirish kerak bo‘lsa, ikkinchi darajalilarga nisbatan asosiy unsur kontrast bo‘lishi kerak, ular esa o‘z navbatida o‘zaro nyuans yoki hatto o‘xshashlik munosabatlarida bo‘lishi mumkin.

Kostyum kompozitsiyasida kontrast yoki nyuans yechimni tanlash har doim kostyum vazifasi va umumiy badiiy g‘oyaga, demakki muallifning kuzatuvchi hamda loyihalashtirilgan libosning bo‘lajak egasiga yetkazishni istagan kayfiyatga bog‘liq.

Kontrast kompozitsiyasi faol qo‘llaniladi, boisi kamida ikkita omilning to‘qnashuvi shaklga ifoda bag‘ishlaydi, uni yanada ko‘rimli qiladi, kundalik turmushdan ko‘taradi. Shuning uchun kompozitsiyasi kontrastga asoslangan kostyum doim g‘ayrioddiy, original va bir maqsadning – egasini ajratib ko‘rsatish payidan bo‘ladi.

Kontrast munosabatlar darhol ma’lum bo‘ladi va ushbu vositadan foydalanish qobiliyatiga qarab, idrokning tegishli reaksiyasini keltirib chiqaradilar. Kontrastdan foydalanish shaklni faollashtiradi, ammo shunda ham uyg‘unlikni kafolatlamaydi. Kontrastlarga asoslangan shakllar doim mazmunli, ko‘zga yaqin hamda esda yaxshi saqlanadi. Shu bilan birga, kontrastning ortiqchaligi yoki uni noto‘g‘ri ishlatish kompozitsiyani buzadi. Agar kontrast juda keskin bo‘lsa, unsurlarning kompozitsion aloqasi yo‘qolishi mumkin. Bunday shakl qismlarga bo‘linib ketadi.

Unsurlari nyuans munosabatli kostyum ko‘zga tashlanmaydi, uning estetik afzalliklari darhol ma’lum bo‘lib qolmaydi, diqqat bilan ko‘rib chiqishni taqazo etadi. Nyuans odatda xushbichimlikka erishishning asosiy vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, aniq xulosaga kelish mumkin: kontrastni yoki nyuansni tanlash asosan kostyumning funksional maqsadi va sohibining yosh guruhi tomonidan belgilanadi. Bayram va tantanavor tadbirlar uchun libos yaratishda, shuningdek, faol hordiq va sport kiyimlari uchun ham kontrast prinsipi qo‘llanillansa maqsadga muvofiq.

Shunday bo‘lsada, juda «mana-man deb turgan» kiyim ish muhiti uchun noo‘rin va hatto kishining g‘ashini keltiradigan bo‘ladi, shu sabab kundalik ish kostyumi nyuans prinsipiga asoslanadi.

Boshqa tomondan, kontrast yechimga ega kiyimlar bolalar va yoshlar uchun juda mos keladi, bu ularning o‘ziga xoslikka, originallikka, birmuncha maksimalizmga intilishlarini ifodalaydi. Katta yoshdagi odamlar ko‘zga ko‘pam

tashlanmaydigan, ammo unsurlari nyuans nisbatdagi xushbichim liboslarda o‘zlarini qulay his etadilar.

Kostyumda kontrast va nyuans turli ko‘rinishlarda: shaklda, plastikasining xarakterida, qismlari va unsurlarining o‘lchami, rangi va tonal nisbati, kostyumni tayyorlash uchun ishlatiladigan materiallar fakturasi kabilarda ifodalanishi mumkin.

53-rasmda badanga yopishib turadigan «X» siluet kostyumlari tasvirlangan. Ikkala holatda ham nozik bel shaklni ikki teng bo‘lmagan qismga – yuqori va pastki qismga bo‘ladi.

Birinchi variantda hajmi kichik bluza bilan uzun va pastki qismi o‘ta kengaytirilgan yubka bilan kontrast qilinadi. Ikkinchi holatda ko‘rsatilgan kostyum nyuans prinsipiga asoslangan – kalta yubka kichik jaketdan biroz farq qiladi. Ikkinchi kostyum sokinroq ko‘rinadi.

53-rasm. “ X "silueti kostyumlarining eskizlari:

a) pastki va yuqori qismlar vaznining kontrast nisbati bilan;

b) yuqori va pastki qismlar vaznining nyuans nisbati bilan;

Ton kontrasti, ya’ni oqish va qoramtir kontrasti kompozitsiyaga alohida keskinlik beradi. Hammasidan ko‘ra qora va oq ranglar birligi kontrastliroq hisoblanadi. Ton kontrasti prinsipi asosida yaratilgan kostyum hamisha faol xarakterga ega va oddiy shaklda ham juda ma’nodor sanaladi. Quyidagi holatni hisobga olish muhim: kontrastli tonlarni birlashtirganda, ulardan hajman kichikroq maydonni egallagani faol bo‘ladi. Masalan, qora libosda kichik detallar – yoqa, manjetlar va boshqalar alohida urg‘u oladi.

Kostyumni loyihalashda, kontrast kompozitsiyaning faol vositasi bo‘lib faqat bitta yoki ikkita holatda qo‘llanilishi mumkinligini yodda tutish kerak, qolganlari esa nyuans prinsipiga muvofiq tartibga solinishi zarur. Kontrastni shaklda, tonda, rang va uslubda baravar ishlatish muqarrar ravishda kostyumning qabul qilishda tushunmovchilik, kompozitsiyasida chalkashlik keltirib chiqaradi, ortiqchalik va haddan tashqarilik kuzatuvchida yoqimsiz his tug‘diradi. Nyuans kompozitsiyasi esa osoyishtalik, barqarorlik, muvozanat tuyg‘usini beraradi. Bunday kiyimlarning biroz monotonlik beradigan xarakterini sharf, bosh kiyim, sumka kabi shakldagi kontrastli urg‘u bilan oson o‘zgartirish mumkin. SHu bilan kompozitsiya yaxlitligi buzilmaydi, kostyum obrazi esa sezilarli o‘zgaradi.

Kompozitsiyada nyuans yoki kontrast tanlovi doim ongli va o‘rinli bo‘lishi kerak. Kontrast yanada faol kompozitsiya yaratish imkonini beradi, ammo shaklni kontrast orqali uyg‘un yaxlitlikka keltirish nyuansdan ko‘ra ancha murakkabroq. Bundan tashqari, kontrastli kompozitsiya tezda psixologik toliqishga, zerikishga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, faqat nyuans asosida qurilgan kostyum kompozitsiyasiga uni jonlantirish uchun ko‘p hollarda kontrast unsuri kiritish talab etiladi. Ushbu ikki qarama-qarshi asosning bir mahsulotda jamlanishi uyg‘un, ifodali, ohangdordor shakl yaratishda modelyerga yordam beradi.

5.2. Kompozitsiya keng ko‘lamliligi

Yaxlitlik kompozitsiyaning boshqa vositasi – tobelik bilan bog‘liq va elementlarning o‘zaro bo‘ysunish qonuniyatiga rioya qilingan holda erishiladi, bu

talabsiz esa u o‘z ifodasini yo‘qotadi. Inson tanasining jismoniy parametrlari bilan kostyumning o‘lchamliligi, kompozitsiya unsurlarining kostyum ko‘lamiga bo‘ysunishi kostyumning ifodasini, uning plastikasini belgilaydi va butunlay uning ko‘lamdorlik qurilish hisoblanadi.

Ko‘lamdorlik – kostyum shakli va uning unsurlari inson qomatiga mos kelishi demak. Shaklning barqarorligi va muvozanati ko‘lamdorlik bilan bog‘liq. Boshqacha qilib aytganda, ko‘lamdorlik – bu shakllar kontrasti, ammo bunda tuturuqsizlikka olib bormaslik zarur. Kostyumni tashkil etuvchi barcha shakllar insonning real qomati nisbatlariga bo‘ysunishi kerak.

Qadimgi yunon faylasufi Pifagor insonni hamma narsaning o‘lchovi deb aytadi. Biror bir obyektning o‘lchamlarini o‘z bo‘yiga nisbatan aniqlashi insonga xos xususiyat. Avvalo, bu inson tomonidan yaratilgan buyumlar dunyosiga tegishli.

Odamlar tomonidan hayot faoliyati davomida yaratilgan moddiy muhit, binomi, uy-ro‘zg‘or buyumlari yoki kiyim-kechak bo‘lsin, ko‘lamli, ya’ni insonga mos keladigan, demakki amaliy foydalanishda qulay bo‘lishi kerak. Misol uchun, mebelni loyihalashda uning umumiy shakli va qismlarining o‘lchamlarini aniqlashda nafaqat estetik parametrlar, balki ergonomika (o‘rindiqning balandligi va chuqurligi, suyanchiqning shakli, shkaflar eshigini ochishda tutqichlarning joylashuvi kabilar) ham ekspluatatsiyaning qulayligini ta’minlaydi.

Libos ko‘lamdorligi me’morchilik yoki texnikada bo‘lgani kabi namoyon bo‘lmaydi. Inson kiyimni kiyib (ya’ni uning ichida) harakatlanadi. Agar teatr yoki sahna liboslari emas, balki uy-ro‘zg‘or kiyimlari haqida gapiradigan bo‘lsak, kompozitsiyaning barcha vositalari uning umumiy massasi, bo‘linishlari va detallari inson qomatiga mos kelishiga, uni utilitar va estetik ma’noda ishlatishning qulayligini ta’minlashga qaratilishi kerak.

Kostyum kompozisiyasida ko‘lamdorlikka rioya qilish shuning uchun zarurki, uning yo‘qligi insonning tashqi qiyofasida mubolag‘a, komik ko‘rinishga keltiradi. Ushbu uslub, ya’ni ko‘lamdorlikning buzilishi sirk va teatr san’atida, shuningdek, karikaturada muvaffaqiyatli ishlatiladi. Ammo agar bu kundalik kiyiladigan kostyumda ishlatilsa, uning asosiy vazifasi – inson, o‘z sohibiga jismoniy va psixologik qulaylik ta’minlashi yo‘qoladi.

.

54-rasm. Kompozitsiya keng ko’lamliligi buzilishi

Badiiy dizayn jarayonida to‘g‘ri topilgan kostyumning massasi inson shaklining o‘lchamiga mos kelishi nafaqat qomatning qadr-qimmatini ta’kidlabgina qolmay, balki ba’zi nuqsonlarini yashirish, silliqlash imkonini beradi.

Ko‘lam – buyumning nisbiy qiymati. Kompozitsiya unsurlari o‘lchovdosh bo‘lmasligi mumkin. Darhaqiqat, agar qomatga nisbatan yetarli hajmga ega bo‘lmasa, palto va po‘stin tashqi kiyim sifatida qabul qilinmaydi. Bunday holatda kompozitsiya yaxlitligi bilan ajralib turmaydi, chunki kuzatuvchi uchun tushunarsiz bo‘ladi. Unsurlarning har xil ko‘lamliligi doim kostyumning yaxlit idrok qilinishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Rasmda tasvirlangan gul shaklidagi bezak kichik qora libosga nisbatan juda katta ko‘rinadi.

Dizayner tomonidan shaklni vizual idrok etish qonuniyatlarini qo‘llash orqali ko‘lamdor ifodaga erishiladi. Haqiqatan ham, ko‘p sonli bo‘linishlar shaklga

bo‘linmaslikka nisbatan ko‘proq ko‘lam bag‘ishlaydi. Och rangli palto yoki ko‘ylak o‘ziga o‘xshagan, ammo qoramtir tusli mahsulotlarga qaraganda doim kattaroq ko‘rinadi. Bunday illuziyalar juda barqaror. Ularning yordami bilan kostyumning uyg‘un kompozitsiyasini yaratish uchun ko‘lamni to‘g‘rilab olish mumkin.

Shubhasiz, mahsulotning ko‘lamdorligiga erishish mutanosiblik bilan bevosita bog‘liq. Kostyumdagi nisbatlarni izlash jarayonida ushbu detal kishi qomatiga mosmi, libosning umumiy siluetiga, shaklning u yoki bu bo‘linishi maydoni yoki joylashuviga to‘g‘ri keladimi degan so‘roq tez-tez paydo bo‘ladi. Bo‘linish maydoni, o‘z navbatida, yaxlitligicha shakl maydoniga bog‘liq.

55-rasmda kostyum tasvirlangan bo‘lib, ergonomik talablarga mos kelmaydigan o‘ta katta cho‘ntaklar juda past joylashtirilgan. Ko‘lamdorlikning bunday buzilishi nafaqat mahsulot ko‘rinishini buzadi, balki undan foydalanishda noqulaylik tug‘diradi.

To‘g‘ri topilgan kostyum shaklining ko‘lamdorligi, bo‘linishi uning inson qomatiga nichbatan o‘lchami uni bejirim, xushbichim, yengil qiladi. Topilmagan ko‘lamdorlik odatda kiyim, uning shakli va detallari qomatni og‘irlashtiradi, uni juda katta, beo‘xshov ko‘rsatadi.

55-rasm. Kostyumning buzilgan keng ko‘lamliligi detallari

Ko‘lamdorlik haqidagi tasavvurlar va uning ifodaliligi, umuman san’atda va xususan, kostyumda hukmronlik qiladigan badiiy uslubning estetik g‘oyalariga qarab vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi mumkin. Biroq, kiyimni loyihalashda dizayner

qanday variantga to‘xtalishidan qat’iy nazar, kostyum odamni na jismoniy, na ruhiy tomonlama ezmasligi kerak.

Shunday qilib, kostyum kompozitsiyasida to‘g‘ri ko‘lamdorlikni tanlash juda muhim vazifadir, uning yechimi asosan kiyimning umumiy idrok etilishiga va uning sohibi bo‘lmish odamning qiyofasiga bog‘liq.

5.3. Simmetriya va assimetriya

Rassomning asosiy maqsadi – Uyg‘un birlik yaratishdir. Kostyumning kompozitsion yaxlitligi uning tarkibida muvozanat mavjud bo‘lganda, ya’ni shaklning barcha unsurlari va qismlari bir-biri bilan muvozanatlashgan holatida erishiladi. Kostyumning kompozitsion muvozanati uning markaziga nisbatan shaklning asosiy massalarini taqsimlashga bevosita bog‘liq va kostyum siluetidagi makonni tashkil etishning tabiatiga aloqador.

Kostyumda kompozitsion muvozanatga erishish, asosan, tabiatan barqaror bo‘lgan inson qomatining muvozanat tuzilishi bilan bog‘liq. Inson qomati muvozanatining asosiy shartlaridan biri uning simmetriyasi sanaladi.

Yunon tilidan tarjima qilinganda «simmetriya» so‘zi «mutanosiblik» degan ma’noni anglatadi.

Simmetriya – unsurlarning nuqta, o‘q yoki tekislikka nisbatan bir xilligidir. Simmetriya tabiatdagi barcha tirik va jonsiz narsalar – barglar, gullar, o‘tlar, hasharotlar, kristallar va boshqalar uchun xosdir. Inson tanasi – simmetrik bo‘lib, vertikal o‘q simmetriya bo‘yicha tepadan pastga tanani kesib o‘tadi. Simmetriya o‘qi inson tanasini o‘ng va chap yarmiga bo‘linadi, bu yaxlitlik muvozanatini ifodalaydi.

Simmetriya kompozitsion usullar orasida o‘zining yorqinligi bilan ajralib turadi, uning yordami bilan shakl tartiblanadi, barqaror va stabil bo‘ladi. *Asimmetriya* – simmetriyaga zid tushuncha bo‘lib, uning yo‘qligi yoki buzilishini ifodalaydi (56-rasm).



56-rasm. Simmetriya va assimetriya

Simmetriya va asimmetriya tushunchasi an’anaviy tarzda kostyum va uning kompozitsion unsurlarida kompozitsion shaklni tashkil etishning samarali vositasi sifatida qaralgan.

Tabiat va san’atda bir nechta simmetriya turlari mavjud bo‘lib, ularni quyida ko‘rib chiqamiz:

oynali simmetriya – eng oddiy va keng tarqalgan simmetriya turi bo‘lib, obyekt yoki kompozitsiyaning yarmi boshqa yarmini aks ettiradi. Tasvirni yarmiga ajratadigan simmetriya tekisligi odatda vertikal holda joylashadi. Ushbu turdagi simmetriya namunalari sifatida harakatsiz holatdagi inson qomatining old silueti vertikal simmetriya o‘qi (tekislik) bilan, barglar, kapalak kabilarni keltirish mumkin;



57-rasm. Oynali simmetriya

markaziy o‘qli simmetriya – simmetriyaning ushbu shaklida teng qismlar markaziy o‘q atrofida joylashadi va uning atrofida aylanayotganda ular bir-biriga butunlay qo‘shilib ketadi. Bunday simmetriyaga misol sifatida to‘pgullar, doira ichidagi naqsh, moychechak, kungaboqar, fontan kabilarni aytish mumkin;



58-rasm. Markaziy o‘qli simmetriya

vint va spiral simmetriyasi – simmetriya shaklida kompozitsiya o‘qi atrofidagi unsurlarni aylantirib, ayni paytda bu o‘q bo‘ylab harakat qilish orqali yaratiladi. Spiral simmetriyada unsurlar bir tekislikda harakatlanib, asta-sekin markazga yaqinlashadi.



59-rasm. Vint va spiral simmetriyasi

Simmetriyaning turlari buyumlarning estetik idrokiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi: oyna simmetriyasi muvozanat va osoyishtalik hissi bersa, spiral simmetriya – harakatga olib keladi. Ushbu tushunchalar simmetriya o‘qlari va tekisliklarini nazarda tutadi, o‘z navbatida bu kompozitsiyani birlashtirishga, kompozitsiyaning yaxlitligini va shaklni idrok etishni ta’minlashga yordam beradi. Asosiy o‘q bilan bir qatorda unsurlar joylashuvini tavsiflovchi qo‘shimcha o‘qlar ham bo‘lishi mumkin.

Simmetriya tekisligi deb frontal siluet markazidan o‘tuvchi va uni ikkita teng oynali qismlarga ajratadigan (kesadigan yoki qirqadigan) tekislikka aytiladi.

Simmetriya o‘qi deb simmetriya tekisligida va asos tekisligiga perpendikulyar joylashgan vertikal chiziqqa aytiladi. Inson qomatining, binobarin, kiyim-kechakning ham simmetriya o‘qlari old va orqa tomonning o‘rtasi bo‘ylab vertikal joylashgan. Ushbu holatda simmetriya o‘qi bir paytning o‘zida muvozanat o‘qi ham hisoblanadi. Asosan, deyarli barcha turdagi kiyimlar simmetriya asosida yaratiladi.

Kostyumdagi simmetriyani turli ko‘rinishlarda: shakl, siluet, bichimda, qismlarning taqsimlanishi (cho‘ntaklar, qopqoqlar), dekorativ bezaklarni joylashtirish, rangli dog‘lar kabilarda kuzatish mumkin. Simmetriya yorqin kompozitsion vositalardan biri bo‘lib, u bilan shakl tartibga, turg‘unlik va barqarorlikka keltiriladi.

To‘liq simmetriyaga rioya qilinsa, ba’zi bir statik xususiyatlari bilan ajralib turadigan butkul muvozanatli shakl hosil bo‘ladi. Buni 60-rasmda ko‘rsatilgan kostyum misolida ko‘rish mumkin.

Inson tevarak atrofida, tabiatda simmetriyani uchratib anglarkan, uni go‘zallikning bir normasi, tartib va qonuniyat sharti sifatida qabul qildi.

60-rasm. Simmetrik kostyumning eskizi

Fransuz matematigi va faylasufi Rene Dekart simmetriya haqida shunday degan edi: «Qonuniyatni qabul qilish doimo qoniqish keltiradi, bir qancha ishonch, hatto tetiklik beradi. Tartib fikrni ozod qiladi.»

Shunga o‘xshagan fikrni o‘tgan asrning mashhur me’mori va dizayneri fransuz Le Korbyuzye ham aytadi: «Inson uchun tartib zarur; usiz odamning harakatlari muvofiq bo‘lmay qoladi, mantiqiy aloqadorlikni yo‘qotadi. Tartib qanchalik mukammal bo‘lsa, inson o‘zini shu qadar hotirjam va dadil his etadi».

Biroq, inson o‘z psixologiyasiga ko‘ra bir tomondan tartibga intilsa, boshqa tomondan, unga erishgach, buzishga harakat qiladi, to‘g‘rirog‘i, biror bir detal bilan jonlantirishga urinadi.

Go‘zallik mohiyatini birgina simmetriyaga bog‘lash uning ichki mazmunining boyligini cheklaydi. Haqiqiy uyg‘unlik ziddiyatlar birligidadir, ya’ni obyektning go‘zalligi simmetriya va unga qarama-qarshi bo‘lgan sifatning kombinatsiyasi – assimetriya bilan belgilanadi.

Asimmetriya – unsurlarning simmetriya nuqtasi, o‘qi yoki tekisligi bo‘lmagan joylashuvidir.

Simmetriyaning buzilishi – asimmetriya (simmetriyaning yo‘qligi) san’atda badiiy vosita sifatida ishlatiladi.

To‘g‘ri simmetriyadan bir oz og‘ish, ya’ni arzimas assimetriya muvozanatni buzib, diqqatni o‘ziga tortadi, harakat unsurini kiritib, jonli shakl taassurotini beradi.

Asimmetriya – bu qismlar tengligi va ularning joylashuvi o‘xshashligi bir-biridan farqli qismlarning vizual muvozanati bilan almashtirilgan kompozitsion vositadir.

61-rasm. Asimmetrik kostyum eskizi

Asimmetrik kompozitsiyada birlikni yaratishning asosiy vositasi – uning barcha qismlarining muvofiqligi, unsurlarining kompozitsion markazga bo‘ysunishi, shuningdek, urg‘uni joy-joyiga qo‘yish hisoblanadi.

Asimmetriya prinsipiga asoslangan kostyumning kompozitsiyasi murakkab va kamyob hisoblanadi. Asimmetriya turli ko‘rinishlarda ifodalanishi mumkin: asimmetrik bichim orqali; asimmetrik ichki bo‘linishlar –gorizontal, vertikal, ayniqsa diagonal bo‘linishlar bilan; funksional va dekorativ qismlarning bir xil bo‘lmagan joylashuvi – cho‘ntaklar, qopqoqlar, ko‘krakburma, yoqalar, bog‘ich kabilar; materiallarning rangi va fakturasi; turli aksessuarlardan foydalanish (assimetrik bog‘langan ro‘mol yoki sharf, boshdan o‘tkazib taqilgan sumka kabilar).

Asimmetriya an’anaviy o‘zbek kiyimlarida ham kuzatish mumkin. Misol uchun, an’anaviy o‘zbek erkaklar kostyumi o‘zining siluetida konstruktiv tuzilishiga ega bo‘lib, dekorning joylashuvi simmetrikdir. Asimmetriya unsuri – bu tartibli kostyumda markazda bog‘lanmagan belbog‘ yoki “chorsi”[7] ro‘molidir. (62-rasm)

Bichimi va shakliga ko‘ra asimmetrik bo‘lgan kiyimlar o‘ziga xos ta’sirchanlik va originallikka ega. Bunday yechim ko‘proq yoshlar to‘plamlari uchun xosdir, shuningdek, asosiy e’tibor qulaylikka emas, obrazlilik va originallikka qaratiladigan kechki liboslarda uchraydi.

[7] O‘zbek erkaklar milliy kostyumida belbog‘ o‘rnida uchburchak shaklida buklangan ipak yoki ip matosidan “chorsi” ro‘moli ishlatiladi. Бунда yorqin va kontrast ranglar tanlanishining boisi – белбоғнинг erkaklar kostyumida ajralib turishi lozimligida edi.

Asimmetriya shaklda ichki va tashqi bo‘lishi mumkin bo‘lgan turli darajadagi dinamikani hosil qiladi. Dinamika nuqtai nazaridan kostyumda urg‘ularning joylashuvi, uning barcha qismlarini vizual muvozanatlash muhim ahamiyatga ega. Agar simmetrik kompozitsiyada uning barcha qismlari doim muvozanatli bo‘lsa, assimetrik kompozitsiyada esa muvozanatli yoki muvozanatsiz bo‘lishi mumkin (63-rasm). Katta ochrang dog‘ kichik qora dog‘ bilan muvozanatlanishi mumkin. Bir talay kichik dog‘larni bitta kattasi bilan muvozanatlash mumkin. Qismlar massasi, tusi va rangi bo‘yicha muvozanatlanadi, xullas variantlar ko‘p. Muvozanat ikkala shaklga ham, ularning orasidagi bo‘shliqqa ham ta’sir qilishi mumkin.

63-rasm. Kostyumda muvozanatlanmagan assimetriya va muvozanatlangan simmetriya

Asimmetrik kompozitsiyada muvozanat katta va kichik o‘lchovlar, chiziqlar, rangdor dog‘lar, kontrastlardan foydalanishga bog‘liq. Rassom yoki dizayner “arg‘imchoq” prinsipidan foydalangan holda kompozitsiyada muvozanat hissini kuchaytirishi, katta va kichik o‘lchamlarni, och va qoramtir rangni, turli xil siluetlar va rangdor dog‘larni muvozanatlashni o‘rganishi mumkin (64-rasm). Bolalikdagi arg‘imchoqda muvozanatni saqlash tajribasini eslab, bitta katta odamni ikki bola bilan muvozanatlashtirish yoki uni arg‘imchoq markaziga yaqinroq

o‘tkazish mumkinligini tushunish qiyin emas. Xuddi shu tajriba tarozi bilan ham amalga oshirilishi mumkin. Ushbu taqqoslashlar assimmetrik kompozitsiyani, masalan, rasm, kostyum yoki insonning boshqa ijodiy mahsulotlarini muvozanatlashtirishga yordam beradi.



64-rasm. Kompozitsiya muvozanati "arg‘imchoq" tamoyili asosida.

65-rasm. Kompozitsiyani vazn va rang bilan muvozanatlanishi

Bir-birini to‘ldirarkan, simmetriya va assimetriya kostyumning sifatli xarakteristikasi, uning qurilishining qonuniyati bo‘lib boradi. Simmetrik siluet shaklida assimetrik detallarni kiritish alohida ta’sirchanlik beradi, uning to‘g‘ri echimi hissiy-obrazli ohangni kuchaytiradi.

5.4. Statika va dinamika

Avvalgi bo‘limlarda kostyumning kompozitsiyasiga e’tibor qaratilgandi. Endi hajmdor shaklning strukturaviy yuzasiga, ya’ni vizual harakatni – dinamikani yaratishga diqqat qilamiz.

Kompozitsiyaning eng muhim xususiyatlari – dinamika va statika sanaladi. Taraqqiyot, o‘zgarish, muayyan yo‘nalish, ya’ni harakat bo‘lsagina kompozitsiya dinamik hisoblanadi. Tabiiyki, gap jismoniy harakat haqida emas, balki uning vizual illyuziyasi haqida ketmoqda. Dinamik kompozitsiyada kuzatuvchi beixtiyor unsurlarini muayyan tartibda qabul qila boshlaydi. Shunday qilib, dinamika yordamida diqqatni asosiy unsurga yoki kompozitsiyaning eng muhim qismiga qaratishingiz mumkin.

Dinamik kompozitsiyada harakat markazga yo‘naltirilishi va yakuniy nuqtaga ega bo‘lishi yoki kuzatuvchi nazarini kompozitsiya chegarasiga qaratish uchun markazdan yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin.

Dinamikaga zid bo‘lgan sifat statikadir. Statika vizual harakatning yetishmasligini ifodalaydi. U kompozitsiya tuzilishida osoyishtalik, barqarorlik, harakatsizlik holatini ta’kidlaydi.

Statika – fazodagi shaklning barqaror holati. Statika shaklning qismlari muvozanati bilan tavsiflanadi. Odatda, simmetriyaning vertikal o‘qiga ega bo‘lgan kostyum statikdir.

Dinamika – umumiy statikligi bilan shakl ichidagi harakat unsurlariga ega shaklning fazodagi beqaror holati; shaklning assimmetriyasi tufayli shakldan tashqarida; kostyumning detallarini fazoga chiqarish, shuningdek, ichki va tashqi dinamikaning inson qomati harakati bilan kombinatsiyasi natijasida shakldan tashqari ekanligi.

Kostyum ko‘plab shakl va unsurlardan iborat bo‘lib, har bir unsurning shakli va ularning o‘zaro joylashuvi uning kompozitsiyasining statik yoki dinamikligi uchun muhimdir.

Shakl o‘lchovlari kontrasti dinamikani hosil qiladi. O‘lchov nisbatlarining tengligi yoki nyuansi fazoviy hajmning uchta koordinatasiga ko‘ra shaklning statikasini xarakterlaydi. Tekislikning ikki koordinatasida o‘lchov munosabatlarining tengligi yoki nyuansi ham statikani ifodalaydi. Kub va kvadrat dinamikaga ega emas (66-rasm).



66-rasm.Statik geometrik shakllar

67-rasmda parallelepiped va cho‘ziq to‘rtburchaklar berilgan. Ularning dinamikliligi yaqqol ko‘rinadi. Biroq, rasmdan ko‘rinib turibdiki, bu yerda harakat shakllarning uzunligi bo‘ylab ikki yo‘nalishda ham ro‘y beradi, chunki ushbu tomonlarning hech biri farqlanmaydi.



67-rasm. To’rtburchakli shakllar dinamikasi

68-rasmda kesik piramida va uning silueti – trapetsiya berilgan. Bu yerda shaklning maqsadli harakati yuzaga kelib, harakat katta hajmli asosdan kichikroq hajmga yo‘nalgan. Nok va piyoz shaklida esa katta og‘irroq qismdan kichikroq, anchagina yengil qismga yo‘naltirilgan harakat kuzatiladi.



68-rasm. Turli shakllar dinamikasi

Shuningdek, shakl dinamikasiga shakl chiziqlari xususiyati ham yordam beradi. Bundan tashqari, shakl dinamikasi shaklni qismlarga bo‘linishidan ham yuzaga keladi. 69-rasmda teng bo‘lmagan qismlarga bo‘lingan to‘rtburchaklar ko‘rsatilgan. Ko‘rinib turganidek, bu holatlarda dinamika katta qismdan kichik qism tomon ham sodir bo‘ladi. 69-rasmda bir qator bo‘lingan shakllar dinamikasiga misol keltirilgan.



69-rasm. Bo’lingan shakllar dinamikasi

Harakat nafaqat shakl hajmlarining kontrast munosabatlarida, uning chiziq va konturlari xususiyatida, shaklni teng bo‘lmagan yuzalarga massa hajmlariga bo‘lishda, balki turli to‘yinganlikdagi bir tusning ikki xromatik ranglar birikmasi, oqishligi turlicha bo‘lgan ikki axromatik ranglarda sodir bo‘ladi. Faol ranglar o‘z tomoniga harakat paydo qiladi.

Statika va dinamika doim nisbiy va bir vaqtning o‘zida bir yoki bir nechta kompozitsiyada mavjud bo‘lishi mumkin. Kiyim loyihalashda ushbu sifatlarning qaysi biri ustun bo‘lishini oldindan ko‘zda tutish muhimdir. Ushbu muammoni hal qilish ko‘plab omillarga bog‘liq.

Ushbu sifatlarning asosiysi kiyimning funksional vazifasi hisoblanadi. Asosiy kompozitsion vosita sifatida statikadan ajralib turish, atrofdagilar e’tiborini tortish vazifasi bo‘lmagan kundalik ish kostyumida foydalanish maqsadga muvofiq. Dinamika kompozitsiyaning yorqin hissiy ohangini ta’minla va ko‘pincha bayramona liboslarda, shuningdek, faol hordiq kiyimlarida foydalaniladi.

Statika yoki dinamikaning ustunligini belgilashda yosh omili katta ahamiyatga ega. Kompozitsiyaning dinamik yechimi yoshlar kiyimi uchun mos, chunki u yoshlar temperamentini, faoliyatini, ularning e’tiborni jalb qilish, olomondan ajralib turish istagini ifodalay oladi. Katta yoshdagi odamlar osoyishta, statik kompozitsiyali kiyimlarni afzal ko‘radilar.

Kostyum kompozitsiyasidagi statika va dinamikaga turli yo‘llar bilan erishish mumkin. Avvalo, ushbu xususiyatlar kostyum shaklining o‘zida namoyon bo‘ladi. Masalan, to‘g‘ri siluetli kiyimlar eng ko‘p statik shaklga ega, ayniqsa, qisqa uzunlikka, ya’ni nisbati kvadratga yaqinlashtirilgan bo‘lsa. SHunday kostyum 68-a rasmda tasvirlangan.

Trapetsiyasimon siluetdagi kiyimlar ancha dinamik sanaladi. Bundan tashqari, kichik (yelka qismi) va katta (mahsulot etagi) asoslar o‘rtasidagi kontrast qanchalik yuqori bo‘lsa, kompozitsiya shunchalik faol yuqoriga harakatlanadi. Buni 70- rasmdagi modellar yaqqol namoyish qilgan. Yopishib turadigan «X»

siluet ham dinamik hisoblanadi. Bunda shaklning nozik bel tomon yaqqol ifodali harakati kuzatiladi, bu esa yelka chiziqlari va yubka etagiga kontrast hosil qiladi.

70-rasm. Kostyum shakli statikligi va dinamikasi

a) statik shakldagi kostyum eskizi

b) trapetsiyasimon siluetning dinamik shaklidagi kostyum eskizi

v) yopishib turadigan "x" siluetning dinamik shaklidagi kostyum eskizi

Shaklning dinamikligi doim kiyim ishlab chiqarishda foydaniladigan materiallarning plastiklilik xususiyatiga bog‘liq. Shak-shubha yo‘qki, boshqa-boshqa materiallar har xil darajadagi qo‘zg‘aluvchanlikka ega. Misol uchun, yupqa, erkin tushib turadigan shoyi qo‘zg‘aluvchan plastikaga ega, shuning bois undan tayyorlangan libos shakli doimiy taraqqiy etadi hamda o‘zgaradi. Aksincha, drap, kostyum jun gazlamasi, charm yoki kimxob kabi pishiq shakl hosil qiluvchi mato va materiallar kam qo‘zg‘aluvchanligi bilan farqlanadi va «g‘ilof», kam hajmli kiyimlar ishlab chiqarishda foydalaniladi. Bunday kiyim odatda, shakli va uning rivojlanishiga ko‘ra statik hisoblanadi.

Kompozitsiyaning statik va dinamikligini kostyum shaklining ichki bo‘linish chiziqlari ham beradi. Bu har xil xarakterdagi chiziqlarni idrok etish psixologiyasiga bog‘liq. To‘g‘ri gorizontal chiziqlar osoyishtalik, muvozanat, harakatsizlik hissini beradi. Kostyumda ularning ustunligi shaklning statikligidan xabar beradi. Qiya chiziqlar kompozitsiyaga dinamiklik baxsh etadi. (71-rasm)

Kostyum kompozitsiyasida dinamika yoki statikani yaratish uchun uning ritmik tuzilishi katta ahamiyatga ega. Har qanday ritmdan foydalanish kompozitsiyada harakatning paydo bo‘lishiga olib keladi. Shu bilan birga, bir xil unsurlarning bir me’yorda almashinuvi vazn o‘lchovi sifatida kompozitsiyani barqaror, passiv dinamikaga aylantiradi. Faol yo‘naltirilgan harakat ritmni hosil qiladi. Ritmik kompozitsiyada alohida keskinlik, yorqin hissiy jarang bor, u kuzatuvchi diыыatini tortadi, kostyumni juda chiroyli qiladi.

71-rasm. Shaklga statiklik beruvchi gorizontal chiziqlar ustunligidagi kostyum eskizi va dinamik qiya chiziqlar ustunligidagi kostyum eskizi.

Kostyumning statika va dinamikasini aniqlaydigan juda samarali kompozitsion vositalar – simmetriya va assimetriyadir. Simmetriya o‘zining barcha ko‘rinishlarida va shakllarida to‘liq muvozanat va barqarorlik g‘oyasini, demakki, statikani isbotlaydi. ganida, qaysiki siluet xususiyatlarida, konstruktiv

asosda, dog‘larning rang va tus joylashuvida, turli fakturaga ega materiallarni ishlatishda, bezakni o‘rnatishda namoyon bo‘ladigan assimmetriya shaklni tashkil etishning asosiy usuli bo‘lsa, kompozitsiya dinamik va qizg‘in tus oladi.

Dinamika zamonaviy kiyimlarda assimetrik bichimda; kostyum kompleksini buzishda (bitta poycha, yubka yoki kurtkaning yarimtasi); ko‘ylak, yubka, uzun sharflardagi erkin tushgan eni buzilmagan matolarda; erkin drapirovka bo‘ladigan detallarda (yeng, bluzka tokchasi, jaketlar, liflar), keng klyosh yubkalarda; assimmetrik bezak yoki mato kombinatsiyalarida; yeng, shim, yubkalarning yonlama burmalarida; matoning katta naqshlarida; «op-art» uslubidagi kostyumlarning tasmalar, burchaklar, romblar, doiralar harakati illyuziyasida namoyon bo‘ladi

Kostyumni loyihalashda kompozitsiyaning statiklik va dinamikligining to‘g‘ri nisbatlarini topish juda muhim. Bir mahsulotda aynan o‘xshash o‘lchov va bir xillik modelyer g‘oyasini uqishda ziddiyat keltirib chiqarishi, yaxlitlik va ifodani yo‘qolishiga olib kelishi mumkin.

Libos loyihasida statika va dinamika imkoniyatlarini bilish va ulardan kompozitsiyaning asosiy vositasi sifatida ishlata olish qobiliyati katta ahamiyatga ega. Bu esa o‘z navbatida inson faoliyatining turli funksiya va ko‘rinishlari uchun zamonaviy kostyum shaklini tashkil etishga yordam beradi, shuningdek, butun kompozitsiyaning obrazli jarangiga ta’sir etadi.

5.5 Kostyum kompozitsiyasida rangning o’rni

5.5.1. Rang haqida asosiy ma’lumotlar

"Barcha tirik mavjudotlar rangga intiladi."

I. V. Gyote

Rang fenomeni turli soha olimlarini doim qiziqtirib kelgan. Hayotimizni rang shakllarining rang-barangligi va jozibasisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Rang odamni quvontirishi va ranjitishi, kayfiyati va ishchanligiga ta’sir qilishi mumkin.

Ko‘plab faylasuflar, fiziklar, fiziologlar va shifokorlar rangning insonga – uning sog‘lig‘i va ongiga ta’sir kuchini allaqachon bildilar.

Rang – bu his. U yon-atrofdagi buyumlarda aks etgan nurning odam ko‘ziga ta’sirida paydo bo‘ladi. Inson rangli narsalarnigina ko‘rishi mumkin, rangsiz narsalarning barchasi ko‘zimiz uchun ko‘rinmas hisoblanadi.

Insonning ko‘zi doimiy ravishda nur va turli ranglarga intiladi. Bir kishi 100 000 tagacha rang tuslarini ajrata olishi mumkin. Ammo ranglarni his qilish va ko‘ra bilish qobiliyatingizni rivojlantirmasangiz, inson ko‘zi faqat 100 tagacha rangni ajratishi mumkin. Va aksincha, ranglar va bo‘yoqlar bilan doimiy ravishda shug‘ullanadigan soha vakillari – rassomlar, dizaynerlar – bir necha bor ko‘proq rang tuslarini ajrata oladilar.

Qadim zamonlardan to hozirgi kungacha rang turli xil psixologik, hissiy va ma’naviy ko‘rinishlarda inson hayoti bilan chambarchas bog‘liq. Sivilizatsiya rivojining dastlabki davrlarida rang ma’lum ramziy ma’noga ega edi.

Rang haqidagi bilimlar qadim zamonlardan olimlar va rassomlar xayolini olgandi. Leonardo da Vinchi, rang birikmalari nazariyasini o‘rganarkan, asosiy beshta rang – sariq, ko‘k, qizil, yashil, oq ranglargina bor, deb hisoblagan. SHu bilan birga, u ramziy ranglar qatorini yaratdi, bunga ko‘ra oq – yorug‘lik, sariq – tuproq, yashil – suv, ko‘k – havo, qizil – olovni anglatardi.

Qadimgi inklar o‘zlari topgan rang belgilaridan foydalanishgan. Ularga ko‘ra oq – dunyo, qizil – davlat, sariq – oltin, yashil – makkajo‘xori, malina rang – urush, ko‘k – e’tiqod bo‘lib, ranglar ilohiy hisoblangan.

Qadimgi yunon olimi va faylasufi Aristotel o‘zining rang alomatlarini keltirdi: oq – havo, sariq – olov, qora – tuproq, binafsha va malina ranglarini esa juda ajoyib sanagan.

Ingliz matematigi va astronomi I.Nyuton rangli birikmalar nazariyasi bilan shug‘ullanib, musiqiy notalarni rang bilan uyg‘unlashtirishga harakat qildi: U har biri bitta musiqiy notaga bog‘langan rang qatorini tuzdi. Bunga ko‘ra do – qizil, re – to‘q sariq, mi – sariq, fa – yashil, sol – moviy, lya – ko‘k, si – binafsha rang. U

o‘z xulosalarini spektral ranglarning yorug‘lik to‘lqinlari uzunligi bo‘yicha tikladi. Nyuton prizma quyosh nurini kamalakning ranglariga taqsimlaganini, ya’ni birlashganda oq rangga aylanadigan spektr ranglarini kashf qildi. U qizil va ko‘k rangni bir turdagi, jo‘n ranglar deb atagan. I.Nyuton birinchi bo‘lib rang dunyosini tizimlashtirishga urindi, yorug‘lik va rangning sinishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib berdi. U o‘zidan ilgari bir xil sanalgan oq nurning prizmada sinishi natijasida turli yorug‘lik to‘lqinlariga parchalanib ketishini isbotladi. Nyuton o‘z spektri ranglarini yopiq doiraga joylashtirdi va yetishmagan qirmizi rangni qo‘shdi. Ushbu ranglar taqsimoti bir rang tusining boshqasiga asta-sekin o‘tishini ko‘rsatib berdi. Nyuton yetti asosiy rang: qizil, to‘q sariq, sariq, yashil, zangori, ko‘k va binafsha ranglarning mavjudligini ko‘rsatdi. Ranglarning doirasimon tuzilishi kelajakda rang tusini tizimlashtirish ishlarida asos bo‘lib xizmat qildi.

Rang ta’limotida nemis olimi V.Ostvaldning tadqiqotlari alohida o‘rin tutadi. U bir qator asarlar muallifi bo‘lib, ular orasida rangli atlas va talay rang shkalalarining bir nechta nashrlari mavjud. Birinchi atlas 2500 dan ortiq namunani o‘z ichiga olgan; to‘liq to‘yingan ranglar yuz bo‘lakli rangli doirani tashkil etdi. Ancha keyinroq chiqqan nashrlarda asosiy 24 rang kiritilgan bo‘lib, ular rang doirasida teng turgan va unda shunday joylashtirilgandiki, to‘ldiruvchi ranglar qarama-qarshi qismda turgan.

Olimlar ko‘rish qobiliyatining ajoyib xususiyatlarga ega ekanligini aniqladilar. U tashqi olam haqidagi ma’lumotlarning taxminan 90 foizini beradi. Ko‘z, uning optik qismi deyarli cheksiz sezuvchanlikka ega. Miyaga kiradigan ma’lumotlarning ko‘pligi tufayli inson ongida ularning muhimroq qismi ajratib olinadi. Olimlarning fikriga ko‘ra, inson ko‘zi turli birikmadagi uch yuzga yaqin har xil tusli axromatik ranglarni, ya’ni oq, kulrang va qora ranglarni va o‘n minglab turli birikmadagi xramatik ranglarni ajrata oladi. Maxsus tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, maksimal rang ajratish kunduzi ro‘y berib, soat 13–15 larga to‘g‘ri keladi, minimali esa tungi 23-3 gacha.

Rang kompozitsiya unsuri, shu bilan birga uning eng muhim vositasidir. Modaga oid rang kombinatsiyalarining o‘zgarishi shakl yoki detallar almashuvidan tezroq kechadi. Odatda kiyim-kechak assortimenti bazaviy buyumlarda (shimlar, yubkalar, ko‘ylaklar, bluzkalar, maykalar, jiletlar) sobit turadi, faqat rang gammasigina o‘zgartiriladi yoki to‘ldiriladi.

Barcha xilma-xil ranglarni ikki katta guruhga bo‘lish mumkin. Ranglar axromatik (bo‘yalmagan) va xromatik (bo‘yalgan, rangli) bo‘ladi. 72-rasmdagi axromatik ranglar guruhi oq, qora va ularning aralashuvi natijasidagi ko‘plab kul rang tuslaridan iborat. Boshqa barcha ranglar xromatikdir. Axromatik ranglar uchun yorug‘lik[6] munosabatlari, ya’ni yorug‘likka ko‘ra farq xarakterlidir.



72-rasm. Xromatik va axromatik ranglar

Ranglarni ajrata bilish, muayyan badiiy obraz hosil qilib ularni uyg‘un birikmada birlashtirish ularning xususiyatlarini bilishda yordam beradi. Xromatik ranglarning asosiy xususiyatlari rang tusi, to‘yinganligi va yorug‘ligini o‘z ichiga oladi.

Rang tusi (rangdorligi) – bu, avvalambor, rangning nomi, uning boshqa ranglardan farqlab taradigan sifatlarini (masalan, qizil ko‘k rangdan farq qiladi)

[4] Bir rangdagi ikki yonma-yon yuza bois qo’zg’algan visual (yorug’lik) sezgilar orasidagi farqni miqdoriy baholashда ishlatiladigan o‘lchovsiz kattalik.

belgilash demak; ikkinchidan, umumiy tus, ya’ni bitta rangda boshqa rang aralashmalarining mavjudligi, bu esa bir rangning boshqasidan farqlanishini xarakterlaydi. Misol uchun, qizilning malina rang tusida ko‘k rangning arzimas hissasi, qizilning to‘q sariq tusida esa sariq rangning ulushi bor. Shunday qilib, ushbu qizil ranglar tusiga ko‘ra farqlanadi.

Rang to‘qligi – chegara, boshqacha aytganda, bu rangdagi sof pigmentning mavjudligi darajasidir. Misol uchun, to‘yingan qizil «o‘ta qizil» degan ma’noni anglatadi. Rang to‘yinganligi – xromatik rang va uning oqishligiga teng bo‘lgan axromatik rang o‘rtasidagi farq darajasi; spektral ranglar – eng to‘yingan ranglar sanaladi, ularda axromatik aralashmalar yo‘q bo‘lib, rang tuslari keskin qabul qilinadi. Kulrangga yaqin bo‘lgani sari, rang kam to‘yingan bo‘ladi; to‘yinganlik rangning faolligini aniqlaydi – spektral ranglar to‘yinmagan ranglardan ko‘ra faolroq.



73-rasm. Rangning to‘qligi

Xromatik ranglar oqishligi – bu ularning oqartiruv darajasidir (74-rasm). Nihoyat darajada oqartirilgan to‘yinmagan ranglar – «pastel» («pastel» deb nomlanuvchi rangli bo‘rlardan kelib chiqqan) ranglar deb ataladi. Pastel ranglar uyg‘unligiga har bir rangda oq rangning mavjudligi bilan erishiladi, u esa hamma narsani nivelirlaydi, yumshatadi. Oqishlik – rangning qora yoki oq rangdan

farqlanish darajasidir; eng oqish rang – oq, eng qoramtiri – qora hisoblanadi; spektral ranglar gammasida sariq eng oqish rang, binafsharang eng qoramtir rang sifatida idrok qilinadi. Kompozitsiyada oqishlik nisbatlari juda muhim, chunki turli oqishlik darajasiga ega bo‘lgan o‘xshash tusli ranglar kuzatuvchida har xil hissiy ta’sirlar keltirib chiqaradi. Qoramtir (to‘q) ranglar og‘irlik, salmoqdorlik, bir qadar noxushlik hissini hosil qiladi, oqartirilganda esa o‘sha rang yengil, muloyim, quvnoq qabul qilinadi.

74-rasm. Xromatik ranglarning oqishligi

Ikki rangning nomi (masalan, ikkisi ham qizil) va oqishligiga (ularning hech biri boshqasidan qoramtirroq yoki oqishroq emas) ko‘ra bir xil bo‘lishi mumkin, ammo shu bilan birga rang kuchida farqlanishi mumkin: biri yorqin qizil, ikkinchisi esa rangsiz, kulrangsimon qizil bo‘lishi mumkin. Ularning orasidagi farq to‘yinganlikda, ya’ni rangning intensivligi (kuchi) darajasida.

Xromatik ranglar va ular tusining xilma-xilligi ularning bir-biri bilan aralashtirishning cheksiz miqdori tufayli olinadi. Ammo uchta rang borki, ular boshqa ranglarning aralashmasi orqali olinmaydi, bular: sariq, ko‘k va qizil. Ular tub, toza ranglar deb ataladi. Boshqa barcha ranglar tub ranglarni aralashtirish orqali olinadi va yasama ranglar deb ataladi.

Ranglar tabiatda ham, san’at asarlarida ham bir-biridan ajratilgan holda uchramaydi, ular doim o‘zaro ta’sirda bo‘lishadi.

Ranglar gammasi – ranglarning bir-biriga uyg‘un bo‘lgan tus qatorlaridir (iliq, sovuq, oqish, qoramtir va hokazo). Aytish mumkinki, gamma – umumiy rang xususiyatlariga ega bo‘lgan rang qatorlari sanaladi. Misol uchun, yashil gamma yashilning barcha tuslarini o‘z ichiga olishi mumkin: zumradrang yashil, maysarang yashil, och yashil, shisharang, olma, dengiz to‘lqini ranglari, feruzarang va boshqalar.

Kolorit (lotin tilidagi “color” so‘zidan olingan bo‘lib, rang, bo‘yoq ma’nosini beradi) – ranglarning o‘zaro nisbat tizimi bo‘lib, u muayyan birlikni shakllantiradi va voqelikning bo‘yoqdor turlanishining estetik ifodasidir. Kolorit – hissiy ifodaning muhim vositalaridan biri bo‘lib, asar badiiy obrazining ahamiyatli tarkibiy qismi hisoblanadi. Kolorit san’at asarining mazmuni va umumiy g‘oyasi, davr, uslub va rassomning o‘ziga xosligi bilan tavsiflanadi.

Kolorit ranglar teng tobelik tamoyili asosida bog‘lanadi, ular o‘zaro ta’sir va hamkorlikda bo‘ladilar. Bu yerda kompozitsiyaning umumiy rang-barangligini belgilaydigan tub ranglar va rango-ranglikka hamda tub ranglarning faol jarangiga erishishga ko‘mak beruvchi ikkinchi darajali ranglar miqdoriy va sifat jihatidan farq qiladi.

Rangli birikmalarning ustunlik xarakteriga ko‘ra kolorit osoyishta va betoqat; sovuq va iliq; oqish va qoramtir; shodon va noxush bo‘lishi mumkin. To‘yinganlik darajasi va rang kuchiga ko‘ra koloritlar yorqin yoki xira, faol va vazmin sifatida farqlanadi. Har qanday holatda ham kolorit hosil qiluvchi ranglar uyg‘uniyat qonunlariga ko‘ra bir-biriga muvofiq kelishi lozim.

5.5.2. Kostyum ranglarining uyg‘un birikmalari

Uyg‘unlik – bu qismlarning mutanosibligi, obyekt tarkibiy qismlarining bir organik yaxlitlikka tutashuvi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, kolorit – bitta kompozitsiyada uyg‘un birlikni yaratadigan rangli birikmalar tizimidir. Tabiiyki, ranglarning har qanday birikmasi uyg‘un yonma-yonlikni ta’minlamaydi.

Uyg‘un rangli birikmalar nazariyasida turli qonuniyatlar ko‘rib chiqiladi. Qattiq tartibda joylashgan spektral sof ranglar uyg‘unligi mavjud. Bular kamalak ranglaridir: qizil – apelsinrang – sariq – yashil – zangori – ko‘k – binafsharang. Ushbu tartibni eslab qolish uchun juda ko‘p hazil tez aytishlar o‘ylab topilgan: «Qobil zardolini sumkasiga yashirib hovliga kirib bordi» – bu yerda so‘zlarning bosh harflari ranglar nomining birinchi harflaridir.

Uzoq o‘tmishdan buyon uyg‘unlik masalasi ko‘plab olim va musavvirlarni qiziqtirib kelgan. Ingliz fizigi Isaak Nyuton tarixda birinchi bo‘lib ranglarini tizimlashtirishga urinib ko‘rdi. U quyosh spektrining barcha ranglarini doiraga joylashtirib, ular qatoriga etishmayotgan qirmizi rangni ham qo‘shib qo‘ydi. Nyutonning rang doirasi ilm-fan va badiiy maqsadlar uchun ishlatila boshlandi. SHundan so‘ng, tekis (tasma, doira, uchburchak) va fazoviy (pufak, konus, piramida va hokazo) kabi ko‘plab boshqa rang tizimlari paydo bo‘ldi. Ularning ko‘pchiligi milliy rang standartiga aylandilar.

Ulardan eng yaxshisi sifatida V. M. Shugayev tomonidan ishlangan rangli doira ham keltiriladi. O‘z tizimini uch tub rangga – ko‘k, sariq va qizilga asoslagan Nyutondan farqli o‘laroq, Shugayev o‘sha uchlikka yashil rangni ham qo‘shib, to‘rtta tub rangga asoslanib tizim yaratdi. Yashil sariq va ko‘kning aralashmasi hisoblansada, o‘z «ota-onasi»ga qaraganda mutlaqo betaraf hisoblanadi. Shunday qilib, to‘rtta rangni (ko‘k, sariq, qizil va yashil) tub rang deb belgilagan Shugayev ularni doira ichida o‘zaro perpendikulyar diametrlarning uchlarida joylagan.

Rangli uyg‘unlikdan biri – bu rang doirasining uyg‘unligidir. Rang doirasi kontrast juftliklar (qizil – yashil, sariq – ko‘k) yoki doira diametrlari uchida joylashgan to‘rt tub rangga asoslangan (75-rasm). Bundan tashqari, tub ranglar o‘rtasida oraliq ranglar (sariqdan qizilgacha, qizildan ko‘kgacha, ko‘kdan yashilgacha, yashildan sariqqacha) kengaymalari joylashgan. Agar rang aylanasini tub ranglar bo‘yicha to‘rt chorakka bo‘linsa, unda har bir chorak ichida o‘ziga yaqin ranglar muvofiqligiga ko‘ra uyg‘unlik hosil bo‘ladi.

Rang doirasining *birinchi choragi* (yuqoridan o‘ngdagi) iliq sariq, apelsinrang va qizil-apelsinrang vositasida sariqdan to qizil pigmentgacha bo‘lgan ranglarni o‘z ichiga oladi.

Rang doirasining *ikkinchi choragi* (pastdan o‘ngdagi) sovuq qizil, binafsharang va ko‘k-binafsharanglar vositasida qizildan ko‘k pigmentgacha bo‘lgan ranglarni o‘z ichiga oladi.



75-rasm. Ranglar doirasi

Ranglar doirasining *uchinchi choragi* (pastdan chapdagi) ko‘k-yashil, dengiz to‘lqini rangi, sovuq yashil vositasida ko‘kdan yashil pigmentgacha bo‘lgan ranglarni o‘z ichiga oladi. Bu sovuq gammadagi yaqin ranglarning uyg‘unligidir.

Rangli doiraning *to‘rtinchi choragi* (yuqoridan chapdagi) iliq yashil, yashil-sariq va sariq-yashil vositasida yashildan sariq pigmentgacha bo‘lgan yaqin ranglarni o‘z ichiga oladi.

Birikishiga ko‘ra uchta rang guruhi mavjud: o‘xshash, o‘xshash-kontrast va kontrast ranglar. O‘xshash ranglar rang doirasining to‘rtdan bir qismida joylashadi hamda o‘z tarkibida kamida bitta umumiy (asosiy) rang, masalan, sariq, sariq-qizil va sarg‘ish-qizil rangga ega rangga ega. O‘xshash ranglarning to‘rtta guruhi

mavjud bo‘lib, bular sariq-qizil, qizil-ko‘k, ko‘k-yashil va yashil-sariq. O‘xshash-kontrast ranglar rang doirasining ikki qo‘shni choragida joylashib, bitta umumiy (asosiy) rangi ega. Boshqa ikkita tuzuvchi rang esa o‘zaro qo‘shimcha asosiy ranglardir. O‘xshash-kontrast ranglarning to‘rtta guruhi mavjud: sariq-qizil va qizil-ko‘k, qizil-ko‘k va ko‘k-yashil, ko‘k-yashil va yashil-sariq, yashil-sariq va sariq-qizil. Kontrast ranglar rangli doiraning qarama-qarshi choraklarida joylashgan bo‘lib, bular – sariq-qizil va ko‘k-yashil, sariq-yashil va ko‘k-qizil ranglardir.

Endi rang doirasining tepa va pastki yarmini ko‘rib chiqamiz. Yuqori qism issiq, pastki qism esa sovuq ranglar gammasiga mos keladi (76-rasm).



Rangli doira bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ikki kontrast juftlikka (qizil-yashil, sariq-ko‘k) qurilganligi sababli, kontrast ranglarning uyg‘unligi mavjud. Agar diametrlar doira markazidan, masalan, qizildan yashil ranggacha o‘tkazilsa, qizil rangning har bir tusi yashil rangning muayyan bir tusiga mos keladi hamda qizilning qaysi yashilga mos kelishi aniq ko‘rinadi.

76-rasm. Sovuq va iliq ranglar

Ammo bunday rang doirasi ranglarning oq va qora ranglar bilan murakkab va xilma-xil birikmalarini hisobga olmaydi. Agar doiraning har bir asosiy rangiga ma’lum bir nisbatda oq rang qo‘shsangiz, unda rangli doiraning markaziga yaqinlashadigan oqartirilgan ranglarning ichki konsentrik doiralari olinadi. Agar doiraning har bir tub rangiga qora rang qo‘shilsa, uning ulushini bosqichma-

bosqich oshirib, fazoga kiradigan qora rangli ranglarning tashqi konsentrik doiralari olinadi.

Kostyum kompozitsiyasini yaratishda rang birikmalari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Rangli yaxlitlik, ranglar o‘rtasidagi aloqalar, ranglar muvozanati, ranglar birligi taassurotini beradigan ranglar birikmasi uyg‘undir. Rang muvozanati ostida ranglarning shunday sifati tushuniladiki, bunda ular bir-biriga begona ko‘rinmaydi va ularning hech biri boshqasidan ustun kelmaydi.

Hozirgi vaqtda ranglarning uyg‘un birikmalari nazariyasi ishlab chiqilgan bo‘lib, u kompozitsiyaning koloristik yechimini izlashda asos sifatida qabul qilingan. Rang uyg‘un birikmalarining to‘rtta guruhi mavjud:

- bir tusli birikmalar;
- o‘xshash ranglar uyg‘unligi;
- o‘xshash-kontrast ranglar uyg‘unligi;
- kontrast ranglar uyg‘unligi.

Kostyum ranglarining bir tusli uyg‘un birikmasi.

Bunday birikmalar yana soya qatorlari uyg‘unligi deb ham ataladi. Ularning asosini birorta rang tusi tashkil qilib, u har bir rang birikmasida u yoki bu miqdorda mavjud bo‘ladi. Bunday kaloritdagi ranglar faqat oqishlik va to‘yinganlikda farqlanadi. Ushbu birikmalarda axromatik ranglar tez-tez ishlatiladi. Ranglar birikmalari yo axromatik qatordagi yaqin yotgan ranglar nyuansi sifatida, yoki qatordagi uzoq turgan ranglarning kontrasti sifatida quriladi.

Bir tusdagi uyg‘unliklarning umumiy koloriti tinch, muvozanatli xarakterga ega. Barcha ranglarning maydonlarini taxminan bir xil taqsimlashda statika, tinchlik g‘oyasi tasdiqlanadi. Bunday koloritni nyuans sifatida belgilash mumkin. Qoramtir va oqimtirlikning kontrasti mavjud bo‘lishi mumkin. Kostyum kompozitsiyasini yaratishda bitta tusli ranglarning birikmasi tez-tez ishlatiladi, chunki bu koloritni uyg‘unlashtirishning eng oddiy yo‘li.

O‘xshash ranglarning uyg‘un birikmalari.

O‘xshash ranglar deb ikki asosiy rang orasidagi rang doirasining to‘rtdan birida joylashgan ranglarga aytiladi. Shugayevning rang doirasida o‘xshash ranglarning to‘rtta guruhi mavjud: sariq-qizil (apelsinrang), qizil-ko‘k (binafsharang), ko‘k-yashil, sariq-yashil. YOndosh asosiy ranglarni o‘xshash deb bo‘lmaydi, chunki ular faqat bitta talabga muvofiq keladilar – o‘z ichiga qo‘shimcha ranglar tusini olmaydi. 77-rasmda o‘xshash ranglar juftliklari birikmasi chizmalari berilgan.



77-rasm. Ikki o’xshash ranglar birikmasi

Ikki o‘xshash rangning birikmasi ularning o‘xshashligi, yaqinligi, bir xilligi, ya’ni nyuans nisbatga asoslangan holda uyg‘undir. Bunday birikmalar yumshoq, mayin, lekin kam faoldir (statik).

O‘xshash ranglarning uyg‘unligi ularda bir xil asosiy ranglar aralashmalari mavjudligiga asoslanadi. O‘xshash ranglarning birikmasi o‘zida nyuans prinsipi asosida yaratilgan cheklangan, tinch kolorit gammani ifodalaydi.

Bunday koloritning bir xilligini yengish uchun axromatik aralashmalarni kiritish yordam beradi, bu esa ranglarning xiralashishiga yoki yaltirashiga olib keladi va bu uning hissiy ifodasini kuchaytiradigan yorug‘lik kontrastini keltirib chiqaradi.

Kostyum o‘xshash-kontrast ranglarining uyg‘un birikmalari.

O‘xshash-kontrast ranglar uyg‘unligi koloritik imkoniyatlarga nisbatan ancha keng tarqalgan va boy hisoblanadi. O‘xshash-kontrast ranglar rang doirasining qo‘shni choraklarida joylashgan. Bunday ranglarning har qanday birikmasi uyg‘unlikni ta’minlolmaydi, albatta.

Badiiy amaliyot shuni ko‘rsatdiki, agar ularni birlashtiradigan asosiy ranglar miqdori va kontrastlovchi asosiy ranglar miqdori baravar bo‘lsa, o‘xshash-kontrast ranglar sof shaklda, axromatik ranglarni aralashtirmasa ham bir biri bilan uyg‘unlik hosil qilaveradi.

Ikki, uch va to‘rtta o‘xshash-kontrast ranglarning muvaffaqiyatli birikmalari variantlari mavjud. Quyida ularni ko‘rib chiqamiz:

- rang doirasidagi joylashuvi qat’iyan vertikal yoki gorizontal xordalarning uchlari bilan belgilanadigan ikki rang; ushbu ranglar umumiy asos ranglardan ham, kontrast asos ranglardan ham bir xil uzoqlashtirilgan (78-a rasm);
- o‘tmas burchagi uchi – asos rang, qarama-qarshi tomoni esa – qat’iyan vertikal yoki gorizontal xordalar bo‘lgan o‘tmas burchakli uchburchak uchlarida joylashgan uch rang (78-b rasm);
- gipotenuza rang doirasining diametri, katetlari esa qat’iyan vertikal yoki gorizontal xordalar bo‘lgan to‘g‘ri burchakli uchburchakning uchlarida joylashgan uch rang (78-v rasm);
- uchlaridan biri – asos rang, qarama-qarshi tomoni vertikal yoki gorizontal xorda bo‘lgan teng tomonli uchburchak uchlarida joylashgan uch rang; rang doirasida asos ranglar soniga ko‘ra faqat to‘rtta shunday uchburchak mavjudligini oson payqash mumkin (78-g rasm);
- barcha tomonlari vertikal va gorizontal xorda bo‘lgan to‘rtburchak yoki kvadrat uchlarida joylashgan to‘rt rang (75-8 rasm).



78-rasm. Uyg‘un ranglar birikmalarini tuzish sxemalari:

a) ikkita o‘xshash ranglarning birikmasi;
b,v,g) uchta o‘hshash-kontrast ranglar birikmasi;
d) to‘rtta o‘xshash-kontrast ranglar birikmasi;
e) ikkita kontrast-qo‘shimcha ranglar birikmasi

O‘xshash-kontrast ranglarning uyg‘un birikmalari ularga axromatik yoki o‘zlarining soyalar qatori ranglari qo‘shilganda sezilarli darajada boyiydi. O‘xshash-kontrast rangli birikmalar – o‘xshash ranglar va kontrast juftliklar birikmasidir. Ular kontrast tufayli yorqin rang faolligi bilan ajralib turadi.

O‘xshash kontrast ranglardan foydalanish yanada yorqin tasvirni beradi, chunki iliq sariq-qizil o‘xshash ranglar sovuq qizil-ko‘k-binafsharang bilan mukammallashadi. Misol uchun, agar rang doirasining ikki chapki choragi birlashtirilsa, yashil rangning iliq va sovuq gammalari mavjud bo‘lgan o‘xshash-kontrast rang birikmalarini olamiz.

Kostyum kontrast ranglarining uyg‘un birikmalari. Rangli doiraning qarama-qarshi choraklarida joylashgan ranglar contrast hisoblanadi. Misol uchun, barcha qizil-sariq (apelsinrang) ranglarga nisbatan ko‘k-yashil rang kontrastdir. Diametr uchlarida joylashgan ikkita rang, ya’ni bir-biridan ancha uzoqda joylashgan ranglar qo‘shimcha-kontrast ranglar deb nomlanadi (78-e rasm). Bunday rang juftliklari uyg‘un birikmalarni tashkil qiladi. Ularni hech qanday o‘xshashlik darajasi bog‘lamaydi, ular polyar sifatlarga ega bo‘lib, shu bois yonma-yon sharoitda bir-birining jarangini kuchaytiruvchi qo‘shimcha ranglar xususiyatiga asoslangan birikmasi yuqori faollik va keskinlikka egadir.

Kontrast-qo‘shimcha ranglar juftlik birikmasi ranglar kompozitsiyasiga o‘zlarining soyali qatorlar ranglaridan yoki axromatik ranglardan qo‘shish orqali boyitilishi mumkin.

Rang birikmalarining uyg‘unligi masalasini muayyan tarixiy davrlarda shakllangan estetik qarashlarsiz alohida ko‘rib chiqib bo‘lmaydi. Vaqt o‘tib borarkan, insonning go‘zallik va mukammallik haqidagi tasavvurlari ham o‘zgaradi. Biroq, yuqorida aytib o‘tilgan rang uyg‘unligini qurish tizimi obyektiv bo‘lib, foydalanish uchun tajribali yoki boshlang‘ich rassomlar tomonidan olinishi mumkin. Shu bilan birga, badiiy amaliyotda ranglar uyg‘unligini baholashda ularning hissiy ifodasi eng muhim mezon bo‘lib, kuzatuvchida hissiy kechinmalar keltirib chiqarishi mumkin.

5.5.3. Kostyum ranglarini idrok qilishning o‘ziga xos xususiyatlari

Amaliy san’atga tegishli bo‘lgan har qanday asar insonning aqliy holatiga, fikrlarining xarakteriga, ishlash darajasiga ta’sir qiluvchi rang muhitini hosil qiladi. Shunday qilib, rang fazoni tashkil etuvchi va kuzatuvchida faol hissiy reaksiya uyg‘otishi mumkin bo‘lgan yetakchi omildir.

Tarixda rangning inson ruhiyati va fiziologiyasiga ta’sirini tasdiqlovchi ko‘plab misollar mavjud. Inson o‘rnashgan muhitning umumiy kaloriti nafaqat

uning kayfiyatini, balki sog‘lig‘i va ish qobiliyatini ham nazorat qila oladi. Zamonaviy maishiy kostyumni loyihalashda bu haqiqatni hisobga olish kerak.

Talaygina tajribalar orqali barcha spektral ranglarning ko‘p yoki kam darajada insonning jismoniy reaksiyalariga sabab bo‘lishi isbotlandi. Misol uchun, qizil rang inson tanasining barcha funksiyalarini faollashtiradi, quvvatni oshiradi, issiqlik va qo‘zg‘atuvchi ta’sirga ega. Qisqa vaqt ichida u samaradorlikni oshirishi mumkin, ammo ko‘p o‘tmay odamni charchatib, g‘ashiga tega boshlaydi.

Sariq rang fiziologik reaksiyalar uchun maqbul bo‘lib, tetiklashtiradi hamda toliqtirmaydi.

Yashil, shuningdek sariq, organizmga foydali fiziologik ta’sir ko‘rsatadi. U tinchlantiradi, qisqa vaqt ichida samaradorlikni oshiradi.

Moviy va ko‘k ranglar tinchlantiradi, diqqatlikni oladi, biroq shu bilan birga ish layoqatini biroz tushiradi, inson tanasi funksiyalarini tormozlaydi.

Binafsharang o‘zida qizil va ko‘k ranglarning ta’sirini birlashtiradi, asab tizimiga ezuvchi ta’sir ko‘rsatib, ruhiy siqilish keltiradi.

Rangning inson ruhiga bunday kuchli ta’siri shu bilan izohlanadiki, alohida ranglar yoki ularning birikmasi kuzatuvchida hayotiy tajribasi, xotiralari, muayyan his-tuyg‘ulari va obrazlar bilan bog‘liq bo‘lgan rang assotsiatsiyalarini uyg‘otadi.

Shubhasiz, rang assotsiatsiyalari barchada bir xil bo‘lavermaydi. Ko‘p jihatdan bu irqiy va etnik kelib chiqishga, madaniy an’analarga, faoliyat turiga, yoshiga, har bir insonning temperamentiga bog‘liq. Rang assotsiatsiyalari rangning obyektiv xususiyatlariga ham bog‘liq. Rang qanchalik to‘yingan bo‘lsa, insonda shunchalik aniq va barqaror reaksiyalar hosil qiladi.

Rang assotsiatsiyalari fiziologik va hissiy bo‘lishi mumkin. Quyidagi uyushmalar fiziologik hisoblanadi:

- harorat – barcha ranglar yo iliq, yo sovuq illyuziyasini hosil qiladi; iliq ranglarga qizil, apelsinrang, sariq ranglar, ya’ni olov, quyosh ranglari kiradi; sovuq ranglar guruhini qor, muz, suv rangiga o‘xshovchi zangori, ko‘k, ko‘kimtir yashil

ranglar hosil qilgan; rang qoramtir tusga kiritilganda iliq bo‘la boshlaydi, oq bo‘yoq qo‘shilganda esa “soviydi” (79-rasm);

79-rasm. Sovuq ranglar koloriti

- og‘irlik – ba’zi ranglar og‘ir, boshqalari yengil qabul qilinadi; og‘irlik hissini xromatik va axromatik ranglar, shuningdek, kam to‘yingan ranglar uyg‘otadi;
- fazoviy – bir tasviriy tekislikda joylashgan ba’zi bo‘yalgan dog‘lar yaqinroq, boshqalari esa uzoqroq ko‘rinadi, bu yaqinlashuvchi va chekinuvchi ranglar illyuziyasi bilan bog‘liq; sovuq ranglar, ayniqsa, ular oqish bo‘lsa chekinuvchi ranglar hisoblanadi; iliq va qoramtir ranglar esa buyumlarni vizual yaqinlashtiradi; yorug‘ligidan qat’iy nazar, har qanday xromatik rang axromatikka nisbatan yaqinroq hisoblanadi;
- akustik – ba’zi ranglar jarangdor sifatida qabul qilinadi, boshqalari esa – sokin; birinchi guruhga faol to‘yingan ranglar, ayniqsa iliq ranglar kiradi; ikkinchi guruh axromatik va to‘yinmagan, oqish va spektral sovuq ranglardan iborat;
- faktura – ba’zi ranglar fakturalik, moddiylik, zichlik hissi uyg‘otadi, ular buyum shaklini aniqlashga yordam beradi, haqiqiy fakturaga urg‘u beradi;

bularga iliq, to‘yinmagan, yaqinlashuvchi ranglarni kiritish mumkin; boshqa ranglar fakturasiz, yengil, nomoddiy tuyiladi; ularga sovuq, oqish, chekinuvchi ranglar kiradi.

Fiziologik reaksiyalardan tashqari ranglar hissiy reaksiyalar tug‘dirishi mumkin:

- ijobiy – ba’zi ranglar quvnoq, shodon, tetiklashtiradigan, yoqimli his-tuyg‘ularga sabab bo‘ladi va yaxshi kayfiyat uyg‘otadi; odat bo‘yicha bundaylar sirasiga iliq, oqish, yorqin to‘yingan ranglar kiradi (80-rasm);

80-rasm. Iliq ranglar koloriti

- salbiy – boshqa ranglar qayg‘u va tashvish bilan bog‘liq bo‘lib, bunday ranglar fojea, ruhiy bezovtalik, xunobgarchilik, hatto qo‘rquv hissi tug‘dirishi mumkin; bunday ranglar sirasiga binafsharang, shuningdek, barcha qoramtir, to‘yinmagan ranglarni kiritish mumkin;

- neytral – ko‘pchilik ranglar juda passiv hisoblanib, kuchli reaksiya keltirib chiqarmaydi, tinch, loqayd, muvozanatli qilinadi; odatda bular uncha qoramtir va juda yorug‘ bo‘lmagan axromatik ranglardir.

Fiziologik rang assotsiatsiyalari ancha barqaror hisoblanadi – bitta rangning o‘zi yashash joyi, turmush tarzi, temperamentidan qat’i nazar, ko‘pchilik odamlarda bir xil reaksiyaga sabab bo‘ladi.

Ranglar va ular birikmalarining hissiy ta’siri odamlarda bir-biridan farqlanib turadi va asosan madaniy an’analarga bog‘liq. Misol uchun, yevropaliklar uchun oq rangi quvonch, poklik, sog‘liq bilan bog‘lansa, yaponlarda bu motam ranggi, qayg‘u, ta’ziya ma’nosini anglatadi.

Rassomning turli ranglarning odam tomonidan psixologik idrok etish xususiyatlaridan voqifligi juda muhim, chunki bu unga o‘z vazifasini bajarishda – buyumlar muhitini imkoni boricha qulay va «insoniy» yaratishda ko‘mak beradi.

Mahsulot rangi inson ko‘rish tizimi uchun murakkab rag‘batdir. Vizual idrok doirasida rang har bir inson uchun turli xil hissiy reaksiyaga sabab bo‘ladi. Rangning hissiy ta’siri fiziologik ta’sir va bu rangga xos bo‘lgan assotsiatsiyalar bilan bog‘liq. Masalan, qizil ko‘k rangdan ko‘ra ko‘proq ta’sir kuchiga ega. Qizil rang asab tizimini qo‘zg‘atib, mushak kuchini faollashtiradi. Ko‘k rang tormozlovchi ta’sirga ega. Iliq ranglar ekstraversiya ranglari (tashqariga qaragan) sanalib, ko‘k, binafsharang, yashil esa passiv introversiyaning ranglari (ichkariga qaragan) sirasiga kiradi.

Rang bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan yaponiyalik olim H.Tidziiva yoshlarning keksa avlodga qaraganda sotsial umumiylik hissi kuchsiz ekanligini bildirgan. Uning fikriga ko‘ra, ular urf-odatlar va an’analarga kam ergashadilar, shuning uchun ularga rang assotsiatsiyalari emas, rangning o‘zidan bevosita ta’sir olish xosdir.

Amerika standartlari byurosi tomonidan olib borilgan tajribalar rangdan ta’sirlanish yosh va sog‘liqqa bog‘liqligini ko‘rsatdi. Ijobiy hislar spektrning qizil-sariq qismiga nisbatan ko‘zning sezuvchanligini oshiradi. Salbiy hislar spektrning ko‘kish-yashil qismiga ko‘zning sezgirligini oshiradi.

Inson ehtiyojlariga nisbatan rang borasidagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, insonga mo‘ljallangan har qanday buyum rangini tanlashda uning qaysi rangni afzal ko‘rishini hisobga olish kerak. Masalan, irqi va yashash joyidan qat’i nazar, bir yoshgacha bo‘lgan bolalar baravariga qizil, apelsinrang, sariq ranglarni xush ko‘radi. Ranglar o‘smir va katta yoshdagilar orasida ommabopligiga ko‘ra

quyidagicha taqsimlanadi: moviy, yashil, qizil, sariq, apelsinrang, binafsharang, oq.

Rangni afzal ko‘rishning tabiiy holati vaqtincha moda ta’sirida ko‘rinishini o‘zgartirishi mumkin. Moda rangi faqat kiyim uchungina kerak emas. Moda rangi kostyum, interyer, uy-ro‘zg‘or buyumlari va me’morlik bilan bog‘liq. Muayyan rang urfga kirishi asta-sekin kechadigan jarayon, u yoki bu moda rangining arzimas alomatlari oldindan ma’lum qilib boriladi.

Yaponiyalik mutaxassislarning ta’kidlashicha, sanoat mahsulotlarining rang-barangligi ijtimoiy didga qarab o‘zgaradi. Qaysi rang afzalligi tendensiyalarini muntazam hisoblash va tahlil qilish ularning rivojlanishini oldindan bilish imkonini beradi. Rang bo‘yicha testlarning maxsus tizimlari muayyan guruhlar (mutaxassis va oddiy xaridorlar) afzal ko‘ruvchi ranglardagi o‘zgarish nisbatini aniqlaydi. Ammo yaponiyalik mutaxassislar muhit rangiga ko‘ra juda faol bo‘lishi mumkin deb hisoblab, ranglarni tanlash tendensiyalariga juda tanqidiy munosabatdalar. Ularning fikricha, bu jarayon muhitga yomon ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Chiroyli va xunuk ranglar to‘g‘risidagi umumiy tasavvurlar tufayli, hatto mahsulotni loyihalaydigan dizaynerlar ham ushbu mahsulotlar rangi haqida biror tushunchaga ega emaslar. Xaridor nima sotib oladi, qancha va qanday narxda sotib oladi – bu masalalar mahsulot ishlab chiqarish va sotishni xavfli operatsiyaga aylantiradigan muammolardir. Iste’mol tovarlari uchun ommabop ranglar bo‘yicha statistika ma’lumotlari barcha savollarga to‘liq javob bermaydi, ammo ushbu tadqiqotning qiymati shundaki, u insoniyat hayotiy tajribasi va dunyoqarashini aks ettiradi. Masalan, aytaylik, agar yaponlar orasida ommabop bo‘lgan 30 dona mahsulotning tuslarini birma-bir ko‘rib chiqsak, barcha ranglarning 60 foizini toza va pastel ranglar egallashi guvohi bo‘lamiz.

Har bir rangga turlicha ma’no nisbat berilishi ma’lum. Savol tug‘iladi: rang o‘zgarishi ushbu buyum bahosiga ta’sir qilishi mumkinmi? yorqin ranglarga

bo‘yalgan mahsulotlar pastel birikmalar ranggidagi mahsulotlarga qaraganda arzon ko‘rinmaydimi?

Iste’molchi rangni mahsulotning o‘ziga yoki uning o‘ramiga xos xususiyat sifatida qabul qiladi. Bunda firma mahsulotlari uslubini tanlash juda muhim.

Rang tanlash muammosi iste’mol tovarlarining optimal rang assortimentiga erishish nuqtai nazaridan juda dolzarb bo‘lib, dizayn mahsulotlarini loyihalashda rangga bo‘lgan talabni oshiradi.

5.6. Kostyum kompozitsiyasida faktura

Kostyum yaratishda turli materiallar: tabiiy va hosila; trikotaj, to‘qima va noto‘qima; charm, zamsha, yog‘och, shisha, plastmassa, tosh va hokazo materiallar qo‘llaniladi.

Ushbu materiallar har biri o‘z plastika (mayinlik, osiluvchanlik, dag‘allik, va h.k.), dekorativligiga (faktura, rang, naqsh, tarkibi va b.), gigiyenik (havo, nam, chang, issiq o‘tqazuchanlik) va mexanik (drapirovkabopligi, g‘ijimlanishi, shaklni saqlashi, sitilishi va b.) xossalariga ega. Ularning barchasi shakl xarakteri va konstruktiv yechimini qanday hal etilishini belgilab beradi.

Kostyumda qo‘llanilgan materiallarning plastik xususiyatlari inobatga olinishi kerak. Masalan, shifon gazlamalar harir, drapirovkabop bo‘ladi, shuning uchun ulardan choklari minimal darajada, yumshoq ovalsimon shakl yaratilishi lozim, bunda drapirovkalar, burmalar, mayin taxlamalar, klyosh va qiya bichim yordamida shakl hosil qilinadi; yaltiroq, to‘kilib turadigan (krep-satin, krep-atlas va b.) matolar drapirovkabop ekanligiga ko‘ra, yetarli darajada hajmli, gavda bo‘ylab “oqib” turadigan shakl hosil qilish imkonini beradi, matoning jilovlanishi uning yuqoridagi xossalarini kuchaytirib ko‘rsatadi; sintetik aralash jun matolardan aniq geometrik shakldagi buyumlar yaratilishi lozim.

Matolarning fizik-mexanik xususiyatlari ham inobatga olinishi lozim, chunki ular material shaklining geometrik turini belgilaydi va konstruktiv yechimlarini

aniqlaydi. Ba’zan materialning fizik-mexanik xususiyati unga dastlabki texnologik ishlov berishni talab qiladi (namlab-isitib ishlov berish va b.).

Materialning gigiyenik xususiyatlari ham kiyim shaklini hosil qilinishiga ta’sir etadi. Masalan, havo va namlikni o‘tqazmaydigan materiallardan buyum shakli va odam tanasi orasidagi havo bemalol almashishiga imkon berishi kerak, ya’ni shakl har tomonlama erkin bo‘lib, ochiq bo‘lishi zarur.

Materialning dekorativ xususiyatlari shaklning geometrik turini tanlashga va uning kompozitsion yechimiga ta’sir etadi. Masalan, material sidirg‘a bo‘lsa, barcha buyumdagi choklar va detallar yaqqol ko‘rinadi, demak, konstruktiv yechimga e’tibor berish lozim; agar gazlama mayda naqshli bo‘lsa, unda choklar va detallar ko‘rimaydi, demak, choklar faqat shakllantirish funksiyasinigina bajarishi lozim; yo‘l-yo‘l va katak-katak matolar maxsus yechimni talab qiladi.

Faktura materialning ifodali xossalaridan biri hisoblanadi. Faktura – bu material yuzasining ifodalovchi xususiyatidir. Faktura tabiiy va hosila bo‘lishi mumkin. Tabiiy fakturaga mo‘yna, charm, yog‘och, tosh, metall va h.k. kiradi. Tabiiy fakturani hosila fakturaga nisbatan ritmik tuzilishi, siymosi, seziluvchanligi va tashqi ko‘rinishi mutlaqo boshqa bo‘ladi. Hosila materiallarning fakturasini xarakteri matoni ishlab chichiqarilgan usuli bilan bog‘liq (to‘qimachilik, to‘r to‘qishda, trikotaj, noto‘qima va b.). (81-rasm)

Kostyumda qo‘llanadigan materiallar fakturasi silliq, g‘adir-budir, yaltiroq, hira, tukli va b. bo‘ladi. Har bir faktura o‘zgacha badiiy siymoni ifodalaydi. Faktura sovuqlik (metall, tosh, shisha), iliqlik (mo‘yna, yog‘och), yengillik (shifon), vazminlik (krep-atlas) va boshqa tassurotlarni hosil qilish mumkin.

Faktura tanlashda mavsum, kostyumni nimaga mo‘ljallanganligi, kiyim turi, odamning yoshi, gavda tuzilishi turi hisobga olinishi kerak. Materialning fakturasi uning xossalari, umuman shaklni va uning qismlarini idroq qilishda ko‘z aldanishi (illyuziya) paydo bo‘lishiga ta’sir etishi mumkin. Faktura xususiyatlarini yetarli darajada e’tibor bermaslik ko‘pincha kostyumda turli materiallarni noqulay qo‘llanishiga olib keladi, shakl yaxshi ko‘rinmasdan nomonand ko‘rinadi. Badiiy

g‘oya va kompozitsion yechimlar turlicha bo‘lgani sababligi ekspluatatsion, texnologik yoki iqtisodiy zaruriyat boisidan bir kostyumda har xil fakturali materiallar ishlatilishi mumkin. Bu holda fakturalarning sifati va miqdoriga asoslanib, kostyum nimaga mo‘ljanganligiga ko‘ra ishlatilishi ma’qul.



81-rasm. Tabiiy va hosila fakturalar

Kostyum kompozitsiyasida naqshning muhim ahamiyati bor. Shaklni naqshdan ajratib bo‘lmaydi. Hamonki shaklda naqsh bor ekan, demak naqsh shaklning zarur komponenti, bir qismi bo‘lib qoladi. Naqsh ham kostyum singari ko‘p asrli tarixga, xalqlarga, millatlarga mansub. U xalqning tarixiy taqdirini, turmush tarzini, tashqi muhitni, iqlimni, fan va texnika rivojlanishini aks ettiradi. Naqsh turli xalqlarda va tarixiy davrlarda turli usulda hosil qilingan. Bu usullar quyidagi: eshish, o‘yma, to‘qima, o‘rish, bosma, ikat, batik, trafaret yordamida, kashta qilish, erkin tasvir solish va h.k.

Naqsh jamiyatning moddiy madaniyatining bir qismidir. Naqsh (lot. *ornamentum* – bezak) – bu turli buyumlarni bezatish uchun ritmik tartibda

joylashtirilgan unsurlaridan tasvir, ibtidoiy xalqlarda esa – tanani bo‘yash (tatuirovka).

Paleolit davrida xalqlar o‘troq turmush tarziga o‘tganda naqsh paydo bo‘lgan va hozirgacha buyumlarni bezashda asosiy badiiy vosita bo‘lib qoldi.

Barcha naqshlarning ajralmas xossasi – materiali muayyan davr san’atining rivojlanish umumiy tendensiyalari bilan uzluksiz bog‘liqdir. Turli naqshlar bilan bezatilgan buyumlar o‘z davrining badiiy uslubini to‘liq aks ettiradi. Naqsh davrning o‘ziga xos dastxati, uslub unsuridir.

Naqshning asosiy tasnif alomatlari: uning kelib chiqishi, nimaga mo‘ljallganligi va ma’nosidir. Bularni inobatga olgan holda, barcha naqsh unsurlarini bir necha guruhga yoki turga bo‘lish mumkin (P.P.Pashkov bo‘yicha).

Texnikaviy naqsh. Naqsh odamning mehnat faoliyati natijasida paydo bo‘lgan. Masalan, kulolchilik tarixida loydan yasalgan buyumlarning fakturasi, qo‘l dastgohida to‘qilgan gazlama naqshi, arqon eshilganda vintsimon o‘ramalari hosil bo‘lgan.

Ramziy naqsh. Naqsh san’ati asarlarning shartli-ramzli tavsirlarga yaqinligi ramziy naqshning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Azaldan naqsh siymolari ko‘pincha ramzlar yoki ramzlar tizimi bo‘lgan.

Odam o‘zining ijodiy faoliyatida tabiatning obyektiv qonunlarini ifoda etishga intuitiv ravishda intilib, o‘simliklarni, hayvonlarni, odamlarni va buyumlarni tasvirlagan. Ularning tasviri shartli, stilizatsiyalashgan edi. Tasviriy tilning o‘ziga xosligi – belgi-timsollarning abstrakt, plastik va konkret siymolarni bizga ko‘rsatishdir. Masalan, Qadimiy Misrda va Sharq mamlakatlarida O‘rta Osiyoda ramziy naqsh muhim rol o‘ynardi.



82-rasm. Toxariston matolari naqshi namunasi

Geometrik naqsh. Bora-bora texnikaviy va ramziy naqshda chiziqlar va dog‘larning murakkabroq kombinatsiyalari konkret mazmundan va hikoya ma’nosidan mahrum etilib yaratiladigan bo‘ldi. Natijada geometrik naqsh paydo bo‘ldi. U har xil davrda va xalqlarda turli edi. Naqsh asosini yo‘qotdi, ammo estetik qiymatini saqlab qoldi. Bu naqsh turida doimo ritm unsurlarining rang birikmalarining qat’iy takrorlanishiga e’tibor beriladi. Ba’zan ayrim tabiiy manbalar aktiv stilizatsiyalanadi, chunki amalda barcha geometrik shakllar – bu imkoni boricha oddiylashtirilgan qandaydir real mavjud shakllardir. Masalan, yunon naqshi meandr – to‘lqin, doira – quyosh.(83-rasm)

83-rasm. Geometrik naqsh

Geometrik naqsh turidagi shakllar ritmik tartibining qonuniyatlari bizning tasavvurimizda murakkab ma’lum hayotiy jarayonlar va hodisalar bilan bog‘liq bevosita taassurotni tug‘dirishga qodir. Aynan shuning uchun naqsh estetik funksiyasini saqlab qolgan. Geometrik naqshlardan klassik bo‘lib qolganlari: yo‘l yo‘l, katak-katak, no‘xat.

O‘simlik naqsh. Geometrik naqshdan keyin bu naqsh turi eng keng tarqalgan, uning tasviriy mavzulari har xil xalqlar va davrlarda turlicha bo‘lgan. Masalan, Xitoy va Yaponiyada keng tarqalgan tasviriy mavzu – xrizantema, Eronda – chinnigul, Rossiya va Ukrainada – kungaboqar, moychechak. Yevropada Roman uslubida – uchbarg va uzum novdasi tasviri, kech Gotika davrida – qushqo‘nmas va anor, Barokko uslubida – lola va sallagul, Rokoko uslubida – atirgul, Modern uslubida – gulsafsar va liliya tasvirlari bo‘lgan. O‘zbekistonda – bodom (baxt-iqbol ramzi), qalampir (har xil yomon ko‘zlardan asrash, achchiq ta’m), anor (ezgulik, to‘qchilik, to‘kin-sochinlik va yetuklik), lola (bahor belgisi) va boshqalar. (84-rasm)

84-rasm. O‘zbek chust do‘ppisida qalampir naqshi

Tasviriy mavzularning xima-xilligi bo‘yicha o‘simlik naqshi katta imkoniyatlarga va tasvirlash usullariga ega. Tasvirlar realistik, hajmiy, yassi yoki stilizatsiyalashgan bo‘lgan.

*Hattot (kalligraf) naqsh*ning plastik tasviri va ritmi bo‘yicha ifodali harf yoki matn unsurlaridan tuziladi. Hattotlik san’ati Xitoy, Yaponiya va bir qator arab mamlakatlarida muayyan uslubda tasviriy san’at o‘rnida bo‘lgan. Zamonaviy materiallarda bu naqsh turi ham keng qo‘llanadi.

85-rasm. Yozuvli naqshlar

*Fantastik naqsh*ning asosida ramziy mifologik ma’nolar yotadi. Qadimiy sharq mamlakatlarida (Misr, Ossuriya, Xitoy, Hindiston, Vizantiya) fantastik naqsh keng tarqalgandi. O‘rta asrda Yevropada din tirik jonlarni tasvirlashni man etganligi sababli fantastik naqsh ommabop bo‘lgan.

Astral naqsh (lot. astra – yulduz) osmonga sig‘inishni joriy etgan. Astral naqsh Xitoy, Yaponiya va Osiyo mamlakatlarida keng tarqalgan. Va yana ko‘plab naqsh turlari uchraydi: zoomorf (jonivorlar), ornitomorf (qushlar), antopomorf (inson tasviri), buyumli, mavzuli, peyzaj va b.

Naqsh san’ati O‘rta Osiyo madaniyati tarixida juda qadimiy bo‘lib, o‘ziga xos namunalari bilan ajralib turadi. Arxeologik topilmalar naqshning xilma-xil va rang-barang namunalaridan darak beradi. Me’moriy yodgorliklarda naqshning ancha mukammal, o‘ziga xos va yuksak san’atkorlik bilan yaratilgan nusxalarini uchratish mumkin. Xalq amaliy san’atining har bir turida (xususan, kashtado‘zlik, gilamchilik, o‘ymakorlik, ganchkorlik, naqqoshlik kabi) naqshning shakliy imkoniyatlari naqadar keng va boy ekanligi yaqqol kuzatiladi. O‘rta Osiyoda naqshlar keng tarqalgan bo‘lib, ular, asosan, 2 turga bo‘linadi: handasiy shakl va chiziqlardan iborat eng murakkab naqsh turi – girih, keng tarqalgan o‘simliksimon naqsh –islimiy.

Geometrik naqsh turlaridan biri **girix** bo‘lib, chigal, tugun ma’nosini anglatadi. Girix – bu to‘qilgan dekorativ naqshlar ko‘rinishida shakllantirilgan geometrik chiziqlardan tashkil topgan me’morchilik va badiiy xunarmandchilikda islomiy dekorativ san’at turidir. Xandasiy[7] naqsh – murakkab naqsh turi. U geometrik naqsh turlaridan biri bo‘lib, turtburchak, uchburchak, aylana va yoylardan hamda ko‘pburchaklardan iborat bo‘ladi. Geometrik naqsh uzluksiz rapportlardan tashqil topgan bo‘lib, har bir rapport o‘z tuzilishiga ega bo‘ladi.



86-rasm. Girix sxemalarining tuzilishi

[7] Xandasiy – geometrik naqsh

Islimiy – o‘simliksimon shakldagi takrorlanuvchi taqsimlardan tuzilgan asosiy naqsh turi. Naqsh asosini tanob, band, barg, butalar tashkil etadi. Islimiy bir-biriga uzluksiz ulanib, o‘ralib ketadigan chirmoviqsimon, o‘simliksimon naqshlarning takrorlanishidan tashkil topadi. (87-rasm)

87-rasm. Islimiy naqsh turlari

Har bir naqshning o‘z – qonun-qoidalari bor: taqsim va bo‘laklar aniq o‘lchamda, uyg‘un bo‘lishi, ranglar did bilan tanlangan, o‘zaro mutanosib bo‘lishi lozim. Bu naqqosh ustadan katta maxorat, malaka talab qiladi. O‘rta Osiyoda eng qadimiy naqsh namunalar, asosan, me’moriy inshootlarda saqlangan; naqshning ajoyib namunalari ganch, yog‘och va toshni o‘yib, ba’zan bo‘yab ishlangan.

Islom talablariga bo‘ysunish oqibatida jonivorlar, parrandalar va odamlarni tasvirlash yo‘qolib borib naqqoshlik rivoj topdi. Arab yozuvi o‘zlashtirildi. Natijada naqshlar bilan unvonli yozuv (epigrafika) uslubi paydo bo‘ldi. Arab yozuvi naqshlar bilan birga chizildi. Arab yozuvi ham bezak, ham duo-afsunlar vazifasini bajardi.

Naqsh san’ati murakkab va o‘ziga xos. Naqsh faqat materialning yuzasini bezamasdangina, asarni badiiy siymo ma’nosini boyitadi. U ajoyib qobiliyatga ega: real siymolarni, shakllar va buyumlarni yassi shartli naqsh tasvirlarida aks etadi.

Naqsh boshqa san’at turlari bilan chambarchas bog‘liq. Murakkab va spetsifik tarkib sifatida naqsh buyumni ajralmas qismi bo‘lib, uni arxitektonik xususiyatini ko‘rsatadi va aniqlaydi.

Rasm tasviri naturalistik yoki stilizatsiyalangan, yassi yoki hajmiy bo‘lishi mumkin.

Naqsh turi kostyumni ishlab chiqarish texnologiyasiga ta’sir etadi. Bu tomondan naqshlar oddiy va murakkab turlariga bo‘linadi. Texnologik jihatidan murakkab naqshlarga yirik, yo‘l-yo‘l, katak-katak, bir tomonlama yoki tepa va pasti bor rasmlar, naqshi kupon va hoshiyali joylangan matolar kiradi.

Materialga naqsh quyidagi usullarda solinishi mumkin:

- eshish – ip eshilib turli naqshli tasma qilinadi;
- o‘rish – ip yoki tasmani har xil usulda o‘rab naqsh hosil qilinadi;
- to‘qish – qo‘l yoki mexanik dastgohda naqsh ishlanadi;
- bosma – maxsus qoliplar bilan naqsh bosiladi;
- ikat[8] – tanda, arqoq yoki tanda va arqoq iplariga dastlabki naqsh solinadi (abr gazlamalari: xon-atlas, beqasam); o‘zbek ikati faqat tanda iplarini bo‘yash usuli bilan farqlanadi. Arqoq ipi esa sidirg’a qoladi. O‘zbekistonda ushbu texnikani “abrband”, ya’ni tarjimasi “o‘ralgan bulut” (“abr” atamasi fors tilidan “bulut”), matolarni esa abrli deb atashadi (88-rasm).

88-rasm. O‘zbek abrli matolari

[8] “Ikat” so’zi Indoneziyadan kelgan bo’lib, “mengikat” fe’lidan olingan va “aylantirib bog’lash” ma’nosini anglatadi.

- batik – gazlamada bo‘yashdan oldin naqsh chizilib, ranglar chegarasiga zaxira qilinadi va so‘ng bo‘yaladi;
- trafaret yordamida naqsh solinadi;
- gazlamaga kashta usulida naqsh solinadi;
- mahsus moddalar yordamida dastavval bo‘yalgan gazlamada naqsh o‘yma usulda solinadi;
- gazlamaga naqsh erkin rasm solish usulida qilinadi.

Naqsh material yuzasini bir tekis rapportli to‘ldirib turishi mumkin, yohud muayyan joylarida solinishi mumkin (kupon yoki hoshiya turida). Gazlama yuzasiga naqsh quyidagicha taqsimlanishi mumkin:

- rapportli – naqsh muayyan tartib bo‘yicha gazlama yuzasiga tekis solinadi;
- hoshiyali – tanda ipi yo‘nalishi bo‘yicha naqsh hoshiya turida solinadi;
- kuponli – naqsh ma’lum kupon kabi solinadi;
- rapportsiz – ko‘pincha naqsh erkin solinsa qat’iy rapporti bo‘lmaydi.

Naqshda bir necha rang qo‘llansa ularni quyidagicha nomlanadi: melodiy – naqshning bir rangning xususiyati bo‘yicha va ko‘p joy egallagani bois ustunlik qilgan naqsh; akkordli – naqshda ikki yoki uch rang boshqalariga nisbatan ustunlik qilgan naqsh; polifonik – naqshdagi barcha ranglar teng huquqli.

Kostyumga mato tanlanganda naqshga jiddiy munasabatda bo‘lish kerak. Uni yosh-jinsga, gavda tuzilishiga, kostyum nimaga mo‘ljallanganiga, mavsumga, ishlab chiqarish usuliga qarab qo‘llash kerak.

Naqshli materiallarda turli chiziqlar, bo‘rtma choklar, drapirovkalar, mayda detallar kam sezilgani uchun ular ifodali chiqmasligini yodda tutish kerak. Ularni ko‘rinarli qilish uchun sidirg‘a materiallardan kant, tasma va boshqalar qo‘yib bezash kerak bo‘ladi. Kostyumda ishlatiladigan dekorativ bezaklarni keyingi bo‘limda ko‘rib chiqiladi.

5.7. Kostyum kompozitsiyasida bezaklar

Bezak kompozitsiyaning mustaqil unsuri emas – bu qo‘shimcha ziynat bo‘lib, kostyumda mavjud bo‘lmasligi ham mumkin.

Kostyum tarixining har bir bosqichida o‘z bezak turlari va ularni ishlatish usullari bo‘lgan.

Kostyumni yaratish jarayonida ishlatilgan bezak turlari xilma-hil bo‘lib, ular kompozitsiyadagi asosiy g‘oya bo‘lishi yoki kostyumda mo‘ljallangan badiiy ifodalilikni kuchaytiradigan va boyitadigan bo‘lishi mumkin. Bezak yordamida kostyum shaklini yoki uning bir qismini bo‘rttirib ko‘rsatishi mumkin, shakllarni bo‘laklarga ajratib ham ko‘rsatishi mumkin. Bezakni dekorativ va konstruktiv (drapirovka, bo‘rtma burma, mayda taxlama, gofre, plisse va h.k.), dekorativ-utilitar (belbog‘lar, cho‘ntaklar, tugmalar, furnitura va b.) va faqat dekorativ (kashta, qo‘yma burmalar, boshqa material bilan bezash va b.) ahamiyati bo‘lishi mumkin.

Hozirgi son-sanoqsiz bezaklarni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

- barcha turdagi bo‘rttirma choklar, taxlamalar, bo‘rtma burmalar, drapirovkalar, plisse, gofre;
- asosiy yoki bezak materiallardan yasalgan detallar, quyma burmalar, mag‘izlar, buflar;
- maxsus bezak materiallaridan kashta va applikatsiya (ip bilan, munchoq, steklyarus, payetkalar, to‘r, tasma, popuk, lentalar, sun’iy gullar va b.);
- furnitura: tugmalar, to‘qalar, pistonlar, knopka, blochkalar, “molniya” tasmasi va b.;
- bezak materiallar: mo‘yna, charm, zamsha va b.;
- kostyum detallariga kashta tikish (89-rasm), bosma naqsh solib bezash, print va b.

89-rasm. Buxoro erkaklar milliy kostyumining zardo‘zi kashtasi bilan bezalishi

Bezak turini, uning joyini tanlash kostyum turi va nimaga mo‘ljallanganiga, uning shakliga, materialning fakturasiga, jins-yoshga, odamning gavda tuzilishiga va xarakteriga, modaga, faslga va h.k. bog‘liq.

Modaning har bir davriga o‘ziga xos bezaklar mansub. Vaqt-vaqti bilan bezaklar qayta qo‘llanadi. Bezaklar doimiy (kashta, tugma, kant va b.) va olib qo‘yadigan (yoqa, belbog‘, sun’iy gullar va b.) bo‘lishi mumkin.

Mato bezak sifatida barcha kiyim turlarida vaqtlar aro keng qo‘llangan. Bezak sifatida materialni qo‘llanishida asosiy gazlama bilan bog‘lanish uch turda bo‘lishi mumkin: asosiy va bezak gazlamasi bir xil fakturali va rangli; har xil fakturali gazlamalar, rangi esa bir xil; har xil fakturali va rangli gazlamalar.

Kashta qo‘l yoki mashinada har xil iplar, munchoqlar, steklyarus, payetka, zar yoki shoyi ip va boshqa vositalar bilan ishlanishi mumkin. Kashtani ishlash o‘ziga xosligi shundaki, u bilan faqat kashta ustalarigina emas, balki zodagon ayollar ham shug‘ullanardi (ba’zan erkalar ham). Kashta har xil usulda qilinishi mumkin: zardo‘zi, yo‘rmado‘zi, guldo‘zi, iroqi, applikatsiya va b. Kashta xalq kiyimlarida keng qo‘llanilgan. Kostyumda kashtaning naqshlari turlicha bo‘lgan. Ularning tasviriy mavzulari, ishlov usullari, buyumda joylanishi davr va xalqga

mansub. Masalan, Buxoro va Samarqand milliy kiyimlarning turli qismlarida zardo‘zi kashtasi tikilgan, Qashqadaryo va Surxondaryo vohasi ko‘ylaklarining old bo‘lagida yo‘rmado‘zi usulida doira shaklida kashta qilingan, turkman ayollari ko‘ylagini yoqasida iroqi usulda kashta qilingan, Ukraina ko‘ylaklarining yoqasi va yenglari iroqi usulida kashtalangan. Tasviriy mavzulari esa asosan stilizatsiyalangan o‘simliklar, qushlar, doiralar, geometrik shakllar va b. bo‘lgan.

To‘rlar libosda faqat bezak funksiyasini bajaradi. To‘r XIV asrda Yevropada kashf etilib, deyarli modadan chiqmaydi. To‘rlar libosga mayinlik, noziklik va yengillikni baxsh etadi. To‘rlar qo‘lda va mashinada to‘qiladi. Qo‘lda to‘qish asboblari har xil: igna, ilgak, spitsa, koklyushka bo‘lgan. Ular tasviriy mavzulari, eni va chetini ishlanishi bilan farqlanadi. To‘r ishlab chiqarish markazlari Fransiya, Ispaniya, Belgiya, Rusiya va b. mamlakatlarda bo‘lgan. Osiyo xalqlari milliy kostyumida to‘r qo‘llanilmagan.

G‘arbiy Yevropada ilk bor XV asrda belbog‘ning chetida ignada zar ip bilan mayda qilingan izmalar bezak sifatida bo‘lgan. So‘ng bu izmalarni kombinatsiyalab va biriktirib, to‘q fonda oq kontur berib, murakkab geometrik figuralarni yaratishgan. XVI-XVII aa. italian to‘rlari mashhur bo‘lgan. Aynan Italiyada to‘qilgan to‘r gipyur paydo bo‘lgan, XVII asrni o‘rtasida relyefli qilingani bois, bashang va ifodali bo‘lgan. Italiyadan to‘r to‘qish Fransiyaga o‘tdi. Mamlakatning hokimlarini xomiyligida dunyo bo‘ylab mashhur Alanson, Arjatan, Lil kabi to‘r to‘qish markazlari paydo bo‘lgan. To‘r faqat to‘qima bo‘lmagan, ular kashta usulida ham qilinadi.

Furnitura kostyumda faqat utilitar funksiyani bajarmasdan, bezak rolini ham o‘ynaydi. Kostyum tarixida azaldan eng keng qo‘llangan furnitura – tugmalardir. Ular suyak, sadaf, yog‘och, metall, shisha, plastmassa, tosh va b. materiallardan ishlanagan.

Tashqi ko‘rinishi bo‘yicha tugmalar har xil bo‘lgan: kattaligi bo‘yicha (mayda, o‘rta, katta); geometrik turi bo‘yicha (doira, kvadrat, to‘g‘riburchak,

uchburchak, oval, figurali, stilizatsiyalangan hayvonlar, hashoratlar va o‘simliklar va b.); rangi bo‘yicha; yassi yoki hajmiy.

Tugma tanlanganda asosiy materialni rangi, fakturasi, tarkibi, buyumni nimaga mo‘ljallanganligi inobatga olinishi lozim.

Har xil shaklli to‘qalar ko‘pincha belbog‘larda, xlyastik va patlarda qo‘llanadi. Ular suyak, metall, yog‘och va plastmassadan ishlanadi; geometrik shakli va kattaligi esa har xil bo‘ladi. To‘qa buyum detallarini funksional vazifasini, shaklni transformatsiyalash yoki faqat bezak funksiyasini bajaradi. Metall va plastmassadan ilgaklar dekorativ va funksional rolni bajaradi. “Molniya” tasmasi taqilma, buyum detalini shaklini transformatsiyalash va bezak funksiyasini bajarishi mumkin. “Molniya” tasmasi metall va plastmassadan qilinadi, “tishlarining” kattaligi va tasmaning uzunligi buyum kompozitsiyasiga ko‘ra har xil bo‘ladi. “Molniya ” tasmaning chegarasi turli bezatilishi mumkin.

Mashina *baxya choki* kostyumda keng qo‘llanadi. Ular bir necha qator, yirik yoki mayda, asosiy matoni rangida yoki boshqa rangda qilinib, to‘g‘ri yoki figurali bo‘lishi mumkin. Bezak choklar buyumning chiziqlarini, releflaini, detallarini ko‘rinadigan qiladi.

.

90-rasm. Futbolkalarni printlar bilan bezatish

Tasmalar (“vyunchik”, sutaj, lenta, tasma, shnur, kant, shokila, popuk va b.) kompozitsiyaning asosiy g‘oyasini ifodalash vositasi bo‘libgina emas, balki ular kompozitsion yechimni boyitadi. Masalan, kant kiyim detalini ifodali va ko‘rinarli qiladi

XX asrni oxirida va XXI asrni boshida kostyumni barcha qismlarida (palto, kurtka, kostyumda, shim va yubkada, ko‘ylakda, bosh va oyoq kiyimda, askessuarlarda va b.) payetka, steklyarus, munchoqlar va b. yaltiroq bezaklar keng qo‘llanadigan bo‘ldi. Bosma naqsh va printlar bezak sifatida Pret-a Porte yo‘nalishidagi kiyimlarda juda keng tarqaldi. Hozirgi kunda yoshlar modasi trendiga aylangan futbolkalarda turli yozuvlar, chiziqlar va boshqa geometrik motivlar, etnik naqsh hamda sevimli film yoki qahramonlari tasvirlangan dolzarb printlar urfga aylandi. (90-rasm) Bunday bezak turlari nafaqat kostyumni boyitadi, balki uni kiygan inson to‘g‘risida ma’lumot beradi. Kostyumda ishlatilgan bezaklar orqali uning didi, qiziqishlari, dunyoqarashi, kayfiyati va hatokki aytmoqchi bo‘lgan gaplarini tushunish mumkin.

VI BOB

KOSTYUM KOMPOZITSIYASIDA OPTIK ILLYUZIYALAR

6.1. Vizual idrokning o‘ziga xos xususiyatlari

Kompozitsion tuzilish voqelik bilan, ko‘rishni idrok etishdagi xususiyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan, optik illyuziyalar bilan to‘qnash keladi. Ma’lumki, to‘g‘ri chiziqlardan, to‘g‘ri aylanadan va to‘g‘ri shakllardan tashkil topgan geometrik figuralar, qiyshaygan va noto‘g‘ri ekandek bo‘lib ko‘rinadi, chunki ularni egri chiziqlar yoki nurlar tarami kesib o‘tadi.

Faktorlar (omil) o‘rtasida, tekis tasvirdagi ob’ekt tizimini idrok etishga va hajmli shakllarga ta’sir etadigan, alohida o‘rinni ko‘rish xususiyatlaridagi psixofiziologiya, ayniqsa fizologik optika egallaydi.

Ko‘rishga oid illyuziya - insonga optik aldanish ta’sirida oson o‘zgarishi xosdir. Ko‘zning biomexanikasi ayrim optik illyuziyalarning paydo bo‘lishiga javob bo‘ladi. Masalan, vertikal uzunasiga, gorizontal tengligidan kaltaroq tuyiladi, shuning uchun ko‘zning gorizontal harakati oson bajariladi va gorizontal oson o‘qiladi, uni o‘qishda kam vaqt sarflanadi. Bu tafovut tamoman aniqlangan o‘lcham, shuning uchunki ta’sir qiluvchanlik va sezuvchanlik orasidagi kuchga, uni to‘xtata oladigan matematik tobelik majud.

Illyuziyalar ko‘zning eng muhim yuqori tashkil etuvchanlik xususiyatidagi barcha ko‘rinadigan ob’ektlarning bir biologik koordinatsiyalashgan kartinaga, ya’ni ochiqlikka (erkin), oraliqqa (o‘tish yo‘llari) ta’kidlanadi, kontrast chegaralar (orientirlar) ajratiladi – ayniqsa vertikal, barcha teng bo‘lmagan, har qanday farqlar, siyraklik va to‘plamalar muqarrar qo‘shimcha xulosa bo‘ladi.

Ularning mazmuni geometrik va chiziqni, shaklni ko‘rishdagi butunlay tenglik, ular o‘rtasidagi oraliqlar, grafik materiallar bilan to‘ldirilgan va toza qoldirilgan (yorug‘likning irradiatsiyasi) elementlar (shakllar) ning chinakamiga to‘g‘ri kelmasligini o‘z ichiga oladi.

Faktlarni buzib ko‘rsatish, qaerda geometrik to‘g‘ri shakllar parallel chiziqlarni kesib o‘tsa, shakllar tomonlarida o‘tkir burchaklar hosil qilsa, juda ham ko‘rgazmali namoyon etiladi.

Aksariyat hollarda predmet, uning shakli, o’lchovlari haqidagi bizning tushunchamiz real voqelikdan farq qiladi. Predmetning real ko’rinib turgan sifati voqelikka mos kelmaydigan holat visual yoki optic illyuziya deb nomlanadi. Ushbu hodisaning sababi predmetning fizik xususiyatlarida hamda inson ko’zining optik xususiyatlarida o’z aksini topgan.

Kostyum shaklining ifodali ko’rinish usullarini qidirishda visual idrok qonuniyatlarini bilish modelyerga inson qomatining ba’zi kamchiliklarini to’g’irlashga imkon berishi mumkin, ya'ni vizual kattalashtirish, kengaytirish yoki toraytirish va hokazo. Visual idrokning xususiyatlarini atroflicha o’rganish uchun bir nechta muayyan namunalarni ko’rib chiqish lozim.

Illyuziyalardan ko‘plari belgilangan va yuz yil oldin bayon etilgan. Biroq, butunlay tushunish va umumqabul qilishda, nima uchundir idrok qilishdagi ko‘rish tizimini buzilganga o‘xshash tasvirlar, hozirgi davrgacha yo‘q. Barcha optik illyuziyalarni shartli ikki guruhga bo‘lish mumkin:

- fonsiz shakllarni aslida buzib ko‘rsatish;
- shu xildagi fonni taklif etadigan, shakllarni buzib ko‘rsatish.

Ko‘rishga oid illyuziyani o‘rganishni F.Selltner topilmalari, ya’ni sotib olingan gazlamadagi tasvirda effektiv vizual o‘xshashlik va vertikal parallel chiziqlarni ularni egri chiziqlar bilan kesishining to‘g‘ri kelmasligidan boshlagan (1860). Ushbu illyuziya ayniqsa, qachonki kesib o‘tilgan chiziqlar 45° teng bo‘lib, burchak hosil qilsa namoyon etiladi.

Bunday illyuziya variantlari, o‘tkir burchaklarning hajmi bo‘rttirilgan optik qoidaga asoslanadi, ikki to‘g‘ri chiziqning egilganlik effekti va ushbu to‘g‘rilikning qavariq effektivligi hisoblanadi.

Ayrim oddiy tasvirlar xiyla katta buzib ko‘rsatishlar bilan baholanadi (ayrimlari 20% uzunroq yoki kisqaroq, to‘g‘ri chiziq yaqqol qiyshiq ko‘rinadi va hokazo). Amaliy jihatdan bu buzib ko‘rsatilishni barcha insonlar ko‘radilar.

Avvalambor, kesmalar uzunligi bilan solishtirganda yuzaga keluvchi illyuzalar bilan tanishib chiqamiz. 91- rasmda uzunligi mutlaqo bir xil bo’lgan ikkita kesma tasvirlangan. Biroq yuqori kesma bizga quyi kesmaga nisbatan yaqqol uzunroq ko’rinadi. Bu effect uzunlik tasavvurini uyg’otuvchi o’tkazilgan chiziqlar sabab yuzaga keladi. Bilamizki, uzoqlashgan sayin barcha predmetlar kichrayadi, shuning uchun butun bo’yi bilan namoyon bo’luvchi yuqori kesma uzunroqdek tuyuladi.

91-rasm



92-rasm

92 - rasmda ham uzunligi teng bo’lgan kesmalar ko’rsatilgan. Biroq yuqori kesma bir-biriga qaragan burchaklar bilan chegaralangan bo’lib, ular kesmaning gorizontal bo’ylab harakatini to’xtatgandek ko’rinadi, quyi kesma esa bir-biriga qarama-qarshi burchaklar bilan tugab, ular kesmaning harakatni visual davom ettiradi. Shu tufayli yuqoridagi kesma bizga qisqaroqdek tuyuladi. Bu xildagi tasvirlarda eng mashhuri Myuller Layer o‘qlari hisoblanadi (1889 y. yozilgan “o‘qlar illyuziyasi”). Bu shunchaki o‘qlarning bir jufti, yog‘ochlarining uzunligi bir xil, bir o‘qning uchi har tomonga tarqaluvchi, ikkinchisi esa yig‘iluvchidir. Tarqaluvchi o‘qning uchi uzunroq tuyuladi, garchi ularning uzunligi bir xil bo‘lsa ham.

Bir-biriga perpendikulyar joylashgan kesmalarni solishtirganda qiziqarli effect yuzaga keladi. Vertikal kesma gorizontal kesma bilan tutashganda uni ikkiga bo'ladi va undan uzundek ko'rinadi (93-rasm). Bu yerda inson ko'zining gorizontlarga nisbatan vertikallarni uzunroq idrok etish xususiyati yuzaga chiqadi. Kesmaning kesilgani, va shu sabab yanada qisqaroq ko'rinishi esa effektni yanada kuchaytiradi.

Geometrik figuralarni solishtirganda ham optic illyuziyalar yuzaga keladi. Bir xil predmetlar katta predmetlar yokida kichik yoki kichik predmetlar yonida kattadek ko'rinadi. Predmet va uning qismi o'rab turgan elementlardan qat'iy nazar turlicha idrok etiladi (kontrast qonuni), jumladan, turli o'lchamdagi aylana o'rtasiga joylashgan, bir xil aylanali maydonlarning, o'zgargandek tuyulishi.



93-rasm



94-rasm

94-rasmda aylanalarning ikki guruhi tasvirlangan. 94-b rasmda markazdagi aylana 94-a rasmdagi markaziy aylanaga nisbatan kattadek ko'rinadi. Buning sababi shuki, birinchi holatda markaziy aylana kichik aylanalar bilan solishtiriladi, va shu tufayli ko'zimiz uni kattalashganroq holda qabul qiladi. Ikkinchi holatda esa teskari effect namoyon bo'ladi.

Sнuningdek xarakterli illyuziyalarga quyidagilar tegishli:

- kvadrat, aylanadan yuqori ko‘rinishi, garchi birinchi balandlik ikkinchi diametrga teng (95-rasm);

95-rasm

- 96-rasmda hajmni baholashdagi ko‘rish xatolari uchburchak tomonlarining uzunligi bo‘yicha, kvadrat va beshburchakligi bo‘yicha teng (shakldan shaklgacha tomonlar hajmining cho‘zilish taassuroti) .

96-rasm

Shaklning geometrik xarakteristikalari idrok etilishi ham asliga to’g’ri kelmasligi mumkin. 97-rasmda tomonlari markazdan chiquvchi ko’p sonli nurlar bilan kesishgan to’g’ri to’rtburchak tasvirlangan. Uning qo’shimcha chiziqlari to’g’ri to’rtburchak tomonlarining parallel to’g’ri chiziqlarini qayrilgan chiziqlarga aylantiradi.

98-rasmda shunga o’xshash boshqa namuna keltirilgan. Shakli mutlaqo to’g’ri bo’lgan aylana figuraning konturiga qarab burchak ostida joylashgan to’g’ri chiziqlar fonida shakli o’zgargandek ko’rinadi.



97-rasm



98-rasm

Shaklning visual idrok qilinishining muhim omili uni qanday to’ldirish xarakteri hisoblanadi. Ikkita bir xil figura (99-rasm) solishtirilganda biz ularning vertikal chiziqlar bilan to’ldirilgan birinchisi gorizontal chiziqlar bilan to’ldirilganiga qaraganda balandroq va uzunroq ko’rinadi.vertikal bo’linishning mavjudligi shaklni yanada uzun ko’rsatadi. Modellashtirganda bu omil muhim ahamiyatga ega bo’ladi



99-rasm

Shakllarni fon bilan taqqoslashda optik illyuziyalar kuzatilishi mumkin. Qorong‘i fonda joylashgan yorqin narsalar, xuddi shu o‘lcham bo‘yicha to‘q rangni yorug‘ joyga joylashganiga nisbatan yirikroq ko‘rinadi. Boshqacha

aytganda, yorqin ranglar, ayniqsa oq buyumlar yuzada vizual ko‘proq joyni egallaydi.

Irradiatsiya (lotinchadan *irradio* - charaqlayman, nurlar tarataman degan ma’noni bildiradi) – qora fondagi rangi ochiq shakllarning hajmi turlicha o‘lchamdagi oq fondagi qoraroq shakllarga nisbatan kattaroq bo‘lib ko‘rinishi.

Asosiy illyuziyalarni bilish va vizual faktlarni buzib ko‘rilishidagi korrektirovka arsenaliga ega bo‘lish, muhit ob’ektlarini, ya’ni go‘zallik va uyg‘unlik ma’naviy-ruhiy komfortni ta’minlash uchun kerakli lahzalarni yaratishda yordam beradi.



100-rasm

Xuddi shunday, vizual kommunikatsiya vositalarida «O» harfi, dumaloq shaklga ega bo‘lgan, boshqa harflar, sonlar, belgilar va grafik elementlar, balandligi bo‘yicha ko‘shni bo‘lgan to‘g‘ri uchburchakli harflarga va elementlarga teng bo‘lib ko‘rinishi uchun, past va balanddan satr chizig‘i ortidan yurishlari kerak.

Ochiqroq yozuvlar shtrixining qalinligi, irradiatsiya effetidan, ochroq fonga nisbatan, kora fonda kichikroq bo‘lishi kerak (o‘rtacha 1/3da). Shtrix qanchalik ingichka bo‘lsa, kontrast yorqinligidan kuchli yorqinroq va qoraroqqa nisbatan va kuzatuvchi ko‘zining moslashuviga yomonroq bo‘lib tuyuladi.

Ko‘z darajasidan bir necha past bo‘lgan, har tomondan o‘rab turgan qiyshiq chiziqli yuzaning, gorizontal chiziqlarga vizual “osilishi” effektini yo‘qotish uchun, bir qancha ko‘tarilish ko‘shimcha qilib beriladi. “Osilish” effekti qiya yuzaligining yonma-yonligini aktivlashtiradi.

Grafika hisobiga ko‘zga doimo asabiy ta’sir etilishi:

- ochiq silliq shakllar kengroq tuyuladi;
- vertikal yo‘l-yo‘l chiziqlar shaklni baland ko‘rsatadi;
- gorizontal yo‘l-yo‘l chiziqlar pastroq taassurotni beradi;
- naqshli ola-bula bezatilgan shakl va detallar qo’llanilishi notinchlik, tartibsizlik, hajmining kichikligi hissini chaqiradi;
- katak-katak naqshlar bo’yni vizual past qiladi va ruhiy bosim o‘tkazadi.

Zamonaviy liboslarning badiiy dizaynini loyihalashda vizual idrok qonunlarini bilish va optik illyuziyalarning paydo bo‘lishi rassom-dizaynerga kostyum kompozitsiyasining alohida elementlarini uning fikrlariga muvofiqligini ta’minlashga yordam beradi.

6.2. Kiyimlarni modellashtirishda optik illyuziyalar

Kostyumning loyiha va badiiy obrazining muayyan tomonlariga urg’u berish, yaratilayotgan kostyum shakli va inson qomatining kattaligi haqida kerakli tasavvurni uyg’otish, kompozitsiyaning asosiy elementi ifodaliligini oshirish uchun modelyer optic korrektivlardan foydalanishi lozim.

Modellashtirishda inson ko’zining visual idroki xususiyatlariga asoslangan optic korrektivlardan tez-tez foydalaniladi, chunki ular inson qomatining tabiiy kamchiliklarini to’g’irlash va rassomning farazini yanada to’g’riroq aks ettirish imkonini beradi. Individual inson uchun uning qomatining o’ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda model yaratishda mutaxassislarga tavsiya qilish mumkin bo’lgan bir qancha qoidalarni ko’rib chiqamiz.

Avvalambor, shuni inobatga olish joizki, libosda ko'ndalang gorizontal chiziqlarning qo'llanilishi, masalan beldagi kesma chiziqlar, koketkalar (ko'krakburmalar) yoki shunga o'xshash detallarning bo'lishi insonning bo'yini visual qisqatriradi. Shu tufayli bo'yi uzun bo'lmagan ayollar kiyimlarida gorizontal chiziqlar bo'lishini oldini olishlari lozim.

Ularga yaxlit bichilgan liboslar ko'proq to'g'ri keladi. Agar kostyum yubka va bluzadan yoki yubka vajaketdan iborat bo'lsa, ular rangi turli xil bo'lmagan matolardan bo'lishi lozim.

Kalta bo'yli to'ladan kelgan ayollarning qomatini relyeflar, tikishlar yoki tasma rasmli vertikal chiziqlari mavjud bo'lgan liboslar kelishgan qilib ko'rsatadi. Biroq yirik suratli va ranglari bir-biriga teskari bo'lgan suratlar tushirilgan matolardan bu holda foydalanish o'rinli bo'lmaydi. (101-rasm)

101-rasm. Vertikal va gorizontal chiziqlar illyuziyasi

Mos ravishda, baland bo'yli va ozg'indan kelgan ayollarga gorizontal chiziqli liboslar mos keladi. Ularga tepa va pastki qismlari aniq chegaralangan

kostyumlar ko’proq yarashadi. Bunday libos ularning qomatini go’zallashtirib, xushbichim ko’rsatadi.

Bo’yin qismida to’g’ri qirqim hosil qilish orqali kalta bo’yinni uzaytirish mumkin. Bunday holatda “V” shaklidagi yoki uzun oval shaklidagi qirqim ma’qul shakl hisoblanadi.

Ko’krak qismi kichik ayollar uchun lifda oddiy ko’krakusti zahira chokni yumshoq burmalar bilan almashtirish orqali ko’krak qismini kattalashtirish lozim. Undan tashqari, lifning yuqori qismida cho’ntaklar, koketkalar, volanlar (qo’sh etaklar), tasmalar, sharflar qo’llash ham tavsiya qilinadi. Bu holatda ko’p qatlamli to’plamlar ham yaxshi mos keladi. Biroq bo’yin qismini chuqur ochib bo’lmaydi.

Katta ko‘krakli ayollarga esa beli pasaytirilgan, yelka chizig’i kengaytirilgan va silueti nisbatan tor turuvchi modellarni tanlash joizdir. Bunday turdagi figurada yopiq yoqalar, bo’yin qismining kam ochilishi 3/4uzunlikdagi va bilakkacha bo'lgan yenglar, lif bilan bir xil rangdagi tasmalar libos tashqi ko’rinishini yaxshilaydi.

Biroq bunda kalta yengli. Bel chizig’i yuqori, lifida gorizontal chiziqlar va bo’linishlar bo’lgan liboslarni kiyish tavsiya qilinmaydi. Kalta jaketlar ham kamchilikni oshirib ko’rsatadi.

Ba’zi ayollarda ko’krak pastroqda joylashgan bo’ladi. Ushbu kamchilikni to’g’irlash uchun libosda bel chizig’ini sal pasaytirish, ya’ni beldan ko’krakkacha bo’lgan masofani oshirish lozim. Agar modelda bel chizig’i o’z joyida joylashuvi nazardan tutilgan bo’lsa, yelkalarda katta bo’lmagan koketkalar loyihalashtirish, koketka chizig’idan esa odatiy ko’krakusti zahira chokining o’rnini bosuvchi yumshoq qatlamlar qo’yish lozim.

Bu holda keng tasmalar, ko’krakning yuqori nuqtalaridan o’tuvchi koketkalar, shuningdek baland belli modellar umuman tavsiya qilinmaydi \

Agar ayolning yelkalari haddan tashqari keng bo’lib uning qomatini yirik qilib ko’rsatsa, u uchun lifning yuqori qismida bo’lingan mayda detallari mavjud modellarni tanlash maqsadga muvofiqdir.

Bunday elementlarga reglan va yarim reglan bichimli yenglar, kichik uzaytirilgan yoqalar, bo’yin qismining V-shaklida ochilishi kirishi mumkin. Shuningdek yaxlit bichilgan yengli modellarni ham tanlash mumkin, haddan ortiq keng yelkalarni uzun munchoqlar va sharflar ham yaxshi yashiradi. (102-rasm)



Bunda esa yelka chizig’ini optik kattalashtiruvchi detallarning, xususan, pogonlar, reglan-pogonlar, tepa qismi burmalar bilan ko’tarilgan keng hajmli yenglar, tomoq qismining keng kvadrat shaklida ochilishi, va hokazolarning bo’lmasligiga ahamiyat berish lozim.

102-rasm. V-simon boyin o’mizi illyuziyasi

Unga teskari holat esa – tor yelkalardir. Bu nuqsonni ham libos yordamida yashirish mumkin. Bunday qomatlar uchun moda nimani talab qilishiga qaramay, yelkalarni to’g’irlovchi va bir vaqtning o’zida kengaytiruvchi, va yelka chizig’ini to’g’irlovchi yelka osti yostiqchalarini qo’yish tavsiya qilinadi.

Undan tashqari, tirqishsimon (“lodka”) yoki kvadrat (“kare”) bo’yinli, pogonli, burchaklari tepaga qaratilgan laskanli, boshlanish qismi burmalarga yig’ilgan yengli libos modellari ham yaxshi mos keladi.

Figuraning katta kamchiligi bukrilik hisoblanadi, u tana tuzilishini sezilarli darajada yomonlashtiradi. Lekin yaxshi tanlangan kiyim bu kamchilikni yengishga yordam beradi. Bunday holda, belning chizig‘i bo‘ylab kichik yumshoq burmalar bo‘lgan modellar tavsiya etiladi. Bundan tashqari, kamchilikni bo‘yinning orqasida bir oz orqada qoluvchi katta yoqa ham yashiradi.

Bosh sal orqaga tashlangan, yelkalar orqaga ketgan, to'g'ri belli, umurtqa pog'onasi bel chizig’i bo’ylab sezilarli egilgan va dumba oldinga chiqqan ergri

qomat uchun esa yubkasida burmalari va yig’malari bo’lgan modellar to’g’ri keladi.

Ayol go’zalligining zamonaviy ideali tor sonli qomat hisoblanadi. Shu tufayli agar ayol haddan tashqari keng songa e’tiborni qaratmaslik uchun ular uchun libos loyihalashtirishda bir qancha tavsiyalarga amal qilish lozim.

Avvalambor, kostyumning tepa qismini visual faollashtirish, u yerni kompozitsiya markaziga aylantirish lozim. Buning uchun yorqin ishlov materiallaridan foydalanish mumkin, masalan, katta yoqa, keng koketka, bo’yin qismini o’zgacha ochish, ur'gu berilgan volanlar, burmalar, rangli kant qo’l keladi. Ushbu detallar e’tiborni o’ziga qaratishdan tashqari, yelka chizig’ini kengaytirishi lozim.

Diagonal chiziqlar yordamida shaklda harakatni hosil gilish mumkin. Va diagonal chiziqni qayerga yonaltirganliga ushbu qismni kattaroq yoki kichikroq qilib ko’rsatishi mumkin. Ushbu ususl yordamida idrok etishda kerakli tana qismiga qaratigan diagonal chiziqlar shaklni kattalashtiridi yoki aksincha kichiklashtiradi. (103-rasm)

103-rasm. Dioganal chiziqlar illyuziyasi

Yubkalar esa to’g’ri va biroz klyoshli bichilishi va shaklni visual kichraytiruvchi qoramtir ranglarda bo’lishi maqsadga muvofiqdir. Bunda bluzalar qarama-qarshi rangda bo’lishi effektni oshiradi. Ko’rilayotgan kamchilikni klinlardan iborat yubkalar yoki o’rtasida dazmollangan burmalari bo’lgan yubkalar ham yaxshi yashiradi. Burmali, yig’mali yoki “quyosh” shaklida bichilgan yubkalar tavsiya qilinmaydi.

Butun uzunligi to’g’ri dazmollangan “strelkali” klassik shimlar, va ular bilan son chizig’idan pastda tugovchi jaket va jiletlar ham maqsadga muvofiqdir. Keng “xaltasimon” va sonida ulama cho’ntaklari mavjud shimlar esa tavsiya qilinmaydi.

Haddan tashqari tor sonlar ham qomatni chiroyli ko’rsatmaydi, shu tufayli bu kamchilikni yashirish lozim. Bu holda tor turadigan lifli va past qismi keng modellarni tanlash tavsiya qilinadi. Yubkalar klyoshli va qarama qarshi rangli suratli matolar bilan bel chizig’ida bog'langan bo’lishi mumkin.

Shimlar ham keng bo’lib, bel qismida burmalari va yon chiziqlarga yaqinda joylashgan cho’ntaklar ham bo’lishi mumkin. Bunday shim va yubkalarga silueti kvadratni eslatuvchi qisqa jaketlar mos keladi.

Tor sonli ayollarga juda tor shimlar, tor to’g’ri yubkalar, uzun lifli modellar, katta yoqali va yelka chizig’i tushirilgan modellar tavsiya qilinmaydi.

Ushbu bo’limda allaqachon ko’rilganidek, tananing turli a’zolarining proporsional nisbatlari muayyan qonuniyatlarga bo’ysunadi. Biroq bunday normalardan biroz chetlashishlar ham ko’p uchrab turadi. Masalan, ko’pchilikda bel chizig’I pastda joylashgan qomat turi kuzatiladi.

Albatta, bu nuqson xunuklik hisoblanmaydi, biroq qomat bunda u qadar go’zal ko’rinmasligi mumkin. Ushbu muammoni esa libos yordamida chetlab o’tish mumkin. Buning uchun belning tabiiy chizig’ini konstruktiv usulda biroz ko’rarish lozim (lif va yubkaning kesma chizig’ini ko’tarish), yoki modelning past qismi bilan bir xil rangdagi tasmadan foydalanish, yoki keng tasma tasavvurini uyg’otuvchi drapirovkali kesmalar hosil qilish mumkin.

Tabiiy proporsiyalarning buzilishiga yana bir misol – kalta beldir. Bu holatda bel chizig’ini pasaytirish lozim bo’ladi. Tasmalar tor va lif bilan bir rangda bo’lishi maqsadga muvofiqdir, yoki belga umuman urg’u bermasdan, songa ur’gu berish mumkin.

Kalta oyoqlar bir xil rangdagi ikki qismdan iborat to’plamlar (masalan, yubka va jaket, yoki shim va jaket) yordamida yashirilishi mumkin. Shuningdek bel chizig’I yuqoriga ko’tarilgan ko’ylaklar ham yaxshi samara beradi.

Aksesuarlarga alohida e’tibor berish lozim: poyabzal va kolgotkalar bir rangda bo’lishi lozim, poyabzal esa baland yoki o’rtacha balandlikdagi poshnada bo'lishi lozim.

Pastki qismi yig’ilgan yoki manjetli, uzun jaketlar, boldir o’rtasigacha bo’lgan yubkalar, poshnasiz tuflilar yoki baland ingichka poshnali tulilar esa umuman tavsiya qilinmaydi.

Qo’llar kalta bo’lsa, yenglar pastga qarab torayuvchi va bilakdan pastda tugaydigan qilib modellashtirish lozim bo’ladi. Past qismda joylashgan volanlar va burmalar ham yengni yaxshi uzaytiradi. Baland manjet bilan tugaydigan keng yenglar esa tavsiya qilinmaydi.

Qo’llar juda uzun bo’lgan qomatlar uchun esa, aksincha, keng yenglar yoki nisbatan kalta bo’lgan, yoki 3/4 va 7/8 yoki baland manjetli yenglar tavsiya qilinadi. Bunda yenglar tor turadigan yoki haddan tashqari kalta bo’lmasligi lozim.

Yuqorida sanab o’tilgan tavsiyalar kostyum shaklining visual idrok qilinishi qonunlari va xususiyatlariga asoslangan va ma’lum darajada insonning tashqi ko’rinishini o’zgartirishga qodir, ya’ni uning qomatidagi ustunliklarga urg’u berib, kamchiliklarini yarishish imkonini beradi.

Ko’rinib turipdiki, individual buyurtmalar bo’yicha libosni modellashtirishda, shuningdek muayyan iste’molchilar guruhi uchun ommaviy tiraj uchun mo’ljallangan liboslarni loyihalashtirishda ularni inobatga olish lozim.

VII BOB

KOMPOZITSIYA IJODIY JARAYON SIFATIDA

7.1. Uslub va moda

7.1.1. Uslub tushunchasi va katta badiiy uslublar

Uslub – zamon va insoniyat jamiyatidagi libos evolyutsiyasi bilan bog‘liq asosiy tushunchalardan biridir. Davr uslubi, tarixiy libos uslubi, moda uslubi, modelyer uslubi, firma uslub kabilarni ajratib olish mumkin.

Uslub – badiiy tafakkurning umumiy kategoriyasi bo‘lib, uning rivojlanishidagi muayyan bosqichni tavsiflaydi; ma’lum bir davr san’atida yoki alohida asarda tasviriy usulning g‘oyaviy va badiiy umumiylik; moddiy va badiiy madaniyatni hayotning turli sohalarini birlashtirgan yaxlit bir butun sifatida rivojlantirish jarayonida vujudga keladigan predmet muhitining badiiy va nafis bir xilligi. Uslub ma’lum mazmunga ega bo‘lgan ob’ektlarning rasmiy-estetik belgilarini tavsiflaydi. Unda har bir davrning dunyoqarashi aks etadigan g‘oyalar va qarashlar tizimi ifodalanadi. SHuning uchun uslubni davrning umumiy badiiy ifodasi, zamona kishisining badiiy kechinmalari deb hisoblash mumkin. Uslubda, xususan, muayyan tarixiy davrda hukmronlik qiladigan go‘zallik timsollari namoyon bo‘ladi.

Uslub – bu butun madaniyat uchun umumiy bo‘lgan hamda ma’lum tarixiy bosqichda predmet muhiti bir xilligi asosi hisoblanadigan shaklllanish va strukturaviy aloqalar turlarining asosiy tartibini belgilaydigan hissiy fazilatlar va fikrlash yo‘llarining aniq timsolidir.

Bunday uslublar “davrning katta badiiy uslublari” deb ataladi va ular san’atning barcha turlarida – me’morchilikda, haykaltaroshlikda, tasviriy san’atda, adabiyotda, musiqada namoyon bo‘ladi. An’anaga ko‘ra, san’at tarixi “davrning katta uslublari”ning ketma-ket o‘zgarishi sifatida talqin qilinadi: roman uslubi, gotika, renessans, barokko, klassitsizm, rokoko, neoklassitsizm, ampir, romantizm, modern.

Shakllanishning umumiy tamoyillari har bir “davrning katta uslubi” uchun xarakterli bo‘lib, har bir davrning tarixiy libosini shakllantirish xususiyatlarini belgilab berdi, bu esa libosning shakllari va mutanosib taqsimlanishini ma’lum davrning me’moriy shakllari bilan taqqoslashga asos bo‘ladi (masalan, libos tarixchilari ko‘pincha dorida va ion ustunlari bilan qadimgi greklarning bezakdor xitonlarini, cho‘zinchoq shaklli bosh kiyimlari va gotie poyabzallar bilan gotik uslubidagi ibodatxonalarning yuqoriga ilkis ko‘tarilgan qubbalarini, 1900-yillardagi ayollar ko‘ylaklarining jimjimador qayrilma chiziqlari bilan modern uslubidagi saroylarning spiralsimon zinapoyalarini taqqoslashadi).



Ampir Modern Barokko

104-rasm. Katta badiiy uslublar

O‘zining rivojlanish jarayonida har bir uslub muayyan bosqichlardan o‘tadi: paydo bo‘lish, cho‘qqiga ko‘tarilish va inqiroz. SHu bilan birga, qoida tariqasida, har bir davrda bir nechta uslublar mavjud bo‘lgan: oldingi, ayni paytdagi keng tarqalgan va kelgusida paydo bo‘ladigan uslub unsurlari. Har bir mamlakat badiiy madaniyat, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, boshqa mamlakatlar madaniyati bilan o‘zaro bog‘liqligi bilan bog‘liq badiiy uslublar evolyutsiyasining

o‘sish sur’ati bilan ajralib turgan: masalan, XV asrda Italiyada – renessans, Fransiyada – tugab borayotgan gotika, Germaniyada, ayniqsa, XVI asrning ikkinchi yarmigacha hukmronlik qilgan arxitekturada gotika. Qolaversa, “katta uslub” doirasida “mikrouslublar” ham rivojlanishi mumkin. Misol uchun, 1730–1750 yillarda rokoko uslubi doirasida “mikrostillar” mavjud edi: shinuazri (xitoycha) va turkeri (turkcha uslub); modern uslubi ichida (1890–1900 yillar) neogotika, neoruscha uslub, handasaviy uslub va hokazolarni ajratib ko‘rsatish mumkin; ardeko uslubida (1920 yillarda) – misr, rus, afrika, handasaviy usullar va boshqalar ham bo‘lgan.

Biroq tarixiy davrlarning almashinuvi natijasida “katta badiiy uslublar” o‘tmishga aylangan: inson hayoti va jamiyat sur’atlarining tezlashishi, axborot jarayonlarining rivojlanishi, yangi texnologiyalar va ommaviy bozorning ta’siri zamona kishisining kechinmalari bitta uslubda emas, balki turli xil uslub shakllari va nafis tasvirlarda namoyon bo‘lishiga olib keldi. XIX asrdaayoq o‘tmish usullarini qo‘llash va ular qorishmalariga yo‘naltirilgan uslublari paydo bo‘ldi (tarixiylik, eklektika). Eklektika XX asr madaniyatining eng muhim xususiyatlaridan biriga aylandi, ayniqsa asrning oxirgi uchinchi qismida – postmodernizm madaniyati (eklektika – turli uslublarning aralashmasi, bir vaqtning o‘zida bir nechta uslublarning birgalikda mavjudligi) ham modaga, ham liboslarga ta’sir ko‘rsatdi. Oxirgi “katta badiiy uslub” sifatida modern uslubini aytish mumkin. XX asrda “katta uslublar” asosan avangard san’atning innovatsion mohiyati bilan bog‘liq bo‘lgan san’atdagi yangi tamoyillar bilan almashdi: XX asr odamining dunyoqarashini aks ettirgan abstraksionizm, funksionalizm, syurrealizm, pop-art va b. Uslub “davrning katta uslublari” ega bo‘lgan, etarlicha uzoq vaqt davomida barqarorlikni yo‘qotib, moda ahamiyatiga erishgan bugungi kunda gap “katta uslub” haqida emas, balki “moda uslubi” haqida ketishi mumkin.

Shunday qilib, XX asr modasida har o‘n yilda bir-birlarini ketma-ket almashtirib turadigan “mikrouslublari” bor edi: 1910-yillarda – sharqona uslub va neo-grek; 1920-yillarda – rus, misr, lotin amerikasi, afrika; 1930-yillarda –

neoklassitsizm, istorizm, lotin amerikasi, syurrealizm; 1940-yillarda – kantri va vestern; 1950-yillarda – nyu luk, Shanel; 1960-yillarda – fazoviy; 1970-yillarda – romantik, retro, folklor, etnik, sport, jinsi, qorishiq, militari, ich kiyimlar, disko, safari, pank-uslub; 1980-yillarda – ekologik, yangi qaroqchilar, neoklassika, neobarokko, seksi, korset; 1990-yillarda – granj, etnik, ekologik, glamur, istorizm, neo-pank, kiberpank, neo-xippi, minimalizm, dekonstruktivizm va h.k.

Har mavsumda moda nashrlari yangi uslublarni targʻib qiladilar, har bir libos dizayneri oʻz uslubini yaratishga intiladi. Ammo zamonaviy modadagi uslubning ta’sirchan xilma-xilligi ular oʻz-oʻzidan paydo boʻlishini anglatmaydi. Uslub odamlarni tashvishga soladigan siyosiy voqealar, ijtimoiy muammolar, ularning sevimli mashgʻulotlari va qadriyatlari aks etadigan darajada dolzarb boʻlib qoladi. Moda uslublarida turmush tarzi va insonning obrazidagi oʻzgarishlar, uning zamonaviy dunyodagi oʻrni va roli haqidagi tasavvurlari aks etadi. YAngi uslublarning paydo boʻlishiga yangi materiallar va ularni qayta ishlash usullarining ixtiro qilinishi ta’sir qiladi.

Koʻplab uslublar orasida “klassik” deb nomlanganlarini ajratib koʻrsatish mumkin: uzoq vaqt davomida dolzarblikni saqlab, modadan chiqmagan uslublar. Muayyan xususiyatlarga ega boʻlgan uslublar klassik uslubga aylanib, ular uzoq vaqt davomida “uzoqroq saqlanib qolish” imkonini beradi, turli xil: universal, koʻp qirrali, yaxlit va shaklan sodda, inson ehtiyojlarini qondira oladigan va turmush tarzining tendensiyalariga munosib “uslublar” va moda uslublarinini boshdan kechiradi. Klassik uslublarga ingliz (ingliz klassikasi – kostyum, ustki kiyimning klassik turlari), SHanel, jinsi, vestern, kantri, dengiz kabi uslublar kiradi.

“Katta badiiy uslublar” va “mikrouslublar”dan tashqari, “muallif uslubi” yoki “ustaning individual uslubi” kabi tushunchalar ham mavjud – ularda tipik mavzular, gʻoyalar, tasviriy-ifodaviy vositalar va badiiy usullarning oʻziga xosligida namoyon boʻladigan usta ijodining asosiy gʻoyaviy-badiiy xususiyatlarining umumiyligi aks etadi. K. SHanel, K. Dior, K. Balensiaga, A.

Kurrej, J. Versache, K. Lakrua kabi yirik kutyure va libos dizaynerlarining ijodi mualliflik uslubi bilan ajralib turadi.

Zamonaviy predmet muhitining badiiy-nafisligi “dizayn-uslub” deb belgilangandi. Dizayn-uslub texnologik taraqqiyotning estetik o‘zlashtiruvi, materialning sanoat jihatidan egallash natijalarini aks ettiradi.U nafaqat narsalarning ko‘rinishini o‘zgartirishga qodir material va texnologiyalar bilan bog‘liq, balki inson va buyumning o‘zaro aloqasi jarayoniga ta’sir etgan holda inson hayotiga yangi sifatlarni ham beradi.

Dizaynda “firma uslubi” tushunchasi mavjud – bu korxona faoliyati va mahsulotlari bilan bog‘liq bo‘lgan har bir narsaning ma’lum bir esda qoladigan obrazini yaratishga mo‘ljallangan ishlab chiqarish firmasiga doir barcha unsurlarning (bezakdan tortib mahsulotgacha) uslubiy birligidir. Firma uslubi ma’lum bir muallif tomonidan yaratiladi, odatda, hududiy chegaralardan tashqarida mavjud bo‘ladi va sub’ektiv tavsifga ega bo‘ladi.

“Uslub” tushunchasi bilan “uslublashtirish” tushunchasi chambarchas bog‘liqdir. Uslublashtirish yangi san’at asarlarini yaratishdagi badiiy yondoshuvdir. Uslublashtirish – u yoki bu uslubning rasmiy xususiyatlari va obrazli tizimidan (ma’lum bir davr, yo‘nalish, muallifga xos) yangi, noodatiy badiiy sharoitda atayin foydalanishdir. U prototiplardan erkin foydalanishni, shu bilan birga, dastlabki uslub bilan aloqani saqlangan holda, xususan, shakllarni o‘zgartirishni o‘z ichiga oladi. Bu holatda ijodiy manba doim tanish bo‘ladi. Alohida davrlarda klassik san’at (antik san’at) uslublarini taqlid qilish asosiy tamoyil bo‘lgan. Masalan, uslublashtirish usuli klassitsizm, neoklassitsizmda qo‘llanilgan va h.k.. Uslublashtirish badiiy usul sifatida modern san’atida yangi shakl va obrazlar paydo bo‘lishida manba bo‘lib xizmat qildi. Zamonaviy dizaynda, ayniqsa, gap ommaviy iste’molchilar uchun mahsulotlar yaratishga qaratilgan tijorat dizayni (“korporativ” dizayn) haqida ketganda, u o‘z ahamiyatini saqlab qoladi.

Dizayndagi uslublashtirish – bu, birinchidan, mahsulotni loyihalashda u yoki bu uslubdagi priklardan ongli ravishda foydalanish (“stayling” atamasi ko‘pincha shu ma’noda ishlatiladi); ikkinchidan, madaniy namunaning eng aniq vizual belgilarini loyihalashtirilgan narsaga, ko‘pincha dekor sohasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tkazish; uchinchidan, tabiatning tashqi shakllariga yoki xarakterli predmetlarga taqlid qilish orqali shartli dekorativlikni yaratish. Uslublashtirish yangi shakllar va ifodali obroazlarni yaratish uchun liboslarni modellashtirishda keng qo‘llaniladi. 1960–1980-yillardagi I. Sen-Loranning to‘plamlari: “Afrikalik ayol”, “Rus baleti/operasi”, “Xitoy ayoli”, “Ispan ayoli”, “Pikasso xotirasiga” va boshqalar uslublashtirishning yorqin namunalaridir.

Har mavsumda modelerlar taklif qiladigan va moda jurnallari, televidenie va Internet reklama qiladigan har xil uslublardan zamonaviy libos dizaynining rivojlanish yo‘nalishini aniqlaydigan umumiy tendensiyalarni belgilash mumkin. Ushbu tendensiyalardan biri – modani demokratlashtirishni davom ettirayotgan, o‘ziga xos “modaning istibdoddan ozod bo‘lishi”dir, u hamma uchun yagona va majburiy moda obrazi yo‘qligida, turli maqsadlar uchun liboslar o‘rtasidagi chegaralarni buzishda, “yaxshi did” qonunlari va har xil narsalar, ranglar va materiallarni birlashtirish qoidalari zarurati bo‘lmaganda, paydo bo‘ladi. Boshqa tendensiya – predmet muhitining individuallashuvi, har bir odamning o‘zini o‘zi ifoda etishi uchun shart-sharoit yaratilishi. Zamonaviy jamiyat oldida turgan muammolarni hal qilishga yordam bera oladigan dizaynning gumanitar roli kuchaymoqda, chunki u turmush tarzini shakllantirishga, inson ehtiyojlarining tarkibini aniqlashga va jamiyatda ekologik qadriyatlarni o‘rnatishga hissa qo‘shishi mumkin. SHunday qilib, zamonaviy dizayn va kiyim-kechak dizaynida ekologik yo‘naltirilganlikni hal qiluvchi omil sifatida ham ko‘rish mumkin.

7.1.2. Zamonaviy liboslarning uslubiy yechimlari

“Moda kelib-ketadi, uslub esa qoladi...”

Gabriel Shanel

Maishiy libosning badiiy qabul qilinishi ko‘p jihatdan uning uslubiy yo‘naltirilganiga bog‘liq. Lug‘at ta’rifiga ko‘ra, uslub – bu arxitektura, tasviriy, dekorativ-amaliy san’at va dizayn asarlarida yagona obrazli-nafis tizimni yaratadigan barqaror va butun badiiy tizim.

Libosdagi uslub – bu libosning majoziy birligini ta’minlaydigan ifodali usullar va badiiy vositalarning umumiyligidir.

Uslub moda bilan bevosita bog‘liq, lekin, avvalo, moda doimiy o‘zgaruvchanlik bilan ajralib turadi, uslub esa doimiylik va barqarorlik bilan tavsiflanadi. XX asrning taniqli fransuz modeleri Koko Shanel: “Moda ketadi va keladi, uslub esa qoladi” degan edi. Erta tarixiy bosqichlardan farqli o‘laroq, libos va umuman, san’atda uzoq vaqt davomida faqat bitta uslub ustunlik qilgan, XX asr modasida quyidagi uslub yo‘nalishlari shakllandi, qat’iy o‘rnatildi va bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘ldi:

– klassik;

– sport;

– romantik;

– folklor.

Moda tendensiyalarining doimiy o‘zgarishiga qaramay, sanab o‘tilgan uslublar XX asrning barcha davrlari liboslarida u yoki bu darajada mavjud bo‘lib, XXI asrda o‘z dolzarbligini yo‘qotmadi, bu esa ularni an’anaviy uslublar deb atashga sabab bo‘ladi.

Zamonaviy kostyumdagi an’anaviy uslublarning har biri o‘ziga xos xususiyat va o‘ziga hosligiga ega. Ularning har birini ketma-ket ko‘rib chiqamiz.

Klassik uslub. Zamonaviy moda klassik uslubga asoslanadi. Uning shakllanishi XIX asr oxiridayoq boshlandi va XX asrning 30-yillarida yakun topdi. Ushbu uslubning vatani Angliya bo‘lgani uchun (aynan ingliz erkaklar kostyumining belgilari mazkur uslubga xos) uning “ingliz uslubi” deb atashadi.

Klassik uslubdagi kiyim-kechaklar keng tarqalgan va kattalar garderobida asosiy libos hisoblanadi. Klassik liboslar har doim qattiq, yuqori sifatli materiallardan, tabiiy jun, zig‘ir, aralash matolardan (tabiiy va sun’iy tolalardan iborat), shuningdek, tabiiyga o‘xshash sun’iy matolardan tayyorlanadi.

Klassik uslub, avvalambor, sodda, chiroyli bichim bilan ajralib turadi, uning usullari o‘nlab yillar davomida ishlab chiqilgan. Umuman olganda, klassik libos odmi, sipo ko‘rinadi. U yorqinligi va o‘ziga xosligi bilan emas, balki yuqori sifat, klassik uslubi bilan e’tiborni jalb qiladi, juda uzoq siklga ega bo‘lib, o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi, ya’ni ular bir necha fasl mobaynida modadan chiqmaydi. Bundan tashqari, ular boshqa uslubdagi kiyimlar bilan yaxshi jamlanib, rang-baranglikka hissa qo‘shadi, garderobni to‘ldirishda bu juda muhimdir.

105-rasm. Ayollar kiyimidagi klassik uslub

Klassik uslubning odatiy vakillari erkaklar uchun shimlar yoki odmi yubkalar bilan to‘ldirilgan kamzullar, pidjaklar, kardiganlar, spenserlardan iborat kostyumlardir. Klassik kostyumga kamzul mos keladi, bu kostyumning boshqa elementlariga qaraganda yanada yorqin va bezakli bo‘lishi mumkin. Bunday kostyumlar uchun bluzkalar erkaklarning ko‘ylagiga o‘xshaydi.

Klassik kostyumni to‘ldiradigan o‘ziga xos aksessuarlar – bu bo‘yinbog‘lar, sharflar, shlyapalar va “erkaklar” bijuteriyasi (ilmatugma, bo‘yinbog‘ to‘g‘nagichi va boshqalar)dir.

Inglizcha uslub. Kiyimda klassik uslubning tipik namunasi – inglizcha uslub hisoblanadi. Bu uslub uch asr mobaynida rivojlandi va modaning “injiqligi”ga qaramay o‘z ommabopligini yo‘qotmadi.

“Ingliz kostyumi” tushunchasi XVIII asrda paydo bo‘lgan. Aynan shu vaqtda Angliyada shakli va rangi sipo kiyim uslubi yuzaga kelgan.

XVIII asrni 80-yillarida otda yurish kostyum juda ommabop bo‘lgan: movutdan frak, redingot – etagi to‘g‘ri ustki kiyim, tor pantalonlar, qaytarmali etiklar. Bu odmi kostyumni ingliz kostyumi deb atashadigan bo‘ldilar.

Inglizcha uslub ayollar kostyumiga ham ta’sir etdi: silueti o‘zgardi, ayollar qattiq moslamalarni (karkaslarni) kiymaydigan bo‘ldi, bu kiyimni qulay va oddiyroq qildi. XIX asrni 80-yillarida ayollar modasiga erkaklar kostyumi bichimini eslatadigan kostyum kirdi: astarli jaket va to‘g‘ri shaklli taxlamali yoki taxlamasiz yubka. Shunday kostyumni odatda erkak ustalari tikishgan. Ingliz kostyumi ko‘zga tashlanmaydi, shuning uchun yorqin emas, yo‘l-yo‘l yoki katak-katak gazlamalar ko‘proq qo‘llanadi.

Bunday kiyimlar o‘z egasining hulq-atvori vazminligini ko‘rsatadi, ish muhitini yaratishga yordam beradi, shuning uchun undan odatda biznes yoki tantanali uchrashuvlarda foydalaniladi. Shubhasiz, klassik uslub katta yoshdagi odamlar uchun juda mos keladi.106- rasmda erkaklar uslubidagi aksessuarlar bilan to‘ldirilgan odatiy klassik kostyum.

Bunday kiyimlar o‘z egasining hulq-atvori vazminligini ko‘rsatadi, ish muhitini yaratishga yordam beradi, shuning uchun undan odatda biznes yoki tantanali uchrashuvlarda foydalaniladi. Shubhasiz, klassik uslub katta yoshdagi odamlar uchun juda mos keladi.

106-rasmda erkaklar uslubidagi aksessuarlar bilan to‘ldirilgan odatiy klassik kostyum tasvirlangan.

106- rasm. Klassik kostyum eskizi

Shanel uslubi. Koko Shanel uslubi – bu erkin ayolning elegant – amaliy uslubi. Tviddan kostyumlar, qora duxobadan kichkina ko‘ylaklar va yaltiroq bashang liboslar XX asr klassikasi hisoblanadi. Fransuz dizayneri Gabriel Shanelning nafis bichimi ayollarni korsetlardan voz kechishga va shimni go‘zallik ramzi sifatida qabul qilishga majbur qildi. Bu uslub oddiy, go‘zal va internatsional. Madam Shanel kostyumida o‘z fikrini amalga oshirdi: “Men modaga qarshiman, chunki u tez o‘tib ketadi. Bahor kelgani uchun kiyimlarni tashlanganini ko‘rishga toqatim yo‘q”.(107-rasm)

Shanelning kostyumi to‘g‘ri yoki nim yopishgan siluetli, bel chizig‘i tabiiy holda va o‘tqazma yengli, yoqali yoki yoqasiz, qopqoqli qoplama cho‘ntakli, yirik tugmali.

107-rasm. Shanel uslubidagi kostyum

Bezakka alohida e’tibor beriladi: yengning shlitsasida uch tugmadan kam bo‘lmasligi kerak, zarli yoki kumush, jun, to‘r tasma. Shanel gazlamalari – tvid, jersi. Shanel buyumlarining klassik uzunligi – tizzani sal berkitib turardi. Nafis elementlari to‘qalar, zanjirli belbog‘lar, breloklar, bantlar, to‘g‘nog‘ichlar. Shanel ilk bor ikki rangli tuflilarni yaratdi, sumkalarni zanjirlar bilan bezatdi, erkaklar smokinigini ayollar modasigi kiritdi, hamda dunyoga mashhur kichkina qora ko‘ylakni va sviterni kiritdi. Zamonaviy modada Shanelning sodiq davomchisi – mashhur dizayner Karl Lagerfeld.

Romantik uslub.

Klassik va sport uslubidagi kiyimlarni belgilarini aniqlash juda oson, lekin romantik uslub haqida bunday deb bo‘lmaydi. Romantik uslub juda ko‘p turli xil ko‘rinishlarga ega, u yana xayoliy deb ham ataladi. Romantik uslub ko‘proq tarixiy libosga o‘xshaydi va ko‘pincha uning shakli, bichimi, dekorativ bezaklari, obrazi o‘rnini bosadi.

Romantik uslubdagi kiyim o‘z shakli bo‘yicha juda xilma-xildir. U kichik hajmga ega bo‘lishi, qomatga yopishib turishi mumkin yoki katta hajmli bo‘lib, tana bo‘ylab yengil osib qo‘yilishi mumkin va karkaslar yordamida qo‘llab-quvvatlanadigan ajoyib shakllarga ega bo‘lishi mumkin.

Romantik liboslar va kostyumlarni ishlab chiqarishda ishlatiladigan matolar va materiallar ham turli xil. Romantik uslub uchun yengil, havoli, yumshoq plastik matolar, masalan, tabiiy ipak yoki viskoza va qattiq
shakl hosil qiluvchi katta hajmli materiallar, ya’ni kimxob, organza, kapron va boshqa ko‘plab sintetik matolar xarakterlidir.

108-rasm. Romantik uslub

Romantik kostyumlarning ranglarini aniqlash qiyin va mumkin emas. Bunda pastel, nozik, yengil to‘yingan ranglar va yorqin, to‘yingan, faol ranglar bo‘lishi mumkin. Romantik uslubda gulli yoki no‘xatsimon (dumaloq shaklli) matolardan foydalanish juda

Biroq, romantik uslubning namoyon bo‘lish variantlarining ko‘pligiga qaramasdan, bunday kiyimlarning ayollargagina xosligini ta’kidlaydigan yagona birlashtiruvchi prinsip mavjud. Turli dekorativ elementlar va usullar: ryush, oborka, volan, jabo, to‘r, lentalar, kashtalar va boshqalar tufayli bunga erishiladi.

Shlyapalar, yengil sharflar va ro‘molchalar, to‘rli qo‘lqoplar va, albatta, zargarlik buyumlari – bijuteriya – marjonlar, bilaguzuklar, sirg‘alar, broshkalar va boshqalar kiyimlarning romantik ayollik xususiyatini ta’kidlashga yordam beradi.

Romantik uslubdagi kiyim ayolni, uning ko‘rinishini, hatti-harakatlarini tanib bo‘lmas darajada o‘zgartirishi mumkin. Bunday kiyimlar yuqori darajadagi kayfiyatni yaratadi va shuning uchun bayram, tantanalar, dam olish muhitiga mos keladi.

Fantazi uslubi. Zamonaviy moda romantikaga o‘z ko‘rinishini namoyon etadi. Fantaziya uslubining avangard uslubidan farqi – uning zamonaviy moda ifodasi emasligi. Romantik uslub – bu o‘tmish va kelajakni fantastik qiyofasi. Fantazi uslubining asosiy xususiyatlari: noreallik, ertaknamolik, syurrealik, ajablik, jasurlik. Bu uslub kuzatuvchini hayratga soladi. Fantazi liboslarni siluetlari har xil va o‘zgacha. Bezak sifatida bantlar, strazlar, munchoqlar, charm va zamsha, kashta va b. qo‘llanadi. Fantazi uslubi dizaynerning ijodini cheklamaydi.

Xippi uslubi. XX asrni 60-yillarida xippi modani boshdan oyoq ag‘dardi. SHundan e’tiboran modaning qoidasi – hech qanday qoida bo‘lmasin. Bu xippi psixologiyasidan – “gullar bolalari”dan kelib chiqqandi. Ammo, zamonaviy modada 60-yillardagi kabi ma’naviy va ideologik intilish yo‘q. Zamonaviy dizaynerlar faqat cheklashni mutlaqo yo‘qligi, kiyim tassavur chegarasidan chiqishi kerak. Xippilarni libos to‘plamida kashtali jinsilar, ajoyib belbog‘lar, ola-bula koftalar va topiklar, to‘qilgan yoki quroqli katta sumkalar, tunika yoki uzun,

beli yuqoriga ko‘tarilgan yupqa ko‘ylak, ochiq shippaklar, kosmetikani minimumligi, to‘g‘ri tashlangan sochlar asosiy o‘ringa chiqadi. Xippilar orasida dehkonlar kiyimi – taxlamali uzun yubka keng tarqalgan. Munchoqlardan fenechkalar, bandanalar, charmdan kurtkalar, qo‘sh burmali jaketlar va dumaloq yoki kvadratli to‘qilgan linzali kichkina ko‘zoynalar keng qo‘llanadi. Zargori buyumlar meksikali, hind yoki marokash melxiordan qilingan zargarlik buyumlar. Bilakuzuklar, uzuklar, quloq va burun uchun xalqalar. Tinchlik ramzlari, mushtum, In–Yan va boshqa sharq ekzotikasi ramzlari marjonlar orqali ifodalangan.

Retro uslubi. O‘tmish modasi – zamonaviy dizaynerlar ijodida ilhom manbayidir. Retro uslubi – zamonaviy modada o‘tmish mavzulari, detallari, modellashtirish usullarini qo‘llash yo‘nalishi bo‘lib, ammo ularni to‘liq takrorlanmasligi bilan ajralib turadi. Har bir tarixiy davr modasi o‘ziga xosligi bilan farqlanadi, ularning o‘z retro qiyofasi bor. Retro moda o‘tmish modasining nusxasi emas, balki uni stilizatsiyasi bo‘lishi kerak. (109-rasm)

Vintaj usuli. O‘tmishga asoslangan romantik modada yana bir yo‘nalish mavjud bo‘lib, u vintaj (vintage) deb nomlanadi. Bu uslubda o‘tgan yillardagi o‘ziga xos liboslar, ya’ni popukli sumkalar, to‘qilgan shollar va boshqalar bor. Vintaj kolleksiya modellari benuqson tarbiyalangan, qirolicha qomatli, nozik va elegant haqiqiy xonimlarni eslatadi. Bu uslubning asosiy elementlari – to‘g‘ri siluetlar, kashta va to‘rning qo‘llanishi, shaklning sipoligi.

109-rasm. Retro uslubidagi ayollar kiyimi

Sport uslubidagi kiyimlar

Sport uslubi zamonaviy garderobda eng keng tarqalgan. U, klassik uslub singari, XIX asrning oxiridayoq, sport va harakatli o‘yinlar uchun maxsus kiyimlar paydo bo‘lganda ilk bor shakllangan. Sport uslubidagi kiyimlar haqida gap ketganda, uni har xil sport turlari bilan shug‘ullanish uchun mo‘ljallangan maxsus mashg‘ulot liboslari bilan adashtirmaslik kerak, bu holda gap maishiy liboslar haqida ketmoqda.

Sport kiyimlariga qo‘yiladigan asosiy talab – bu faol harakatlarning qulayligini ta’minlash. Ushbu talab kiyimning shaklini ham belgilab berdi, u ikki yo‘nalishda rivojlantirildi – hajmli, keng va agar kiyim elastik, oson cho‘ziladigan materiallardan tayyorlangan bo‘lsa tanaga mahkam yopishib turadigan.

Sport kiyimlarini ishlab chiqarishda ishlatiladigan matolar, odatda, yaxshi gigienik xususiyatlar bilan ajralib turadi – ular gigroskopik, suv va nafas o‘tkazadigan, gipoallergen bo‘ladi. Bundan tashqari, ularga pishiqlik va chidamlilik talablari qo‘yiladi. Odatda ular tabiiy va aralash tolalardan: paxta, zig‘ir, jun, onda-sonda ipak tolalaridan tayyorlanadi. Ranglar uyg‘unligi yorqinlik, keskinlik, faollik bilan ajralib turadi.

Sport uslubidagi kiyimlarning ko‘rinishi ko‘p jihatdan funksional maqsadga bog‘liq. Qulaylik uchun bunday kiyimlarda har doim ko‘plab funksional detallar mavjud – cho‘ntaklar, qopqoqlar, pogonchalar, potlar, ilmoqlar, kamarlar va boshqalar.

Furnituralardan faol foydalanish ham xarakterlidir: metall pistonlar va tugmalar, mixparchin va chig‘irlar, zanjirqadamalar va boshqalar. Ko‘pincha, sport kiyimlari kashtado‘z yoki bosma firma markasi va belgilari, baxya, bezak choki bilan bezatiladi.

Zamonaviy modadagi sport uslubi ko‘plab yo‘nalishlarni, ya’ni mikrouslublar o‘z ichiga oladi. Ulardan eng barqaror va ommaboplari quyidagilardir:

• uniforma – ishchi kiyimlari asosida tayyorlangan shahar kiyimlari, ya’ni turli xil kombinezonlar, ko‘ylak-peshbandlar, kurtkalar, kamzullar va h.k.

110-rasm. Sport uslubidagi kiyimlar

• “safari” – Afrikadagi arslon ovchilarining libosiga o‘xshash va rangli yechimi bilan ajralib turadigan uy kiyimlari (bunday kiyimlarning asosiy ranglari tabiiy “tuproq” ranglaridir – oxra, sarg‘ish, jigarrang, kulranglarning xira tusi va boshqalar);

• harbiylashtirilgan mikrouslub – harbiy kiyim formasidan olingan unsurlar bilan liboslar – gimnastyorkalar, mundirlar, kitellar va h.k.;

• jinsi yoki “denim” – XX asrning ikkinchi yarmida, ayniqsa, yoshlar garderobida haqiqiy uniformaga aylangan eng mashhur sport uslubidagi liboslar.

So‘nggi paytlarda uy kiyimlari modaga aylandi, bu sportchilarning mashg‘ulot liboslarini eslatadi, ya’ni losinalar, velosipedkalar, bodilar va kombidresslar hamda boshqalar.

Sport kiyimlarining variantlari qanchalik xilma-xil bo‘lsa, uni qo‘llash doirasi ham shu qadar keng. Bunday kiyimlar kundalik hayotning turli xil namoyishlari uchun juda mos keladi. U muayyan ish turlariga, faol dam olish, sport bilan

shug‘ullanish va hokazolarga mos keladi, ammo rasmiy-tantanali va bayramona muhitga umuman mos kelmaydi.

Safari uslubi. Safari – bu sport uslubining eng ommabop yo‘nalishi. “Safari” uslubi Afrikada ingliz harbiylari ovda kiygan liboslariga asoslangan. Bu uslub targ‘ibotchisi 1980-yillarda Iv Sen-Loran bo‘lgan. Safari uslubidagi libos – bu asosan zig‘ir, ip, aralashma va jinsi gazlamalardan tikilgan kiyim. Safari uslubining barcha yechimlari qulaylikka qaratilgan: o‘rtasi taxlamali ko‘p qoplonma cho‘ntaklar, uzun etiklar, shlemlar, charm belbog‘lar, yelkasiga osilgan sumkalar, xaki va qum ranglilar. Uslubning tipik detallari portfel-cho‘ktaklar yoki pogon va o‘qdonlar bo‘lgan. Yuqorida aytilgan ranglar qatori safari uslubida zirvorlar rangi, sarig‘ish-yashil, no‘xat, yashil limon ranglari ham qo‘llanilgan. Sudraluvchi hayvonlar terisiga o‘xshaydigan animal bosmalar va rasmlar keng qo‘llanadi. Gannover moda eksperti Tuula Zalo safari uslubini zamonaviy yo‘nalishini shunday tavsiflaydi: “Yangi safari uslubidagi liboslar yangi gazlamalar va animal bosmalarga asoslanadi. Bichimiga esa deyarli ahamiyat berilmaydi”.

Denim yoki jinsi uslubi. Bu uslub boshidan doimo ommabop, hashamatli, yoki oddiy bo‘ladi. Jinsi uslubida asosiy rang – to‘q ko‘k. Ilk bor ishchilar uchun yaratilgan kiyim bo‘lib, hozirga kelib ko‘k denim “ot kutyur” va “pret-a-porte”da keng namoyish qilinadi. Indigoga bo‘yalgan ip gazlamasi avvalgi dag‘alligini yo‘qotdi. Yangi texnologiyalar yordamida yangi xususiyatlarga ega bo‘ldi. Bugun jinsi uslubi sport uslubidan chiqib, bashang kiyim sifatida tan olina boshlandi. Zamonaviy denim yaltiroq qoplanma va payetkalar bilan bezatilgan, kamalak ranglarga bo‘yalgan.

Militari uslubi. Militari-look – 70–80-yillarda sport va dam olish kiyimlarining harbiylashgan uslubi. Ushbu uslubning ajralib turadigan detallari – pogonlar, pat va qopqoqlar, o‘qdonlar, xaki rangli gazlamalar, harbiy botinkaga uslublangan poyabzallar.

Harbiy formaga moda doimo qaytadi, chunki u uniformani namoyish etadi. Militari uslubida dizaynerlarni qiziqtiradigan xossa – uning utilitarligi va teatralligi. Bu uslub tartib va jasorat ramzi.

2000-yillardan boshlab militari uslubi keng tarqalgandi. Bu davrdagi militari modasi ko‘proq teatral tomonga intilgandi. Iv Sen-Loran Moda uyi gusarlar mundiriga o‘xshagan paltoni taqdim etishdi. Dolche va Gabbana yelkani epoletlar bilan, ko‘krak qismini esa zargarlik buyumlari va oltin tugmalar bilan bezatishgan.

111-rasm. Militari uslubi

Dengiz uslubi. Bu uslub ilk bor 1880 yillarda bolalar kiyimida paydo bo‘lgandi. Matros kiyimini eslatadigan bolalar kiyimlari juda ifodali va qulay bo‘lgan. So‘ng bu detallar ayollar modasiga kirgan. Dengiz uslubi bugun ham o‘z muhimligini yo‘qotmadi. Bu uslubni farqlaydigan detallari – kvadrat shakldagi katta yassi yoqa va oq-ko‘k tasmalar. Dengiz uslubida to‘q ko‘k bleyzerlar, oltin tugmalar, oq shimlar, furajkalar va b. mavjud. Odatda bu uslubda yozgi kiyim yaratiladi. Unga taxlamali yubka yoki shim, keng bluza, matros yoqali jaket, yo‘l-yo‘l mayka yoki bluzka kiradi. Bu liboslarda asosan tabiiy zig‘ir va ip gazlamalari qo‘llanadi.

Op-art uslubi. Gazlamalarni optimistik bosmalari op-art uslubini sport yo‘nalishiga kiritishiga imkon berdi. Op-art uslubi (*optical art* – optik san’at) ilk bor 60-yillarda modaga kirdi. Tasviriy san’atda op-art oqimining asoschisi vengriyalik rassom Viktor Vazarelli bo‘lgan. Bu uslubning o‘ziga xosligi – yassi va fazoviy shakllar tasavvur qilinishiga asoslangan illyuziyalardir. Optik rangtasvirda oddiy bir xil elementlar shunday joylanadi, qachonki shakl tarkibi yaxlit tasavvur etilmaydi, ya’ni ko‘z aldanadi. “Sof rang va sof shakl o‘ziga butun

dunyoni sig‘dirishi mumkin” – deya hisoblagan V.Vazarelli. Op-art uslubidagi liboslarda geometrik, abstrakt naqshlar, yorqin, bir-biri bilan kontrastli rangli gazlamalar qo‘llanadi (masalan oq-qora ranglar birikmasi).

Graffiti uslubi. Bu yoshlar uslubi bo‘lib, 1960-yildagi op-art uslubining davomi hisoblanadi. Graffiti (italian *gruffiare* – tirnamoq) – devorlarda rasm yoki yozuvlardan badiiy kompozitsiyani yaratadigan “ko‘cha san’ati” hisoblanadi. Pikasso graffitida odamning yuzini va qomatini ifodalash uchun minimal miqdorda grafik elementlari qo‘llanadi, degan. Bu uslubning asosiy xossasi – jinsi yoki yoz kiyimida shahar folklorini tasvirlagan kashta yoki shahar folklori mavzusidagi matn, yozuvlar va bolalar rasmlarning imitatsiyasi bo‘yicha bosma qo‘llanilishi.

Oxirgi yillarda sportchilarning mashq kostyumlarini eslatuvchi uy kiyimlari modaga kirdi, ya’ni losina, velosipedka, bodi va kombidressi va boshq. Sport kiyimlarining xilma-xilligi qanchalik keng bo‘lsa, uni qo‘llash sohasi ham shunchalik keng. Bunday kiyimlar kundalik hayotning turli ko‘rinishlari uchun juda qulay. Biroq, rasmiy-tantanali va bayramona muhitga mutlaqo mos kelmaydi.

Folklor uslubi

Folklor uslubi odatda “etnik” (yoki “etno”) deb ataladi. Folklor uslubi bilan bog‘liq zamonaviy kiyimlar turli xalq va davrlarning tarixiy asosga ega bo‘lgan milliy liboslari ruhida yaratiladi va ularning asosiy xususiyatlarini oladi: bichimi sodda va ratsional, shakli qulay va funksional, ko‘p qatlamli, yuqori dekorativ bo‘ladi.

Etnik uslubdagi kostyum an’anaviy kiyim-kechak aksessuarlaridan (yorqin zargarlik buyumlari, sharflar va ro‘mollar, kamar, turli bosh kiyimlar va poyabzal, to‘qilgan paypoq) foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Folklor uslubidagi kiyimlar odatda qulayligi bilan ajralib turadi, unda odam o‘zini bemalol, qulay, erkin his qiladi. Bu, zamonaviy shahar aholisi uchun yetishmaydigan, tabiatga yaqinlikni anglatadi. Bu fazilatlar undan dachada, dengiz kurortida, tog‘ oromgohida va boshqa joylarda qulay dam olish muhitida foydalanish kerakligini belgilaydi.

Folklor kiyimlarini ayniqsa yoshlar yoqtiradi. Etnik uslub XX asrning boshidan boshlab, xalq milliy madaniyatiga umumiy qiziqish paydo bo‘lib, xalq san’ati muzeylariga uning eng yaxshi namunalarini joylashtirish orqali o‘rganish, saqlab qolish kerakligi tushunilgandan boshlab zamonaviy modada vujudga keldi. Ayniqsa, folklor uslubi 60-yillarning boshida, milliy kostyumlarning elementlarini o‘z kiyimlariga kiritishga tayyor bo‘lgan xippi tufayli ommalashdi. O‘shandan beri bu uslub modada o‘zining yetakchi mavqeini saqlab kelyapti.

Turli davrlarda moda dizaynerlari dunyoning turli mintaqalaridagi an’anaviy kostyumlarga murojaat qilishdi: bu rus kostyumi, amerikalik hindular kostyumi va uzoq Shimol, Sharq buddistlari, Shimoliy Afrika xalqlarining liboslari edi. So‘nggi yillarda Yevropalik dizaynerlarning sharqqa murojaatlari kuzatilmoqda, o‘zbek an’anaviy libosining elementlari zamonaviy modada keng qo‘llanilmoqda.

Zamonaviy libosning asl manbasiga yaqinligi darajasi modelyer tomonidan tanlanadi. Shu bilan birga, etnik uslubda yaratilgan zamonaviy kiyimlar xalq kostyumining nusxasiga aylanmasligi kerakligini unutmaslik kerak. Ijodkorlik manbasi bilan aloqa qanchalik nozik bo‘lsa, zamonaviy modelyer tomonidan yaratilgan kostyum yanada mukammal va uyg‘un bo‘lishi mumkin.

Kantri uslubi. Kantri uslubi XX asrni boshida vujudga keldi. Bu atama mamlakat va qishloqni ifodalaydi. Bu uslub shahardan tashqariga sayr uchun kiyladigan kiyim nazarda tutiladi. Masalan, kantri uslubida tviddan tikilgan sport kiyimi, yupqa jun gazlamasidan tikilgan palto bo‘lishi mumkin. Odatda kantri uslubdagi kiyimga uzun sharflar, to‘qilgan shapkalar, etikka tiqilgan shimlar qo‘shimcha kiyiladi. Ayollar yubka, yopinchoqlar, shlyapalar, tufli va paypoqlar kiyishi mumkin. Kantri ulubida muhim detal – gulli, yo‘l-yo‘l va katak-katak naqshli tekstil. Kostyum koloritida tabiiy ranglar qo‘llanadi: yashil, sariq, moviyosmon va suv, daraxt, kuzgi yaproqlar va b.

Gaucho uslubi. Bu uslub 1960 yillarda modaga kirgan folklor uslubining bir varianti. Gaucho uslubi Janubiy Amerikadagi chorvodorlar – gaucho kiyimlaridan o‘zlashtirilgan: charm va zamsha kurtkalar, charmdan qilingan popuk va

zaklepkalar bilan bezatilgan shimlar, nimchalar. Gulli ko‘ylak kovboy etiklari bilan, short bilan romantik bluzkalar – bu gaucho uslubdagi ijod qiladigan dizaynerlarni zamonaviy modellaridir. Zamonaviy modada gaucho uslubi naqshlar, materialar, bo‘yoqlar va shakllar o‘zgacha birikma.

Mao uslubi. XX asr oxirida va XXI asr boshida ommabop bo‘lgan etnouslub. Bu uslubni mantiqiylik va bekamu-ko‘stlik tavsiflaydi. Libosdagi tipik detallari: xitoy tik yoqali ko‘ylaklari, tunikasimon bichim, taqilmasi, belbog‘, yog‘och taglikli oyoq kiyim, soch turmagi.

O‘zbek milliy moda elementlarini yuqori podiumlardan ommaga ham keng yoyilmoqda. Masalan, hozirgi kunda ko‘plab Yevropa va Osiyo mamlakatlari iste’molchilari tomonidan “ikat” an’anaviy o‘zbek naqshidan foydalanilgan buyumlar yuqori baholanmoqda. Mashhur amerikalik dizayner Oskar de la Renta 2005, 2008 va 2013-yillardagi o‘zining liboslar to‘plamlarida O‘zbekistonning milliy abr matolarida qo‘llaniladigan ushbu naqshlarni uslublashgan holatda, matolarning asosiy naqshi sifatida foydalandi. Italyalik ekstsentrik dizayner Roberto Kavalli ham “ikat”ni chetlab o‘tmadi. Kutyurye hayvonlar printini yaxshi ko‘rishiga qaramasdan, uning 2014-yil kruiz to‘plamida bizning “ikat” munosib o‘rinni egalladi. 112-rasmda o‘zbek an’anaviy islimiy naqshlarni qo‘llab ayollar zamonaviy ko‘ylagi eskizlari keltirilgan.

112-rasm. Folklor uslubidagi ayollar ko‘ylagi

Qadimgi sharqona libos madaniyati nafaqat o‘zbekona milliy meros va an’analarni anglatib, balki bugungi kunda xalqaro moda darajasiga ko‘tarilganligi va “o‘zbek brendi” tushunchasi yaratiganligi yanada yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. K.Dior, Gucci, Kenzo, Oskar de la Renta kabi moda olamining eng yirik mashxur brendlar va moda uylarining o‘zbek milliy elementlaridan foydalanib yaratilgan zamonaviy liboslar to‘plamlari O‘zbekiston madaniyati va uning estetik merosi bilan bog’liq.

Zamonaviy kostyumda eklektika

Zamonaviy kostyumda eklektika

Yuqorida tanishganingiz zamonaviy uy kiyimlari uslubi bugungi kunda kamdan-kam hollarda sof ko‘rinishda qo‘llaniladi – asosan uslublar qorishmasini uchratish mumkin. San’atdagi bu hodisa eklektika deb ataladi.

Turfa uslublar bir-biri bilan oson va tabiiy ravishda birlashtirilib, yaxlit va uyg‘un kostyumni hosil qiladi. Aytaylik, klassik uslubdagi libos romantik va sport uslubidagi liboslarga mos keladi. Jiddiy kostyum bilan kiyilgan romantik bluza ko‘rinishni buzmaydi, aksincha ayol qiyofasini yanada mayin, jozibali qiladi. Klassik pidjakni jinsi, sviter yoki mayka bilan kiyilgani bugunning kishisini ajablantirmaydi. Ushbu to‘plam, agar u rasmiy xususiyatga ega bo‘lmasa, ish muhitiga juda mos keladi.

Shuningdek, sport uslubini folklor uslubi bilan, folklorni romantik uslub bilan birikuvidan muvaffaqiyatli kombinatsiyalar hosil qilish mumkin. Uslublarning mohirona va o‘rinli kombinatsiyasi, bir tomondan, garderobda kostyumlarning ko‘p variantliligiga erishish imkonini beradi, boshqa tomondan – zamonaviy kiyimlarning obrazli jarangini kuchaytiradi. Shu qatori, kostyum yaxlitligi va uyg‘unligini saqlab qolishning asosiy sharti – did va me’yor tuyg‘usiga rioya qilishdir.

So‘nggi paytlarda libosning eklektikligi moda tendensiyaga aylanib ulgurdi. Odatda mumkinmas hisoblangan narsalarni bir kostyumda birlashtirish zamonaviy

stilistlarning ko‘p qo‘llaydigan uslubiga aylandi. SHu orqali ular yangilik topish uchun cheksiz imkoniyatlarni ko‘radilar.

113-rasmda zamonaviy kostyumning eklektiklik xususiyatiga yaqqol misol keltirilgan. Ushbu yoshlar komplektida jiddiy klassik jaket romantik uslubdagi gul solingan yupqa mato yubka bilan muvofiq keladi. Eklektik kostyumga yana bir misol ..-rasm keltirilgan bo‘lib, bunda sport uslubining odatiy nusxasi bo‘lmish jinsi kurtka folklor xususiyatidagi ifodali yubkaga mos tushgan.

Bugungi jahon podiumlarida bir vaqtning o‘zida nozik shoyi va qattiq ip-gazlama polotnolaridan, tabiiy qimmatbaho mo‘yna va «yuviq» jinsilardan, jimjimador naqshli kimxob hamda inglizlarning jiddiy tvididan libos kiygan modellarni kuzatish mumkin.

113-rasm. Casual uslubi

Moda endi qattiq qoida va aniq andozalarni tiqishtirmaydi. U har bir kishiga odatiy buyumlarning yangicha obrazli ohangini izlashda jasorat bilan tajriba o‘tkazish taklifini beradi. bugungi kun dizaynerlari tomonidan ishlab chiqilgan moda tendensiyalari kishiga kostyum orqali o‘z shaxsiyatini ifoda etish, tashqi ko‘rinishdagi afzalliklariga ko‘proq urg‘u beruvchi, xarakterining takrorlanmas xususiyatlarini ko‘rsatuvchi o‘ziga mos narsalarni tanlash imkonini beradi.

7.1.3. Modaning tarkibi va funksiyalari

“Moda” tushunchasi tavsifi.

Dizaynerning moda kabi fenomen to‘g‘risida to‘liq tassavuri bo‘lishi lozim. CHunki uning faoliyati mazmuni urfga kiradigan madaniy namunalarni yaratishdir. Libos dizayneri moda industriyasida muvaffaqqiyatli ishlashi uchun modaning asosiy qonuniyatlaridan boxabar bo‘lishi talab etiladi. Masalan, u modani sotsial hodisa sifatida qabul qilishi, uning taraqqiyotining sotsial-psixologik va iqtisodiy aspektlarni, modani prognozlashning asosiy uslublarini bilishi, bundan tashqari moda o‘zgarishlarining innovatsion va siklik mexanizmlarini bilishi talab etiladi.

Bularning barchasi moda namunalarini taqlid qilmay va yaratmasdan, modaga ongli ta’sir etish, uni boshqarishdir. Moda nafaqat kostyum evolutsiyasining muhim fursatlarini namoyish etadi, balki zamonaviy jamiyatda ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarni qaysidir ma’noda boshqaradi ham.

XVII asrni oxirida moda inson madaniyatining o‘ziga xos fenomeni sifatida vujudga kelib, san’at sohasi va kostyumda estetik ideal va didning o‘zgarishi bilan bog‘liq estetik hodisa sifatida tahlil etildi. XIX-XX asrlarda moda tadqiqotchilari modani ijtimoiy va psixologik fenomen sifatida tahlil etishgan, uni paydo bo‘lishiga va rivojlanishiga sabablarni va uning ta’sirida ro‘y beradigan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy oqibatlarni ko‘rib chiqishgan.

Barcha Yevropa tillarida rus tilidagi «moda» ga (lotinchadan olingan bo‘lib, *modus* – me’yor, qoida, ko‘rsatma, harakat obrazi) o‘xshash so‘z mavjud. Bular fransuzchada *mode*, italyanchada *moda*, nemischada *mode*, inglizchada *mode* (odatda *fashion* ishlatiladi).

Moda – u yoki bu didning ma’lum muhitda, muayyan vaqtda madaniyatning turli tashqi shakllari: turmush tarzi, urf-odatlar va xulq-atvor, uy-ro‘zg‘or buyumlari va kiyim-kechakka nisbatan hukmronlik qilishidir. Bundan tashqari, moda uchun didning tez-tez o‘zgarib turishi xarakterli.

Moda madaniyatning barcha ko‘rinishlariga, moddiy va ma’naviy qadriyatlarga taalluqli bo‘lgan barcha narsalarga taalluqli hamda o‘zida san’at (tasviriy san’at, adabiyot, musiqa, teatr, kino, dizayn), ilm-fan, texnika, siyosat, sport kabilarni qamrab oladi. Dizayn – madaniyatning moda mexanizmlari faol bo‘lgan sohasidir. Moda zamonaviy insonni o‘rab turgan muhitning barcha predmetlariga, masalan do‘kon ichi va vitrinalarni loyihalashga, maishiy texnika dizayni va ommaviy bayramlarni tashkil etishga, ko‘ngilochar sanoatga ham ta’sir qiladi.

Ammo odatda moda insonning tashqi ko‘rinishida – uning kiyimida, soch turmagida, bo‘yanishida, o‘zini tutishida, uni o‘rab olgan buyumlarda namoyon bo‘ladi. Bu esa modaga nisbatan o‘ziga xos “afsonalar” yoki noto‘g‘ri tasavvurlarga tarqalishiga (ushbu gap-so‘zlar dizaynerlarning o‘zi uchun ham etarli darajada xavf tug‘dirardi, albatta) sabab bo‘ldi – ko‘pincha «moda» va «kiyim» tushunchalarini bir maqomda ko‘radilar, moda ijodkorlarini esa mashhur kutyurye va libos dizaynerlari deb hisoblanishadi, chunki barcha moda o‘zgarishlariga aynan kostyum va inson xatti-harakati orqali munosabat kutish mumkin. Inson kostyumida uning istaklari, intilishlari, o‘zi haqidagi tasavvurlari va atrofdagilarga bo‘lgan munosabati, shuningdek, uning ijtimoiy mavqeyi aks etganligini asos qilgan kanadalik sotsiolog M.Maklyuyen kiyim va turar joyni «terimizning davomi» deb ataydi.

Buyumlar modasi (shu jumladan, kiyim-kechak ham), buyumlar xossalari, g‘oyalar, harakatlar, so‘zlar modasi bo‘lishi mumkin, ya’ni bu hisobga moda namunasi sanalgan har bir narsa (mini-yubka, soch rangi, avtomobil markasi, tog‘-chang‘i kurortida yoki tropik orolda hordiq chiqarish, harakatlanish va raqs tushish uslubi) kiradi. Bularning barchasi katta miqdordagi odamlar tomonidan urfda deb qabul qilinganidagina modada deb hisoblanadi.

Rossiyalik modelyer Vyacheslav Zaysev o‘zining «O‘zgaruvchan moda...» kitobida shunday yozadi: «Tinimsiz modaning turg‘unsizligidan ta’na qilish mumkin. Ehtimol, uning oqimini bog‘lashga urinib ko‘rish, uni «konservalash»

mumkindir. Lekin bu, avvalo, o‘zimizni qashshoqlatib qo‘ymaydimi? Axir atrofimizdagi har bir narsa o‘zgarishga moyil. Doimiy yangilanib turgan ushbu dunyoda bizning liboslarimiz o‘zgarmay qolishi mumkinmi? Modani qat’iy tartibga solgani chiqarilgan ko‘rsatmalar va farmoyishlar, buyruqlar yoki boshqa urinishlar ham uning shiddatini bo‘g‘a olmaydi».

Moda tarkibi quyidagi elementlardan iborat:

- moda standartlari – xatti-harakatlar yoki harakat usullari yoki namunalari;
- moddiy va nomoddiy bo‘lishi mumkin bo‘lgan moda obyektlari: narsalar, g‘oyalar, so‘zlar, obyektlarning xususiyatlari;
- moda qadriyatlari yoki moda qiymatlari;
- moda ishtirokchilarining xulq-atvori – moda standartlari, obyektlari va qiymatiga qaratilgan xatti-harakatlar.

Moda standarti yoki obyekti moda qiymatiga ega bo‘lganda – (ya’ni, ko‘pchilik uni moda deb hisoblaganda) «modaga kiradi», moda qiymatini yo‘qotganda esa – «modadan chiqadi». Har bir moda namunasi o‘z izdoshlariga muayyan maqsadlarga erishish uchun harakat qilish, ya’ni zamonaviy ko‘rinish, olomondan ajralib turish yoki aksincha, ajralib turmaslik, boshqalarga o‘zlari haqida ma’lum ma’lumotlarni yetkazish imkoniyatini beradi. Muloqot vositasi sifatida modaning o‘rni, ayniqsa, zamonaviy yirik shaharlarda – megapolislarda yuqori, chunki bunday joylarda odamlar o‘rtasidagi muloqot yuzaki va qisqa (ko‘chada, transportda, jamoat joylarida) bo‘ladi hamda inson haqidagi ma’lumotni, kostyumi beradi. Albatta, bunda o‘zi etkazishni istagan ma’lumotni kostyumi berishi nazarda tutilmoqda.

Birlamchi (atributiv yoki ichki) va ikkilamchi (denotativ yoki tashqi) bo‘lgan qadriyatlar moda tarkibida katta ahamiyatga ega.

Modaning birlamchi qadriyatlariga – zamonaviylik, ko‘p qirralik, namoyishkorlik va o‘yin kiradi.

Zamonaviylik – moda tarkibidagi fundamental qadriyatdir. Biroq, zamonaviylikni ijobiy baholash modani vujudga kelgan zamonaviy G‘arb

sivilizatsiyasiga xosdir. Arxaik va an’anaviy jamiyatlarda zamonaviylik va yangiliklar nuqson sifatida qabul qilinadi. An’anaviy jamiyatlarda urf-odat – universal ijtimoiy regulyatordir, zamonaviy jamiyatda esa uning vazifasini moda bajaradi. Har qanday yangilik moda bo‘lolmagani singari, har qanday yangi moda standartlari va namunalari ham yangi hisoblanavermaydi. “Eskicha” narsalar ham moda bo‘ladigan holatlar bor. Masalan, 1970 yillarning boshlarida «retro» uslubi modaga kirib, antikvariat buyumlar yoki “qadimgidek” yasalgan yangi buyumlar zamonaviy hisoblana boshlandi.

Ekologik uslub yangi yuqori texnologiyali sintetik materiallarni emas, balki bir necha ming yillar davomida ma’lum bo‘lgan an’anaviy matolarni – zig‘ir, paxta, ipakni ishlatishni belgilaydi. Bundan tashqari, insonning yangilikka tabiiy intilishi madaniy an’analarni (madaniyat ekologiyasi) saqlab qolish ehtiyojidan baland hisoblanmaydi. Modadagi yangilik – bu o‘zidan avvalgi modaga nisbatan doim yangidir. Zamonaviylik qiymati yangi moda muxlislariga «zamon bilan hamnafas yurish», tez-tez qiyofasini o‘zgartirib borayotgan dunyoga moslashish imkonini beradi.

Modaning ko‘p qirrali, *universal (diffuz)* bo‘lishi modaning vaqtinchalik chegaralardan bo‘lak hech narsani tan olmasligi bilan bog‘liq. Universallik keng tarqalgan qiymat hisoblanmagan, masalan, arxaik va sinfiy jamiyatlarida mavjud bo‘lmagan. Moda rivoji jamiyatning barcha sohalarida sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni: ishlab chiqarishning jadal o‘sishi, yangi aloqa va transport vositalarining paydo bo‘lishi, xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni kuchaytirishni aks ettirdi. Agar feodal jamiyatda madaniy namunalar doimiy va o‘zgarmas ravishda muayyan ijtimoiy guruhlarga biriktirilgan bo‘lsa, burjua jamiyatida ular ko‘proq o‘zgaruvchan va harakatchan bo‘ladi. Madaniy namunalarning bir birlikdan ikkinchisiga, bir ijtimoiy guruhdan boshqasiga, bir mamlakatdan keyingi mamlakatga ko‘chib o‘tishida muhim moda qadriyati sifatida universallikni ifodalaydi.

Namoyishkorlik modaning muloqot shakllaridan biri ekanligi bilan bog‘liq bo‘lib, namoyishkorlik moda ishtirokchilariga o‘zining xatti-harakatlari bilan boshqalarga o‘zi haqidagi ma’lumot yetkazish imkonini beradi. Bu ayniqsa, qisqa va yuzaki muloqotlarda ahamiyatlidir. Avvalo, moda ijtimoiy maqomni ifoda etish yoki yuqori ijtimoiy maqom holatining illyuziyasini yaratish imkonini beradi.

Modaning *o‘yin* kabi qiymati modaning evristik ijodiy faoliyat ekanligi, yangi narsalarni qidirishga, yangilik yaratish va eskilikni yangilik sifatida qayta kashf qilishga rag‘bati borligini ifodalaydi. Zamonaviy dizaynda o‘yin unsurlari muhim ahamiyatga ega, chunki o‘yin insonning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, uning uchun natija emas (dizaynda iste’molchi hamkorligi tamoyili aloqasi), balki faoliyat jarayoni muhimdir. O‘yin dunyoni anglash shaklidir, moda esa o‘ziga xos «o‘yin qoidalari» (moda standartlari) ga ega bo‘lgan o‘yin xatti-harakatlari shakllaridan biri. Modada o‘yinning asosiy xususiyatlari aks etadi – ixtiyoriylik, vaqtning cheklanganligi (ammo fazoda emas), oddiy hayotdan tashqariga chiqish (moda inson hayotidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq illyuziyalarni, yana uning jamiyatdagi mavqei bilan bog‘liq illyuziyalarni yaratadi), muayyan «o‘yin qoidalari» mavjudligi. Moda, shuningdek, muayyan ijtimoiy maqom yoki yuqoriroq ijtimoiy maqomga o‘xshatmani ifodalovchi rol o‘yinlari va «ijtimoiy rol» tushunchalariga bog‘liq.

Modaning ikkilamchi (tashqi) qadriyatlari muayyan vaziyat hamda ijtimoiy tenglik yoki elitarlik, xushbichimlik yoki qulaylik va shu kabi. teskari qadriyatlarga rioya qiluvchi moda ishtirokchilari kategoriyasi bilan belgilanadi. Modaning bitta namunasi o‘z sohiblariga turli maqsadlarni amalga oshirishda ko‘mak beradilar. Misol uchun, sitilgan jinsi kimdir uchun boshqalardan ajralib turish, mashhur marka bilan maqtanish imkonini bersa, boshqa birovga esa, aksincha, boshqalardan ajralib turmaslik, iste’molda o‘zining “demokratligini”, «kamtarligini» ifoda etishda vosita hisoblanadi.

Ikkilamchi qadriyatlar insonning dunyoga va o‘ziga, jamiyatga va ijtimoiy institutlarga, tabiatga (ekologik qadriyatlarga) munosabatini ko‘rsatadi. U yoki bu

moda namunasini tanlar ekan, bir odam: «Men hamma bilan baravarman» desa, boshqasi «O‘xshagim kelgan insonlarda nima bo‘lsa, menda ham bor» deydi, uchinchisi esa: «Boshqalarda yo‘q narsa menda bor» desa, to‘rtinchisi: «Men boshqachaman» deydi. Kishi muayyan modani tanlarkan, shu orqali umuman modaga bo‘lgan munosabatini namoyish etadi.

Moda funksiyalari

Moda zamonaviy hayotning deyarli barcha sohalarida faoliyat yuritganligi tufayli, oxir-oqibat o‘zini ijtimoiy munosabatlarning zaruriy regulyatoriga aylantiradigan turli funksiyalarni bajaradi.

Qaysi nuqtai nazardanligiga qarab (ijtimoiy-maqom, estetik, ijtimoiy-kommunikativ yoki psixologik hodisa sifatida) modaning quyidagi vazifalari aniqlanishi mumkin:

innovatsion – moda jamiyat va madaniyatda eksperimental omilni rag‘batlantiradi, yangi narsalarni izlaydi, yangi, yanada rivojlangan madaniy namunalarni ochib beradi, faoliyatning turli sohalarida innovatsiyalarni joriy etish va qabul qilishga yordam beradi;

regulyativ – moda bir muddat me’yorga aylanuvchi ko‘plab madaniy modellardan birini tanlarkan, turmush tarziga yangi xatti-harakatlar va yangi madaniy namunalarni joriy qiladi; insonga tanlashni osonlashtirarkan, shu orqali o‘zgarayotgan dunyoga moslashishga ko‘maklashadi. Moda yaqin o‘tmish bilan ajralish imkonini berib, yaqin kelajakka tayyorlaydi;

psixologik – moda o‘zgarish illyuziyasini yaratarkan, insonning yangilikka bo‘lgan psixologik ehtiyojini qondiradi, o‘zini ifodalashda ijtimoiy mavqeidan norozilikni bartaraf etadi. Moda hissiy taskin usuli hisoblanib, ortiqcha psixologik yuklardan himoyalanish mexanizmining unsuridir. U ommaviy miqyosda shaxsiy xatti-harakatlarning tayyor namunalarini taklif qiladi, psixofiziologik osoyishtalikkaga bo‘lgan ehtiyojni qondiradi, bu zamonaviy megapolis aholisining monoton va odatiy bo‘lgan kundalik hayotida ayniqsa muhimdir;

ijtimoiylashuv – moda insonni ijtimoiy va madaniy tajribaga jalb qilish, muayyan ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarni idrok etishga va muayyan ijtimoiy tizimni qayta tiklashga yordam berish shakllaridan biridir; shaxsning o'zini anglashini shakllantirishda yordam beradi;

ijtimoiy farqlash va tenglashtirish – moda tartibga solish funksiyasini bajararkan, jamiyatdagi ijtimoiy keskinlikni tartibga soladi, ya'ni bir vaqtning o'zida ijtimoiy va maqomli farqlarni belgilaydi va niqoblaydi;

nufuz – moda muayyan ijtimoiy mavqega xos bo'lgan nufuzni, obro'ni ifodalash shakli bo'lib, yoki yuqori ijtimoiy maqomni namoyon etadi, yoki yuqori ijtimoiy maqom illyuziyasini yaratadi. Moda o'z standartlari va ijtimoiy elita guruhlari obyektlariga taqlid orqali norasolik hissini yengishga imkon beradi. Moda u yoki bu madaniy namunalarning nufuzini ko'taradigan yoki tushiradigan omil hisoblanadi.

kommunikativ – moda o'zida ommaviy aloqa shakllaridan biri – moda standartlarini bir shaxsdan yoki ijtimoiy guruhlardan boshqasiga o'tkazish jarayoni, ya'ni moda qadriyatlariga ega bo'lgan madaniy namunalarni uzatish, shuningdek, moda ishtirokchilari haqida ma'lumot berishni ifoda etadi. Bunday aloqa ishtirokchilarga qadriyat borasida rozilik va umumiylikni shakllantirishga yordam beradi;

iqtisodiy – moda iste'mol va yangi mahsulot reklamasi shakli hisoblanib, iste'molchilarning hulq-atvorini tartibga solish va sotishni kengaytirish vositasidir. Moda iste'mol sohasidagi inson xatti-harakatlariga, ehtiyojlarning muayyan tuzilishini shakllantirishga ta'sir qiladi. Moda sohasida iste'mol standartlari va buyumlarning ijtimoiy namunalari ishlab chiqariladi;

estetik – moda ommaviy estetik did xususiyatlarini aks ettirarkan, estetik ehtiyojlarni qondiradi, jamiyatda estetik qiymatni tarqatish va o'zgartirish usuli hisoblanadi.

Bir xil ko'rinishdagi ommaviy madaniyat o'rniga xilma-xillik, o'ziga xoslik va politsentriklik madaniyati, ya'ni madaniyatning yagona modeli o'rniga ko'plab

teng qiymatdagi subkulturalar paydo bo‘ldi. Zamonaviy modada, ilgari bo‘lganidek(«yaxshi did» tushunchasi ham yo‘q), hamma uchun bir moda standarti yo‘q. 1970-yillardan beri hammaga o‘z qoidalarini hukm qiladigan yagona moda tushunchasi yo‘q. Bitta «moda» o‘rniga biz turli ijtimoiy guruhlarning turmush tarzi va xulq-atvor xususiyatlariga, ya’ni qadriyat tizimlari, shunga binoan ko‘pchilikni tashkil etuvchi turlicha va o‘zgaruvchan moda standartlariga asoslangan ko‘plab “modalar”ni kuzatamiz.

7.1.3. Modaning rivojlanish qonuniyatlari

Moda taraqqiyotining asosiy qonuniyatlari. Modaning rivojlanishi ijtimoiy-psixologik qonuniyatlarga: biofiziologik o‘zgarishlarga, akseleratsiya, ijtimoiy psixologiyadagi o‘zgarishlarga bog‘liq. Modani o‘rganuvchi olimlar uning rivojlanishining muayyan qonuniyatlari mavjudligini aytadilar. Ular quyidagilar:

- modaning ijtimoiy-tarixiy hodisalar bilan aloqasi;
- modani xalqaro mavqega olib chiqish;
- modani demokratlashtirish;
- moda tarqalishini tezlashtirish;
- moda taraqqiyotining davriyligi.

Moda rivojlanishida *ijtimoiy-tarixiy hodisalar:* ijtimoiy va siyosiy g‘alayonlar, san’at, ilm-fan va texnologiyadagi inqilobiy o‘zgarishlar bilan aloqa kuzatiladi. Siyosiy inqiloblar, buyuk tarixiy g‘alayonlar (urushlar), masalan, ingliz burjua inqilobi, buyuk fransuz inqilobi, o‘ttiz yillik urush, birinchi va ikkinchi jahon urushlari modadagi shoshilinch o‘zgarishlarga «turtki» sifatida xizmat qildi. Mahalliy urushlar (masalan, Napoleon Bonapartning Misrga yurishi, Vyetnam yoki Quvayt urushi, Suriya urushi) ham yangi modani yuzaga keltirishi mumkin. Butun jamiyat e’tiborini tortadigan barcha siyosiy voqealar yangi standartlar va moda namunalari paydo bo‘lishiga ta’sir qiladi (masalan, 1980 yilning ikkinchi yarmidagi Gorbachyovning qayta qurishi G‘arbda sovet belgilarini qo‘llash modasini yuzaga keltirdi).

O‘z tabiatiga ko‘ra, moda xalqaro hodisadir, chunki har qanday odam unga ergashishi mumkin, bunda chegaralar yo‘q. Xalqaro aloqalar va ommaviy axborot vositalarining rivoji, xalqaro bozorni shakllanishi *modani xalqarolashtirish* uchun asos yaratdi. Bu jarayon XVI asrda, ilk umumyevropa urfi – ispan modasi paydo bo‘lganida boshlandi. XVII asrning oxiriga kelib G‘arbiy Yevropaning shahar kostyumida, XIX asr oxirida esa qishloq kostyumida milliy xususiyatlar deyarli yo‘qoldi. Yevropa mamlakatlarining dunyoning boshqa mintaqalaridagi mustamlakachiligi oqibatida umumdunyo ahamiyatiga chiqqan yevropa modasi shakllandi. «Global moda» tushunchasi paydo bo‘ldi, ya’ni moda va dizaynda xalqaro uslub yuzaga keldi. Transmilliy korporatsiyalar ushbu jarayonga o‘z hissasini qo‘shib, jahon bozorlarini o‘zlarining mahsulotlari («Koka-kola» to‘g‘risida – dunyoning «koka-mustamlakalari» deydigan bo‘lishdi, yana «Makdonalds» va boshqalar ham bor) bilan to‘ldirib, yangi transport va aloqa vositalarini (aviatsiya, radioaloqa, sun’iy yo‘ldosh televideniyesi, global kompyuter tarmoqlari) rivojlantirdilar. Shuning sharofati bilan yangi moda haqidagi ma’lumot deyarli zumda dunyoning har bir burchagiga yetib boradi.

Tayyor kiyim-kechak, uy-ro‘zg‘or buyumlarini ommaviy ishlab chiqarishga o‘tish va ommaviy madaniyatning shakllanishi modani *demokratlashtirish* uchun asos yaratdi. Yangi moda standartlari va namunalari deyarli barcha ijtimoiy guruhlar uchun ommabop tus olmoqda, chunki zamonaviy ishlab chiqarish imkoniyatlari darhol yangi modani takrorlash va moda namunalarini iste’molchiga turli xil qiymatda taqdim etish imkonini beradi. Ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi ham yangi modaning paydo bo‘lishi haqida darhol ma’lumot olish, xalqaro moda namunalari bilan tanishish imkonini berdi.

Ommaviy bozorning barpo bo‘lishi va zamonaviy ommaviy axborot vositalari *moda tarqalishining tezlashishiga* sabab bo‘ldi, bu esa o‘z navbatida moda sikllarining qisqarishiga olib keladi.

Modani rivojlantirishning eng muhim qonuniyati – *davriylik*dir. Moda taraqqiyotida o‘zgarish va ritmlarning mavjudligi tizimning o‘z-o‘zini tashkil etish

mexanizmlariga ega ekanligidan dalolat beradi. Yangi moda standartini joriy etish va tasdiqlash jarayonlari, ya’ni moda sikllarining o‘zgarishi moda innovatsiyasi deb ataladi. Uning mohiyati bir standart va obyektlar o‘rnini boshqa – «yangi moda» bilan almashishidir. Innovatsiya bir vaqtning o‘zida moda standarti va moda obyektiga ta’sir qilishi mumkin, ba’zan faqat moda obyekti o‘zgarishiga (odatda, liboslar modasi obyektlar o‘zgarishishiga kiradi – rang, uzunligi, kiyim hajmi) yoki faqat moda standartiga (masalan, modaga libosning ba’zi kiyish odat bo‘lib qolgan detali kirib keladi. Masalan, 1930-yillarda shlyapa va beretlarni yonboshga kiyish urfga kirgan) ta’sir qilishi mumkin yoki obyektdan umuman voz kechishi mumkin.

Moda yangiliklari turli yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin:

- an’anaga ko‘ra, moda namunasi avvalgi modadan olingan bo‘lsa. Eski moda standarti yoki namunasi faqatgina uning ommaviy «unutilishi» sodir bo‘lganda modaga qaytishi mumkin. Odatda, «unutish» tushunchasi modada faol ishtirok etadigan avlodning almashinuvi orqali sodir bo‘ladi. An’analar yordamida aynan innovatsiyalar sharofati bilan ko‘plab «retro moda»lar paydo bo‘ladi;

- boshqa madaniyat yoki madaniyat sohalaridan o‘zlashtirmalar olish yo‘li orqali. Kiyimlarda yangi moda g‘oyalari, uslublari va unsurlari tasviriy san’at sohasidan (masalan, 1930 yillar modasida syurrealizm), «ekzotik» hududlar madaniyatidan (modadagi etnik uslub), yoshlar subkulturasidan (masalan, 1990 yillarning boshida «Granj» uslubi) va boshqalardan yuzaga keladi;

- ixtiro orqali – (to‘g‘ri ma’noda – innovatsiya) – moda tarixida kam uchraydigan holat bo‘lib, yangi unsurlar yoki eski unsurlarning yangicha ko‘rinishi paydo bo‘lganda yuzaga keladi. Modada ixtironing asosi sifatida odatda yangi material va texnologiyalar hisoblanadi. Bunday «ixtirolar»ga misol sifatida 1930 yillarda E. Skyaparelli va V. Stibel tomonidan taklif qilingan plenkadan tayyorlangan kiyimni, 1960 yillarda P. Rabann tomonidan yaratilgan plastik va metalldan tayyorlangan kiyimlarni, mini-moda, yapon dizaynerlari tomonidan ishlab chiqilgan yangi dizayndagi kiyim-kechaklar va h.k. kiritish mumkin.

Moda sikli alohida «modalarning» ishlashi, rivojlanishi va almashinish jarayonini ifodalaydi. Har qanday siklning markazida tizim mavjudligining asosiy bosqichlari mavjud bo‘lib, bular: shakllanish – barqaror holat – inqirozdir.

Moda tadqiqotchilari moda siklining quyidagi bosqichlarini aniqladilar:

• yangi modaning paydo bo‘lishi (o‘ziga xos davr, yorqin individuallik bosqichi). Ushbu davr uch bosqichni o‘z ichiga oladi: 1) uning yaratuvchilari yoki potensial tarafdorlari tomonidan yangi modaning ochilishi; 2) yangi moda nomini belgilash; 3) yangi moda liderlarining paydo bo‘lishi;

• tarqatish (taqlid davri, «yuqori nuqta», moslashish). Bu bosqichda yangi modaga ergashuvchilar ko‘pchilikni tashkil etadi. Ushbu davr ikki bosqichdan iborat: 1) «Pik» («yuqori nuqta») yoki moslashish; bunda yangi modada norasmiy moda liderlari, ilk ergashuvchilar, keyinroq esa «ilk ko‘pchilik» paydo bo‘ladi; 2) ommaviy ishlab chiqarish minglab va millionlab nusxalarda moda obyektlarini ko‘paytirganda o‘ziga xoslikni yo‘qotish (yoki iqtisodiy taqlid). Ushbu modaga «keyinda qolgan ko‘pchilik» qo‘shiladi, moda yetakchilari esa allaqachon yangi moda izlayotgan va deyarli kashf etgan bo‘ladi;

• inqiroz (o‘rnini boshqasi egallagani tufayli zavolga yuz burish, yo‘qolish bosqichi). Ushbu bosqichda aksariyat moda ishtirokchilari uchun avvalgi namunalar o‘zining moda qimmatini yo‘qotadi, ular faqat konservatorlar («kechikuvchilar») tomonidan qabul qilinadi.

“Muhabbat va kabutarlar”, 1984y. “Zara” to’plamidan, 2013y.

114-rasm. Modaning siklsimon rivojlanishi

Modaning siklliligi (ya’ni davriyligi) modani prognoz qilish, avvaldan taxmin qilish imkonini beradi. Biron hodisa, holatning rivojlanish istiqbollarini alohida tadqiq qilish prognozlash deyiladi. *Prognoz* – obyektning kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan holatlari yoki rivojlanishning muqobil yo‘llari va ularni amalga oshirish muddatlari to‘g‘risida ilmiy asoslangan hukm.

Prognoz turlari vaqt bo‘yicha farqlanadi:

- 1 oygacha – operativ prognoz;
- 1 oydan 1 yilgacha – qisqa muddatli prognoz;
- 1 yildan 5 yilgacha – o‘rtacha muddatli prognoz;
- 5 dan 15 yilgacha – uzoq muddatli prognoz;
- 15 yildan ortiq – juda uzoq muddatli prognoz.

Prognoz quyidagicha amalga oshiriladi:

- yaxshi ma’lum bo‘lgan jarayon va hodisalar (arxitektura, madaniyat, rasm, kompyuter grafikasi va shu kabilarda rasmiy-estetik tilning o‘xshashligi) bilan o‘xshashlik yaratish orqali prognozlashtirilgan hodisaning istiqbolli rivojlanishini baholash;
- o‘tmishda yaxshi ma’lum bo‘lgan rivojlanish tendensiyalari (qadriyatlar) va qonuniyatlarining kelajakdagi (ekstrapolyasiya) shartli davomi. Moda taraqqiyotining davriyligi bunday prognozlarga imkon beradi;
- yaxshi ma’lum bo‘lgan taraqqiyot istiqbollarining maqbul shartlariga muvofiq ishlab chiqilgan modellar yaratish. Dizaynda bunday modellar futuroloyiha deb ataladi.

Dizaynda avangard dizaynerlar to‘plamlarini shu hisobga kiritish mumkin. Iv Sen-Loran shunday degan: «Yildan-yilga ayollarga shunchaki istagan narsalarini emas, balki o‘zlari anglamagan holda kutganlarini taklif qilishmoqda».

Prognoz – ijtimoiy ehtiyojlar prognozi, turmush tarzi prognozi, demografik prognoz, bandlik prognozi, ta’lim darajasi kabi ijtimoiy prognozlar orqali amalga oshiriladi.

G‘arbiy firmalar «trend-skautlari» tabiiy ko‘cha modalarini o‘rganishadi, urfda bo‘lgan barcha joylarga (tungi klub, diskotekalar), premyeralar, ko‘pchilik to‘planadigan joylarga (stadionlar, rok-konsertlar, savdo markazlari va boshqalarga) tashrif buyurishadi.

Moda kommunikatsiyasi ishtirokchilari deb moda ijodkorlariga, moda haqida ma’lumot tarqatadigan, moda namunalaridan foydalanadigan odamlarga aytiladi. Ularning barchasi uch guruhga bo‘linadi: ishlab chiqaruvchilar, tarqatuvchilar va iste’molchilar.

Moda ishlab chiqaruvchilari – ijodkor, ishlab chiqaruvchi va modani urchituvchilarga bo‘linadi. Moda ijodkorlari – moda tusini olishi mumkin bo‘lgan namunalarni yaratuvchilardir (dizaynerlar yoki yoshlar subkulturalari vakillari, oddiy odamlar). Moda ishlab chiqaruvchilari bo‘lajak moda namunasini ko‘paytirish uchun tayyorlaydilar (dizaynerlar va kiyim-kechak texnologlari, muharrirlar va boshqalar). Modani urchituvchilar moda namunalarini ko‘paytiradilar – ular ommaviy ishlab chiqarish bilan bog‘liq odamlardir.

Modani ommalashtiruvchi (tarqatuvchi) kishilar – moda namunalari haqidagi ma’lumotni ishlab chiqaruvchilardan olib iste’molchilarga etkazadilar, yangi moda haqida ma’lumot tuzadilar, uning reklamasi bilan shug‘ullanadilar: bularga jurnalistlar, moda jurnallari muharrirlari, fotosuratchilar, moda illyustratorlari, moda namoyishlari va ko‘rgazma tashkilotchilari va moda namunalarini sotish bilan shug‘ullanadiganlar kiradi.

Moda iste’molchilari – moda namunalarini o‘zlashtirib, o‘z xatti-harakatlarida ulardan foydalanuvchilardir.

Barcha moda iste’molchilarini modadagi faolligiga qarab guruhlarga bo‘linishi mumkin (E. Rojersga ko‘ra):

- novatorlar yoki tajribachilar (eksperimentatorlar) (2,5%) – yangi modani yaratishga va tajriba o‘tkazishga tayyor kishilar;

- ilk ergashuvchilar (13,5%) – yangi modani birinchi bo‘lib qo‘lga kiritadiganlar, bular o‘z muhiti liderlari hisoblanadilar;
- ilk ko‘pchilik (34%) – barcha cheklovlarini rad etib, ehtiyotkorlik bilan modaga rioya qiladiganlar;
- keyinda qolgan ko‘pchilik (34%) – yangi moda jamiyatda keng tarqalgandagina unga ergashadiganlar, ular yangi uslub va shakllarni qabul qilmay, ko‘proq avvalgi modaga rioya qilaveradilar;
- kechikuvchilar yoki konservatorlar (16%) – ular urfdan chiqqan yangiliklarni qabul qilish orqali moda tendensiyalarini rad etadilar.

Modaning umumiy yo‘nalishi modani shunchaki hisobga olishni emas, balki unga ta’sir qilishni, modani o‘zgartirishning haqiqiy siklik mexanizmlariga asoslangan holda uni boshqarishni ta’minlaydi. Modani samarali boshqarish uchun nafaqat dizayndagi yangi g‘oyalarning yetarli bo‘lishi, balki uning paydo bo‘lishi va o‘zgarishining ijtimoiy sabablarini tushunish, moda xatti-harakatining o‘ziga xos xususiyatlarini bilish kerak.

7.2. Kompozitsiya yaratishda ijodiy manbaalar

O‘z ijodiy faoliyati uchun dizayner ko‘p bilim sohalaridan xabardor bo‘lishi lozim, hatto ular bir-biriga aloqasi bo‘lmasa ham. Ijobiy natijaga erishish uchun dizayner san’at sohasiga va fan yo‘nalishiga taalluqli bilimlarni o‘zlashtirishi lozim.

San’atni har bir turida g‘oyaviy-ijodiy asos kompozitsiya hisoblanadi. Boshqacha aytganda, kompozitsiya orqali dizayner qiziqtirgan g‘oyani ifodalaydi.

Badiiy asar – muayyan o‘zaro bog‘lanishda bo‘lgan bir turli unsurlar (chiziqlar, rangli dog‘lar, hajm, naqsh, kolorit va b.) murakkab tizimi.

Badiiy asarda estetik va siymo tamoyillarining o‘zaro nisbati iste’molchida tasavvur va fantaziya uyg‘otadi, assotsiativ fikrlar va his tuyg‘ular murakkab tizimini tasavvur etishga sabab bo‘ladi.

Assotsiativlik – bir-biriga to‘g‘ri kelmaydigan xossalar orasida bog‘lanishni sezish va o‘rnatish qobiliyatidir. O‘xshash yoki kontrast bo‘yicha assotsiatsiyalari buyumlarni funksionallikka oidligini yengishga, ularni orasidagi qonuniy bog‘liqliklarni va yangi funksional mo‘ljalni barpo etishga ko‘mak beradi. San’atga oid umumiy badiiy shakllantirish usullar simmetrik va nosimmetrik, kontrast va nyuans, grotesk, metafora va boshqa bo‘lishi mumkin.

Badiiy shakl – ma’noning ichki tarkibini san’at qonunlariga oid buyum sifatida barpo etish. Shakl barcha san’at turlariga oid umumiy tushunchasidir.

Kompozitsion shakllantirish baravariga ikki sohadan– shaklning ramzi va formal aloqalaridan kelib chiqadi. Ulardan qaysinisi dastlabki, qaysinisi ikkilamchi ekanligi noma’lum, chunki ijodiy jarayonga aql bovar qilmaydi. Ammo shunisi ayonki, assotsiatsiyalar manbasi – muallifning ijodiy o‘ziga xosligi, uning qiyofalar dunyosidir. Formal – kompozitsion aloqalar sohasi esa odam shaklini tasavvur etish obyektiv mavjud qonunlaridan kelib chiqadi. Shunga qaramay bir-birisiz ijod bo‘lmaydi. Ular orasida chuqur va tabiiy aloqa mavjud.

Assotsiatsiyalardan tug‘iladigan mavzu tartibsiz, tarqatib joylantirilgan morfologizatsiyalangan unsurlar to‘plami sifatida ko‘rinishi mumkin. Reallik va yaxlitlikni faqat kompozitsiya orqali, barcha unsurlarning uzviy bog‘liq tartibiga binoan erishiladi.

Dizayner ijtimoiy-kommunikativ va estetik madaniy vazifalarni hal etadi. Dizaynga oid ommabop kommunikatsiya ma’lumotni estetik ehtiyojni uyg‘otib, rivojlantirib va mustahkamlab, toki u iqtisodiy kuchga aylangancha, ko‘p odamlarga “estetik ma’lumotni” yetqazishga imkon beradi. Odamlar yangi buyumlarni faqat ularni yangi utilitar xossalarini, moda va prestijliligi uchungina talab qilmaydi, balki “tirikchilik uchun eng zarur”, estetik didga binoan estetik ehtiyoj ommabop talabiga aylanadi. Estetik talabni qondirish uchun buyumlarning shakli doimiy o‘zgarishi kerak: shakllar uslubiy bir xil bo‘lgani holda individual har xil bo‘lishi lozim. Shundan kelib chiqib, dizayner nafaqat stilist, balki musavvir, ijodkor bo‘lishi talab etiladi.

Ijod – bu voqelikni qayta tushinish va o‘zgartirishdir. Bilim va sezgisiz ijodiy fantaziya tug‘ilmaydi. To‘g‘ri yo‘naltirilgan boy bilimlar majmui – ijodning asosi hisoblanadi. Ijodiy faoliyat puxta va aniq bilimlar mantiqi asosida barpo etilsa, yaratuvchi tanish buyumlardan yangilariga o‘tishi shubhasiz. Qachonki yangi g‘oya tasodifiy, mantiqiy va ongli jarayondan holi paydo bo‘lsa, intuitsiya va ilhom keladi deyishadi. So‘ngi yillarda odamning fikrlash faoliyati qonuniyatlarini tadqiqot etadigan fan tug‘ildi, u yerda zehn, ongsizlik va intuitsiya evrisitka unsurlari mavjud. Ushbu fan odamning intuitsiya yordamida ijod etishi, “gazlamani his qilishi” bilan shug‘ullanadi. Dizayner umumiy va mutaxassislikka oid bilimlarni to‘plashi lozim. Professional qiziquvchanlik va kuzatuvchanliksiz ijodiy fantaziyani tarbiyalash mumkin emas.

Dizayner kostyum kolleksiyasini yaratishda ijodiy manba sifatida har qanday tabiiy hodisalar, buyum muhitining turli unsurlari, dunyoda sodir bo‘layotgan voqealar, musiqa, rangtasvir, adabiyot, balet, teatr, sirk, kino, tomosha tadbirlari, etnik mavzular, me’morchilik, muhandislik inshoatlari, mashina detallari, turli mexanizmlar, maishiy buyumlar, amaliy san’at asarlari (shisha, tosh, yog‘och, metall, keramika va b.), musiqa asboblari, yer fakturasi, yulduzli osmon, origami o‘yini, ekologiya, tarixiy, xalq va an’anaviy kostyumlar, eklektika usuli, parodiya usuli, stilizatsiyalash usuli va boshqalar bo‘lishi mumkin.

Tabiat azaldan inson uchun ish maydoni bo‘lgan. Tashqi dunyoni tushunish va o‘rganish ehtiyoji uning qonunlarini o‘rganishga va o‘zlashtirishga olib keladi. Asrlar mobaynida ma’lumot yig‘ib, odamzod bionika (yunoncha bio – “hayot unsuri”) fanini tashkil etdi. Bu yo‘nalish 1950 yillarning oxirida paydo bo‘ldi. Ushbu fanning asosiy maqsadi – biologik tizimlar va jarayonlarning imkoniyatlarini o‘rganish edi. Leonardo da Vinchi, N.E. Jukovskiy, L.Galvanilarni bionika kashfiyotchilari deb hisoblasa bo‘ladi. XIX–XX asrlar oralig‘ida paydo bo‘lgan Modern badiiy uslubi jonli tabiatga asoslangan va aynan shu davrda cheklangan me’morchilik imperiyasi paydo bo‘ldi. Ispan me’mori A.Gaudining ishlari bunga yorqin dadil bo‘ladi. Uning ishlarida egri chiziqli yuzalar me’mor

konstruktiv shakllarni biologizatsiyalanishi desa bo‘ladi. Bionika boshqa sohalarda jadal tarqaldi: maishiy texnikada, harbiy sanoatda (suv osti kemalarining shakli baliq shaklida) va b. Zamonaviy kostyumda bionikaning timsoli chakamug‘ o‘simlikning tikani asosida kashf etilgan “velkro” tasmasi keng qo‘llaniladi.

Tabiat million yillar davomida durdona asarlar yaratib, o‘z mahoratini doimo oshiradi. Tabiatning organik va mantiqiy bog‘liqlari mujassamlashgan yangi shakllarni yaratish imkoniyatni topish, zamonaviy dizayn yangi yo‘nalishning asosiy vazifasi bo‘ldi, bunga o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgan bionika va kristallografiya katta ta’sir etmoqda. Ularning asosida ko‘p obyektlar va dizayn buyumlari (aksessuarlar, zargarlik buyumlari va b.) barpo etilmoqda.

Jonli tabiatda yashash jarayoni organik ma’qullik bilan bog‘liq. Huddi shunday odam ham o‘z faoliyatida istagan natijaga erishishga intiladi. Muammoni yechish uchun birinchi planga buyumning ko‘pfunksionalligi, ya’ni buyumlar bir necha mo‘ljalda qo‘llash mumkinligi chiqadi. Bu muammoni transformatsiyasiz yechish mumkin emas (bu usulni 1920-yillarda konstruktivistlar taqdim etishgandi, ammo u hozirgi kunlarda amalga oshirildi).

Transformatsiya – buyum shakli va hajmini har xil usulda biriktirish, joyini o‘zgartirish, ayrim detallarni almashtirish hisobiga o‘zgartirishdir. Boshqacha qilib aytganda, buyum loyihasiga qandaydir qo‘zg‘aluvchanlik asos qilib olinadi, chunki iste’molchining hamkorligi nazarda tutiladi. Standart detallar to‘plamidan asosiy shaklga har xil biriktiruv usullari yordamida ko‘p variantlarni hosil qilish mumkin.

Tabiiy shakllarni uslublashda, birinchi navbatda ahamiyat berish kerak bo‘lgan narsa bu tahlil qilanayotgan o‘simlik, xayvonot va xasharotlar plastikasi, shakli va silueti, ritm va proportsiyalari, hamda faktura xususiyatlaridir. O‘rganilayotgan obyekt jonli ko‘rinishi yoki tasvirlaridan rasmlar chiziladi. Taxlildan so‘ng kuzatishlarni umumlashtirib, transformatsiya usullari qo‘llaniladi. Transformatsiya odam proportsiyalariga yaqin bo‘lgan siluet shakllariga (plastik yechimini izlash, uslublash, badiiy siymoni yaratish vositalarini aniqlash va shakllantirishga) qaratilgan bo‘lishi kerak. Kompozitsiya xususiyatlarini

(kompozitsion markaz, statiklik va dinamiklik, simmetriya va assimetriya, hamda kompozitsion muvozanat) qo‘llagan holda abstrakt siluet shakllardan aniq kostyum va badiiy siymoni shakllantiruvchi vositalarga o‘tish va mantiqiy qatorlarni ishlab chiqish. Mantiqiy qatorlar asosida g‘oyaviy va mazmunli, ijodiy manbani zamonaviy moda yo‘nalishini inobatga olgan holda uslublash va turli vazifadagi kiyim tugallangan stilistik qatorlarni ishlab chiqiladi.

Har bir dizayner o‘z faoliyatining muayyan bosqichida tarixiy va xalq an’analari bilan ilhomlanib, ijodiy manbalarga murojat qiladi.

Ekzotik mamlakatlarning madaniyati moda tarixida ko‘p badiiy uslublarda g‘oya o‘zlashtirish doimo bo‘lgan. XX asr modasi ko‘pincha etnik va tarixiy manbalarga murojat qilgan. Klassik shaklni va ekzotik xalqlardan o‘zlashtirilgan bezakni birga qo‘shib, modellarni barpo etadigan dizaynerlar avlodi paydo bo‘ldi, masalan, J.P.Gotening “eskimos” kolleksiyasi.

Kiyim modellashda boshqa xalqlarning madaniy an’analariga nazar tashlash qadimdan ma’lum. Sharq o‘zining ekzotikasi, boyligi va nozik didi bilan yevropaliklarni jalb etib kelgan. Yevropa kostyum tarixining har bir davrida – salb yurishlari davridan zamonaviy modadagi “etnik uslubgacha” sharq ta’sirini sezish mumkin. Yevropa kostyumidagi ko‘p yangiliklar Sharq yoki Amerikadan kelgan (X.Kolumb Amerikani ixtiro qilgandan so‘ng).

Zamonaviy kostyum dizaynida milliy ana’analarni o‘zlashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari postmodernizm, jumladan iqtibos (sitata) uslubi (o‘zgartirmasdan kostyum qismlarini o‘zlashtirish va modelda har xil ijodiy manbalardan unsurlarni aralashtirish) bilan bog‘liq. Iqtibos sifatida milliy kostyumning detali, bezak unsuri, naqshi, bichimi yoki rang gammasi bo‘lishi mumkin. Har xil iqtiboslarni birlashtirib, turli xalqlarning kostyum unsurlarini aralashtirib, dizayner 1970 yillarga o‘xshash yaqqol va mashhur ijodiy manba bilan bog‘liq bo‘lmagan mutlaqo yangi siymoni yaratadi. Jan-Pol Gote, Dj.Galyano, R. Djili etnik mavzulari bo‘yicha o‘z modellarini aynan shunday yaratishadi.

Kostyum modellashda milliy kostyumning bichimini o‘zlashtirish maxsus sohadir. Etnik uslub allaqachon jahon xalqlarining kostyum shaklini zamonaviy kostyumga moslashtirdi. Odatda, bu oddiy shaklli, ko‘pincha tikilmagan kiyim sari, sarong, poncho, paneva va b. iborat.

Sharq an’analarining g‘arb dizayniga ta’siri shakllar, ranglar (indigo, “ziravorlar rangi”, “xitoycha sariq”. “buddaviy apelsinrang” va boshqa shu kabi sharq mamlakatlari rang madaniyatiga doir ko‘p modali ranglar o‘zlashtirilgandi), aksessuarlar, amaliy san’atining o‘zlashtirilishi bilan cheklanmaydi.

Kostyum loyihalashda yangicha yondashuv sharqona kostyumning o‘zgarish va transformatsiyalariga moyil erkin loyihalarni, shuningdek kiyinishdagi individuallikning yevropacha an’analariga xos xususiyatlarini birlashtirgan yapon dizaynerlariga ham taaluqlidir. Yaponiyaning boy merosi ko‘p asrlar davomida yapon madaniyati an’anasini saqlash va ta’minlashga qaratilgan madaniy taraqqiyot muhim tajribadir. O‘tmish zamonaviy hayot bilan doim hamnafas bo‘lgan, u hozir ham mavjud va zamon bilan doimo muloqotda.

Yapon dizaynerlari zamonaviy kiyim yaratganda an’anadagi kiyimning konkret shaklini o‘zlashtirmasdan, kostyum yaratishning umumiy tamoyillariga, kompozitsion usullari, badiiy ijodiy an’analariga taqlid etishadi. Dastavval ular qulay, oddiy, universal bo‘lgan sharq kiyimi bichimini asos qilib olishdi. Erkin bichim – sharq kiyimining muhim xossasi: u tanani deformatsiyalamasdan, tana va kiyim orasida ma’lum oraliq hosil qiladi. Yapon kiyimi asosida oddiy geometrik shakllar – to‘g‘riburchak va trapetsiya namoyon bo‘ladi. Yapon dizaynerlari ko‘pincha shu tamoyilni qo‘llashadi.

Materialga bo‘lgan an’anaviy munosabat sharq dizaynerlarini boshqalardan farqlovchi xususiyatdir: ular ko‘pincha yangi material yaratishda novator bo‘lganlar. Matolarda kompozision markazning yo‘qligi va nosimmetriklilik yapon san’atining antiqa xususiyatidir – guldon qutichalarining, pardalarning “oqib ketayotgan” naqshini yapon dizaynerlari zamonaviy kiyimda o‘zlashtiradi (masalan, Kenzoning mashhur galstuklaridagi naqsh ko‘ylakka mayin “oqib o‘tgan”, bu o‘rinda yana X.Morining naqsh solingan ko‘ylaklarini ham keltirish mumkin). Yapon dizaynerlari nosimmetrik konstruksiyani taklif qilib, kostyum dizaynida dekonstruksiya yo‘nalishiga asos solishdi.

Sharq malakatlari an’anaviy liboslaridagi oddiy bichim, kiyimda ko‘p qavatlilik, tana atrofida o‘ralgan kiyimlar zamonaviy modellarda aks etilmoqda. Bunday modellar harakat uchun qulaylik, erkinlik va komfort yaratadi. XXI asr madaniyatida Yevropa va Amerika, Osiyo va Afrika madaniy an’analari ajralmas birlikni hosil qiladi va yer yuzida yashayotgan barcha xalqlar madaniyatini qorishtirib tashlaydi.

Xalq kostyumi – dizayner va rassomlar uchun eng boy ijodiy manbadir. Turli millatlarning kostyumlari bir-biridan o‘ziga xos bichimlari, kompozitsion plastik yechimi, matoning fakturasi va ranglari, bezak turlari (naqshning motivlari va bajarish texnikasi), shuningdek, kostyumning tarkibi va uning turli qismlarini kiyish usullari bilan farqlanadi.

Xalq kostyumi – asrlar davomida to‘plangan xalqning bebaho madaniy merosidir. Ko‘p asrlik rivojlanish yo‘lini bosib o‘tgan kiyim tarix va yaratuvchilarning estetik didi va qarashlari bilan chambarchas bog‘liq. Zamonaviy kostyum san’ati xalqona, milliy an’analarsiz rivojlanishi mumkin emas. Boy an’analarni chuqur o‘rganmasdan, zamonaviy san’atning har qanday tur va janri taraqqiy ettishi mumkin emas.

O‘zbek xalq kostyumi nafaqat yorqin, o‘ziga xos madaniyat namunasi, balki XX asr o‘rtalariga qadar qadimda o‘zbek liboslariga xos bichim, naqsh, matolar va bezaklarini yetkazgan har xil dekorativ ijod turlarining uyg‘unligidir. O‘zbek

kostyumining tarkibi, bichimi, bezak usullarini shakllanishiga geografik muhit va iqlim sharoitlari, iqtisodiy tuzilma va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi ta’sir ko‘rsatdi. Kiyimlarning yangi bichim va o‘ziga xos alohida shakllarini yaratilishiga ta’sir etgan tarixiy va ijtimoiy jarayonlar, mahalliy madaniy an’analarning o‘rni muhim ahamiyatga ega edi. Ko‘p hududlarda milliy liboslar bayram liboslari sifatida saqlanib qolgan va zamonaviy moda dizaynerlari tomonidan o‘zlashtirilib, xalq ashula va raqs ansambllari ijodida yashamoqda.

An’anaviy xalq kostyumi xalqimizning madaniy merosida alohida o‘rin egallagan noyob moddiy va ma’naviy madaniyat yodgorligidir. Yorqin axborot manbai sifatida, u insonlarning yashash hududi, qo‘shnilar bilan aloqalari, oilaviy va ijtimoiy mavqei, iqtisodiy faoliyati haqida ma’lumot beradi. Xalq san’atidagi an’analarning muommolari dolzarbligi bilan har doim tadqiqotchi va ijodkorlarni jalb qilgan. XXI asr zamonaviy kostyumi loyihalashga ham kuchli ta’sir ko‘rsatadigan bu masala hozirgi dizaynerlar va tikuvchilik sanoati mutaxassislarida ham qiziqish uyg‘otadi. Oila va xalq an’analarini xalq kiyimi shakllari, amaliy bezak san’at turlaridan – kashtachilikning an’anaviy turlari, to‘quvchilik, zargarlik san’atini qayta tiklash orqali ko‘tarish; ularning unsurlarini zamonaviy kiyimlarda ishlatish; liboslar namoyishlar, an’anaviy yarmarkalar, ko‘rgazmalar, bayramlar o‘tkazish; o‘quv yurtlarida yoshlarning ilmiy-ijodiy ishlariga jalb qilish zarur.

Xalq ijodiga asoslangan asarlar yaratishdan oldin, rassom dastlab manbani sinchkovlik bilan o‘rganadi va dastlabki tadqiqotlarni olib boradi. Muzeylar kolleksiyalarida saqlanayotgan o‘zbek milliy kostyum to‘plamlari mutaxassislar uchun ajoyib xalq san’ati namunalari bo‘lib, o‘zbek ustalarining naqadar ijodiy g‘oyalarga boyligi, ularning chiroyli badiiy didi, ixtirochiligi va yuksak mahoratidan dalolat beradilar. Ehtimol, dunyodagi hech bir mamlakat O‘zbekiston kabi milliy amaliy san’at sohasidagi bunday boy an’analarga ega emas. Bular – shakl va badiiy siymolar boyligi, konstruktiv-kompozitsion yechimlarining noyobligi, kostyum va unsurlarining go‘zalligi, bezaklarning, ayniqsa kashtalarning o‘ziga xosligi va takrorlanmasligi.

Bugungi kunda milliy kostyumning kompozitsion tuzilishi tamoyillari – shakl aniqligi, konstruksiya mantiqiyligi, bezakni shaklga, vazifasiga, materialga, konstruksiyasiga bo‘ysinishi – mutaxassislar uchun zamonaviy modellarni yaratishning dizaynerlik yondashuviga misoldir. Turli davrlardagi tarixiy liboslarni tadqiq qilish jarayonida o‘zbek milliy liboslarining quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- ko‘pqatlamlilik (ichki kiyim, ustki kiyim) – iqlim sharoiti, turmush tarzi, mentalitet bilan bog‘liq;
- qadimgi davrlardan yelka va bel kiyimlarining mavjudligi;
- tunikasimon bichim – materiallar tejamkorligi, insonning jinsi, yoshi va qomat tuzilishi bo‘yicha universalligi;
- ekologik dizayn – tabiiy matolar va bo‘yoqlar;
- libos kompozitsiyasining yaxlitligi – dizayn, bezak, taqinchoqlar, poyabzal va aksesuarlar;
- o‘ziga xos kiyilish usuli (yelkaga tashlab, boshga tashlab, bir yengga kiyib).

116-rasm. O‘zbek milliy kostumi elementlarini uslublash

Bugungi kunda O‘zbekistonda milliy kostyum unsurlari qo‘llab yaratilgan liboslarni ommalashtirish va targ‘ib etish bo‘yicha keng ko‘lamda ishlar olib borilmoqda. Bunga moda jurnallarida nashrlar, O‘zbekistonda va chet elda moda festivallari va namoyishlarni o‘tkazilishi yordam beradi. Qadimgi sharqona libos madaniyati nafaqat o‘zbekona milliy meros va an’analarni anglatib, balki bugungi kunda xalqaro moda darajasiga ko‘tarilganligi va “o‘zbek brendi” tushunchasi yaratiganligi yanada yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. K.Dior, Gucci, Kenzo, Oskar de la Renta kabi moda olamining eng yirik mashhur brendlari va moda uylarining o‘zbek milliy unsurlaridan foydalanib yaratilgan zamonaviy liboslar to‘plamlari O‘zbekiston madaniyati va uning estetik merosi bilan bog‘liq. O‘zbek milliy kostyumi folklor ansambllarining sahna liboslari sifatida keng qo‘llanilmoqda. O‘zbek xalq kostyumi suvenirlar va sayyohlar uchun mahsulotlarda ishlatiladi. Chet ellik sayyohlar qiziqish bilan o‘zbek matolarini (atlas, adras, shoyi), taqinchoqlarini va do‘ppilarni sotib oladilar.

Shunday qilib, milliy kostyum – bu dizaynerlar ijodiy faolyatining alohida o‘ziga xos obyekti hisoblanadi. Har qanday boshqa san’at singari etnik uslubda kostyum yaratish san’ati ham ijodkordan mahorat, bilim, kreativ yondoshuv, did va muayyan ko‘nikmalarni talab qiladi. Milliy kostyumning modaga bo‘lgan ta’siri yildan-yilga oshib, u butun dunyo podiumlarda namoyish etilmoqda. O‘zbek an’anaviy liboslarida elning joni va go‘zallik haqidagi tasavvurlari o‘z aksini topgan. Ishlatiladigan unsurlar yanada uslublashgan bo‘lsa ham, ular bu bilan jozibadorligini yo‘qotmaydi. Chunki xalq amaliy san’atida abadiy, hammaga mos va kerakli ijod mahsulotini yaratishga yordam beradigan chinakam tabiat va insonning birligi yashiringan.

AMALIY TOPSHIRIQLAR

1. Tekislikda kompozitsiya boyicha topshiriq

1-vazifa. Obyektni (nuqta, kvadrat) varaq markazida joylashtirish





2-vazifa. Obyektni (teng tomonli uchburchak, aylana) varaq markazida joylashtirish





3-vazifa. Uch obyektni (teng tomonli uchburchak, aylana va kvadrat) varaq markazida joylashtirish



4-vazifa. Chiziq va tekislik o‘rtasidagi muvozanat

a) Qora va kulrang qog‘ozdan bir xil o‘lchamdagi bo‘laklarni kesib oling. Oq (qora) rangli qog‘ozga qora (oq) rangdagi bo‘laklarni qora dog‘lar oqlarini muvozanatlagan holda guruhlab joylashtiring. Qora, oq va kulrangli dog‘larni tekislik bilan muvozanatga keltiring.



Kulrangli bo‘laklar muvozanatini saqlagan holda guruhlab joylashtiring







b) Turli o‘lchamdagi kvadrat va to‘rtburchaklar muvozanatli birikmasini hosil qilish maqsadida oq tekislikda qora rang bilan to‘g‘ri chiziqlarni belgilang.

Birinchi rasmda noto‘g‘ri misol bajarilgan. Kompozitsiya ko‘zni qamashtiradigan kichik farqli proporsiyalar asosida tuzilgan. Proporsiyalari tengmi yoki yo‘qligi aniq bilinmayapti.

Ikkinchi rasmda muvozanatlangan kompozitsiya bajarilgan. Har bir unsur o‘z joyida, vertikal chiziq turg‘un. Pastki oq dog‘ kompozitsiya asosi bo‘lib, yuqoridagi chiziqlar bilan muvozanatda.





2. Kompozitsion shakllantirish boyicha topshiriq

1-vazifa. Shaklni ikki unsurga bo‘lish

a) Shakl ikki bir xil qismga bo‘linganda o‘z yaxlitligini yoqotadi, chunki ikki teng huquqli unsur hosil bo‘ladi.



b) Ikki qismga bo‘lish shakl dinamikligini kuchaytiradi. Lekin dinamiklik ikki qarama qarshi taraflarga yonaltirilganligi sababli shakl ikki qismga ajralib ketyapti



v) Shaklni ikki teng bo‘lmagan qismga bo‘lish. Agar qismlar nyuans nisbatida bo‘linsa, kichik qism kattasiga bo‘ysinadi. Shakl ikki kontrast qismga bo‘linsa, umumiy shakl yana yaxlit bo‘lib ko‘rinadi va dinamika katta qism tomon yonaltiriladi

2-vazifa. Shaklni uch unsurga bo‘lish

a) Shakl ikki bir xil qismga bo‘linganda o‘z yaxlitligini yo‘qotadi, chunki ukki teng huquqli unsur hosil bo‘ladi. Uchala qism nyuans nisbatida bo‘linsa, kichik unsurdan kattasiga yonaltirilgan xarakat hisobiga, umumiy shakl ichida dinamika hosil bo‘ladi. Kontrast nisbatida bo‘lingan qismlar asosiy kattaroq qismni kuchaytiradi va yaxlitlikni ta’minlaydi.



b) Shaklda ikkinchi darajali unsurlardan ikkitasi bir biriga yaqin nyuansda yoki o‘xshash bo‘lsa, asosiy unsurni ifodaliligini kamaytiradi va umumiy shakl yaxlitligi buziladi.

3-vazifa. Kompozitsuiya muvozanati.

a) aylanani kvadrat ichiga shakl va fon muvozanatini saqlagan holda joylashtiring – to‘q fonda och shakl, och fonda to‘q shakl;

b) fon va shakl muvozanatini buzgan holda aylanani kattalashtiring (shakl fondan chiqib ketyapti);

c) fon va shakl muvozanatini buzgan holda aylanani kichiklashtiring (shakl fonda ko‘rinmayapti).



4-vazifa. Shaklni statik va dinamik unsurlarga bo‘lish

a) uchta oddiy geometrik shaklni tanlang – uchburchak, aylana, ko‘pburchaklik;

b) har bir shakl yaxlitligini saqlaqan holda statik bo‘laklarga ajrating;

c) shaklni turli dinamik holatlarga asoslanib (aylantirish, cho‘zish, siqish, burilish va b.) dinamik bo‘laklarga ajrating.



3. Kostyum proporsiyalari boyicha topshiriq

1-vazifa. Inson qomati proporsiyalarini o‘rganish va chizish

a) ayollar qomatini chizish



1
1 1/3
Yelka chizig'i
2
Ko'krak chizig'i
3
Bel / Tirsak chizig'i
Bo'ksa chizig'i
4
Blak / Chot chizig'
5
6
Tizza balandligi
7
8
To'piq chizig'i
9
Oyoqlar uchi


1
1 1/3
Yelka chizig'i
2
Ko'krak chizig'i
3
Bel / Tirsak chizig'i
Bo'ksa chizig'i
4
Blak / Chot chizig'
5
6
Tizza balandligi
7
8
To'piq chizig'i
9
Oyoqlar uchi


1
1 1/3
Yelka chizig'i
2
Ko'krak chizig'i
3
Bel / Tirsak chizig'i
Bo'ksa chizig'i
4
Blak / Chot chizig'
5
6
Tizza balandligi
7
8
To'piq chizig'i
9
Oyoqlar uchi

b) erkaklar qomatini chizish



v) bolalar qomatini chizish



g) modellar texnik rasmi uchun shablonlar



Ayollar shimi texnik rasmi uchun shablon



2-vazifa. Ayollar ko‘ylagi va yubkasini texnik rasmini chizing









“Kompozitsiya asoslari” fani bo‘yicha qisqacha izohli lug‘at

Ansambl tizimi berk kiyimlar to’plami.

Antimoda ramziy modaga qarama-qarshi moda.

Avangard modaning oldi, o‘ta udumda, modada bo‘lgan libos, kiyim nomi.

Ajur to‘qilgan, nozik, nafis to‘rsimon mato.
2. nozik,mohirona astoydil berilib bajarilgan ish.

Aksessuarlar liboslarga mukammal ko‘rinish beruvchi predmetlar aksessuarlar qatoriga kiradi: ya’ni sharf, ro‘mol, bosh kiyim, kulkop,sumka, bo‘yinbog‘, hamyonlar. savdo rastalarida ular galanteriya mahsulotlari deb nomlanadi.

Antropometriya inson tanasini va uning ayrim qismlarini o‘lchash, shuningdek, inson tanasini butunlay yoki qisman turg‘un holatda ifodalash uchun qo‘llaniladigan antropologik izlanish usuli.

Applikatsiya 1. ornament yaratish usuli. U kashta, (mato, trikotaj, qog‘oz va h.k.) asosga, boshqa rangdagi bo‘lakcha material, mato, tasma, yung, teri, qog‘oz va boshqalarni yopishtirish orqali amalga oshiriladi.
2. applikatsiya – bezash san’atining qadimgi usullaridan bo‘lib, undan hozirgi vaqtda ham ko‘pgina xalqlarda ishlatib kelinmoqda.

Arxitektonika (yunonchadan olinganda – qurilish san’ati ma’nosini beradi) – umumiy ko‘rinishda, o‘ziga xos konstruktiv tizimda og‘irlikka va tayanchga nisbatan, qonuniylik qurilishida badiiy ifodalikning birligi. Tor ma’noda arxitektonika – shakllar birligi, konstruksiya va material.

Asimmetriya hajm fazoviy unsurlarning simmetrik bo‘lmagan holdagi joylashuvi va o‘zaro tarkibi.

Assortiment to‘plam yoki ro‘yxat,tovar turlari, xomashyo, nav. ishlab chiqarilgan va savdo assortimenti deb farqlanadi.

Axromatik rangsiz, hatto bo‘yoqsiz, oqish, och kulrang qoracha bo‘lishi mumkin.

Badiiy asar muayyan o‘zaro bog‘lanishda bo‘lgan bir turli unsurlarni murakkab tizimi.

Badiiy uslub davrning badiiy tili.

Bazaviy shakl ijtimoiy va moddiy turmushning g‘oyaviy-siymoviy tamoyili

	va odamga ta’sir etadigan shakl
Bionika	(yunonchadan bion – unsur, hayot yacheykasi) – hayot uchun zarur xizmatlar xususiyatini qurishdagi yangi tizimlarni tashkil etish uchun (priborlar, mexanizmlar) va mavjudini takomillashtirishni o‘rganadi.
Biser	mayda har xil shakldagi shaffof yoki rangdor shishadan yasalgan marjon (munchoq), ip o‘tkazadigan teshikchaga ega. kiyim hamda bosh kiyimlarni bezash uchun ishlatiladi. qadimgi Misrda biser ipdan marjonlar shodasi tayyorlanib kiyimlarga taqilgan. X asrda Vizantiyada biser ishlab chiqarish siri o‘zlashtirilgach, u boshqa mamlakatlarga tarqalgan.
Bezak	1. kiyimga va insonga, chiroyli turdagi ko‘rinish berish. 2. kiyimni bezatadigan yoki unga qo‘shimcha sifatidagi narsa.
Bijuteriya	qimmatbaho (to‘nog‘ich, kulon – zanjir), klipsi, marjon, taqinchoqlarga taqlid qilib yasalgan ayollar bezagi. Bunday taqinchoqlar qimmat bo‘lmagan tosh va metallar; shisha, plastmassalardan tayyorlanadi. Kiyimlarga qo‘shimcha vazifasini o‘tovchi dekorativ-estetika beruvchi bezak.
Brend	kompaniya, mahsulot haqida axborotlar majmuasi ramzi yoki ishlab chiqaruvchi, tovarning mashhur, oson taniladigan, huquqiy jihatdan himoya qilingan ramzi hisoblanadi.
Buyum	1. ishlab chiqarish mahsuloti. 2. narsa, tovar-mol. to‘qimachilik mahsuloti – to‘qimachilikda chiqarilgan tola, ip yoki matolar, trikotaj, nomato va eshilgan mahsulotlar, tekstil galanteriyalari, issiqlikni saqlovchi tolali materiallar, trikotaj va asosi yelimlangan tukli mahsulotlar, gilam mahsulotlari va boshqalar kiradi. tikuv mahsulotlari - tikuv jarayoni natijasi (ko‘ylak, palto, plash, shim, nimcha, yubka va hokazolar) da vujudga kelgan mahsulotlardir.
Garderob	insonning hayotida hamma zarur vaziyatlariga mo‘ljallangan, biror-bir belgilari bo‘yicha mujassamlashgan aksessuarlar, poyafzal va kiyimlar majmui.
Garmoniya (uyg‘unlik, o‘zaro moslik)	(qadimgi grekchadan *garmonia*) – qismlarni bir-biriga to‘g‘riligi, mosligi

Gaz	flyorning xuddi o‘zi, glaffof, yengil ipak yoki tovlangan paxta ipidan to‘qilgan katta guruh mato nomi. Undan ro‘mol, sharf, ko‘ylak, peshonabog‘, shlyapa otdelkasiga ishlatiladi.
Gipyur	1. aniq gullarga ega to‘rli kashta turlaridan. 2. tikish mashinalarida tayyorlanadigan og‘ir to‘r polotno. ayollar bluzka va ko‘ylagi, shuningdek, yoqa, manishek, manjet, qo‘yilmalarni tayyorlash uchun qo‘llaniladi.
Dekompozitsiya	murakkab vazifani qismlarga ajratish va ketma-ket ularni yechish.
Dekonstruksiya	buyum shaklining erkin manipulyasiya qilinishi.
Did	insonning estetik qarashi.
Dizayn	sanoat san’ati, buyum muhitini loyihalash faoliyati.
Dizayner	sanoat buyumlariga estetik xususiyatlarni baxsh etadigan mutaxassis.
Dizayn-loyiha	buyumni loyihalashdan va loyihani boshqarishdan tashqari uni ijtimoiy-madaniy masshtabligi va murakkabligi, ularni sotish muddatini uzoqlashi, xarajat sarf etilishi nazarda tutiladi.
Do‘ppi	turk tilidan baland, balandlik ma’nosini bildiradi. Bu sharq xalqining milliy bosh kiyimi bo‘lib, olti qirrali yoki kvadrat shaklida bo‘lib, shoyi matodan tikilgan nakshlari bilan bo‘ladi. O‘rta Osiyo xalqlarida keng tarqalgan bo‘lib, uni ayollar, erkaklar, bolalar yoshlar va qariyalar kiyadilar.
Faktura	shakl yuzasining tashqi tuzilishini xarakterlovchi va material xususiyatlari hamda unga ishlov berish usullari bilan belgilanovchi xususiyat.
Ijod	voqelikni qayta tushinish va o‘zgartirish, buyumga estetik xususiyatlarni baxsh etish.
Kollaj	tasviriy san’atdagi texnik usul; biror bir asos materialga rang va sifati bilan farqlanuvchi materialni yopishtirib asar yaratish, shuningdek shu usulda yaratilgan san’at asari ham kollaj deb ataladi. reklamada ham qo‘llaniladi.
Kolleksiya	ilmiy, tarixiy yoki badiiy qiziqishni ifodalaydigan, o‘xshash buyumlar tizimiga solingan to’plam.
Komplekt	aynan garnitur, to‘liq to‘plam. kiyimda to‘plam deganda unsurlar va kostyum qismlarini ma’lum belgisiga ko‘ra birlashtirilgani tushuniladi, bunda maqsad-yo‘nalishi, rang, material kabi belgilar e’tiborga olinadi.

Kombinatorika	bu topilgan turli birikishlarning (kombinatsiyalar), birga qo‘shilishlarning, muayyan tartibda ushbu unsurlarni joylashtirilishi usullari.
Kompozitsiya	(lotinchadan «compositio»- tuzish, bog‘liqlik ma’nosini beradi) – asarning badiiy mazmunini ochib beradigan vosita; shakl qismlarining garmonik o‘zaro nisbati; asarni yaratish va loyihalash jarayoni.
Konstruksiya	bichilgan kiyimlar konstruksiyasi ma’lum konfiguratsiya va o‘lchamdagi detallarni tashkil topgan berilgan tartibda birlashtirilgan tuzilishni o‘zida ifodalaydi.
Kontrast	shakllarning, plastikaning o‘lchami, rang, fakturaning keskin farqi.
Kontur	kostyum yoki figuraning model formasini aniq chizib beruvchi chiziqlar – yo‘llar, abris.
Kostyum	1. kiyim poyabzal, aksessuar va boshqa predmet va unsurlarning ma’lum tizimi bo‘lib, insonning ijtimoiy va milliyligi, uning jinsi, yoshi, mashg‘uloti, mutaxassisligi va h.k. o‘zida aks ettiradi. xalq kostyumlari ma’noli, ta’sirli. ular o‘ziga xos, ananaviy xususiyatga ega bo‘lib, material tanlash, bichiq, naqshlar bezagi, ranglar aralashmasi hamda bezak materiallari bilan farqlanadi. 2. hozirgi zamonda rasmiy-kundalik ish kiyimi sifatida pidjak (jaket-nimcha) va shim (yubka) ommalashgan.
Kupon	kiymoq, bluzka, yupka va h.k.lar uchun xammasi qirqish mato, u alohida joylashgan rasm-bezakka ega bo‘lib, ma’lum bichimda rasm yaxlitligi saqlangan holda fasonga mo‘ljallangan.
Libos	ishlov berilgan buyum yoki uning majmui sanalib, o‘z ichiga manfaatdorlik hamda estetik funksiyalarni qamrab oladi va bevosita inson tomonidan kiyiladi.
Libos assortimenti	muayyan belgilarga ega holda, mustaqil guruhlarga birlashgan libosdir. Birlashish belgilariga quyidagilarni kiritish mumkin: materiallar, belgilangan maqsad va h.k.
Maket	taxminiy namuna kichraygan ko‘rinishda, predmetning shartli hajmdor tasviri; u shakl, proporsiya, vazifaga oid tasavvur hosil qilish imkon beradi.
Maneken	1. papye-mashe, daraxt, plastmassadan odam gavdasi

	shaklidagi figura, uning sirti tekis kontroli, matoga o‘rama bo‘ladi. (otelye-magazin) kiyimlarni ko‘rsatish yoki mahsulotlar balansining to‘g‘riligini tekshirish, o‘lchashga xizmat qiladi 2. yog‘och qo‘g‘irchoq harakatchan qo‘l va oyoqli, rassomlar tomonidan odam ko‘rinishini kiyimda ko‘rsatishda qo‘llaniladi.
Modelyer	modellar, mahsulotlarning namunaviy ko‘rinishi (masalan, kiyimlar, poyabzallar va h.k.) ishlab chiqarish bo‘yicha mutaxassis.
Modul	bu o‘lcham birligi. Dizaynda modul – bu katta-kichiklik, qandaydir predmetning, mashinaning yoki inshootning, yana shuningdek detallar, tugunlar va unsurlar hajmlar hisobidan kelib chiqib qabul qilish, qaysiki har doim tanlangan modulga nisbatan qisqa.
Mutanosiblik	moslik, predmetlarning alohida qismlarini o‘zaro nisbatini aniqlovchi va o‘rtasida, o‘zaro uyg‘unlikni namoyon bo‘lishi.
Nyuans	(fransuzchadan. nuance – rang turi, sezilar-sezilmas o‘tish) – o‘xshaydigan unsurlar xarakteristikasining bilinar-bilinmas farqi.
Op-art	(inglizchadan. Op-art – qisqartirilgan varianti Optical art – optik san’at) – turli ko‘rishga oid illyuziyalarda foydalaniladigan, tekis va fazoviy shakllar xususiyatida barpo etilgan, XX asrning ikkinchi yarmidagi badiiy oqim.
Popop	kashta bilan gul tikish. matoga rasm chizib , igna yoki ilmoq orqali bir tomonga yo‘naltirib , bir – biriga ilib zanjir sifatida bajariladi.
Ritm	muayan ketma-ket, tez-tez takrorlanib turadigan, qandaydir unsurlarning almashinuvi.
Ritmik qator (statik va metrli ritm)	bu ritmning oddiy paydo bo‘lishi kompozitsiyada bir xil shakllarni ular orasidagi intervallarning tengligi qaytarilishi. Dinamik ritmik qator – bu ritmning unsurlar o‘lchamini aniq matematik qonuniylikdagi va ular orasidagi intervallarning o‘zgarishi, murakkab paydo bo‘lishi.
Qisish	qarama-qarshi cho‘zilish, operatsiya. Qisish ko‘lami qisish tekisligiga nisbatan oralig‘iga mutanosib bajariladi.

Siljish	shaklni qayta o‘zgartirish, lekin shunda ham siljishning harakatlanmaydigan tekisligi qoladi. Uning boshqa parallel tekisligi siljish yo‘nalishiga o‘zi tomonga joylashtiriladi. Plastikaning zaruriy hajmi saqlanadi. Siljish ko‘lami, kattaligi siljish tekisligi oralig‘idan mutanosib. Siljishning topshiriq o‘qi uchun yo‘nalishi va siljish ko‘lamini ko‘rsatib berish kerak, ya’ni o‘q yo‘nalishi oralig‘idagi burchak va joylashtirish tekisligining normalligi.
Simmetriya	shaklning o‘ng va chap qismidagi tengligi biron o‘qqa nisbatan bir xilda joylashuv holati.
Siqish	deformatsiya, shaklni o‘rgartirishda ilova qilish o‘rniga, shaklni o‘zgartirishga zo‘r berish. Plastika o‘zgaradi, og‘irligi saqlanadi.
Tektonika	konstruksiyada va materiallari ishini buyum shaklida badiiy ifoda etish.
Transformatsiya	(lotinchadan transformatio – o‘zgarish, o‘zgartirish) – dinamikaga tayangan holda, o‘zgarish harakatiga yoki uncha katta bo‘lmagan shaklning o‘zgarishi, shaklning o‘zgarish uslubi.
Tukli	ayrim gazlama, trikotaj va nomato polotno ustini qoplab turuvchi qisqa momiqli yakka tola.
Tekstura, tuzilish	mato bog‘lash tuzilish kattik jisimning tuzilishi, asosiy qismining tuzilish tartibi. Tekstura to‘qimachilik materiallarida tolalarning yigiruv iplarida joylashishi aylantirish bir-biriga o‘rash, yigirish va to‘qish, ishlov berish va boshqalarda xarakterlanadi.
Trikotaj	Trikotaj (fran. tricotage, tricoter – to‘qish) to‘qilgan mahsulot, qo‘l yordamida yoki maxsus uskunalar yordamida bir yoki necha turdagi iplarning to‘qilishi. Ipakka o‘xshagan gazlamadan tayyorlanadi. Polotno asosan pijama yoki ustki kiyimlar (ko‘ylak, bluzka, palto) tayyorlashda ishlatiladi. Donalab tayyorlashda – paypoq, mayka, sviter, kabi ust kiyimlarga ishlab beriladi
Uyg‘unlik	mutanosib, mos holat; mutanosiblik, hamohanglik.
Uyg‘unlashgan munosabat	Ranglarning bir biriga nisbatan eng yaxshi munosabatlarni tanlovi.
Vazn (massa)	shakl o‘lchamini (katta-kichikligini) assotsiativ qabul qilish, ko‘rinishdagi og‘irlik miqdori.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 25 январь.
2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil.
3. Bina Abling. Fashion Sketchbook. – New York, Fairchield Books, 2012.
4. Hywel Davies. Fashion Designers’ Sketchbooks. – United Kingdom, London, 2010.
5. Han Seong JI. Fashion Design. – South Korea, Giyo Hak Peachech, 2015.
6. Fashion Details 1000 Ideas from Neckline to Waistline, Pockets to Pleats. – Rockport Publishers. USA, 2011.
7. Zarida Zaman. New Fashion Designers’ Sketchbooks. – United Kingdom, London, 2011.
8. Ермилова В.В., Д.Ю.Ермилова. Композиция костюма. – М.: Издательство Юрайт, 2018.
9. Пармон Ф.М. Композиция костюма. Одежда, обувь, аксессуары. – М.: «Триада Плюс», 2002.
10. Matniyazov Z.E. Kompozisiya asoslari. – Toshkent: “Arxitektura qurilish integrasiya va innovasiya markazi”, 2014.
11. Ф.Атаханова. Либосда композиция ва ранг. – Т.: Info Capital Group, 2018.
12. Г.М.Гусейнов, Ермилова В.В. Композиция костюма. – М.: Академия 2003.
13. Л.А.Сафина, Л.М.Тухбатуллина, В.В.Хамматова и др. Проектирование костюма – М.: НИЦ ИНФРА-М, 2020.
14. Хасанбоева Г.К. Костюм дизайни. – Тошкент: ТТЕСИ, 2013.
15. Беляева О.А. Композиция. 2-е изд. Практическое пособие для вузов - М.:Издательство Юрайт, 2019.
16. Содиқова Н. Ўзбек миллий кийимлари: XIX-XX асрлар. – Тошкент: 2006.

17. Ермилова В.В., Ермилова Д.Ю. Моделирование и художественное оформление одежды. – М.: Академия, 2000.

18. Макавеева Н.С. Основы художественного проектирования костюма. Практикум. – М.: Академия, 2008.

19. Бердник Т.О., Неклюдова Т.П. Дизайн костюма. – Ростов н/Д: Феникс, 2000.

20. Бердник Т.О. Основы художественного проектирования костюма и эскизной графики. – Ростов н/Д: Феникс, 2001.

21. Саймон Треверс-Спенсер, З.Заман. Справочник дизайнера по формам и стилям одежды. – М.: Рипол классик, 2008.

22. Nozilov D.A. O‘rta Osiyo dizayni tarixidan. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 1998.

23. Xudayberganov R. Rangshunoslik asoslari. – Toshkent, 2006.

24. Hasanboeva G.K. To‘qimachilik dizayn tarixi. O’quv qo‘llanma. – T.: Iqtisodiyot - Moliya, 2007.

25. З.Боситхонов. Хандасий нақш (гирих) ларнинг ечимлари. – Тошкент, 2002.

26. В.Г.Инкижинова, С.В. Павлова. Композиция костюма: учебно – методическое пособие / ВСГТУ – Улан-Удэ, 2006.

Tavsiya etilgan Internet resurslar va web saytlar

www.fashionangel.com/angel

www.fashioncenter.com

www.fashionguide.com

www.fashionmall.com

www.fashion.net

www.fashionplanet.com

www.fgi.org

www.firstview.com

www.global-color.com

www.londonfashionweek.co.uk

www.modaitalia.com

www.modeaparis.com

www.promostly.com

www.thetrendreport.com

www.style.com

www.vogue.com

MUNDARIJA

Muqaddima **3**

1. KOMPOZITSIYA MOHIYATI VA KOMPOZITSIYA TURLARI **6**

1.1. Kompozitsiyaning mohiyati va ta'rifi 6

1.2. Kompozitsiya turlari 10

2. KOMPOZITSIYA KATEGORIYALARI **18**

2.1 Kostyum tektonikasi 18

2.2 Kompozitsion shakllantirish (kostyum fazoviy shaklining xususiyatlari) 24

3. KOMPOZITSIYA QONUNIYATLARI VA QOIDALARI **44**

3.1 Kompozitsiyaning yaxlitligi 44

3.2 Mutanosiblik 48

3.3 Teng huquqlilik va bo‘ysunish 51

4. KOMPOZITSIYA VOSITALARI **53**

4.1 Proporsiya va nisbatlar 53

4.2 Kompozitsiyada ritmik va metrik tuzilishlar 64

5. KOMPOZITSIYANI UYG‘UNLASHTIRISH USULLARI **74**

5.1 Kontrast, nyuans va o‘xshashlik 74

5.2 Kompozitsiya keng ko‘lamliligi 80

5.3 Simmetriya va assimetriya 84

5.4 Statika va dinamika 92

5.5 Kostyum kompozitsiyasida rangning o‘rni 98

5.5.1. Rang haqida umumiy ma'lumotlar 98

5.5.2. Kostyum ranglarining uyg‘un birikmalari 104

5.5.3. Kostyum ranglarini idrok qilishning o‘ziga xos xususiyatlari 112

5.6. Kostyum kompozitsiyasida faktura 118

5.7. Kostyum kompozitsiyasida bezaklar 128

6. KOSTYUM KOMPOZITSIYASIDA OPTIK ILLYUZIYALAR 133
6.1. Vizual idrokning o‘ziga xos xususiyatlari 133
6.2. Kiyimlarni modellashtirishda optik illyuziyalar 140
7. KOMPOZITSIYA IJODIY JARAYON SIFATIDA 147
7.1 Uslub va moda 147
7.1.1 Uslub tushunchasi va katta badiiy uslublar 147
7.1.2 Zamonaviy liboslarning uslubiy yechimlari 153
7.1.3 Moda tarkibi va funksiyalari 168
7.1.3 Modaning rivojlanish qonuniyatlari 176
7.2 Kompozitsiyani yaratishda ijodiy manbalar 182
Amaliy topshiriqlar 192
“Kompozitsiya asoslari” fani bo’yicha qisqacha izohli luq’at 210
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati 216